



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIYTA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

**UMUMIY PEDAGOGIKA** fanidan

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**



**Namangan**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**“UMUMIY PEDAGOGIKA” FANIDAN**  
**O‘QUV–USLUBIY MAJMUA**

**NAMANGAN.**

O‘quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi tomonidan 25.08. 2023 yildagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan va “Umumiy pedagogika” fanining o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

**K.R. Abdullayeva** NamDU. “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi. PhD

**M.N.Mahmudov** NamMQI. “Jismoniy madaniyat” kafedrasida dotsenti. PhD

**Taqrizchi:**

**O‘.M.Asqarova** – NamDU. Pedagogika fanlari doktori. Professor

Mazkur o‘quv uslubiy majmua “Pedagogika psixologiya” kafedrasining 2023 yil avgustdagi 1-sonli majlisida ko‘rib chiqilib, fakultet Ilmiy-uslubiy Kengashida ko‘rib chiqish uchun tavsiya qilindi.

**Kafedra mudiri:**



**D. Inamov**

Fanning o‘quv uslubiy majmuasi “Pedagogika Psixologiya” fakulteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2023 yil avgustdagi 1- sonli majlisida tasdiqlandi.

**Fakultet ilmiy-uslubiy**

**Kengashi raisi:**



**M.L. Boltayeva.**

Namagan Davlat Universitetining O‘quv-uslubiy Kengashining 2023 yil avgustdagi qarori bilan o‘quv-uslubiy majmua sifatida nashrga tavsiya etilgan.

**Kelishildi:**

**O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘:**



**X. Mirzaaxmedov.**

## MUNDARIJA

- 1-mavzu:** Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar
- 2-mavzu:** VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar
- 3-mavzu:** Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. Sharq uyg'onish davrida ta'limiy-ahloqiy fikrlar rivoji
- 4-mavzu:** Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. Sharq uyg'onish davrida ta'limiy-ahloqiy fikrlar rivoji
- 5-mavzu:** Hadis ilmi va uning tarbiyaviy ahamiyati. Abu Nasr Farobiyning pedagogik g'oyalari. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya haqida
- 6-mavzu:** XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnaxrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar
- 7-mavzu:** XVII-XIX asrning yarmigacha maktab, ta'lim, tarbiya va pedagogik fikrlar rivoji
- 8-mavzu:** XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar
- 9-mavzu:** 1924-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji
- 10-mavzu:** Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji
- 11-mavzu:** Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji
- 12-mavzu:** Eng qadimgi davrlardan XIX asrning 1-yarmida jaxon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Ya. A. Komenskiyning pedagogik nazariyasi
- 13-mavzu:** XIX asrning 2-yarmi- XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. K. D. Ushinskiyning pedagogik merosi
- 14-mavzu:** Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji
- 15-mavzu:** Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlari xalq ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji

# **1-mavzu: Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar**

## **Reja:**

- 1. Qadimgi xalq og'zaki ijodiyotida inson tarbiyasiga oid fikrlar**
- 2. "Avesto" eng qadimgi yozma ma'rifiy yodgorlik sifatida**
- 3. Qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida tarbiyaga doir fikrlar**

Xozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanish, ancha takomillashgan mehnat qurollarini yasash, urug'chilik davriga kelib, xo'jalik xayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarni o'z ichiga olgan davrgacha bo'lgan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimiy madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya xamda Parkana kabi davlatlarida turli qabila va elatlar yashagan. Ular saklar, massagetlar, so'g'diyonalar, xorazmiylar, boxtarlar, chochliklar, parkanaliklar kabi qabila va urug'lardan iborat bo'lib, hozirgi Markaziy Osiyo xududida yashovchi xalqlarning ajdodlari xisoblanadilar.

Ushbu elatlar yashagan xududlarda o'ziga xos madaniy an'analar tarkib topa borgan. Masalan, eramizdan oldingi asrning birinchi yarmida qadimiy davlatlar: Baqtriya va So'g'diyona, Marg'iyona, Xorazm, Parkana, Parfiya kabi o'lkalarda xalq xo'jaligining turli soxalarida rivojlanish va taraqqiyot ro'y bergan. Eramizdan oldingi IX-VI asrlarda paydo bo'lgan Axmoniylar, eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida tashkil topgan Grek-Baqtriya, eramizning I asrida tashkil topgan Kushonlar, eramizning V asrda yuzaga kelgan Eftalitlar, so'ngra Sosoniylar va nixoyat Turk xoqonligi davlatlarida ijtimoiy madaniyat yuksala bordi.

Ajdolarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan qadimiy madaniyati tarkibidan ta'lim-tarbiyaga oid merosi xam aloxida o'rin olgan. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha yetib kelgan muxim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyandalarining ijodiy merosi, san'at va adabiy asarlarning namunalari buning dalilidir.

Bunday muxim manbalar sirasiga yunon olimlari Gerodot, Suqrot, Plutarx, Polienlarning tarixiy, geografik xamda axloqiy asarlari, allomalarimiz Abu Rayxon Beruniy, Maxmud qoshg'ariy, faylasuf, sharqshunos va tarixchi olimlar: ye.E.Bertels, S.P.Tolstov, V.V.Braginskiy, I.M.Mo'minov, B./afurov, I.V.Stebleva, A.O.Makovelskiy, Y. Jumaboev, M.Isxoqov, adabiyotshunoslar A.qayumov, N. Mallaev, N.Raxmonov, pedagog-olimlar O'.Aleuov, M.Orifiy va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kiradi.

Eng qadimgi tarbiya xaqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning xayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lishning namunasi tarzida e'tirof etilgan ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" xamda Maxmud qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" kabi asarlari, shuningdek, Urxun-yenisey bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha yetib kelgan. Ushbu yodgorliklar moxiyatini o'rganish insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy

jixatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo'lsa, insonning shakllana borishi xam o'z navbatida kishilik jamiyatining qaror topa borishiga yordam bergan. Xullas, tafakkur yurita olish qobiliyatiga ega bo'lgan inson kamolotining ta'minlanish jarayoni xamda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti o'zaro uzviy aloqada shakllangan. Mazkur tarixiy jarayon moxiyatini bilish bizga inson tafakkurining juda uzoq davr va murakkab sharoitlarda shakllana borganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, kishilik jamiyatining vujudga kelishi jarayonida inson xam biologik jixatdan, xam ijtimoiy jixatdan takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi xolatlar inson ongining xam shakllanib borishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon minglab yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, ana shu davrda inson ongi shakllanishining asosi sifatida qabul qilingan xulq-odob qoidalari, ijtimoiy talablar yuzaga kelgan. Ushbu talablar muayyan davrda yaratilgan yodgorliklarining asosiy mazmuni va moxiyatini tashkil etadi.

Eng qadimgi kishilarga xos bo'lgan xislatlar, ularning dastlabki, oddiy istaklari, orzu-umidlari qadimgi eposlarda aks etgan afsonaviy obrazlar xamda qaxramonlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Ruxga sig'inish (onimizm), ajdodlar ruxiga sig'inish (totemizm), sexrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlar yoritilgan afsona va rivoyatlarda eng qadimiy ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo bu rivoyat va afsonalar xam massaget, sak, xorazmiy, so'g'd xamda parfiyanlar yashagan davrlar ruxini ifoda etadi, xolos.

Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda quyidagi uch guruxga ajratilgan manbalarga tayanamiz:

1. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko'rgazmali ashyolar.
2. Xalq og'zaki ijodi materiallari xamda yozma manbalar.
3. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.

Ma'lumki, ibtidoiy kishilar mexnat faoliyati jarayonida o'z extiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodda xam mexnat qilish, amaliy faoliyatni yo'lga qo'ya olish borasidagi nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni xosil qilishga zamin xozirlagan. Mexnat faoliyatini tashkil etish jarayoni dastlabki paytlarda butun ijtimoiy xayotni yo'lga qo'yish negizida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik tarbiya inson faoliyati asosiy jixati, ijtimoiy ongni shakllantirishning muxim omiliga aylandi. Dastlabki urug'chilik jamiyatidan oldin xam inson yashash uchun kurashgan, mazkur davrda urug'ning áarcha a'zolari jamoa bo'lib xarakat qilganlar. Keyinroq kishilar mexnat faoliyatini jamoa a'zolarining yosh jixatlariga ko'ra quyidagi uch gurux asosida tashkil etganlar.

- a) bolalar va o'smirlar;
- v) ijtimoiy xayot va mexnatda to'la ishtirok etuvchilar;
- s) keksalar.

Ibtidoiy jamiyatda bola o'zi uddalay oladigan faoliyatning tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, xayot kechirish va mexnat qilish ko'nikmalarini o'zlashtirgan. Bu xolat og'ir sharoitda kechgan. o'g'il bolalar erkaklar bilan ov qilish, qurol yasash kabi yumushlarni bajarsalar, qizlar ayollar tomonidan bajariladigan mexnat sirlarini o'zlashtirar edilar. Xech qaerda yozilmagan odat va an'analarga ko'ra, yosh bolalar keksalar nazorati ostida ma'lum tajribalarga ega bo'lardilar. Bola ma'lum tayyorgarliklardan so'ng maxsus sinovlardan o'tib, amaliy faoliyatda faol ishtirok eta olish xuquqini qo'lga kiritar edi. Ushbu an'ana, ya'ni, bolalarni ma'lum yoshgacha enaga yoki murabbiyga topshirish yaqin davrlargacha saqlanib qolgan, xatto xozirgi kunda xam ko'zga tashlanadi.

Urug'chilik jamoasi bosqichida esa bolalar mehnatining ko'lami kengayib, kasb-xunar faoliyatining turlari ko'payib boradi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga xam o'rgata boshlaydilar. Asta-sekin xarbiy tarbiyaning boshlang'ich ko'rinishlari yuzaga kela boshlaydi. Bolalarga xarbiy san'at sirlarini o'rgatish ancha murakkab ish bo'lib, ushbu tarbiyani tashkil etish maxsus bilim xamda tayyorgarlikka ega bo'lishni taqozo etar edi. Shu bois maxsus xarbiy bilim va tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar bolalarga bu boradagi bilimlarni berish jarayoniga jalb etila boshladilar.

Jamiyatning ijtimoiy jixatdan taraqqiy eta borishi bolalarga dalalarni o'lchash, suv toshqinlarining oldini olish, kishilarni turli kasalliklardan davolash usullariga oid bilimlarni berishga bo'lgan extiyojni yuzaga keltirdi. Mazkur extiyojni qondirish yo'lidagi xarakatning tashkil etilishi natijasida turli maktablar faoliyat yurita boshladi. Maktablarda asosiy e'tibor bolalarga ogzaki bilimlar berish bilan birga ularda yozuv ko'nikmalarining shakllantirilishiga qaratildi. Dastlab suratkashlik rivojlanib, piktografik xat paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qo'shni mamlakatlardan kirib kelgan xarflar yordamida yozish usuli paydo bo'ladi va bu usul tez tarqala boshlaydi.

Eramizdan oldingi ming yillik o'rtalarida oromiy, Aleksandr Makedonskiy istilosidan so'ng esa yunon, shuningdek, forsiy mixxat yozuvlari xam ma'lum vaqtlarda qo'llanilib kelgan. Eramizdan oldingi birinchi ming yillik o'rtalariga kelib, oromiy yozuvi negizida Avesto, Xorazm, So'g'd, Kushon, Run (Urxun-yenisey), uyg'ur va boshqa yozuvlar paydo bo'ladi va ta'lim-tarbiyaning rivojlanishida muxim axamiyat kasb etadi.

Ana shu davrga kelib, ibtidoiy jamoa bo'lib yashash an'anasi asta-sekin rivojlana bordi, jaxon madaniyatida inmoniyat tarixida muxim axamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlar yaratildi. Xitoyda qog'ozning ixtiro etilishi, Xindistonda xisoblash, o'nlik sonlar tizimining paydo bo'lishi, Mesopotamiyada yer kurrasining graduslarga, sutkani soatlarga, minut va sekundlarga bo'lishning o'ylab topilishi, Markaziy Osiyoda O'rta dengiz bilan Xindistonni o'zaro bog'lovchi karvon yo'lining vujudga kelishi, keyinchalik Xitoydan Markaziy Osiyo orqali O'rta dengizga "Buyuk ipak yo'li"ning ochilishi kabi voqyealar mazkur xududlarda yashovchi xalqlar madaniyatining rivojlanishi va yozuvning tarqalishiga sabab bo'ladi.

Demak, eramizning boshlarida xozirgi Markaziy Osiyo xududida biz yuqorida sanab o'tgan oromiy, yunon va forsiy mixxat alifbosi asosida shakllangan Xorazm, So'g'd, Baqtriya yozuvlari qo'llanilgan.

Eramizdan oldin taxminan 484(480)—431(425) yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta'lim-tarbiya tarziga oid muxim ma'lumotlar berilgan. "Forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir", - deydi olim. Shunga ko'ra ular ko'proq o'g'il bolalardan faxrlanganlar. Podshox xam kimning o'g'li ko'p bo'lsa, unga xar yili sovg'a-salomlar yuborgan. Bundan tashqari bolalarning yoshiga xam e'tibor berishgan. O'g'il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshigacha faqat uch narsaga: otda yurish, kamondan otish, to'g'ri so'zlikka o'rgatilgan. Bolani besh yoshgacha otasiga ko'rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo'lgan. Mabodo o'g'il bola vafot etsa, otasining qayg'urmasligi uchun shunday qilganlar.

O'g'illar xech qachon ota-onasiga nisbatan xurmatsizlik qilmaganlar. Ular bunday xolatni faqat nikoxsiz tug'ilgan yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin, deb xisoblaganlar.

Bundan tashqari, Gerodot forslar uchun yolg'ochilik va qarzdor bo'lish sharmandalik xisoblangan, deydi. Ular daryolarni muqaddas sanaganlar. Shu bois daryo suviga tupurmaganlar, xatto qo'l yuvmaganlar<sup>1</sup>.

Gerodotning ushbu ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bizning ajdodlarimiz o'g'il farzandlarini jasoratli, o'z vatanining xaqiqiy ximoyachisi, kuchli va botir inson etib tarbiyalashga katta e'tibor berganlar. Yigitlar va erkaklargina emas, xatto ayollarning xam jasorat ko'rsatganlari borasidagi fikrlar yunon faylasuflari tomonidan yozib qoldirilgan. Masalan, Plutarx fors ayollari xaqida gapirib, shunday voqyeani keltiradi: podshox Kir forslarni shox Astiag boshliq midiyaliklarga qarshi kurashga otlantirganda, ular jangda mag'lub bo'ladilar. Fors jangchilari shaxarga qarab qocha boshlaydilar. Dushman ularni quvib, shaxarga bostirib kirishiga yaqin qolganda, darvozadan ularga qarshi ayollar chiqib keladilar va yoqavayron xolda shovqin ko'taradilar: "Ey, noinsof bandalar, qayoqqa qochmoqchisizlar? Endi siz dunyoga kelgan joyingizga qaytib yashirina olmaysizlar-ku!" Forslar ayollarning bu xattixarakatiga dosh bera olmay, qaytib jangga tashlanadilar va dushmanni orqaga chekinishga majbur etadilar.

Bu voqyeaga xotira sifatida Kir shunday qonun ta'xis etadi: "Bu shaxarga qaysi shox qadam qo'ysa, xar bir ayolga bittadan oltin sovg'a qilsin"<sup>2</sup>

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, mavjud xolatlar xamda shartsharoitning o'zi yoshlarga otda yurish, kamondan otish borasidagi bilimlarni o'rgatish, shuningdek, ularda jasurlik, to'g'rilik va botirlik xislatlarini tarbiyalash lozimligini taqozo etgan. Shu bois qadimgi ajdodlarimiz bolalarni o'z xalqining erki va yurt mustaqilligining ximoyachilari etib tarbiyalaganlar.

Plutarxning yana bir o'rinda qayd etishicha, Aleksandr Makedonskiy yerli xalqlarga yaqinlashish maqsadida makedoniyaliklar bilan maxalliy xalqlarning urfodatlarini o'zaro uyg'unlashtirishga xarakat qilgan. Shu maqsadda u o'ttiz ming bolani ajratib olib, yunon tili va makedoniyaliklarga xos bo'lgan xarbiy san'at sirlarini o'rgatishga buyruq bergan. Ana shu maqsadni amalga oshirishga juda ko'p murabbiylar tayinlangan. Yunon alifbosining keyinchalik bu yurtda qabul qilinishi o'sha davrda ko'plab maktablar ochilgani xamda unda yerli axoli farzandlari xam o'qitilganidan dalolat beradi.

So'g'd yozma yodgorliklari orasida V.B.Xen tomonidan aniqlangan va "Eski xatlar" nomi bilan yuritiladigan qimmatli manbalar eramizning boshlarida shakllangan so'g'd yozuvi xaqida ma'lumot beradi. Ushbu manbalarni Dunxuan shaxri (Sharqiy Turkiston) yaqinidagi savdo qishlog'ida yashagan so'g'dlik tijoratchi (savdogar)larning o'z ona yurtlari Samarqandga yozgan va shaxsiy xarakterga ega bo'lgan xatlar<sup>3</sup>

tashkil qiladi.

Imperator Yan Li (615-617)ning elchisi Vey Szi xisobotlarida xam Samarqand shaxrida yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya xaqidagi ma'lumotlar mavjud. Samarqandning moxir savdogarlari o'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savdoni o'rgata boshlaydilar. O'qishni o'rganishi bilan savdo ishlari xam o'rgatilgan.

<sup>1</sup> Геродот. История в девяти книгах (Перевод и примечания Г. А. Стартановского. Под общей ред. С.А. Утченко). –Ленинград, Наука, 1972, с. 55-56.

<sup>2</sup> Плутарх. Сочинения. Перев. с древнегреческого. Сост. С.Аверинцева. Вступ. статья А.Лосева. Комментар. А.Столярова. – Москва, Худ. литература, 1982, с. 404.

<sup>3</sup> Исшо=ов М. Сығдиёна тарих чорращасида –Тошкент, Фан, 1990. 6-7-бетлар



Syuan-Szin nomli boshqa bir Xitoy tarixchisi esa Samarqand axolisining axloq va xulq-odob qoidalariga rioya etishi boshqalarga oʻrnak boʻlganligini aytib oʻtgan. Bularning barchasi qadimgi davrlarda bolalarning besh yoshidan oʻqitilgani, taʼlim jarayonida ularni amaliy xayotga tayyorlash asosiy maqsad qilib belgiligi toʻgrisidagi maʼlumotlarni beradi.

Bu maʼlumotlar qadimda bolalar oʻqitiladigan savod maktablari boʻlganligi va maktablardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan xarbiy-jismoniy mashqlarni bajara olish va muayyan xunar sirlarini oʻzlashtirish ishiga jalb etilganligidan darak beradi.

Eng qadimgi davrlarda yoʻlga qoʻyilgan taʼlim-tarbiyaga oid qimmatli maʼlumotlarni biz yana xalq ogʻzaki ijodi namunalari: afsonalar, qaxramonlik eposlari, qoʻshiqlar, maqol va iboralarda ilgari surilgan gʻoyalardan xam olishimiz mumkin. Chunki xalq donishmandligining yorqin namunasi boʻlgan xalq ogʻzaki ijodida xalq pedagogikasiga xos boʻlgan tarbiya tajribalari umumlashgan.

Ibtidoiy kishilarning tabiat va jamiyat xaqidagi tasavvurlari, ular tomonidan amal qilingan urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlari mazmuni xalq ogʻzaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri boʻlgan afsonalarda ifodalangan. Afsonalarning qaxramonlari yaxshilikning tantana qilishi uchun yomonlik xamda nurning muqarrar mavjud boʻlishi uchun zulmat bilan kurash olib boradilar, yaxshilik va baxt-saodatga chulgʻangan oʻlkalarini yaratadilar. Aksariyat afsonalarning qaxramonlarini inson sifatida gavdalangan xudolar tashkil etgan. Ibtidoiy tuzum kishilarining orzu-istaklari, oʻy-fikrlari, maqsad va intilishlarini yoritishga xizmat qilgan afsonalarning koʻpchiligi bizga eng qadimgi yodgorliklar - “Avesto”, Abulqosim Firdavsiyning “Shoxnoma” asarlari orqali maʼlumdir.

qadimgi miqlarda kishilarning tabiiy ofatlar va yovuz kuchlardan saqlanish borasidagi dastlabki tasavvurlari tirik mavjudot boshiga falokat keltiruvchi tabiiy kuchlarga qarshi mardonavor kurashgan inson va uning xatti-xarakatlari orqali ifoda etilgan.

Miqlar asosida yaratilgan afsonalarning qaxramonlari tomonidan olib borilgan xarakatlar qaxramonlik eposlarining yaratilishi uchun zamin xozirlagan. qaxramonlik eposlarida vatanga boʻlgan muxabbat, erk va ozodlik uchun kurash, yurtning xar bir qarich yerini asrash, qadrdon qabilasining farovonligi, toʻkin-sochinligini taʼminlash yoʻlida jonini fido etish, qabilaning shaʼni, sharafi, ori va nomusi uchun kurashish tuygʻulari tarannum etilgan. Zarina, Sparetra, Toʻmaris xamda Shiroq (Siroq)lar tomonidan koʻrsatilgan yuksak vatanparvarlik namunalari, Zarina va Striangey, Zariadr va Odatida muxabbatlari, mardlik va qaxramonlik timsollari boʻlgan Rustam va Siyovush (Xorazm-qangʻ eposi)larning jasoratlari toʻgʻrisida xikoya qiluvchi epopeyalar shular jumlasidandir. Bizgacha yetib kelgan epik asar (afsona va rivoyat)larda asosan ajdodlarimizning yurt ozodligi, vatan ravnaqi va qabila farovonligi yoʻlida olib borgan kurashlari oʻz ifodasini topgan. qaxramonlar vatanni va xalqni sevadi. Or-nomusni muqaddas deb bilish, doʻst va safdoshlarga sadoqat, burchni yuksak darajada anglash, unga sodiqlik, vatan va xalqi uchun oʻz jonini qurbon etish, xar qanday mashaqqatga bardosh berish, oʻz sevgi-muxabbati yoʻlida aziyat kechishga tayyorlik kabi insoniy tuygʻular ularning asosiy xususiyatlaridir. qaxramonlik eposlarida ulugʻlangan eng asosiy axloqiy xislatlari - jasurlik va mardlikdir.

Jasurlik, kuchlilik va mardlik – qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur boʻlgan eng muxim fazilatlar sanalgan. Tarixiy shaxslarning xayoti va qaxramonliklari

borasida ma'lumotlar beruvchi rivoyatlar fikrimizning yorqin dalilidir. Ularda muayyan shaxs faoliyati, donishmandligi, qaxramonliklari, tarixiy shaxs ega bo'lgan axloqiy fazilatlar: nazokat, kamtarlik, aql-idrok, o'zgalarga muxabbat, yorga vafo, sadoqat, baxt, odillik, odamiylik, oliy ximmatlilik va mexnatsevarlik kabilar ulug'langan.

Eposlar mazmunida bayon etilishicha, xotin-qizlar turli sharoitlarda erkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko'rsatganlar. Ular xo'jalik ishlari bilan chegaralanib qolmay, urushlarda xam jasorat ko'rsatganlar.

Tarixdan ma'lumki, dastlab Amudaryoning asosiy tarmog'i O'zboy Kaspiy dengiziga quyilgan. Uning o'ng qirg'og'i Turon, chap qirg'og'i Eron deb yuritilgan. Eramizdan oldin Axmoniyalar sak va massaget qabilalariga ketma-ket xujum qilib turgan. Ana shu tarixiy voqyealar sak va massagetlar tomonidan yaratilgan eposlarda o'z ifodasini topgan.

Eron shoxi Kir ko'chmanchi sak va massaget qabilalariga qarshi urushib mag'lubiyatga uchraydi va 529 yilda xalok bo'ladi. Tarixchilar Kir va uning qo'shinlarini avval o'z xududlarining ancha ichkarisiga bostirib kirishlariga imkon berib, keyin qo'shinning katta qismini qirqib tashlagan qaxramonlar xaqida ma'lumotlar beradi.

Poliening "Xarbiy xiylalar" asarida keltirilgan rivoyatlarda Shiroq (Siroq) obrazi vatanparvarlik va qaxramonlik timsoli sifatida xali xanuz yoshlarni tarbiyalab keladi.<sup>4</sup> Yoki Gerodotning "Tarix" kitobida keltirilgan massagetlar xukmdori To'marisga uylanish baxonasida Eron shoxi Kirning Turon o'lkasiga uyushtirgan xujumi xaqidagi ma'lumotlar xam muxim axamiyatga egadir.<sup>5</sup>

Demak, xalqimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvoriga oid xislatlari eng qadimgi epik yodgorliklar - "Avesto", "Shoxnoma" kabi asarlar, mif va afsonalar orqali bizgacha yetib kelgan.

qadimgi ajdodlarimiz insonga xos jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlarni qadrlaganlar. Bu xislatlar insonda o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat xayotida ro'y bergan o'zgarishlar, ibtidoiy urug'chilik davrida qaror topgan turmush tarzi insonda ana shunday xislatlarning shakllanishini taqozo etgan.

Ikki katta kuch - yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insonda yuqorida qayd etilgan xislatlarning bevosita tarkib topishiga turtki bo'lgan.

Eng qadimgi qo'shiq va lirik she'rlarda jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlar tarannum etilgan. Bunday qo'shiq va lirik she'rlar XI asrda yashagan ulug' olim Maxmud qoshg'ariy tomonidan yaratilgan "Devonu-lug'atit-turk" asari orqali bizgacha yetib kelgan.

Turkiy xalqlarning tarixini yorituvchi qadimgi manbalarda pand-nasixat va o'gitlar etilgan asarlar xam ko'plab uchraydi. Ana shunday asarlar jumlasiga Maxmud qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari xam kiradi. Alloma mazkur asarni 1076-1077 yillarda yozgan. Geograf olim X. Xasanov shunday misol keltiradi: 1914 yil Turkiyaning Diyorbakir shaxrida bir beva xotin pulga muxtoj bo'lib, kitob do'koniga eski qo'lyozmani keltiradi va 30 liraga sotishini aytadi. Ammo bu narxga kitobni xech kim olmaydi. Bir kun do'konga keksa kitob muxlislaridan Ali Amiriy kirib qoladi va bir do'stidan qarz olib, kitobni sotib oladi (Ali Amiriy 1857-1924 yillarda yashagan,

<sup>1</sup> Древние авторы о Средней Азии (VI в. до н.э. — III в. н.э.) *Ödâñöñàdèy. İñä dâä.* Баженова Л.Б. — Тошкент, изд. Научн.техн. и соц. экон. лит. Узб., 1940. с. 34-35.

<sup>2</sup> Геродот. Истории в девяти книгах. Перевод и примечания Г.А.Стартановского. Под общей ред. С.А. Утченко. - Ленинград, Наука, 1972. с.78-79.

o‘z shaxsiy kutubxonasi 15 mingga yaqin kitob yig‘ib, xammasini Shayx Fayzullox madrasasiga xadya etgan. Keyinchalik bu kitoblar Fotix kutubxonasi - milliy kutubxonaga o‘tkazilgan).

Bu kitob Maxmud qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asari edi. Mazkur qo‘lyozma asl nusxasidan xattot Muxammad bin Abu Bakr ibn Abdul Fotix as-Soviy al-Damashqiy tomonidan devon yozilgandan 200 yil o‘tgach (1266 yilda) ko‘chirilgan edi. qo‘lyozma 219 varaqli jilddan iborat bo‘lib, saxifalar raqamlanmagan, fikrlarning boshi va oxiri noma'lum edi. Xozir bu qo‘lyozma Istambulda Fotix kutubxonasining Ali Amiri fondida saqlanadi.<sup>6</sup>

“Devonu lug‘atit-turk” asarida qadimgi turkiy so‘zlarning arabcha izoxli tarjimasini ham berilgan. Ushbu asarni qadimiy turkiy tilning izoxli lug‘ati ham deyish mumkin.

“Devonu lug‘atit-turk” 1928 yilda nemis olimi Brokelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilingan. 1939 yilda esa Bosim Atalay uni usmonli turk tiliga tarjima qilgan va mazkur tarjima Anqarada chop etilgan. O‘zbekistonda asar Solix Muttalibov tomonidan tarjima qilinib, 1960-1963 yillarda uch jilddan iborat “Turkiy so‘zlar lug‘ati” nomi bilan nashr qilingan. 1967 yilda indeks lug‘at ko‘rsatkichi ham chop etilgan.

“Devonu lug‘atit-turk” asarining she'riy parchalari ham nemis tiliga tarjima qilinib, 1914 yilda nashr etilgan.

Turk olimi Fuad Kuprilzoda, rus turkologlari V. Radlov xamda S.F. Malovlar ham “Devonu-lug‘atit-turk” asari yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar. Abdurauf Fitrat ham she'riy parchalarni tarjima qilib, ularning lug‘atini tuzgan va 1930 yilda Samarqandda nashr ettirgan. N.M. Mallaev “o‘zbek adabiyoti tarixi” darsligiga “Devonu lug‘atit turk”dagi qo‘shiq va maqollarni kiritib, ularni taxlil etadi. A. qayumov esa noyob qadimgi yodgorliklarimiz - qo‘shiqlar (she'riy parchalar)ni birinchi marta nasrdan nazmga o‘girib, “qadimiyat obidalari” nomli asariga kiritgan.

Aziz qayumovning “qadimiyat obidalari” nomli asaridagi pand-nasixatga oid o‘g‘itlar bilan sug‘orilgan she'riy parchalar tarjimasini mazmuni orqali ularda ilgari surilgan ma'rifiy g‘oyalar asosida o‘sha davrda olib borilgan tarbiya mazmuni xaqida ma'lumotlarga ega bo‘lamiz.<sup>7</sup>

Asarning mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi manbalarning aksariyatida Maxmud qoshg‘ariyning qo‘shiqlarni xalq orasidan yiqqanligi ta'kidlanadi. Aziz qayumov esa bu she'r parchalarining asl nusxasida o‘sha davrda mavjud bo‘lgan badiiy ijodga nisbatan yuksak talabchanlik aniq sezilib turishi, she'rlarni yaratgan shoirlarning juda ma'lumotli ekani, chuqur bilim va nafis badiiy didga ega ekani xususidagi fikrlarni qayd etadi va pand-nasixatga oid qo‘shiqlarni aloxida guruxga ajratib, ularni tarjima qilib, mazmunini taxlil etadi.

She'rlarda ilm olishning qadri, bilimli va donishmand kishilarni xurmat qilish, mexmondo‘stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ‘ib etuvchi, o‘z manfaatini ko‘zlagan molparast, baxil, ochko‘z, do‘sti va xalqiga xiyonat kabi xislatlarni qoralaydigan she'rlar ko‘p uchraydi. Bunday she'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimdan boshlab inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berganligidan darak beradi.

<sup>1</sup> Щасанов Ш. Мащмуд +ошғарий (щаёти ва географик мероси). – Тошкент, Фан, 1968. 3-бет.

<sup>2</sup> +аюмов А. +адимият обидалари. –Тошкент, Бадий адабиёт, 1972.

Pand-nasixat janridagi asarlarning mazmunida asosiy o'rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm axlini xurmat etish to'g'risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarga ilmi kishilarga yaqinlashish, ulardan o'gitlar olish maslaxat beriladi:

O'g'lim, senga qoldirdim o'git,  
Unga amal qil.  
Olimlarga yaqinlash, baxra olgil,  
Tutib dil\* (3-t. 445-bet).

Demak, o'g'ilga nasixat qilgan ota bilimli kishilardan yaxshilik kelishiga ishonadi, ammo ularning fikrini eshitibgina qolmay, amalda unga rioya etish lozimligini xam uqtiradi.

O'gitlarda ilm-ma'rifat xamda muayyan xunar borasidagi ko'nikmalarning ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilishiga erishish kerak deyiladi.

Pand-nasixatlar she'rlar mazmunida obrazli, badiiy tarzda ifodalanadi, shu bois ular insonga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi:

O'g'lim, o'git ol,  
Bilimsizlikni itar,  
Talqon bo'lsa agar,  
U shinniga botar (1-t. 412-413-betlar).

Bu o'rinda xalq orasida talqonni shinniga qorib yeyish odati mavjudligiga ishora qilingan. Shinnining mazali ekani xammaga ma'lum. She'rda ilm va yaxshi fazilat xam shinniga qiyoslanadi. Inson ilm-ma'rifatli bo'lsa, talqon shinniga botib, odamlarga xuzur baxsh etganidek, bilimi xam uning o'zi va insonlarga foyda keltiradi, deyiladi.

She'rlar muallifining ilmni bu darajada ulug'lashi o'sha davrda ilm-ma'rifatning yuksak darajada ulug'langanligi va ma'rifatparvarlik didaktik adabiyotning uzviy qismini tashkil etganini ko'rsatadi. Bu didaktikaning asosiy yo'nalishi, asosan, kishilarga xayotda qanday xatti-xarakatlarni amalga oshirish, qanday amallarni bajarish borasidagi bilimlarni berishga xizmat qilgan. Bilimli bo'lish bilan birga, yomon xatti-xarakatlarni sodir etishdan saqlanish zarurligi, manmanlik, maqtanchoqlikning zararli oqibatlarini xususida nasixatlarni bayon etishdan iboratdir. Xususan:

Ilm-xikmat o'rgangin, bo'lma mag'rur,  
Maqtanchoqning sharmandasi chiqar, ko'r (1-t. 253-bet).

Ma'lumki, bilimli, ma'rifatli bo'lish kishining kibr-xavodan uzoqroq turishini ta'minlaydi. o'gitlarda insonning kibr-xavodan uzoq bo'lishi atrofdagi kishilar bilan ijobiy munosabatni o'rnatish uchun zamin xoziraydi deb uqtiriladi. Ilm sari intilish qutlug', ezgu ish sanaladi. Demak, xar bir kishi ilm o'rganish sari intilishi, o'zlashtirilgan bilimlarga amal qilishi, kibr-xavodan voz kechishi zarurdir.

O'rgan uning bilimin,  
Borgin uning sari.  
Qutlug' ishga bo'ysungin,  
Kibrni quv nari (2-t. 161-162-betlar).

Aqlli odamning zexni o'tkir bo'ladi, u xar qanday o'git-nasixatni tezda o'z ongiga singdirib oladi. Alloma inson zexnining o'tkirligini, xar qanday muammoni xal eta olish layoqatini xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning yerdagi o'ljani ko'rib, unga ega bo'lish ilinjida pastga sho'ng'ishida sodir etadigan tezligiga qiyoslaydi. Oqil odam zexnining tezligi qush parvozigacha qiyoslanadi:

qush ov ko'rsa, yuksaklardan pastga cho'kar,

Olim kishi o'git bersa darxol uqar (3-t. 53-bet).

Bu misolda aqlli, bilimli odamning tabiati, o'ziga xos xislati ifodalangan.

Aqlli, bilimli kishilar bexuda gaplarga axamiyat, befoyda, o'zgalarga ziyon yetkazuvchi ishlarni amalga oshirmaydi. Nojoiz berilayotgan xadyalarga uchmaydi, deydi shoir. Amalga oshirayotgan xar bir xarakati evaziga in'om-exson kutmaydi, baxosi u qadar baland bo'lmagan sovg'alarni o'z qadr-qimmatidan yuqori qo'ymaydi. Bu o'rinda alloma "muzni javoxir deb bilmaslik" kerakligini ta'kidlaydi.

Ilm o'rganish yo'lida aziyat chekkan, mashaqqat tortgan kishigina uni to'laqonli o'zlashtira olishi, kasb-xunar sirlarini mukammal egallashi mumkin, deydi.

Bilimli, yuksak fazilatga ega bo'lgan kishilar xayoti doimo mashaqqatli kechadi. Umr bo'yi ilm va xunar asoslarini o'zlashtirgan olim va fozillar xayoti xam bir kun kelib poyoniga yetadi. Bilimlarining ko'lami ortib, yuksak orzu-istaklari amalga oshayotgan bir paytda insonning umri tugaydi.

Ijtimoiy munosabatlar mazmuni, odamlar o'rtasidagi o'zaro muloqat xolati xam bilimli, donishmand kishilarning aziyat chekishlariga sabab bo'ladi. Zero, xayotda aksariyat xolatlarda manman, zo'ravon, xudbin odamlarning omadlari keladi, ular yuqori mansablarni egallab, xalq va yurt manfaatlariga zid bo'lgan xarakatlarni amalga oshiradilar. Bilimli kishilar esa ularni bunday yo'ldan qaytarish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklaridan afsuslanadilar, chorasizliklaridan ranjiydilar. Xukmdorlarning nodon, kaltafaxm bo'lishlari tufayli oqil insonlar munosib ravishda xurmat topmaydilar, qadr-qimmatlari toptaladi. Maxmud qoshg'ariy ushbu xolat so'yilgan jonliq tanasining yerlarga sudralib xor bo'lganiga o'xshaydi, deydi shoir. Zero, xamma zamonlarda xam ilm-fan axlining xayoti og'ir kechgan, tafakkur, ilm va ma'rifat xamisha xam e'zozlanavermagan, aksincha, qoloqlik va joxillik tomonidan ta'qib etilgan:

"Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonlik" maqolida tirishqoq odam o'z mexnati bilan yaxshi taomlar topadi, shunga ko'ra moyli (yog'li) ovqatlar yeydi, erinchoq, dangasa odam esa, yalqovligi tufayli ishdan qochadi va pirovardida kambag'alik va qashshoqlikka maxkum bo'ladi. Natijada afsus-nadomat xamda faryod chekadi, degan ma'no yotadi (1-t. 100-bet). "Odamning olasi ichida, yilqiniki tashi (sirti)da" maqolida esa ayrim kishilarning yomon niyatlari, o'y-fikrlari, dilida boshqalarga nisbatan yuzaga kelgan xiyonatni yashirib, kishilarga zo'rma-zo'raki ravishda kulib qarashi, ularning xatti-xarakatlarini maqtashi, o'zini go'yoki ularning yutuqlaridan quvonadiganday ko'rsatishi aytiladi (1-t. 17-bet). "Xo'kizning oyog'i bo'lgoncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq" maqolida mustaqillikning mutelik va tobelikdan, o'zgalar irodasiga bo'ysunishdan afzalligi, ayrim xarakatlarni amalga oshirishda tashabbuskor, faol, ilg'or va tashkilotchi bo'lish maqsadga muvofiq ekanligiga urg'u beriladi (1-t. 94-bet). "Odobning boshi-til" iborasida esa xushxulqqa ega bo'lishga nisbatan qo'yiladigan talablardan biri - shirin so'zli, xushmuomala bo'lish ekanligi ta'kidlanadi. Shirin so'z, xushmuomala kishi el orasida tezda izzat-ikrom topadi, yuqori martabalarga erishadi. Shu bois yoshlarni yoshlikdanoq shirin so'zli, xushmuomalali bo'lishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir, deya ta'kidlanadi (1-t. 3-bet). Xalq orasida g'iybatchi kishilarga nisbatan "Ilon o'zining egriligini bilmay, tyaning bo'ynini egri deydi" qabilidagi maqol qo'llanilgan (1-t. 147-bet). Inson o'zini ayab, yaxshi yeb-ichsa, tez qarimasligi "Maishatli odam qarimas" (1-t. 163-bet) maqolida ifodalangan. "Alp chirikda, bilga tirikda, botir jangda, dono majlisda sinaladi" maqoli esa insonning qanday kishi ekanligini uning jasorati va oqilligi bilan baxolash mumkinligini ifodlangan (1-t. 169-bet). "Yuziga qarama - arzam (ilmini) tila,

yuziga qarama - fazilati (axloqi)ni tila” maqolida esa insonga uning xulq-atvori, odobi va bilimi darajasiga qarab baxo berilishi bayon etiladi (2-t.15-bet).

Ishda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yishning kutilgan natijaga erisha olmaslikka sabab bo‘lishi “Shoshgan kishi uyiga yetolmaydi” tarzida ifodalangan (2-t. 27-bet). “Erdamsizdan qut chertilur”- odobi xamda biror bir xunarga ega bo‘lmagan kishidan baxt va davlat ketadi degan ma‘noni anglatuvchi maqol xam yuksak darajada tarbiyaviy axamiyatga ega bo‘lib, insonning xunar va xulq-odobga ega bo‘lishi baxtining kaliti ekanligiga ishora qilinadi (2-t. 266-bet).

Maqollarda yana ilmu xunar, mexnatsevarlik xislatini yoshlikdan egallash zarurligi xam ifodalangan: “Kichikda qatug‘lansa ulgazu sevinur” (2-t. 311-bet). Inson yoshlikda aniq bir maqsadga intilsa, unga erishish yo‘lida mashaqqat cheksa, tinimsiz xarakat qilsa, voyaga yetganida uning roxatini, mexnati natijasini ko‘radi.

Maqollarda yomonlik qilgan kishining o‘ziga yomonlik qaytishi mumkinligi “Ko‘kka suzsa yuzga tushar” - osmonga tupurgan kishining tupugi o‘zining yuziga tushadi tarzida bayon etilgan (3-t. 146-bet).

Ko‘rinib turibdiki, eng qadimgi davrlarda yaratilgan maqollarda xam xalqning ta‘lim-tarbiya borasidagi donishmandligi o‘z ifodasini topgan. Xalq pedagogikasining eng qadimgi namunalari bugungi kunga qadar saqlanib qolgan va o‘zning pedagogik, tarbiyaviy axamiyatini yo‘qotmagan.

Demak, inson xulq-atvorini mukammallashtirishga xizmat qiluvchi “Devon”dagi she‘riy parcha va maqollar kishilar o‘rtasida ezgulikni targ‘ib qilib, insonning kamolga yetishiga katta ta‘sir etib kelgan.

Eng qadimgi ota-bobolarimiz ulug‘lagan axloqiy xislatlarni jadvalda quyidagicha aks ettirish mumkin:

### **Eng qadimgi davrlarda ulug‘langan axloqiy xislatlar**

INSON		
BILIMLILIK	ADOLAT	XUSHXULQLIK
KASB-XUNAR	INSONIYLIK	Ezgulik, yaxshilik, kamtarlik, jasorat, shirinsuxanlik, poklik, vafodorlik, drstlik, mardlik meµmondrstlik va boshialar
	SADOqAT	

Demak, eng qadimgi ma‘rifiy yodgorliklarda ifoda etilgan va qadrlangan xislatlar - jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalikdan iborat bo‘lgan. Tabiiyki, ushbu xislatlar insonda o‘z-o‘zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat xayotidagi o‘zgarishlar, ibtidoiy urug‘chilikka asoslangan turmush tarzi insonning ana shunday xislatlarga ega bo‘lishini taqozo etgan. Ikki katta kuch - yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi ayovsiz kurash insonda yuqorida qayd etilgan xislatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo‘lgan.

## 2. “Avesto” eng qadimgi yozma ma'rifiy yodgorlik sifatida

Eramizdan avvalgi minginchi yillarning o'rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qaxramonlik mavzusida juda ko'plab afsona va rivoyatlar yaratilgan bo'lib, ular avloddan avlodga og'zaki va yozma ravishda o'tib borgan. Agar ushbu afsonalar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” asari mundarijasidan o'rin olmaganda edi, biz ular xaqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lolmagan bo'lardik.

“Avesto” asari kim tomonidan yaratilgani borasida turli qarashlar mavjud bo'lib, mashxur sharqshunos olim ye.E. Bertelsning fikriga ko'ra, ushbu asar 1278 yilda Rayd Zardusht ibn Baxrom ibn Pajdu degan kishi tomonidan yozilgan. Mazkur fikr “Zardushtnoma” dostonida bayon etilgan ayrim fikrlar asosida yuzaga kelgan. Xususan, dostonda Avesto va Zendni Zardusht dunyoga keltirgani, uning tug'ilishi va keyingi xayoti xususidagi ma'lumotlar keltiriladi. Ya'ni,

### ZARDUSHTNOMA

Mazkur doston 1760 yil mashxur fransuz olimi Anketil Dyu Perron tomonidan avval lotin tili, keyin esa fransuz tiliga tarjima qilingan. Asarni ingliz tiliga Istvix tarjima qilgan. Keyinchalik asarning F.A.Rozenberg tomonidan qilingan fransuzcha tarjimasi xam e'lon qilingandir.

Zardusht ibn Baxrom ibn Pajdu dostonida keltirilgan ma'lumotlarni qanday manbalarga asoslanib bayon etganligi xaqida ma'lumot yo'q edi. Lekin tadqiqotchilar dostonni yozishda muallifning ikki muxim manba- “Avesto”ning yo'qolib ketgan Chitradat (o'n ikkinchi) va Spent (o'n uchinchi) nusxalaridan foydalanganligini e'tirof etadilar.

Lekin “Avesto” tarjimoni Dj. Darmsteter Zardusht birinchi inson Gayomard xaqidagi afsonaviy rivoyatning afsonaviy qaxramoni bo'lib, xalq fantaziyasining “mevasi”dir, deydi. Afsonada xikoya qilinishicha, u jaxolat ramzi sanalgan “ilon” bilan kurashib xalok bo'ladi. Undan uch o'g'il qolib, ular uch tabaqa – koxinlar, xarbiylar xamda dexqonlar avlodiga asos solganlar.

Mavjud manbalar, shuningdek, so'nggi yillarda e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra zardushtiylik Sharq xalqlari sig'ingan qadimgi dinlardan biri sanaladi. Mazkur dinning asoschisi Zardusht (Sariq to'n egasi degan ma'noni anglatadi) bo'lib, din xam uning nomi bilan atalgan.

Zardusht taxminan miloddan avvalgi 570 yilda tug'ilgan bo'lib, 77 yoshida, ibodat qilayotgan paytida dushman qoxinlaridan biri tomonidan o'ldirilgan.

Zardusht o'z davrida ikki xudolik g'oyasini ko'tarib chiqadi. Asta-sekin u payg'ambar darajasiga ko'tariladi va o'zini Axura-Mazda, ya'ni, Oliy Tangri elchisi deya e'lon qiladi. Zardusht dunyoni yaxshilik va yomonlik dunyosi tarzida ikiga bo'ladi. Bu ikki dunyo o'rtasida bir-biriga qarama-qarshi g'oyalar ustuvor bo'lib, ular o'rtasida doimo kurash ketadi.

Zardusht tomonidan asoslangan din uning xayotligidayoq ko'plab o'lkalarga yoyiladi. Biroq Zardusht vafot etganidan so'ng zardushtiylik dinining g'oyalari yanada keng yoyila boshlaydi.

“Avesto” asari eramizdan avvalgi YI asrning oxiri va IY asrning boshlarida yaratilgan bo'lib, u uzoq davrlar maxsuli sanaladi, davrlar o'tishi bilan qayta-qayta ishlanadi. Asarning to'liq kitob xolida shakllanishi eramizdan avvalgi birinchi asrga to'g'ri kelishi barcha manbalarda aloxida qayd etiladi.

Arab, rus va o'zbek olimlari mazkur asar mazmunini xar tomonlama taxlil etishga xarakat qilishgan. Zero, "Avesto" asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid ma'rifiy fikrlar ma'lum bir tizimda ifoda etilgandir. Mazkur asar g'oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz xududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy xamda ijtimoiy qarashlari borasida muxim ma'lumotlarga ega bo'lamiz. «Avesto» diniy xarakterga ega bo'lish bilan birga o'zida falsafiy, siyosiy, filologik, ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni xam qamrab olgan asardir.

Abu Rayxon Beruniy o'zining "qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida zardushtiylik dini qadimgi Xuroson, Fors, Iroq va Balxdan tortib Suriya yerlarigacha tarqalganligini aytadi.

Ozarbayjon olimi M. Rafiliy esa "Muxtasar Ozarbayjon adabiyoti tarixi" kitobida (1-jild, Baku, 1943, 2-3-betlar) "Avesto"ni faqat Ozarbayjon adabiyotining ma'naviy merosi deb e'tirof etadi.

Tarxichi olim V.M.Avdievning fikriga ko'ra, "Avesto" nomli qadimgi diniy to'planning dastlabki qismlari aynan O'rta Osiyo xududida vujudga kelgan, deyish uchun barcha asoslar yetarli. Zero, asarda keltirilgan ayrim rivoyatlar bu xaqida dalolat beradi. Rivoyatlarda aytilishicha, zardushtiylik dinining birinchi "Muqaddas olovi" Xorazmda yoqilgan. "Avesto" asarida tasvirlangan "Ayriana Vayjo" mamlakati Xorazm bo'lgan bo'lishi mumkin. Bu mamlakatda Axura-Mazda Zardushtga ko'rinish bergan. "Ayriana Vayjo" degan afsonaviy mamlakatning "Avesto" asarida saqlanib qolgan tasviri Xorazmning geografik sharoitlariga to'la muvofiq keladi. S.P. Tolstov xam "Avesto"ning eng qadimgi zamonga oid qismi Markaziy Osiyo (Xorazm)da eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi yarmida yozilgan deb qayd etadi. "Avesto"da xudolar va qaxramonlar to'g'risidagi xalq epik afsonalariga oid juda ko'p qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Asarda tasvirlangan xudo va qaxramonlar O'rta Osiyo mamlakatlari va ularga qo'shni bo'lgan Eron va Afg'oniston o'lkalarida ish ko'radilar. "Avesto"da keltirilgan madxiyalarda shunday bir o'lka tasvirlanadiki, unda: "Bir talay qo'shinga qudratli yo'l boshchilar bosh bo'lgan, keng o'tloqlari va suvlari ko'p bo'lgan, baland tog'lari chorvachilik uchun zarur xamma narsani yetishtiradi, unda chuqur-chuqur va sersuv ko'llar, kemalar yurib turadigan keng daryolar Iskat va Pourta, Mour (Marv), Xarova (Xiro), Gou So'g'd va Xvoyrezm (Xorazm) tomoniga pishqirib oqadilar (Yasht X, 14)". Bunda zikr etilgan joylarning ta'rifi va nomlari boshqa qator jixatlari bilan birga qadimgi Zardusht dinining xuddi shu yerda, Amudaryo xavzasida vujudga kelganiga shubxa qoldirmaydi.

Zardusht eramizdan avvalgi VI asrda yashagan. Xorazmda yashagan chorvadorlar oilasi Spitama urug'idan bo'lgan. Otasi Paurushasp, onasi Dugdova ot va tuya boqish bilan shug'ullanganlar. Zardusht ko'p xudolikka sig'inish xamda ko'plab qurbonliklar qilinishi natijasida mollar qirilib ketayotganligi, shuningdek, turli qabilalar o'rtasida nizolar kelib chiqayotganligini ko'rib, uning oldini olish choralari izlaydi va ana shu maqsadda o'z ta'limotini targ'ib qila boshlaydi. Lekin qabila boshliqlariga uning ta'limoti va unda ilgari surilgan g'oyalar yoqmaydi. Zardusht xudodan kelgan vaxiy orqali ko'pxudolikka qarshi yakka xudolikni targ'ib qila boshlaydi, kuchli xokimiyat o'rnatib, yer yuzida tinchlikni barqaror etish uchun kurashadi, yaxshilik va ezgulik xudosi Axura Mazdani ximoya qiladi.

Zardushtning yangi ta'limotini qabila a'zolari orasida targ'ib qilishini istamagan qabila boshliqlari uni ta'qib etadilar. Ana shu ta'qib tufayli u Ray (Eron)ga qochadi va o'z dinining o'sha yerda to'laqonli shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. "Avesto"ni shox Vishtasp (Gushtasp)ga taqdim etadi. Shox Vishtasp uning xomiysiga aylanadi.



Vishtaspning farmoniga binoan otashxona - ibodatxonalar qurdiriladi, zardushtiylik dinining g'oyalari keng yoyila boshlaydi.

Zardusht shox Gushtasp vazirining qizi Xavoviga uylangani, undan uch o'g'il - Istavatra, Urvatatnara, Xvarachitra va uch qiz – Freni, Triti, Pourichistalarni ko'rganligini qayd etadi.<sup>8</sup>

Vishtaspning farmoniga ko'ra 1200 bobdan iborat "Avesto"ni oltin taxtga yozdirilib, shox otashkadasiga topshiriladi.

"Avesto"ning kitob xolidagi matni eramizdan oldin o'n ikki ming oshlangan mol terisiga oltin xarflar bilan bitilgan. Bu nusxa Iskandar Makedonskiy istilosiga qadar Istaxr shaxrida saqlangan. Iskandar Istaxrni bosib olgach, "Avesto" kitobida bayon etilgan tibbiyot, nujum, ilmi xikmat soxalariga oid g'oyalarni yunon tiliga tarjima qilinib, qolgan fikrlar bitilgan saxifalar yoqib yuboriladi.

Zardushtning mazkur kitobi bizga qadar ikki nusxada yetib kelgan.

Mazkur nusxalarning birinchisi - duolar to'plamidan iborat bo'lib, "Vendidat-sede", ya'ni, "Pok Vendidat" deb ataladi. Ushbu kitobga "Yasna" va "Vispered"lar kiritilgan.

Ikkinchi kitobda xam birinchisi kitobdagi kabi "Vendidat", "Yasna" va "Vispered"lar o'rin olib, unda sharxlar xam beriladi. Izoxli tarjima "Zand" (sharx ma'nosida) deb ataladi. Shuning uchun xam asarning sharxli nusxasi "Avesto va Zand" yoki "Zand Avesto" deb nomlangan.

Ikkinchi variantiga binoan "Avesto" asari quyidagi qismlardan tashkil topgan:

1. "Vendidat". Mazkur qism 22 bobdan iborat bo'lib, asosan, Axura Mazda bilan Zardushtning o'rtasida kechgan savol-javobi shaklida yozilgan. U yomon ruxlarni, devlarni yengish voqyealari, gunoxlardan pok bo'lish qoidalari xamda mifologik unsurlarni o'z ichiga oladi. Xarakterli jiqati so'z yuritilayotgan qismda devlarga qarshi yaratilgan qonun matni, ya'ni, qonunnoma mazmuni yoritilgan. qonunnomada aytilishicha, yomonlik timsoli bo'lgan devlarga nisbatan nafrat bilan qarash darkor.

Axura Mazda yurtda yaxshilik, xayrli ishlarni yuzaga keltirsa, Anxra Manu (Axriman) o'z yurtida yomonlikni qaror toptiradi.

2. "Vispered". U 24 bobdan iborat bo'lib, ibodat qo'shiqlarini o'z ichiga oladi.

3. "Yasna". Yasnalarni 72 bobdan iborat. Diniy ibodatlarini o'tkazish chog'ida, shuningdek, qurbonlik chiqarish marosimida aytiladigan qo'shiqlar, xudolarga bag'ishlangan madxiyalar va boshqalar yasnalarni tashkil etgan. Ushbu qismning 17 bobi Gotlar deb yuritiladi. Gotlar "Avesto"ning eng qadimgi qismlari sanaladi.

4. Yashtlar. Yashtlar zardushtiylik dinining xudolari va ma'budalari sharafiga aytilgan 22 qo'shiq (gimn)larni o'z ichiga oladi.

5. Kichik Avesto (Xurda Avesto, Xvartak-apastak). quyosh, Oy, Ardivisura, Mitra, olov va boshqa xudo xamda ma'budalar sharafiga bag'ishlangan kichik ibodat (gimn) matnlaridan iborat.

Zardushtiylik dinining g'oyalari xususida so'z borganda, ularning to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini aloxida ta'kidlab o'tish lozim.

Inson va uning jamiyatda tutgan o'rniga nisbatan munosabat masalasi "got"lar mazmunida o'z ifodasini topgan.

"Avesto" tarbiyaviy manba sifatida katta axamiyatga ega. Yuqorida aytib o'tilganidek, Zardusht qadimgi qabilalar a'zolarining diniy e'tiqodlariga aylangan

---

<sup>1</sup> Щамидов Ш. "Шощнома"нинг шушрати. - Т.: Ўзбекистон, 1991. 87-88- бетлар.

qarashlar mazmunini islox qilgan. Zardusht ta'limotining ilg'or g'oyalari shundan iboratki, Axura Mazda (qodir ilox) dunyoda mavjud bo'lgan adolat va yaxshilikning ijodkori sanaladi. Anxra Mani (Yovuz rux) barcha yomonliklarni yuzaga keltiradi. "Avesto"ning mazmuni borasida uning bizgacha yetib kelgan parchalarda ilgari surilgan qarashlar mohiyatiga asoslanib quyidagi xulosaga kelish mumkin:

"Vendidat"ning dastlabki uch bobida xalq xayotida yerning qay darajada axamiyatga ega ekanligi kuylanadi. Chunonchi, birinchi bobda yovuzlik va adovat xukmron bo'lgan o'lkalar tasniflanar ekan, Axura Mazda Tinchlik va Adolat o'lkasining asoschisi, Anxra Manyu esa jaxolat urug'ini sochuvchi sifatida talqin etiladi. Asarda ana shunday o'lkalardan 16 tasi qayd etib o'tiladi.

"Avesto"da tasvirlangan adolat o'lkasining keyingi davrlardagi nomlari: 1. Aryana Vedja - Xorazm yoki Araks daryosi qirg'og'i yoki Amu va Sirdaryo deltasidagi o'lka. 2. Gava-So'g'diyona. 3. Mouru (Margav)-Marshana (Marv, hozirgi Mari shaxri joylashgan xudud). 4. Baxdi-Baqtriya (Balx). 5. Nisaya - Nisa, Parfiya poytaxti. 6. Xaroy-Isfaxondagi bir joy. 7. Xnenta-Gurkaniya. 8. Xaraxvaiti-Garut (Araxoziya bilan bog'liq). 9. Xetumant - Gilmenda xavzasidagi viloyat. 10. Raga-midiyadagi bir shaxar. Ray Texronga yaqin. 11. Chaxra-Xurosondagi bir joy. 12. Varna - Janubiy Kaspiy bo'yi viloyati. 13. Xapta Xindav - Inda, Panjob xavzalarida joylashgan xududi. 14. Rangxa irmoqlari-mifologik o'lka<sup>9</sup>.

Keyingi boblarda Yima xaqidagi afsona keltiriladi. Afsonada yerni uch barobar ko'paytirish, shuningdek, o'simlik, xayvon va odamlarni ximoya qilish maqsadida chegara belgilanganligi xikoya qilinadi. Ushbu afsonada, shuningdek, qadimgi Xind-Eron qabilalarining yerning suvdan paydo bo'lganligi borasidagi dastlabki tasavvurlari xam o'z ifodasini topgan. 3-19-boblarda esa gunox va uning jazosi, poklikning mohiyati ta'riflanadi, olov, suv, yer, chorva, daraxt xamda o'simliklar ulug'lanadi, koxin, xarbiy, dexqon va chorvadorlar sharaflanadi. Xayvonlarga zulm o'tkazish eng katta gunox sifatida qoralanadi. Mazkur bo'limda shaxsiy gigienaga amal qilishga oid qoidalar - tirnoq va sochlarni parvarishlash masalalari yuzasidan fikr bildiriladi.

XIX-bobda odamlarning Axura Mazdaga bo'lgan e'tiqodlari darajasini ifodalash maqsadida ular boqiy dunyoda qil ko'prikdan o'tadilar, ko'prikning o'rtasi qilich kabi o'tkir bo'ladi, deyiladi. Kimki Axura Mazdani tan olmasa, unga ishonmasa, u "qil ko'prik"dan o'tolmay, jaxannamga tushadi. Dindor va doimiy ravishda ibodat qiluvchilar esa jannatga tushadilar. Axura Mazda yaratilgan vaqtdan boshlab oradan o'n ming yil o'tgach, Axrimanning kuchi tugab, Adolat o'lkasi qaror topadi. Shunda barcha mayitlar (qazo qilgan kishilarning tanalari) bir joyga to'planadi, ularga jon ato etilib, yaxshi kishilar bir tomonga, yomon kishilar ikkinchi tomonga ajratiladi. Shu tariqa yaxshilar jannatga, yomonlar esa do'zaxga tushadi. Yaxshi odamlar uch kun davomida otash irmog'ini kechib o'tgach, gunoxlardan poklanib, Axura Mazda yurti - Adolat o'lkasiga kiradilar. Bu o'lkada inson o'zining axloqi va yaxshi amallari, xattixarakatlari bilan yaxshilik tarafdori ekanligini isbotlashi kerak. Inson o'z xayot yo'lini tanlar ekan, o'z zimmasiga olgan majburiyatni bajarishga javobgar sanaladi. "Got"larda Axura Mazdaning yerdagi yordamchisi xisoblangan chorvadorlarning dunyoqarashlari ifodalangan. Yaxshi kishilar yuksak axloqiy xislatlarga ega bo'lsalar, yovuz kishilar yomon xislatlarning egasidir. Zardushtiylikda yaxshilik va yomonlik tushunchalari orqali yer yuzida mavjud bo'lgan yaxshilik va yomonlik dunyosining mohiyati ochib beriladi.

---

<sup>1</sup> Маковельский А.О. Авесто. – Баку, Изд-во АН Азерб, 1960. с. 48-56.

Taqvodor chorvador odil va oqil bo'lib, atrofdagilarning xurmatlariga sazovor bo'lsa, katta podaning egasiga aylanadi. Chorvadorlarning nazarlarida ko'chmanchilar ularning dushmanlaridir. Chunki ular odamlarni talaydi, molini xaydab ketadi. Asarda ko'chmanchilar axloqsiz maxluqlarga qiyoslanadilar. Ular azob-uqubatlarga loyiq, zero serxosil yaylovlarni yakson etadilar, yaxshilik xomiylariga xujum qiladilar. Bildirilayotgan fikrlardan anglashiniladiki, zardushtiylik dinining g'oyalariga ko'ra shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo'lishi Adolat o'lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo'riqlaridan biri xam Axura Mazdaning ko'makchisi sanalgan inson saxovatli bo'lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasm-rusumlarga rioya etish, Zardushtning tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo'l-yo'riqlarni bajarish xar bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'tirof etilishi bilan birga dunyoviy ishlar va ularning moxiyati xam ochib beriladi.

Zardusht Axura Mazdadan dunyoda shodlik va baxt makoni, eng sevimli joy qaerda ekanini so'raganda, u shunday javob beradi: u shunday joyki, kishilar u yerda uy-joy quradilar, otashkada (ibodatxona)lar barpo etadilar, dexqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, bola-chaqali bo'ladilar; men xar ikkala qo'li bilan mexnat qiluvchi kishini qo'llayman, uning ishiga baror, xosiliga baraka bag'ishlayman, deydi. Bunda mexnat, dexqonchilik yovuz kuchlarga qarshi kurash, yaxshilik manbai, tayanchi deb ko'rsatiladi.

Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, saxovatlilik belgisi - mexnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi. Ayniqsa, dexqonchilik soxasida qilinayotgan mexnat yaxshilikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omil deya ta'kidlanadi. Dexqonchilik bilan shug'ullanish, mo'l-ko'l xosil yetishtirishga qaratilgan xarakat Axura Mazda qonuniga bo'ysunish sanalgan. Don ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekishi, Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini ilgari surishi, imonni oziqlantirib turishi o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng deyiladi. “/alla yerdan unib chiqqanda, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib, un qilinayotganda ular qocha boshlaydi, xamir qilinganda esa devlar maxv bo'ladi. /allaning mo'l-ko'l bo'lishi devlarning labiga qizitilgan temir bosilgandek ularni tum-taraqay qiladi”.

Ushbu misollarda “Avesto”da inson mexnati tufayli barcha yomon xislat, yomonlik xamda yovuzliklardan qutilishi mumkin, degan g'oya ilgari suriladi.

Samoviy dunyoda xam uchlik xukmronlik qiladi: Axura Mazda – Oliy tangri, ya'ni “qodir ilox” - o't, alanga ruxiga, Asha (Arta) – Vazishta – “Eng yaxshi tartibot” (koxinlik va katta koxinning samoviy obrazi)ga, chorva ruxi - Voxu Mana, ya'ni, “Saxovatli fikr” (o'troq chorvadorlar va ularning boshliqlari jamoasining samoviy obrazi)ga tayanadi. Ana shu uchlik fikr, so'z va ish birligidan iborat axloqiy uchlikni xam o'zaro bo'lishib olishgan.<sup>10</sup>

O'sha davrda jamiyatda bosh xokim (lashkar boshlig'i) katta koxin (koxinlar ijtimoiy guruxining boshlig'i) yoki urug'lar oqsoqollariga, o'troq chorvador va dexqonlarning jamoalari xamda xonadonlariga tayangan. “Avesto” asarining xajman eng katta qismi - “Yasna”larda inson kamolotini belgilovchi axloq-odob mezoni uchlik - Xumata (manbalarda Gumata, Humata) – yaxshi fikr, Xukta ( manbalarda Gukta, Huckta) – yaxshi so'z va Xvarsha (manbalarda Gvarsha, Hvarsha) – yaxshi ishlar

---

<sup>10</sup> Брагинский И.С. Из истории таджикско-персидской литературы. Изб. работы. —М.: Наука, 1972. с. 51-51, 115.

birligida ifodalanadi. “Men yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman” (“Yasna”, 14-bob), deyiladi asarda.

“Avesto”da inson fikri, so‘zlari va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Mana (Ezgu fikr) va Ako Mana (Yovuz fikr) ta'sir ko'rsatadi, deydi. Barcha fikr, so‘z va ishlar asosida aslida ezgulik va yovuzlik yotadi (“Yasna”, 30-bob). Asta-sekin axloqiy tushunchalar shaxsiy mazmun kasb eta boshlaydi. Masalan, “yaxshi so‘zlar” deganda axdida turish va berilgan va'dani bajarish kabilar nazarda tutilsa, “yaxshi amallar” deganda esa savdo-sotiq ishlarida xalol bo‘lish, qarzni vaqtida to‘lash, o‘g‘rilik va talonchilik qilmaslik, o‘zgalarning moliga ko‘z olaytirmaslik, buzuqliklardan o‘zini tiyish, atrofdagilarga ziyon yetkazadigan xar qanday xarakatni sodir etmaslik va xokazolar tushunilgan.

Ezgu kuchlarga yovuz kuchlar qarshi bo‘lgan. Yovuz ruxlarga Drudjo (yolg‘onchilik ruxi) boshchilik qilgan. Unga Yovuz fikr (Ako Mana), Talonchilik ruxi (Eshma) yordam bergan. Yovuz, yomon fikr - Ako Mana, yomon so‘z – Drudjo xamda yovuz amal, yomon ish – Eshma obrazlari timsoli yordamida ifoda etilgan.

Zardusht yovuzlik kuchlariga ko‘maklashgan kishilarga nisbatan ayovsiz munosabatda, shuningdek, chorvachilik rivojiga xalal beruvchi yolg‘onchilik ixlosmandlariga qarshi kurashda esa shafqatsiz bo‘ladi. “Kimki menga sodiq bo‘lsa, eng yaxshi narsaga musharraf bo‘ladi, kimki sodiq bo‘lmasa, unga eng yomon narsa nasib etadi... Kimki meni – Zardushtni quvvatlasa buning evaziga istagan barcha narsalari bilan birgalikda bir juft sog‘in sigir xam oladi” (“Yasna”, 46-bob), deyiladi asarda.

“Yaxshi fikr” iborasining mazmuni o‘zida iloxiy qonun ruxidagi g‘oyalarga ega bo‘lish, yaqin kishisiga nisbatan mexribonlik ko‘rsatish, muxtojlariga ko‘maklashish, yovuzlikka qarshi kurashga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati yo‘lida xarakat qilish, axillik, qabiladoshlar bilan birga do‘stlik va totuvlikda yashashga intilish ruxidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi. Inson fikran xam boshqalarga xasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg‘azab bo‘lmaydi, jaxolatlarga berilmaydi. Zero, bunday ruxiy xolatda inson yaxshilik xaqida o‘ylamaydi, burch va adolat xaqida unutadi va nojo‘ya xarakatlar qiladi.

“Avesto”dagi uchlikning xaqiqiy manbalariga yondashiladigan bo‘lsa, ular qadimgi zamon kishilarning axloqiy tasavvurlariga batamom muvofiq bo‘lib tushadi. Fikr, so‘z va ishning birligi ibtidoiy insonning xam ajralmas xislati edi. Uning ong, axloq va boshqalar xususidagi tasavvurlari o‘zi mansub bo‘lgan jamoa bilan uzviy bog‘langan. Jamoaning fikri uning xam fikri, jamoaning so‘zlari uning xam so‘zlari, jamoaning ishlari uning xam ishlari bo‘lgan. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning uyg‘unligi – urug‘chilik jamiyatining muxim belgisidir. Jamoaning xar qanday topshirig‘ini bajarish uning a'zolari uchun muqaddas qonun edi”.

“Yasht”larda ifoda etilgan xar bir yasht muayyan xudo (Axura Mazda, Mexr Yasht, Ardvasur Yasht, Mitra va boshqalar)ga bag‘ishlanadi. “Yasht”lar doirasida qo‘llangan gimnlarda Axura Mazdaga bag‘ishlangan qasida aloxida diqqatga sazovor. Masalan, birinchi, “Yasht” - “Xurmuzd Yasht”da Axura Mazda tilidan zardushtiylik g‘oyasi ifodalanadi.

Zardushtiylik iloxining yetmish ikki nomi borligi ma'lum. Yuqorida ta'kidlanganidek, Zardusht butun xayoti davomida ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amaldan iborat uchlik g‘oyasini ilgari suradi va ushbu g‘oyaga avvalo uning o‘zi amal qiladi. Inson o‘limidan so‘ng marxumning faoliyati ustidan o‘tkazilgan xisob-kitob

vaqtida Xaqiqat iloxi u tomonidan sodir etilgan ezgu va yovuz amallarni maxsus tarozida o'ldiradi.

Tarozining bir pallasiga ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal — xayrli ishlar, boshqa pallasiga esa yovuzlik va yomonlikka asoslangan xatti-xarakatlar qo'yiladi. Ezgu amallar salmog'i og'irlik qilsa, marxum ruxi yuqoriga uchadi va jannatga tushadi, yovuz va yomon xarakatlar qo'yilgan palla og'irlik qilsa, choxga tushadi.

“Avesto” ta'limotida jismoniy va ma'naviy dunyo uch xayotiy davrga bo'linadi.

Birinchi davr eng qadimgi davr sanalib, u ilk xayotni bildiradi. Bunda xam jismoniy, xam ma'naviy dunyoda yaxshilik tantana qiladi. Dunyoda yorug'lik va insoniy saodat xukmron bo'lgan. Yagona jinoyatchi - xokim Yima Vivaxvant bo'lib, u kishilarni batamom rozi qilmoq uchun ularga mol go'shti yediradi.

Ikkinchi davr hozirgi davr bo'lib, bu davrda yaxshilik ruxlari bilan yomonlik ruxlari o'rtasida kurash davom etadi.

Uchinchi davr - bo'lg'usi xayot. Bu davrda aql-idrok va adolat tantanasi o'rnatiladi. Bo'lg'usi yaxshi xayotni Artu o'rnatib, dexqonlar badavlat, xokimiyat esa mustaxkam bo'ladi, deyiladi. “Yaxshilik ta'limni va sadoqatni amalga oshirib yaxshi xokimlar xukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta'limni amalga oshirsinlar”.

Zarushtiylik ta'limotida 15 yosh balog'at yoshi sanalgan. O'smir balog'at yoshiga yetganda unga Zardusht qonunlari – falsafa, axloq-odob qoidalari va axloqiy yo'riqlar mazmuni o'rgatilgan. O'smirlarning xudojo'y mexnatkash, adolatli bo'lib voyaga yetishlari, o'y-niyat, so'z va ishida xalollikka tayanishlariga aloxida e'tibor berilgan. Bolalarga ularning yoshligidayoq ko'chat o'tkazish, daraxtlarni parvarish qilish, uy-ro'zg'or buyumlarini yasash, yerga ishlov berish xamda chorva mollarini boqish borasidagi bilimlar berilib, amaliy ko'nikmalarning xosil bo'lishiga aloxida e'tibor qaratilgan.

Zardushtiylik ta'limotining axloqiy yo'riqlariga binoan inson tomonidan o'z burchini xis etishning eng birinchi belgisi ma'naviy poklik sanalgan.

Ayollarga g'amxo'rlik ko'rsatish ijtimoiy zarurat xisoblangan. Ayniqsa, xomilador ayollarga muruvvat ko'rsatish asosiy insoniy burch xisoblangan. Diniy g'oyalarga ko'ra tuproq, suv, xavo xamda quyosh muqaddas sanaladi, odamlar ularni e'zozlash, quyoshga sajda qilishga da'vat etiladi. Zardusht ta'limotida shaxsiy va turmush gigienasiga qat'iy amal qilish kishilar o'rtasida turli xil kasalliklar kelib chiqishining oldini oluvchi tadbir ekanligi aloxida uqtiriladi. Shu o'rinda quyidagi qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiqligiga urg'u beriladi: qabristonlarning shaxar yoki qishloqdan tashqarida bo'lishiga aloxida e'tibor berish, xayvonlarning qabrlarni oyoq osti qilmasliklari uchun qabristonlarning atrofini o'rab qo'yish, mayit (o'lik)ni yuvish vaqtida ozodalikka rioya qilish, murda tekkan libos yoki murda qo'yilgan joyni suv yordamida yuvib tashlash, turli jonzotlarning o'ligi (inson murdasi) tushgan suv xavzalarini bir necha bor qatron qilish (xavzani yomg'ir yoki daryo suviga bir necha bor to'ldirib, suvni xavzadan chiqarib tashlash), badan va sochning toza bo'lishiga axamiyat berish, tirnoqlarni vaqti-vaqti bilan olib turish, kuniga besh marta yuvinish va xokazolar.

Zardusht g'oyalarining amaliy axamiyati shundaki, ularda turli kasalliklarning oldini olish xamda atrof-muxit musaffoligini ta'minlovchi usullar to'g'risida xam ma'lumotlar beriladi. Bu boradagi usullar quyidagi uch guruxdan iboratdir: 1) axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh yoki kul bilan ko'mib tashlash; 2)

olov yordamida, issiq yoki sovuq xavo vositasida mikroblarni yo‘q qilish; 3) kimyoviy usul (kul, sirka, sharob, turli giyoxlar - sandal va isiriq tutatish, aloe, piyoz, sarimsoq, qizil qalampir va xokazolarni iste'mol qilish) orqali mikroblarni yo‘qotish, orqali yuqumli kasalliklarga barxam berilgan. Ta'limot mazmuniga ko‘ra kasallik tarqatuvchi ayrim xashoratlarning o‘ldirilishi evaziga suvni saqlash qoidalarini buzgan yoki itni o‘ldirgan kishilarning gunoxi kechirilgan. Bu o‘rinda aloxida me'yor belgilangan, ya'ni, yuqorida qayd etilgan gunoxni sodir etgan kishi 1000 ta echkiemar, 1000 ta suv qo‘ng‘izi, yoki kasallik tarqatuvchi pashshani o‘ldirishi yoki 10.000 ta ruxiyatni tetiklashtiruvchi o‘simlik bargi, barsum berishi lozim bo‘lgan. Bizga yaxshi ma'lumki, mikroblar va yuqumli kasalliklar suv, xavo va tuproq vositasida tez tarqaladi va keng xududga yoyiladi, shu bois “Avesto” g‘oyalariga ko‘ra ularni asrash, ulardan foydalanishga nisbatan oqilona munosabatni qaror toptirish o‘ta muxim sanalgan. Ularni asrash qoidalarini buzgan kishilar 400 qamchi urish bilan jazolanganlar.

Zardushtiylik ta'limotida ovqatlanish qoidalari xususida batafsil so‘z yuritilib, ularga qat'iy rioya etish lozimligi aloxida ta'kidlanadi. Zero, insonning salomat bo‘lishi, o‘z burchlarini to‘laqonli ado eta olish imkoniyatiga egaligi uning ovqatlanish qoidalariga nechog‘li amal qilganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Darxaqiqat, inson ovqatlanmasa fuqarolik, xizmat va axloqiy burchni xam bajara olmaydi. Insonning ma'naviy xayoti uning moddiy turmush tarzi bilan aloqador ekanligi asarda aloxida qayd etilgan, Xususan, “Yasna”larda “yeb-ichmaydigan insonning toat-ibodat qilishga quvvati yetmaydi”, - deyiladi.

Zardushtiylikda kishini xoldan toydiradi degan fikrga ko‘ra ro‘za tutish man etilgan. Inson xoldan toysa, o‘z zimmasiga yuklangan vazifani bajara olmaydi, ya'ni, Axura Mazdaga yordam bera olmaydi, bu esa yovuz kuchlarning ezgulik kuchlari ustidan g‘alaba qilishiga sharoit yaratib beradi, deyiladi. Och qolish va yaxshi ovqatlanmaslikning inson xulqining shakllanishiga xam ta'sir etishi quyidagicha ta'kidlanadi: “Oziq-ovqat yaxshilanishi bilan xalqning axloq-odobi xam kuchayadi. Non mo‘l-ko‘l bo‘lsa, axloqiy so‘zlar, iloxiy fikrlar yaxshiroq idrok qilinadi”. Zardushtiylikda may iste'mol qilish ta'qiqlanmagan. Mayni me'yorida iste'mol qilish kishi organizmini mustaxkamlaydi, ya'ni, ovqat yaxshi xazm bo‘ladi, qon yaxshi yurishadi, kishi yaxshi uxlaydi, bu xolatlar esa uning unumli ravishda aqliy mexnat qilishiga yordam beradi, kishilar o‘rtasida do‘stona munosabatlarning qaror topishiga ko‘maklashadi, axloqi yomon kishilar bilan axloqi yaxshi kishilarni bir-biridan ajratib olishiga yordam berishi qayd etib o‘tiladi.

Zardushtiylikda dunyoviy noz-ne'matlardan voz kechish talab etilmaydi, balki noz-ne'matlarni me'yorida iste'mol qilish, ularning mazasidan lazzat olish, inson xayotining “yaxshi kun ko‘rish uchun zarur narsalar mo‘l-ko‘lchiligida” xushchaqchaqlik va baxtiyorlik bilan o‘tkazishi lozimligi to‘g‘risidagi fikrlar ilgari suriladi.

“Ard Yasht”ning 17-bobi baxt muammosiga bag‘ishlanib, unda moddiy farovonlikka erishish birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Axloqan mukammal bo‘lgan insonning baxt-saodatga erishishi muqarrar ekanligi ta'kidlanadi. Insonning baxt-saodatga ega ekanligini ko‘rsatuvchi omillar sifatida quyidagi xolatlar keltiriladi: uning sog‘-salomatligi, uzoq umr ko‘rganligi, sevimli xotini va bolalarining borligi, shuningdek, oziq-ovqatining mo‘l-ko‘lligi. Ularning uy-joylari shinam, chorvasi mo‘l, uzoq-uzoq vaqtlargacha mo‘l-ko‘lchilikda yashaydilar.

Biroq baxt-saodatga erishish uchun mexnat qilish lozim. Shu bois, baxtga erishishning yagona va ishonchli yo‘li mexnat qilish ekanligiga aloxida e'tibor

qaratiladi: “Chorvadorlar to‘q bo‘lsin uchun chorvani muttasil parvarish qilmoq lozim”.

Zardushtiylik ta'limotiga ko‘ra oila muqaddas xisoblangan. Oila qurish ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Erkak kishi zurriyot qoldirish layoqatiga ega bo‘lgan xolda oila qurmasa, unga muayyan jazo berilgan. U qopga solib kaltaklangan, peshonasiga tang‘a bosilgan yoki beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur etilgan. Ko‘p bolali oilalarning davlat tomonidan mablag‘ bilan ta'minlashi yo‘lga qo‘yilgan. Egizak yoki bir yo‘la uchta farzand ko‘rgan ayollarning maxsus ravishda taqdirlanishlari e'tirof etilgan. Zardusht g‘oyalariga ko‘ra naslning sog‘lom bo‘lishi, qavm qonini toza saqlash, turli irsiy kasalliklar kelib chiqishining oldini olish maqsadida yaqin qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi man etilgan.

“Avesto”da inson omili, uning salomatligini ta'minlash masalasi aloxida bayon etilgan. Bugungi kunda xalq tabobatida qo‘llanilib kelayotgan va kishilar salomatligi saqlashda muxim ahamiyat kasb etgan ayrim usullar xususida ma'lumotlar beriladi. Bildirilgan fikrlar mazmuniga ko‘ra mavjud kasalliklarni davolashda dorivor o‘simlik (giyox)lar yordamida tayyorlangan vositalardan samarali foydalanilgani ma'lum bo‘ladi. Ana shunday dorivor vositalar sirasida kunjut, ko‘knori, zira, piyoz, savsan, turp, xurmo, sabzi, bexi, asal, zaytun moyi, shakar, shira xamda sedananing nomi qayd etiladi. Ayrim kasalliklarni bartaraf etishda dorivor o‘simliklarning ildizi, poyasi, bargi, guli, mevasi va urug‘laridan tayyorlangan qaynatmalarning foydasi katta ekanligi ta'kidlanadi. Kasalliklar rivojlanish davri, xolati va turiga ko‘ra rejim asosida, duo o‘qitish, parhez saqlash, dori iste'mol qilish, shuningdek, jarroxlik amallarini tashkil etish kabi yo‘llar bilan davolangan. Asarda tabiblar tomonidan e'tirof etilgan va ularning faoliyatlarida asosiy axloqiy-ma'naviy g‘oya bo‘lib xizmat qilgan qasamnoma matni xam keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Avesto” asarida insonning barkamol bo‘lib yetishishida uning **so‘zi, fikri xamda ishi ezgu bo‘lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga** katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g‘oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo‘lgan. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy jixatdan kamol topishi uchun zarur bo‘lgan muayyan talablar o‘z ifodasini topib, xayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq balki /arb xalqlarining xam muxim ma'naviy merosi bo‘lib qoldi. Asarda ifoda etilayotgan masalalarning ijtimoiy xayotning barcha jabxalarini qamrab olganligi Zardusht g‘oyalarining nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmatini bugungi kunda xam yuqori bo‘lishiga olib kelgan.

### **3. Qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida tarbiyaga doir fikrlar**

Turkiy xalqlarning yozma ma'rifiy yodgorliklari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, pedagogika tarixi, xususan, yosh avlod tarbiyasida muxim ahamiyat kasb etadi. Bular “Urxun-yenisey yodgorliklari”, “Irq yozuvlari” (“Ta'birnoma”) kabi manbalar bo‘lib, ulardan yangi davr kishisini tarbiyalashda foydalanish muxim vazifalardan sanaladi.

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-rumiy yozuvida bitilgan Urxun-yenisey bitiklarini “toshlarga bitilgan kitoblar” xam deb ataydilar. O‘ziga xos xat

(yozuv)da bitilgan bu bitiklar eramizning VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan. Toshlarga bitilgan mazkur yodgorliklar ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Urxun-yenisey yodgorliklari dastlab yenisey xavzasida, so'ngra Mo'g'ilistonning Urxun daryosi bo'yida topilib, ushbu yozuvlarni 1893 yilda birinchi bo'lib daniyalik olim Vilgelm Tomson o'qigan. V.Tomsondan so'ng olimlar – N.M.Yadrinsev, V.V.Radlovlar mazkur manbalarni izlab topib, o'qishga muvaffaq bo'ldilar.

Urxun-yenisey yodgorliklari S.ye.Malov xamda I.V.Steblevalar tomonidan rus tiliga tarjima qilindi. O'zbekistonda Oybek, O.Sharafuddinov, N.Mallaev, Aziz qayumov va N.Raxmonovlar Urxun-yenisey bitiklari ustida tadqiqot ishlarini olib bordilar va ushbu manbaning ta'lim va tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishdagi ahamiyatini yoritib berdilar.

Ma'lumki, eramizning VI asri o'rtalariga kelib, Oltoy, yettisuv va Markaziy Osiyo xududlarida yashovchi turk qabilalaridan iborat Turk xoqonligi davlati tarkib topdi. Bu xoqonlik g'arbdan Vizantiya, janubdan Eron va Xindiston, sharqdan Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan. Turk xoqonligi Turkyut davlati deb xam atalgan. Xoqonlik 604 yilda Sharqiy va /arbiy xoqonlikka ajralgan. Eramizning 745 yiliga kelib esa Turk xoqonligi barxam topgan.

Turk xoqonligi asosan uch kishi: Bilga xoqon (Mog'iliyon), Kultegin, Tunyukuklar tomonidan boshqarilgan. Bilga xoqon (Mog'iliyon) - xoqon, Kultegin – sarkarda, Tunyukuk esa - vazir bo'lib, ularning xamkorligida boshqarilgan davlat ushbu davrda ijtimoiy va iqtisodiy jixatdan taraqqiy etgan.

Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklardan biri sanalgan "Irq bitigi" ("Ta'birnoma") xam Urxun-yenisey yodgorliklari sirasida ta'lim-tarbiya tarixida o'z o'rniga ega. Mazkur qo'lyozmani XIX asr oxirida A.Steyn Sharqiy Turkistonning Dinxuan degan joyidan topgan. Xozirgi kunga qadar "Irq bitigi" va uning mohiyati xususida batafsil, to'laqonli ma'lumotlarga ega emasmiz. Ayni vaqtda manba N.Raxmonov tomonidan tuzilgan "qadimiy xikmatlar" kitobi va unda keltirilgan ma'lumotlardir. Yodnoma qog'ozga yozilgan birdan bir, yagona qadimiy turkiy yodgorlik bo'lib, yuz betdan ortiq saxifadan iborat kitob tarzida bizgacha yetib kelgan. Asar Isig Sangun va Ite Chuq ismli moniy jamoasining a'zolari bo'lgan ikki bola uchun bitilgan. Asar boshidan oxirigacha nima yaxshi-yu, nima yomonligini bolalarga tushuntirish tarzida yozilgan. Asarda bayon etilgan yaxshi va yomonlik ta'rifi negizida axloqiy talablar o'ziga xos shaklda talqin etiladi. Mazkur asar turkiy xalqlarning turmushi, axloqiy munosabatlari mazmuni to'g'risida ma'lumotlar beradi. Ijtimoiy munosabatlar mohiyati asosan qushlar va xayvonlar obrazi orqali ochib beriladi.

"Irq bitigi"da eng qadimgi ajdodlarimizning mifologik xamda totemistik qarashlari xalq og'zaki ijodi namunalari tarzida o'z aksini topgan. An'anaga ko'ra, xar bir epizodda yaxshilik g'oyalari targ'ib etiladi.

Voqyealar tush va uning ta'birlari tarzida yoritiladi. Ba'zi tushlar yaxshilikning, ba'zilari esa yomonlikning timsoli deya ta'bir qilinadi. Inson doimo turmushi, xayotining yaxshi kechishini orzu qilgan. Ana shunga intilgan. U o'z orzulariga yetishishiga ishongan, bu yo'lda Tangri yordami vp madadiga tayangan. "Irq bitigi"da bu xolat juda ishonarli tarzda bayon etilgan.

Yovuz kuchlarning timsoli bo'lgan tuman xamda to'zon yordamida to'g'ri yo'ldan adashtirilgan, sarson-sargardonlik, xoru-zorlikka maxkum etilgan jonli mavjudotlar - qushlar, kiyiklar va odam bolalari buyuklik va qudratning timsoli bo'lgan – osmon, uning sharofati tufayli yana bir-birlari bilan ko'rishishga muyassar



bo'ldilar, birga xayot kechira boshladilar. She'riy misralarda o'z ifodasini topgan mazkur g'oyalardan yer yuzidagi mavjud xayot qushlar, xayvonlar xamda odamlardan iborat yagona biologik (hozirda keng qo'llanilayotgan ekologik)tizimni tashkil etishlari to'g'risida bolalar (ayni vaqtda odamlar)ga tushuncha berishga yo'naltirilgan xarakat mazmuni anglaniladi.

Inson doimo yaxshi xayot kechirishga intilar ekan, bu yo'lda u juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi. Lekin inson qiyinchiliklarni ilohiy qudrat - Tangri yordamida yengib o'tib, go'zal xayotga yetishishadi. Ana shu xolat xam ta'birlarida o'z aksini topgan.

Ammo yaxshilik bor joyda unga yomonlik xam mavjud bo'ladi. Ayrim tushlarga nisbatan berilayotgan ta'birlarda yomon xodisa-voqyealar negizida yomonlikning yotishiga aloxida urg'u beriladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqi tomonidan eng qadimgi davrlardan eramizning IX asrigacha qaror toptirilgan ma'rifiy qarashlari inson shaxsining shakllanishida, uning kamolotini ta'minlashda muxim axamiyat kasb etadi. Ularda turkiy xalqlarning inson xulq-odobi va uni tarbiyalashga oid dastlabki tasavvurlari ifodalangan. Muayyan turmush tarzini qaror toptiruvchi ijtimoiy shart-sharoitga ko'ra inson axloqiga nisbatan qo'yilayotgan axloqiy talablar moxiyati xam o'zgarib borgan. Biroq xar qanday zamon va makonda xam inson ezgulikning jaxolat, yaxshilikning yomonlik va ziyoning zulmat ustidan g'olib kelishini istagan va ana shu istagi insonning ma'naviy kamolotini belgilovchi asosiy mezon bo'lib, axloq-odobga oid qarashlar mazmunida markaziy o'rin egallagan. Mazkur xolatni yuqorida so'z yuritilgan eng qadimgi ma'rifiy meros namunalari misolida xam yaqqol ko'rishga muayassar bo'ldik.

## **2-mavzu: VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha o'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.**

### **Reja:**

1. Movorounnahrda Islom dini g'oyalari yoyilishining ta'lim-tarbiyaga ta'siri, musulmon maktablarida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya mazmuni
2. Islom dinining muqaddas manbalari ("Qur'on" va "Hadis")-musulmon maktablari ta'lim – tarbiyasining g'oyaviy asoslari.
3. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari.

**Mavzuning maqsadi:** Talabalarni Movorounnahrda Islom dini g'oyalari yoyilishining ta'lim-tarbiyaga ta'siri, musulmon maktablarida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya mazmuni, hadis ilmining paydo bo'lishi, muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinolarning umumpedagogik hamda didaktik g'oyalari, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Unsurul-Maoliy Kaykovus, Ahmad Yugnakiylarning ta'limiy-axloqiy qarashlari bilan tanishtirish.

### **Mavzuning vazifasi:**

- Movorounnahrda Islom dini g'oyalari yoyilishining ta'lim-tarbiyaga ta'siri, musulmon maktablarida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya mazmuni bilan tanishtirish
- Islom dinining muqaddas manbalari haqida tasavvur hosil qilish

- Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari bilan tanishtirish
- Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinolarning umumpedagogik hamda didaktik g'oyalari bilan tanishtirish.
- Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Unsurul-Maoliy Kaykovus, Ahmad Yugnakiylarning ta'limiy-axloqiy qarashlari bilan tanishtirish.

**Tayanch iboralar:** Movorounnahr, Islom dini g'oyalari, ta'lim-tarbiya, musulmon maktablari, Islom dinining muqaddas manbalari ("Qur'on" va "Hadis"), musulmon maktablari, hadis ilmi, muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar), Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Unsurul-Maoliy Kaykovus, Ahmad Yugnakiy.

Islom dini ta'limotida «qur'oni karim»dan keyin asosiy manba hadislardir. Hadis ilmi bilan shug'ullanish asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, unga eng bilimdon, mo'tabar shaxslargina tartib bergan. Ma'lumotlarga qaragan-da, VIII—XI asrlarda to'rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug'ullangan. Biz bu manbalarning kupi bilan tanish emasmiz. Keyingi yillarda Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-Jome' as-sahiq», «Al-adab al-mufrad» asarlari tarjima qili-nyb nashr etildi. At-Termiziyning «Ash-Shamoili an-Nabaviya» asari hamda ularga yozilgan so'zboshilar, ba'zi kichik risola va maqolalar chop etildi. Biz ana shu manbalarga tayangan holda fikrlarimizni bayon etamiz.

«Hadis» yoki «sunna» so'zlari bir ma'noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat.

Muhammad alayhissalomning ibratli ishlari, e'tiqod, poklik va insonga xos ma'naviy-axloqiy hislatlarni ifodalovchi so'zlari, pand-nasihatlari uning nomi bilan bog'liq hadislarda mujassamlangan.

Hadislar dastlab yozib borilmagan. Chunki payg'ambarimiz qur'oni Karim nozil bo'lgan vaqtlarda arab bo'lmagan kishilarning hadislarini qur'on oyatlaridan deb o'ylashlaridan cho'chib, uni yozib borishlariga ruhsat etmaganlar. Lekin payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhivasallam huzurida sahobalar bo'lib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarini yodlab borganlar. Masalan, Hazrati Abu Xurayra shunday mo'tabar kishilardan bo'lib, butun umrini hadislarini yodlashga baxsh etgan. Mazkur hadislar to'g'ri, ishonarli (sahih) bo'lgan.

Lekin, hadislarini yod olgan kishilar tobora kamaya borgani hamda asta-sekin ular unutilib ketishining oldi olinib, xalifalar ishonarli hadislarini to'plashga farmon berdilar. Islomshunos olimlar bu ishni boshida turgan dastlabki xalifa Umar ibn Abdulaziz ekanligini ta'kidlaydilar.

Hadislarini birinchi marta yozish bilan mashg'ul bo'lgan muhaddislar Rabe bin Sabeh, Sayd bin Abi Aruba, Molik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzoiy Shoshiy, Sufyon Savriy qufiy va boshqalar deb ko'rsatiladi.

VIII—IX asrlar hadis ilmi uchun «oltin davr» hisoblanadi. Bu davrga kelib, islom ulamolari tomonidan hadislarining qay darajada to'g'riligi, qanday manbalarga tayanganligi tadqiq etila boshlanadi. Chunki, ba'zi soxta, ishonchsiz hadislar ham paydo bo'la boshlagan, ularni tekshirib, asl hadislarini tiklash va yozma ravishda qayd qilish zamon talabi bo'lib qolgan edi. Shuning uchun ham birinchidan, hadislarini yoddan biluvchi haqiqiy bilimdon, o'tkir muhofazali kishilarning asta-sekin kamayib

ketayotganligi, ikkinchidan, hadislarning haqiqiy, ishonarli, Ya'ni sahihlarini saqlab qolish maqsadida hadislar tekshirilib, asl holiga qaytarilib, yozib yig'na boshlangan. Ana shu tarzda hadis ilmi rivojlana boshlagan.

Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan olgita ishonchli to'plam (as-sahih as-sitta)ni yaratgan muhaddislar ham vatandoshlarimiz bo'lib, hadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810)—256 (870), Imom Muslim ibn al-Xajjoj 206 (819)—261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy 209 (824)—279 (892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniyy 202 (817)—275 (880), Imom Ahmad an-Naso'iy 215 (830)—303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn YAzid ibn Mojja 209 (824)—273 (886) kabi allomalardir. Olimlar «al-kutub as-sitta» (olti kitob)ni quyidagilardan iborat deb ko'rsatadilar.

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan «As-Sahih».

2. Imom Muslim an-Nishopuriy (Imom Muslim ibn al-Hajjoj) tomonidan yozilgan «As-Sahih».

3. Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan «Sunnan».

4. Imom Abu Dovud Sulaymon-Sijistoniyy tomonidan yozilgan «Sunnan».

5. Imom ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan «Aj-jami al-kabir».

6. Ahmad an-Naso'iy tomonidan yozilgan «Sunnan» kabi to'plamlardir.

Hadis ta'lif etishda asosan, uch yo'nalish paydo bo'lgan.

1. «Musnad» yo'nalishi. Bunda turli mavzudagi hadislar bir joyda keltirilib, alifbo tartibida joylashtirilgan. Abdulloh ibn Muso, Imom Ahmad ibn Hanbal hadislarni ana shu yo'nalishda to'plaganlar.

2. «Sahih» (ishonchli) yo'nalishi. Bunga Imom Buxoriy asos solganlar. Bularga to'g'ri, ishonarli hadislar kiritilgan.

3. «Sunnan» yo'nalishidagi hadislar. Mazkur yo'nalishdagi hadislarga to'g'ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda, «zaif» hadislar ham kiritilgan. Abu Dovud, Iso at-Termiziy, an-Naso'iy, ibn Mojjarlar Shunday yo'nalishdagi hadislarni to'plagan muhaddislar.

Movarounnahrda birinchi bo'lib hadis to'plagan muhaddis Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy sanaladi. Yana vatandoshlarimizdan Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rahovayh al-Marvaziy, Imom al-Haysam ibn qulayb ash-SHoshiy, Hofiz al-Xorazmiy, Imom Abdulhasan Ahmad ibn Muhammad as-Samarqandiy va boshqalardir.

«Sahih» yo'nalishining asoschisi, eng etuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Buxoriy hadis ilmida «Amir ulmo''minin», «Imom al-muhaddisiyn» («Barcha muhaddislarning peshvosi») degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan. U 810 yil, 13 mayda (ba'zi manbalarda 810 yil, 20 iyulda) (hijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tug'ilgan. Go'dakligida otadan etim qolgan. Maktabda savod chiqargan, 10 yoshidanoq arab tili va kitoblaridan ularni yodlay boshlaydi. Al-Buxoriy hadis ilmini katta qiziqish bilan o'rgana boshlaydi. YOshlik chog'idan boshlab turli roviylardan eshitgan hadislarni yodlab borar edi. Abdulloh ibn al-Muborak, Vaqi' ibn Jarroh kabi olimlar to'plagan hadislarni yod olgan, hadis rivoyatchilari haqidagi bahslarda qatnashgan.

Al-Buxoriy 825 yilda, o'n olti yoshida onasi va akasi bilan Hijozga safar qiladi. Makkayu Mukarrama va Madinayu Munavvarada bo'lib, haj ibodatini ado etadi. Balx, Basra, Kufa, Bag'dod, Xume, Damashq, Misr, Makka va Madinada bo'lib, safar

jarayonida muhaddislardan hadis o'qir edi. Olti yil Hijozda qolib, hadis ilmidan ta'lim oladi. Shu bilan birga, Damashq, qohira, Basra, Bag'dod shaharlarida mashhur olimlardan fiqh ilmidan dars oladi, o'zi ham bahs va munozaralarda qatnashadi, tolibu ilmlarga dars ham beradi.

Imom Buxoriy iste'dodli, o'tkir muhofazali, ziyarak olim bo'lgan. «Manbalarga ko'ra, Bag'dodda istiqomat qilgan paytida ko'pincha oyning nurida ijod qilib, qorong'i kechalari sham yorug'ida kitob yozar ekan. Agar tunda behosdan biror-bir fikr-mulohaza kelib qolsa, shamni yoqib darhol fikrini qog'ozga tushirar, shu taxlitda ba'zi kechalari shamni yigirma martagacha o'chirib-yoqar ekan».

Imom Buxoriyning o'tkir zehn egasi ekanligini quyidagi misoldan ham bilish mumkin.

Rivoyatlarga ko'ra «U qaysi bir kitobni qo'lga olib, bir marotaba mutolaa qilsa, hammasi yod qolaverardi». Imom Buxoriyning o'z so'ziga ko'ra, yuz ming sahih (ishonchli) va ikki yuz ming g'ayri sahih (ishonchsiz) hadisni yod bilar ekan. O'z shogirdlaridan Amir ibn Fallos «Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma'lum bo'lmagan hadis, albatta ishonchli hadis emasdur»,— deydi. Ustozi Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziyning aytishicha, «Butun Xurosondan Muhammad ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas».

Imom Buxoriyning o'tkir zehni haqida Shunday rivoyat keltiriladi: «Imom Buxoriy bilan Basrada hadis darsiga qatnashgan sheriklaridan biri Hoshid ibn Ismoil aytadn: «Imom Buxoriy bizlar bilan birga ustozning darsini eshitardi. Ustoz rivoyat qilgan hadislarini biz yozib olar edik, ammo Buxoriy faqat quloq solibgina o'tirardi. SHu tarzda qancha kunlar o'tib, orada ustoz qariyb 15 ming hadis rivoyat qildi. SHunda biz Buxoriyga: «Sen nega hadislarini yozmaysan?»—deb ta'na qilgan vaqtimizda: «Sizlar yozib borayotgan hadislarini men ustoz og'zidan yodlab olayotirman»,—dedida, ustoz rivoyat qilgan hamma hadislarini bir chekkadan yoddan o'qib berdi. Shundan keyin biz yozib olgan hadislarimizdagi xatolarni uning yodlaganidan tuzatib oladigan bo'ldik».

Imom Buxoriy juda ko'p zabardast olimlardan ta'lim oladi. Manbalarda uning ustozlarini to'qsonga yaqin deb ko'rsatishadi. Muhammad ibn Yusuf al-g'artobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy, ibn Rahavayh nomi bilan mashhur imom Ishoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madiyniylar uning ustozlaridir.

Imom al-Buxoriyning o'zi ham yirik va mashhur olimlar Ishoq ibn Muhammad al-Ramoziy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalaf ibn qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Muhammad ibn Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn Al-Hajjohlarga o'z vaqtida ustozlik qilgan.

Imom Buxoriy o'ta kamtar, nnsoparvar, xulq-odobda tengsiz, sahovatli inson ham bo'lgan. U hadis ilmining etuk olimi bo'lsa ham, vaqti kelganda zamondoshlari, shogirdlaridan ham o'rgangan. Imom Buxoriy bir ming saksonta muhaddisdan hadis eshitgan. Undan to'qson ming kishi ishonarli hadislarini eshitgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisni to'plagan, 100 ming «sahih» va 200 ming «g'ayri sahih» hadislarini yod olgan.

Imom al-Buxoriy uzok, safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talabalar va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va uning targ'ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko'ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad ibn Xolid az-Zuhaliy uni saroyga kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Buxoriy bu taklifni qabul etmaydi va: «Men ilmni xorlab sultonu amirlar eshigiga olib

bormayman. Agar amirga ilm kerak bo'lsa, bolalarni (ikkinchi rivoyatda saroyidagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin»,— deb javob beradi. Al-Buxoriy bilan amir Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy munosabatlariga rahna tushadi. Bunga ba'zi hasadgo'y Shaxslarning ig'volari ham sabab bo'ladi. Amir buyuk allomani shahardan chiqib ketishga farmon beradi. Uni Samarqand ulamolari o'z yurtlariga taklif etadilar. Imom Buxoriy yo'lga chiqadi. Ammo Samarqandga yaqin Haftang qishlog'ida (hozirgi Poyariq tumani) betob bo'lib qoladi va shu erda hijriy 256 yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 870 yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu erga dafn etiladi.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, Imom al-Buxoriy juda boy ijodiy meros qoldirgan. Uning «Al-Jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Al-adab al-mufrad», «At-Tarix al-kibor» («Katta tarix»), «At-Tarix as-sag'iy», («Kichik tarix»), «Al-qiroatu xalfa-l-Imom» («Imom ortida turib o'qish»), «Vaf'ul-yadini fi-s-Saloti» («Namozda ikki qo'lni ko'tarish») kabi ishlari mavjud bo'lib, qo'lyozmalari bizgacha etib kelgan. Ammo «At-Tarix al-avsat» («O'rta tarix»), «At-Tafsir al-kabir» («Katta tafsir»), «Al-Jome' al-kabir» («Katta to'plam»), «Kitob-ul-hiba» («Hadya kitobi») nomli asarlari ham bo'lganligi ma'lum, lekin bular bizgacha etib kelmagan. SHubhasiz, bu asarlaridan eng etuk, shoh asari «Al-Jome'-as-sahih» dir. Bu asar «Sahih al-Buxoriy» no mi bilan ham dunyoda mashhur. 4 jilddan iborat mazkur kitobda payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hadislaridan tashqari, islom huquqshunosligi, islom marosimlari, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, tarix va etnografiyaga oid ma'lumotlar ham berilgan. Unga 600 ming hadisdak 7275 ta eng «sahih» hadislar kiritilgan bo'lib, takrorlanmaydigan 4000 hadisdan iboratdir. Bu kitob islom ta'limotida qur'oni karimdan keyingi manba hisoblanadi.

Ma'lumki, Islom dini insonni ma'naviy kamolot sari etaklovchi ta'limot. SHu sababli qur'oni Karimda ham, hadislarda ham yaxshi xulq va odob keng targ'ib etilgan. Shariat talablari bilan bir qatorda, hadislarda axloqqa doirlari, ayniqsa muhim. Imom Buxoriy ham 4 jildli «Al Jome' as-sahih» asarining bir jildida odob haqidagi hadislarini jam' etgan. Keyinchalik alloma butun Islom olami odob-axloqi va tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan «Al-adab al-mufrad» nomli («Adab durdonalari») maxsus hadislar to'plamini yaratadi. Bu asar 644 bobda bayon etilgan 1322 hadisdan iborat.

Mashhur muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Abu Iso at-Termiziy bo'lib, u 824 yilda Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Surxondaryo viloyatshshng Sherobod tumanida) qishlog'ida tug'ilgan. Uning oilasi va ota-onasi haqida ma'lumotlar yo'q. Ba'zi tadqiqotchilar uning otasi asli marvlik bo'lgan deb qayd etadilar.

U bolaligidan ilmga qiziqqan bo'lib, ayniqsa hadis ilmini chuqur egallagan.

At-Termiziy 950 yildan qator mamlakatlarga safar qiladi. Hijozda bo'lib, Makka va Madinani ziyorat qiladi, Iroq, Xurosonda hadis ilmi, fiqh, ilmi al-qiroat, bayon, tarix va boshqa ilmlarni o'rganadi. Mana shu safarda at-Termiziy hadislarini to'play boshlaydi. Hadis ilmini o'rganishda mashhur muhaddis at-Termiziy ustozlari al-Buxoriyni alohida hurmat qiladi. Hatto manbalarda at-Termiziy ustozining vafoti tufayli ko'p yig'laganidan ko'zi ko'r bo'lib qolgan, degan fikrlar ham mavjud.

At-Termiziyning o'tkir zehni, xotirasi, yodlash qobiliyatining kuchliligi tufayli al-Buxoriy ham uni faqat shogird sifatida emas, o'ziga hamkor do'st sifatida ham hurmat qilgan. At-Termiziy uzoq safarida hadislarini to'plab, kitoblar ta'lif qilishga boshladi. U 863 yilda o'z vataniga qaytdi va o'zi ham shogirdlarga ta'lim berib, ham kitoblar yozdi.

At-Termiziyning o'ndan ortiq asarlar yaratganligi ma'lum. Bular «Al-Jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Ash-Shamoil an-Nabaviya» («Payg'ambarning alohida fazilatlarini»), «Al-ilal fil-hadiys» («Hadislardagi illatlar va og'ishlar haqida») asarlari mashhurdir.

At-Termiziyning yozib qoldirgan asarlaridagi hadislar ham al-Buxoriy hadislariga kabi insonni halollik, adolat, e'tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatlilik, mehr-shafkat, kattalarga, ota-ona va qarindoshlarga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

At-Termiziy 892 yilda o'z vatanida vafot etdi. Hadislarda insonning kamolga etishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga g'amxo'rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro dust, tinich-totuv bo'lish va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyish, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z ifodasini topganki, bularning barchasi qur'oni Karim ko'rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sanaladi.

Avvalo, Islom aqidasi binoan har bir musulmon iymonli bo'lishi kerakdir. Qur'oni Karimda ta'kidlanganidek, hadisning ham birinchi kitobi iymon kitobidir. Islomdan murod iymon demakdir. Iymonning mukammal bo'lmog'ining uch sharti ko'rsatiladi:

- to'g'ri e'tiqodli bo'lmoq;
- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq;
- kishi o'z ustida ishlamoq va o'zini ibodat va itoatga chiniqtirmoq.

Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deb, iymon belgilari sanab o'tiladiki, bularning har biri inson ma'naviy qiyofasining mukammallashuviga ta'sir etuvchi hislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: «qo'li bilan va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan kishi musulmondur»; «O'zi yaxshi ko'rgan narsani birodaringizga ravo ko'rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo'min bo'la olmaysiz» (3-, 4-, 6-boblar); «Uchta hislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lgaydir:

- insofli va adolatli bo'lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq».

Bundan tashqari, kishilar uchun xos bo'lmagan munofiqlik illatlari ham ko'rsatib o'tiladi: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam aytganlar: «Quyidagi to'rtta illat kimda bo'lsa, aniq munofiq bo'lg'aydir, kimdagi ulardan bittasi bo'lsa, uni tark etmaguncha munofiqlikdan bir illati bor ekan, deyiladi:

- omonatga hiyonat qilgaydir;
- so'zlasa yolg'on so'zlagaydir;
- shartnoma tuzsa, shartida turmagaydir;
- urishib qolsa, kek saqlagaydir va nohaqlik qilgaydir (25-bob).

Hadislarda insonning ma'naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o'z bilimi bilan atrofida qilargana, jamiyatga foyda keltiruvchi Shaxs bo'lib etishishida muhim omil — bilim deb ko'rsatiladi. «Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig'for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham». Bilimsizlik kishilarni nodonlikka olib keladi, ilmsiz jamiyatda esa jaholat, razolat hukmronlik qiladi, deyiladi. «Ilm o'rganmoq va

o'rgatmoqning fazilati» hadisida (21-bob, 35-bet) ilmni ko'p yoqqan yomg'irga o'xshatiladi va ilm ahlini uch turga bo'ladi: «Ba'zi er sof, unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradir-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradir va ba'zi er qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan o'zida to'playdir, unda Olloh taolo bandalarini foydalantirgayerdir. Odamlar suvdan ichgayerdir, hayvonlarini va ekinlarini sug'orgayerdir. Ba'zi er esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydir, ko'katni ham ko'kartirmayerdir. Bularni quyidagicha muqoyasa qilish mumkindir: Bir kishi Olloh ilmni (islomni) teran o'rgangandir, teran tushunadir va undan manfaatlanadir va Olloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadir. Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadir. Ammo o'zi amal qilmayerdir. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydir, o'zgalarga ham o'rgatmaydir».

Ammo ilmga e'tiborsizlik va nodonlik (jaholat)ning avj olishi jamiyatning inqiroziga olib keladi, deyiladi. Shuning uchun «Ilmga amal va rioya qiluvchi bo'linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo'lmanglar»,— deyiladi 637-hadisda (100-bet). Albatta, islomda ikki xil ilm haqida fikr yuritiladi: biri huquqiy (fiqh), diniy yo'l-yo'riqlar ilmi bo'lsa, ikkinchisi dunyoviy ilmlarni egallash nazarda tutiladi. Har ikkalasidan ham bilimga ega bo'lish har bir mo'min uchun farz hisoblanadi.

«Ilmning ofati uni unitishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoe qilishdir,— hadisida ilmni takrorlab borish, faqat ilm olishga ishtiyoqmand kishilargagina ilm berish ta'kidlanadi. Shuningdek hadislarda ilmning kishilarni fahm-farosatli, o'tkir zehnli, zukko, xotirani kuchli qilishdagi ahamiyati ham ta'kidlanadi va «Ilmu hunarni Xitoyda bo'lsa ham borib o'rganinglar» – deb da'vat etiladi. Shunga ko'ra, «Olim bo'l (ilm beruvchi bo'l) yoki ilm o'rganuvchi bo'l, yoki tinglovchi bo'l, yoki ilmga ta'lim ahliga muhabbatli bo'l. Beshinchisi bo'lma, halok bo'lasan»,— deyiladi (141-hadis, 61-bet). Hadislarda ilmning ahamiyati ham ko'rsatib o'tiladi. «Ilm ibodatdan afzal va u taqvo dinning ustunidir» (268-hadis, 95-bet.). Lekin ilmni manfaatsiz sarflashdan saqlanishga da'vat etiladi (173-hadis), haqiqiy komil inson bilimga boy, xushxulq, sog'lom bo'lishi (182-hadis), uni faqat foydali ishlarga, insonning farovon hayot kechirishiga sarf etish kerakligi ham uqtiriladi.

Ma'lumki, islomiy tarbiyada eng insoniy hislatlardan biri sifatida ota-onaga g'amxo'rlik, ularni e'zozlash, ota-ona haqqini o'z o'rniga qo'yish, farzand haqqi masalalariga e'tibor beriladi. Hadislarda ham ana shu tarbiya talablari o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, ota-onaga yaxshilik qilishga oid hadislarda eng katta gunohlardan to'qqiztasi, Ya'ni Alloh taologa shirk keltirish, odam o'ldirish, urush maydonidan qochish, afifa (o'zini pokiza saqlagan) xotinni fohisha deb tuhmat qilish, ribo (ijaraxo'rlik), etimlar molini emoq, Alloh taoloning borligini inkor qilish, odamlarni masxara qilish, kamsitish kabilar qatoriga ota-onasini xafa qilib, yig'latish katta gunoh sifatida qayd etiladi.

Ota-ona haqqini ado etish har bir farzand uchun farzdir. Hadislarda bular o'ta ta'sirli va ishonarli misollarda talqin etiladi: «Abdulloh ibn Umar, yamanlik bir odam o'z onasini opichlab, xonai Ka'bani tavof qildirib yurganini ko'rdilar. U odam quyidagi baytni ohang bilan o'qirdi:

Onai zorim uchun bo'ynimni eggan tevaman.

Tevaga mingan onam horsalar ham men charchamam.

U shuni o'qib turib Abdullohga qaradida, Ey, Abdulloh ibn Umar mana shu xizmatim bilan men onamning haqqini ado qilolmadimmi, deb so'radi. «Yo'q, bu xizmatim seni tug'ish vaqtida onangni qiynab tutgan to'lg'oqlarining bittasiga ham barobar emas», – dedi» (6-bob, 11-hadis).

Hadislarda ota-onaning dilini og'ritib, ozor berish xafa qilib, buyruqlarini bajarmaslik ham qoralanadi. Abdulloh ibn Amr (Roziyollohu anhu) aytadilar: Bir kishi Rasululloh huzurlariga hijrat qilmoq uchun bay'at qilishga keldi. Ammo ota-onasi uning ketishiga rozi bo'lmay, xafalikdan yig'lab qolgan edilar. Shunda Rasululloh: «Sen hozir ota-onang oldiga bor! Hijrat qilaman deb ularni xafa qilganingdek, endi hijrat qilmaydigan bo'ldim, deb ularni xursand qil»,—dedilar (13-hadis). Chunki Islomda eng katta gunoh Alloh Taologa shirk keltirish va ota-onaga «oq» bo'lish hisoblanishi 15-hadisda ta'kidlanadi. Yolg'onchilik bilan tuhmat qilmoq ham yomon gunohlardan ekanligi qayd etiladi.

Lekin ota-ona ham, o'z navbatida, farzandlarini tarbiyat etmog'i, odob o'rgatishi, yaxshilik qilishi lozimligi ta'kidlanadi: «Namir ibn Avs aytishlaricha, o'tmish kishilar bolalarning solih-qobil bo'lishlari Alloh Taoloning tavfiqi bilan bo'ladi, ammo ularga odob-axloq o'rgatish otalari vazifasidir der ekanlar» (92-hadis). Har bir kishi otasiga yaxshilik qilganidek, bolalariga ham yaxshilik qilishi shartligi, chunki inson bo'ynida ota haqqi bo'lganidek, bolaning ham haqqi borligi qur'oni Karimda ham, Hadisda ham uqtiriladi.

Hadislarda kishilarning bir-biri bilan do'st, tinch-totuv yashashi, muruvvatli, mehr-shafqatli bo'lishi kerakligi haqidagi g'oya ham ilgari suriladi. Bular opa-singil, aka-uka, qarindoshlar, qo'shnilar o'rtasidagi muomala-munosabatlarda namoyon bo'ladi. Haqiqiy ma'naviy yuksak inson ota-ona, opa-singil, aka-uka va yaqin kishilariga, qo'shnilariga yaxshilik qiladi, bu yaxshilik ular o'rtasidagi totuvlikni keltirib chiqaradiki, pirovard natijada tinch-totuv, farovon jamiyat taraqqiy etadi. Chunki har bir inson kelajak avlod xotirasida yaxshi ishlari bilan nom qoldiradi. Bu hadislarda shunday talqin etiladi: Mo'min kishiga vafotidan keyin savobi tegib, etib turadigan amali solihlar:

1. Tarqatgan ilmi.
2. Qoldirgan solix farzandi.
3. Meros qoldirgan qur'oni.
4. Qurgan masjidi.
5. Yo'lovchilar uchun qurgan mehmonxonasi.
6. Qazigan arig'i.
7. Tirikligida va sog'lomligida sadaqa-ehson uchun ajratgan moli (253- hadis)

Haqiqatan ham, inson hayotdan o'tadi, lekin u qilgan yaxshi ishlari: ilm-ma'rifat tarqatishda, xalq farovonligi yo'lida qilgan ishlari bilan halq orasida abadiy qoladi. Insonlarning eng yaxshi hislatlaridan yana biri sahovatdir.

Hadislarda ham inson kamolotining eng muhim ko'rinishlaridan sanalgan insonning sahovatli bo'lishiga katta e'tibor berilgan. Sahovatli inson jamiyat taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shadi, uning ravnaqi uchun jon kuydiradi. Hadislarda odamlarni ana shu hislatlariga ko'ra to'rt guruhga ajratiladi:

1. Alloh taolo bir bandaga mol bergan va ilm bergan. U bandaga berilgan mol va ilmning tasarrufida taqvo qiladi va silai rahm qiladi. Ilmi va molidan Alloh uchun haq ajratadi. Bu eng afzal o'rin.

2. Bir banda bor. Alloh unga ilm bergan, lekin mol bermagan. Lekin uning niyati to'g'ri: Agar Alloh menga mol bersaydi falonchiga o'xshab sarf kilardim. U shu niyatiga qarab teng ajr oladi.

3. Bir banda bor Alloh unga mol bergan, ilm bermagan. Mol tasarrufida Allohdan qo'rqmaydi. Molidan qarindoshlariga bermaydi. Bu esa eng yomon o'rindir.



4. Bir banda bor. Alloh unga mol ham, ilm ham bermagan. U aytadiki, agar Alloh menga ham bergandaydi falonchiga o'xshash ish qilardim. U shu niyati bilan o'sha kishiga barobar hisoblanadi (savob va gunohda).

Birinchi va ikkinchp guruhdagi odamlar ayni sahovatli insonlar qatoriga kiritiladi.

Xulq-odob haqidagi hadislarda eng ezgu insoniy hislatlar-ulug'lanib, gunoh sifatidagi illatlar qoralanadi.

Hadislarda insoniy hislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabi axloqiy hislatlar ulug'lansa, isrofgarchilik, ta'magirlik, ochko'zlik, nafsu havoga, shahvoniy hissiyotlarga berilish, baxillik, johillik kabi illatlar qoralanadi. «Yaxshi siyrat, chiroyli hay'at va har bir ishda iqtisodchilik etmish hislatdan bir bo'lagidir» (468- hadis),— deyiladi hadislarda.

Bunda yaxshi siyrat deganda yaxshi muomala, chiroyli hay'at – bu tashqi ko'rinishni yaxshilab yurish, iqtisod – har bir xatti-harakatda me'yorni ko'zlash nazarda tutiladi. Mazkur hislatlar Rasulullohning: «Sizlarning uchta ishingiz uchun Alloh Taolo rozi va uchta ishingiz uchun g'azablik bo'ladi: birinchisi, ibodatni Allohning o'zigagina qilib, ibodatga boshqa narsalarni unga sherik qilmasligingizga; ikkinchisi, Alloh Taoloning dini va qur'oniga e'tiqod qilmog'ingizga; uchinchisi, Alloh Taolo sizga boshliq qilib qo'ygan kishiga xayrixoh bo'lmog'ingizga rozi bo'lsa, bo'lar-bo'lmas gapni naql qilishib yurmog'ingizga, ko'p surishtiraverishlik yoki so'rashlik (gadoylik qilish) va molni noo'rin erlarga sarf qilib zoe qilmog'ingizga g'azablanadi», – deganlarini isbotlaydi (206-bob, 242-hadis).

Shu bilan birga, hadislarda yana kishilarni baxillik va mol-mulkka hirs qo'yishdan saqlanish kerakligi, kelajakka umid his-tuyg'ulari ham ifodalanadi. «Birortangiz ekish uchun qo'lingizda biror ko'chatni ushlab turgan vaqtingizda qiyomat qoyim bo'lib qolsa-yu, qoyim bo'lishidan ilgariroq uni ekib olishga ko'zingiz etsa, albatta ekib qo'ying», —deyilgani ham insonni hayotga, yashashga, kelajakka umid bilan qarashga undaydi.

Bundan tashqari, musulmonlarga xos udumlar, urf-odatlariga oid xulq-odob qoidalari bayon etiladi. Turli marosimlarni o'tkazish tartibi, safar qoidalari, salomlashish, muomala madaniyati, kasal holini so'rash odobi, kiyinish qoidalari, emoq-ichmok, so'zlashish odobi va hokazolar haqida turli tavsiyalar beriladiki, bular bevosita keyingi odob-axloq haqidagi risolalarga ham asos bo'la oladi.

Hadislarda jamiyatning, inson naslining rivojlanishiga ta'sir etuvchi muammolarga ham katta e'tibor berilgan. Bu muammolarning eng muhimi ekologik muammo bo'lib, necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan: ekinzorlarni himoya etish, daraxt o'tqazish, xarobazorlarni obod etish, ariq-zovurlar qazib suv chiqarish kabi ezgu ishlar ham rivoyat qilinadi. Masalan, tirik jonivorlarni o'ldirmaslik (shariatda o'ldi-rishga buyurilgan ilon, chayondan bo'lak), jonivorlarga yaxshilik qilish, ozor bermaslik, inson yashaydigan joyini, unga ozor beradigan narsalardan tozalash (227, 446- hadislar), kishilarga soya beruvchi daraxtlarni kesmaslik, hovli sahnlarini toza tutish haqidagi hadislar shunday ibratli hadislardir.

Hadislarda yomon ishlar, yomon illatlar, yomon xatti-harakatlar «gunoh» sifatida qoralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaqi uchun qilinadigan yaxshi ezgu xatti-harakatlar, faoliyat «savob» tarzida olqishlanadi.

Shunga ko'ra, etim molini eyish, mol-dunyoga hirs qo'yish, yolg'onchilik, g'iybatchilik, tuhmat, zino, ichkilikbozlik, giyohvandlik, foydasiz gapni ko'p gapirish va boshqa illatlar gunoh hisoblanadi. Ota-ona, keksalar, zaiflar va muhtojlarga

g'amxo'rlik, ularni yo'qlab turish, marhumlarni yaxshi so'zlar bilan xotirlash, birovlarining ustidan kulmaslik, omonatga xiyonat qilmaslik kabilar savob sanaladi.

Ma'lumki, inson kamoloti, bevosita uning salomatligiga ham bog'liqdir. Chunki sog'lom insongina ham oila, ham jamiyatning ravnaq topishi uchun faoliyat ko'rsatadigan kishi bo'lib etishadi. Hadislarda, umuman Islomda tozalik va poklikka, umuman ruhiy va jismoniy poklikka katta e'tibor beriladi. «Haq taolo o'zi pok, poklikni yaxshi ko'radi. O'zi toza, tozalikni yaxshi ko'radi. O'zi oliyhimmatdir, oliyhimmatlikni yaxshi ko'radi. O'zi ochiqqo'l, ochiqqo'llikni yaxshi ko'radi. Eshnlarning oldini pokiza tutinglar» (190-hadis).

Hadislarda inson erkiga ham katta ahamiyat berilgan.

Ma'lumki, sho'ro mafkurasida din, ayniqsa, islom insonnn huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan siquvda saqlaydi, deb tanqid qilingan. Vaholanki, Islomda inson har tomonlama etuk bo'lishi uchun u erkin bo'lishi kerakligi qur'oni Karimda ham, Hadisi Sharifda ham e'tirof etilgan: «Alloh Taologa amali solihlarning yaxshi ko'ringani agarchi oz bo'lsa ham davomlisidir. Alloh Taologa farzlardan so'ng amali solihlarning eng sevimlisp, musulmon kishining diliga xursandchilik solishdir» (33-hadis); «Alloh o'zi kechiruvchi zot, kechirguvchini yaxshi ko'radi» (119- hadis); «Alloh Taolo zulm qilmagan qozi bilan birgadir. Agar qozi jabr qilsa, Alloh undan uzoqlashadi va shayton unga yaqinlashadi» (194-hadis); 287-hadisda esa «Alloh Taolo uchun dinlarning qaysi biri sevimliroq?» deb so'ralganda, Rasululloh: «YAxshilik tomonga yuzlangan va inson uchun engil bo'lgan din»,— dedilar kabi hadislar buning dalilidir. Chunki inson qanchalik qadrlansa, barcha ezguliklar, yaxshiliklar insonga atalsa, uning manfaati uchun xizmat qilsa, inson ham shunga ko'ra kamol topaveradi, yuksaklikka ko'tariladi, o'z navbatida bunday insonlar yashaydigan jamiyat ham rivojlanaveradi.

Demak, hadislar Muhammad payg'ambarning sunnatlari bo'lib, mazmunan har bir mo''minning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan insonni ma'naviy kamolotga da'vat etadi. Islom dini ma'rifatga asoslangani uchun ham har bir Shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolga etkazishga oid e'tiqod va imondan iborat bo'lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, olijanob bo'lish, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qilib eyish, jaholat va jaholatparastlikka yo'l qo'ymaslik, o'z birodarining, qarindosh-urug'larining, millatining va vatanining qadriyatlarini asrashdan iboratdir». Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

### **3-4-MAVZULAR:SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA TA'LIMY-AXLOQIY FIKRLAR RIVOJI.**

Reja:

1. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniyning pedagogikaga qo'shgan hissasi
2. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinolarning umumpedagogik hamda didaktik g'oyalari.
3. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asarlari pandnoma asar sifatida
4. Unsurul-Maoliy Kaykovus, Ahmad Yugnakiylarning ta'limiy-axloqiy qarashlari.

Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida, g'oyat murakkab tarixiy davrda yashadi va ijod etdi. Abu Rayhon Beruniy 362 yil 3 zulhijjada (milodiy 973 yil 4 sentyabr) Xorazmning qiyot (Kot) shahrida dunyoga keldi. Berun yoki birun so'zi «tashqari» degan ma'noni anglatadi.

XIII asr boshlarida Xorazmda bo'lgan mashhur sayohatchi va geograf Yoqut Hamaviyning aytishicha, vatanidan tashqariga ketgan har bir kishini xorazmiyliklar «Beruniy» laqabi bilan ataganlar. Keyinchalik bu laqab shu an'anaga ko'ra uning nomiga qo'shilib qolgan bo'lsa ehtimol. Chunonchi, olimni Shaxsan bilgan mashhur tarixchi Abul Fazl Bayhaqiy unga nisbatan «Beruniy laqabini qo'llamay, faqat «Abu Rayhon» deb ataydi. «Abu Rayhon» esa «marhamatli», «rahmatli», «rahmdil» ma'nolarini bildiradi»,— degan fikrlarni ham aytadilar.

Abu Rayhon Beruniy boshlang'ich ta'limni olgach, o'sha davrda fan-madaniyat taraqqiy etgan Xorazmning peshqadam olimlaridan saboq oladi.

Beruniy Xorazm tili bilan birga so'g'diy, forsiy, suryoniy, yunon, qadimgi yahudiy tillarini, hatto qadimgi hind tili sanskritni ham o'rgangan. U yunon klassik ilmi, astronomiya, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix, etnografiya, falsafa va filologiyadan ham chuqur bilim oladi.

Beruniy yirik olim Abu Nasr ibn Iroqdan Evklid geometriyasi, Ptolemeyning astronomik ta'limotlaridan dars olgan.

Bundan tashqari o'zidan oldin o'tgan matematik, munajjim va geografiya olimi Muhammad Xorazmiy, geografiya olimi Abul Abbos, Ahmad Farg'oniy (IX asr), Markaziy (IX asr), Javhariy (IX asr), faylasuf va tabiatshunos Abu Nasr Forobiy, Abul Vafo Juzjoni (940-998), seyistonlik Abu Sayd as-Sijiy (951—1024), Abu Muhammad Hamid Xo'jandiy va boshqalarning asarlarini mustaqil o'rganadi.

995 yilgacha Beruniy astronomiya, geografiya, geodeziyaning amaliy masalalarini hal etish bilan birga, Sharqda birinchi bo'lib Er va Osmon globusini yasadi va astronomiyaga oid bir necha kitob yozdi («Kartografiya», «Globus yasash kitobi», «Erdagi joylarning uzunlama va kenglamalarini aniqlash haqida maqola» va boshqalar).

Beruniy hali juda yosh olim bo'lishiga qaramay, Kot shahrida 994-995 yillarda astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi astronomik asboblarni ixtiro etgan.

994-995 yillarda qoraxoniylar somoniylar davlatiga qarshi hujum qiladilar. Urganch amiri Ma'mun I tomonidan Beruniy ijod etayotgan Kot shahri zabt etilib (bu shahar Janubiy Xorazmning poytaxti bo'lgan), yagona Xorazm davlati tashkil topadi Amir Abu Abdullo Muhammad xizmatida bo'lgan Beruniy ham boshqa olimlar kabi Kot-qiyotni tark etib, Jurjon (Kaspiy dengizining janubi-Sharqi)da, so'ng Rayda (Tehron yaqinida) yashaydi. Raydan yana Jurjonga qaytib, olim va kelajakdagi ustoz Abu Sahl Iso Masihiy bilan tanishadi va undan ta'lim oladi.

O'sha davrda Xorazmda va Kaspiy oldi viloyatlarida qobus ibn Vushmagir yosh olimga xayrixohlik ko'rsatadi. «Shams al-Maoliy» («Oliy martabalar quyoshi») laqabi bilan mashhur bo'lgan bu podshohga bag'ishlab Beruniy «qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini yozadi va unga taqdim etadi. Bu asar Beruniy nomini YAqin va O'rta Sharqqa mashhur qildi 1004 yilda Beruniy Ma'mun II ibn Ma'mun tomonidan Xorazmga chaqirib olinadi va uning yaqin maslahatchisi bo'lib qoladi.

Ma'mun davrida Urganchda «Ma'mun akademiyasi» nomli ilmiy markaz tashkil etiladi va u erda musulmon Sharqining yirik olimlari faoliyat ko'rsatadi.

Beruniy bir necha yil kamyob metallar va qimmatbaho toshlar ustida kuzatishlar va tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida «Mineralogiya» asarini yaratadi.

1017—1018 yillarda yana taxt va hokimiyat uchun kurash boshlanib, Movarounnahrda qoraxoniylar davlati barpo etiladi. Xuroson va Afg'onistonda Mahmud g'aznaviy (998—1030) hukmronligi o'rnatilib, qoraxoniylar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Xorazm Mahmud davlatiga tobe bo'lib qoladi.

Ma'mun akademiyasidagi ko'plab olimlar qatori Beruniy ham g'aznaga olib ketiladi va u erda ko'p qiyinchiliklar bilan o'z ijodini davom ettiradi.

Beruniy bu erda o'zining «Xorazmning mashhur kishilari», «Tahdid nihoyot al-amokin li tashih masofot al-masokin» («Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash», Ya'ni «Geodeziya») asarini yaratdi. Bu asarda geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qa-torda paleontologik kuzatishlar natijalari ham bayon qilingan.

Beruniyning yana bir muhim asari «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar»dir. Bu asarda ham u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki tushuncha, ma'lumotlar bergan.

Ma'lumki, Mahmud g'aznaviy Hindistonga qarshi bosqinchilik urushlarini olib borgan. Mana shu yurishlarning birida Beruniy ham Mahmud g'aznaviyga hamroh bo'lib bordi. U sanskrit (eski hind tili) ni bilganligi uchun hind xalqi madaniyati, adabiyoti va san'ati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi va bu mehnatlari natijasida 1030 yilda o'zining Sharq va g'arbda keng e'tirof qilingan mashhur «Hindiston» asarini yaratadi.

Kitobning to'liq nomi «Kitobu fi tahqiqi molil Hind min ma'qulatin maqbulatin fil aiush av marzulatin», Ya'ni «Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi» bo'lib, aytishga qulay bo'lishligi uchun qisqacha «Tahqiqu mo-mil hind» – («Hindistonga oid tadqiqalar» yoki «Hindiston») deb yuritiladi.

**Abu Nasr Forobiy** 873 yilda Sirdaryoning Forob degan joyida tug'iladi. U boshlang'ich ma'lumotni o'z yurtida oladi. 5 yoshdan u yozish va o'qishni bilar edi. U yoshligidanoq o'rta asr fanlarini chuqur o'rganadi. U ilmiy malakasini takomillashtirish maqsadida 10 yoshidan Shosh, Samarqand va Buxoroga kelib ta'lim oladi.

Lekin bu joylar uning ilmga bo'lgan chanqoqligini qoniqtirmaydi. U Eronning Ray, Hamadon shaharlarida bo'ladi.

U umrining 40 yildan ortig'ini Bag'dodda o'tkazadi. U bir vaqtning o'zida arab, fors, yunon tillarini o'rganadi.

Forobiy aniq fanlar: ilmi nujum, riyoziyot, musiqa, tabobat fanlariga qiziqadi. Lekin u ko'proq falsafa ilmi bilan shug'ullanadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra u Buxoroda bo'lgan kezlarida Buxoro amiri Mansur ibn Nuh Somoniyning iltimosiga ko'ra falsafiy asar «At-taxlimiy» asarini yozadi. Shu asari tufayli «Muallim as-soniy» (ikkinchi muallim) laqabi bilan mashhur bo'ladi.

Olim 70 dan ortiq tilda so'zlasha olgan. U 160 dan ortiq asarlar yozgan. Bizgacha 40 ga yaqini etib kelgan xolos.

Forobiy asarlarining mazmuniga qarab 7 ta katta guruhga bo'lib chiqishimiz mumkin. Ana shu turkumlash jarayonidagi eng muhim bo'limi tarbiya masalasiga bag'ishlangan ettinchi qismdir.

U ta'lim-tarbiyaga oid «Baxt-saodtga erishish yo'llari haqida risola», «Fozil odamlar shahri», «Fazilatli xulqlar», «Shaharni o'rganish haqida» kabi asarlar yaratgan.

Olimning yuqorida biz tilga olgan asarlari butun jahon ziyolilari tomonidan haqli ravishda yuksak baholangan.

Forobiyning asarlari arab tilidan dunyoning ko'p tillariga rus, ingliz, ispan, frantsuz, o'zbek tillariga tarjima qilingan.

Forobiy nihoyatda buyuk olim va mutafakkir edi. Chunonchi, uning asarlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'z ilmiy qarashlari bilan yangi davrga darcha ochib bergan va zamondoshlaridan bir necha asr ilg'ava ketgan.

Forobiyning quyidagi pedagogik qarashlari yoshlarga muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir.

1. Ta'lim-so'z va o'rganish bilimgina amalga oshiriladi.
2. Tarbiya-esa amaliyot, ish-tajriba bilan, Ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi, deydi.
3. Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, xiyonat va makr-hiyalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.
4. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.
5. Ma'lumki, inson hech qachon tug'ilganda yaxshi va yomon bo'lib tug'ilmaydi... Biroq har bir kishida Biron bir fazilatga yoki qabihlikka mayil, qobiliyat bo'ladi va shu fazilatlarni 2 turga bo'ladi.

Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik fahm-farosatlilik zehnlilikdan iborat.

Xulqiy fazilat – intiluvchi quvvatga kirib iffat, injoat, sahiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razillikdir.

Xulosa qilib aytganda, Forobiyning yuqoridagi ta'lim-tarbiyaga oid kontseptsiyasi Shaxsni komil inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Abu Ali Ibn Sino 980 yilda Buxoro shahri yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Abdulloh va uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralarida yosh Ibn Sino ham qatnashar edi. Bunday oilaviy muhit, Buxoro shahridagi ko'plab madrasalar, kasalxona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxonalarining mavjudligi ham yosh va iqtidorli Ibn Sinoga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

U maktabda o'qib ko'pgina ustozlardan ta'lim oladi. Masalan: Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, handasa bo'yicha, Buxorolik Abu Mansur Qamariydan til bo'yicha ta'lim oladi.

IX asr oxiri X asr boshlariga kelib o'lkada siyosiy ijtimoiy vaziyat murakkablashadi. Shuning uchun Ibn Sino Xorazmga-Urganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda bir qator olimlar bilan hamkorlikda Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasida» ilmiy ish bilan shug'ullanadi. Natijada o'zining yirik asari «Tib qonunlari», «Ash-Shifo» ustida ish olib boradi.

Ibn Sino fanning turli sohasiga oid 450 dan ortiq asar yaratadi. Lekin bizgacha 250 ga yaqini etib kelgan bo'lib, ulardan 50 dan ortiq qo'l yozmalari O'zbekiston

Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining kitob fondida saqlanib kelmoqda.

U ta'lim-tarbiyaga taalluqli bo'lgan quyidagi asarlarni yaratgan. Masalan: «tadbir al-Manozil» (turar joyni boshqarish), «Axloq haqida risola», «Burch haqida risola», «Nafsni pokiza tutish», «Badanni boshqarish», «Adolat haqida kitob», «Al-qonun», «Ishq haqida risola», «Xay ibn-YAqzon», «Nomozning mohiyati haqida risola», «Ziyorat qilishning ma'nosi haqida», «Al-Najot», «Ash-Shifo», «Donishnoma» kabi asarlari bilan ilm-fanga hissa qo'shgan buyuk allomadir.

Shuning uchun ham Sharqda unga «SHayx Ur-raisi»- Ya'ni olimlarning olimi degan yuksak unvon berilgan.

U o'zining «Axloqqa oid risola»sida insonning umumiy fazilati haqida gapirib, kishilarda yuz beradigan yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo'lish sabablari to'g'risida to'xtaladi.

Uning fikricha yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo'ladi, odamlarning yaxshi yoki yomon bo'lishida hukumat a'zolarining ta'siri ham zo'r bo'ladi, deydi.

Ibn Sino axloqiy hislatlardan: iffat, qanoat, saxiylik, shijoat, sabr, muloyimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma'rifatli bo'lish, kamtarlik, adolatlilik, do'stlik, vafodorlik kabi axloqiy kategoriyalarga ta'rif beradi.

U insoniy fazilatlarga:

- ❖ Jasurlik-biror ishni bajarishda kishining jasurligi;
- ❖ Chidamlilik-inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat;
- ❖ Aqllilik-biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat;
- ❖ Ziyraklik-sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat;

Ibn Sinoning fikricha insonlar hulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular aldash, rashk, o'ch olish, adovat, bo'xton, irodasizlik kabilardir.

U fanlar tavsifi haqida sham fikr bildirgan olim birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga-nazariy va amaliy guruhga bo'ladi.

U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi.

Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritgan.

Olim fizika, adabiyot, tarix fanlari bilan shug'ullangan.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'qitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda quyidagilarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi.

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda engildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatli bo'lib, bolalarni engil-elpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

U bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim deb topadi. Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki olijanob vazifasi deb biladi.

Agar qadimgi Yunon faylasuflari Platon va Aristotellar bola tarbiyasini davlat ixtiyoriga qo'ysalar, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug'ullanishi kerak deydi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sino buyuk olim, faylasuf adib, tabib bo'lishi bilan birga buyuk murabbiy edi. U ta'lim tarbiya - haqida juda ko'p bosh qotiradi.

Olimning pedagogika faniga qo'shgan hissasi shundaki, u ta'limiy tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy, ham estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi, kamolga etishining mezonini ishlab chiqadi.

Tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi esa olimning tarbiya sohasidagi katta xizmatlaridan hisoblanadi.

Yana uning xizmatlaridan biri shundaki, u insonning mehnati, qobiliyati, aql zakovatini ulug'ladi, undagi qudratga ishondi. Inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini targ'ib qildi. Qoraxoniylar Sirdaryodan Ettisuvgacha, Shimoliy Farg'ona va butun Sharqni Turkistonda hukmronligini o'rnatgandan so'ng Movarounnahrning ichkarisiga ham kirib borib, Qoshg'ardan tortib Kaspiygacha bo'lgan keng maydonda o'z davlatini tarkib toptirgan edi. Uning markazi Qoshg'ar (Urdukent) bo'lib, shimolda Bolosog'un (Qo'zurdu), g'arbda Samarqand, markazda O'zgand shaharlari ham yirik markaziy shaharlardan hisoblanadi.

Har bir davlatda bo'lganidek, Qoraxoniylar davlatining ham idora qilish usuli, yurgizadigan siyosati, qonunlari tarbiya tamoyillari ifodalangan qomus-nizomnoma zarur edi.

Xuddi ana Shunday zaruriyat tufayli «Qutadg'u bilig» (1069-1070) asari yaratildi. Bu asarda Qoraxoniylar davlatini mustahkamlash uchun idora usullari yaratish, barcha tabaqa va toifadagi kishilarning xulq-atvori, jamiyatdagi tutgan o'rni, davlatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan mustahkamlash, davlatning mustahkamligining birinchi tayanchi-insonni ma'naviy kamolga etkazish masalalari qamrab olinadi.

Yusuf Xos Hojib bu murakkab vazifani hal etishda faqat donishmand, qomusiy mutafakkir sifatidagina emas, balki tarbiyashunos olim sifatida ham o'zini namoyon etdi.

Shunga ko'ra, u yaratgan «Qutadg'u bilig» asari ta'lim-tarbiya tarixi, uning nazariy masalalari, komil insonni shakllantirishda ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

«Qutadg'u bilig» asarida hokimiyat Qoraxoniylar qo'liga o'tishi munosabati bilan ta'lim va tarbiyaning ham hokimiyatni mustahkamlash va taraqqiy ettirish uchun xizmat etadigan o'ziga xos talab va tamoyillarini belgilash zarur edi. Shuning uchun ham mazkur asar didaktik, Ya'ni ta'limiy-axloqiy usulda yozildi.

O'sha davrlarda bunday asarlar (masalan, Nizom ul-mulkning «Siyosatnoma», Kaykovusning «Qobusnoma») yozish an'anaga kirgan bo'lsa ham, har biri o'ziga xos yo'l-uslubga ega bo'lib, «Qutadg'u bilig» ulardan ancha oldin yaratilgandir.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari ta'limiy-axloqiy asar sifatida pedagogika tarixida eng yuqori o'rinlarda turadi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari 6500 baytdan yoki 13.000 misradan iborat. Uni buyuk mutafakkir yozib tugatgach, qoraxoniylar hukmdori

Tavgachxon (kitobda Tavgach-Ulug' Bugra Qoraxon (hoqon), Abo Ali Xasan binni Sulaymon

Arslon Qoraxon (hoqon) nomlari bilan zikr etilgan) huzuriga kelib, unga taqdim etadi. Kitob xonga manzur bo'lib, uning muallifiga Xos hojiblik lavozimini beradi. «Qutadg'u bilig» asari katta shuhrat qozonadi. Shuning uchun ham «Qutadg'u bilig»ni chinliklar (Xitoy) «Adab ul-muluk» («Hukmdorlar odobi»), mochinliklar (Sharqiy Turkiston) «Anis ul-mamolik» («Mamlakatning tartib-usuli»). Eronliklar «SHohnomai Turkiy», Sharq Elida «Ziynat ul-umaro» («Amirlar ziynati»), turonliklar «Qutadg'u bilig», ba'zilar esa «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar nasihatnomasi») deb atagani kitob muqaddimasida keltiriladi.

Mazkur asarning shuhrat topishi bejiz emas edi. Chunki Yusuf Xos Hojib o'z davrining etuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand inson edi. Buni asarning mundarijasi va mazmunidan ham bilsak bo'ladi. U o'z davrida tibbiyot, falakiyot, tarix, tabiiyot, geografiya, riyoziyot, xandasa, falsafa, adabiyot, ta'lim-tarbiya, diplomatiya, fiqh sohasiga oid fikrlarni bayon etib, faylasuf va qomusiy olim sifatida o'zini namoyon etdi. Chunonchi, u barcha ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi muomalamunosabatlarni yoritish bilan birga, diplomatiyaga oid qoidalar tizimini yaratdi, turli kasb egalarining kasbu koriga oid talablar va jamiyatning axloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos uslubni yaratdi.

Qutadg'u bilig - baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak asar nomidan ham uning pand-nasihat, ta'lim-tarbiyaga oid etuk didaktik asar, har tomonlama etuk insonni tarbiyalaydigan darslik ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

«Qutadg'u bilig» asari Sharqda pandnoma turkumidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya qilingan holda tuzilgan. Avval nasriy muqaddima, so'ng 73 bobdan iborat kitobning mundarijasi beriladi. Dastlabki o'n bir fasl debocha bo'lib, hamda, na't va Qoraxonni madh etish, ta'lim maqsadi, etti kavokib va o'n ikki burj, tilning ahamiyati, muallifning uzri, ezgulik haqida, bilim olishning ahamiyati, kitobga nom berilishi, keksalikdan afsuslanish kabi fasllardan iboratdir. O'n ikkinchi fasldan boshlab asosiy voqea bayoni e'tirof etiladi. Lekin asarda to'rt qahramon: Kuntug'di-adolat ramzi, vazir-Oyto'ldi-davlat va baxt ramzi, vazirning o'g'li O'g'dulmish-aql ramzi sifatida, O'zg'urmish-vazirning qarindoshi-qanoat timsoli o'rtasidagi munozara asosida hayotiy masalalar bir-biriga bog'langan holda bayon etilib, kitobni yozishdan o'z oldiga qo'ygan maqsadga bo'ysundiriladi.

Yuqorida ta'kidlangan to'rt qahramonning suhbatlari, munozaralari asosida Yusuf Xos Hojib o'z maqsad va g'oyalarini bayon etadi.

Masalan, Oyto'ldining Elig bilan uchrashuvida uning Elig sinovidan o'tishi jarayonidagi savol-javoblar natijasida davlatning sifati va fazilatlarini, uning bevafoqligi va bebaqoligi, adolatning xsilatlarini, Shuningdek el-yurt boshqaruvchilarining xislatlarini bayon etiladi.

Oyto'ldining o'g'li O'g'dulmish bilan Eligning suhbatida esa Saroy amaldorlari: beklar, vazirlar, lashkarboshilar, hojiblar, elchilar, sarkotib, xazinador, dasturxonchilar, sharobdorlar, beglarning o'z xizmatkorlariga munosabati qanday bo'lishi kerakligi bayon etiladi.

O'g'dirmish bilan O'zg'urmish munozaralari, Elig bilan O'zg'urmish munozarasida esa insoniy xislatlar, xizmat va turmush odoblari borasida fikrlar bayon etiladi, turli kasb egalari vasfi beriladi.

«Qutadg'u bilig»dagi bosh g'oya-insonni hayotda baxt-saodatga eltuvchi asosiy qarashlari to'rt ramziy qahramon: Kuntug'di-Elig podsho-adolat timsoli, Oyto'ldi-



vazir davlat timsoli, O'g'dulmish-vazir-aql timsoli, O'zg'urmish-vazirning qarindoshi-qanoat timsolining hayoti va davlatni boshqarish jarayonidagi xatti-harakatlari va fikrlari orqali berilganki, bular inson kamolotining muhim mezoni sanaladi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burchi va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos tarzda bayon etiladi.

Mutafakkir o'zining axloqiy qarashlarini, Ya'ni ijtimoiy munosabatlar, jamiyat a'zolari barcha tiplari o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni amaliyotga tayangan holda yoritadi. Bu axloqiy xalq-odob tamoyillari, talab va vazifalari butun asr davomida qahramonlarning o'zaro munozaralari asosila ifodalangan. Unda Elig (xon), uning vakillari, ijtimoiy guruhlarning o'zaro munosabati, axloqi, muomalasi talablari bayon etiladi. Turli kasb egalariga xos xislatlar, odatlar yoritiladi.

Asarda ilgari surilgan axloqiy xislatlarni sanab o'tish olimning qay darajada ta'lim-tarbiya, axloq masalalarini chuqur bilganligidan dalolat beradi: insoniylik, rostgo'ylik, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof, adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirinso'zlik, saxovat, mardlik, himmatlilik, hurmat va ehtirom tadbirkorlik, aql, zakovat, halollik, ezgulik kabi hislatlar ulug'lanadi, ularda yolg'onchilik, noinsoflik, fisqu fasod, bevafoqlik, mehrsizlik, dag'allik, qo'pollik, bahillik, nomardlik, quvlik, hurmatsizlik, nodonlik, johillik, haromxo'rlik, osko'zlik kabi xislatlarni qiyoslab, ezgu xislatlarning yaxshi oqibatlarini va salbiy xususiyatlarning yomon oqibatlarini misollar vositasida ishonarli qilib bayon etadi.

Bunda dastlab, barcha yaxshi ishlarning manbaini ezgulik, yomon ishlarning asosini essizlik nomlari bilan talqin etadi. U inson hayotda qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yoki yomon nom oladi, deydi. Asarda olim barcha ezgulikning boshi til odobi, uning foyda va zararlariga bag'ishlanadi.

Til insonning qadr-qimmatini oshiradi, yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin, deydi. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'z, deydi olim.

Insoniy munosabatlarning eng oliy mezoni sanalgan hurmat va ehtiromini tarkib toptirishning barcha ko'rinishlari asarda o'z ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulug' mansabdorlardan tortib, oila a'zolarigacha bir-biriga bo'lgan muomala-munosabat masalalarini ham hayotiy misollar vositasida yoritadi. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning ulug'larga, amaldor va mansabdorlarning o'z xizmatchilariga, xizmatchilarning o'z xo'jalariga, turli ijtimoiy guruh a'zolarining bir-birlariga, oilada oila a'zolarining bir-birlariga muomala madaniyatining eng oddiy ko'rinishlarigacha tasvirlab, kishining ko'z oldida yaqqol namoyon etadi. Buni biz farzand tarbiyasida uning tug'ilganidan boshlab xulq-odob qoidalarini, bilim va hunarni o'rgatish, buning uchun pok va bilimli muallim-murabbiy tanlash, farzandning xatti-harakatini doimo nazoratda saqlash kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak bo'ladi.

Olim ulug'lar va kichiklar o'rtasidagi xulq-odob qoidalari haqida gapirar ekan, shu asnodam kamtarlik, salomlashish odobi, talablari, qoidalarini ham tavsiya etadi.

Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning amaldorlar axloqi haqidagi o'gitlari diqqatga sazovor va bu fikrlar hozirgi davrda ham qimmatli sanaladi. Olimning beklar, xojiblar, vazirlar, saroyboshilar, elchilar, lashkarboshilar, devonboshilar, xazinadorlar, sarkotiblar kabi ko'plab amaldorlarning xatti-harakatlari, ish yuritishlari, xulq-odobi haqidagi amaliy o'gitlari va yo'l-yo'riqlari har bir amaldor uchun dastur sanaladi.

Masalan, har bir amaldorning o'z ishining ustasi, ilm-fanni egallagan, uning turli sohalari borasida fikr yurita oladigan, so'zga chechan, zehnli, fahm-farosatli, himmatli, ko'zi to'q, ochiq qo'l, saxiy, tadbirli, zukko, hushyor, jiddiy, qanoatli, jasur, sog'lom, samimiy, sadoqatli, o'z so'zi ustidan chiqadigan, andishali, she'r baxsida ishtirok etib, o'zi ham she'rlar to'qiy oladigan, turli tillarni bila oladigan va yoza oladigan, nard, shatranj, chavgon o'yinlarida o'ynay oladigan, merganlik kabi xislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, har bir insonning kamolga etishida to'sqinlik qiladigan yomon illatlar, nuqson va kamchiliklardan birinchi navbatda el-yurt xizmatida bo'lgan amaldorlar ham xoli bo'lishi lozimligi: maishat, ishratparastlikka berilish, kek, gina, adovat, nizo, xusumat, Fisqu fasod, maishiy buzuqlik, mayparastlik, kayfu safoga berilish, mutakabbirlik, xiyonat, davlat ketidan quvish, manfaatparastlik, xudbinlik, boshqalarning haq-huquqlarini toptash, ta'magirlik, haqorat kabilar Shunday illatlardirki, buning natijasi davlatning rivojiga putur etkazib, jamiyatni ma'naviy qashshoqlika olib boradi, deb bunday yomon illatlardan tiyilishni maslahat beradi. Masalan:

*(Agar) Dunyo beglari ichimlikka (maishatga) berilsa.*

*El va xalqning dardlari (qismati) achchiq bo'ladi.*

*Jahongir kishi aysh-ishratga mahliyo bo'lsa,*

*Elini buzadi xarob qiladi, o'zi (esa) tilamchi bo'lib qoladi.*

Yusuf Xos Hojib takabburlik, mag'rurlanish, kekkayishga kamtarlik, xushsuxanlik, xushfe'llikni qarshi qo'yadi. Shuningdek, amaldorlarga baland himmatlilik, muruvvatli bo'lish, samimiylik xoh katta, xoh kichik bo'lsin, xos fazilat ekanligini alohida ta'kidlaydi. Insonning haqiqiy boyligi uning ko'z va ko'ngil to'qligi deb beradi. Zero, ochko'zlik, ta'magirlik insonda poraxo'rlik kabi yomon illatning tomir otishiga olib keladi, deydi.

Yusuf Xos Hojib oilaviy-maishiy turmush ikir-chikir ham katta e'tibor beradi. U kishilarni uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarni birma-bir bayon etadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Yusuf Xos Hojib hayoti haqida nimalarni bilasiz?
2. «Qutadg'u bilig» asarining mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Nima uchun «Qutadg'u bilig» asari shuhrat topdi?

## **6-MAVZU: XIV ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI ASRDA MOVAROUNNAXRDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR**

### **REJA:**

1. XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikr taraqqiyot
2. Soxibqiron Amir Temur
3. Muxammad Tarag'ay Ulug'bek
4. Abduraxmon Jomiy. Xayoti va faoliyati
5. Alisher Navoiy. Xayoti va faoliyati
6. Jaloliddin Davoniy va uning «Axloqi Jaloliy» asari

Qariyb bir yarim asr davomida mo'g'ullar istibdodi ostida xonavayron bo'lgan Movarounnaxr xalqi XIV asrning boshlariga kelib mo'g'ul istilochilari zulmidan qutula boshladi. Movarounnaxrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi.

Mo'g'ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Maxmud Torobiy boshchiligida qo'zg'oldi, Samarqand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo'zg'olonlari ro'y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat xatto xokimiyatni xam boshqarib turdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnaxrning feodal tarqoqligiga barxam berildi, mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri va XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi.

Soxibqiron Temur va dastlabki temuriylar xukmronlik qilgan davr Movarounnaxr tarixida aloxida o'rin egallaydi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnaxrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi.

Shuning uchun xam XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixda Sharq Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataladi. Chunki, bu davr madaniyati o'z tamoyillari, yo'nalishi, iqtisodiy asosi jixatidan IXXII asr madaniyatining davomi sanaladi.

Shu bois XIV asr oxiri va XV asrlarda Movarounnaxrdagi Sharq Uyg'onish davri madaniy ravnaqini IXXII asrlardagi madaniy rivojlanishidan ajratib olib ko'rsatish mumkin emas. XIV asrning uchinchi choragi va XV asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat o'sdi. Amir Temur xukmronligi davrida jaxonning ko'plab shaxarlarida Samarqandga xunarmandlar, olimu fozillar, san'atkorlar, muxandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy maxoratlaridan ilm- ma'rifat, madaniyat, qurilish jabxalarida keng foydalanildi. Samarqand va Xirotda madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa xamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa'diy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga xavas kuchaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Temur va uning izdoshlari, temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi. Ayniqsa Samarqand va Xirotda shaxarlari madaniyat, ilm-ma'rifat markaziga aylandi.

Amir Temur saltanatni bino qilish va uni mustaxkamlash uchun juda katta xizmat qildi. Ana shunday buyuk xizmatlaridan eng muximi mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish soxasiga qaratilganligi edi. Chunki uning e'tiqodiga ko'ra bilimdon va tadbirkor insongina mamlakatning rivojlanishiga xissa qo'sha oladi. Shuning uchun xam soxibqiron bilimli va ishbilarmon, tadbirkor kishilarni tarbiyalashga katta e'tibor beradi. Bu borada ta'lim tizimining o'ziga xos o'rni bo'lishi kerakligini anglagan xolda maktab va madrasalar qurdiradi. Saltanat poytaxti Samarqand atrofida o'n ikki bog' va qasr yaratadi, shaxar arki Ko'ksaroy, uning atrofida esa Bo'stonsaroylar bino etadi. Jome' masjidi, maqbaralar, me'moriy yodgorliklar qurdiradi. Bu ishlarga faqat Amirning o'zi emas, uning atrofidagi yaqinlari xam turli madrasalar qurishga bosh-qosh bo'ladilar. Bulardan Amir Temurning amirlaridan Idigu Temur, mavlono qutbiddin, umr yo'ldoshi Saroymulxonim, nabirasi Muxammad Sultonlar xam madrasalar qurdiradilar.

Madrasalar ma'lum darajada ixtisoslashgan edi. Masalan, boshqaruv kadrlarni tayyorlash Muxammad Sulton madrasasida, diniy muassasalar uchun kadrlar tayyorlash mavlono qutbiddin sadr madrasasi, umumiy mutaxassislar, ya'ni ziyoli, imom, olim, maktab o'qituvchisi tayyorlashga Idigu Temur, Saroymulxonim madrasalari ixtisoslashgan. Lekin ularning xammasida qur'on, Xadis, fiqx o'rganilgan. Shuningdek madrasalarning ixtisosligiga ko'ra umumi aqliya, umumi askariya, umumi ma'muriyalar xam o'rgatilgani xaqida ma'lumotlar bor.

Madrasalarda darslar arab, fors, turkiy (o‘zbek) tillarida olib borilgan. Arab tili grammatikasini o‘rgatishga ko‘proq vaqt ajratilgan. Shuning uchun Sa‘diy Sheroziyning «Guliston», «Bo‘ston», Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» va boshqalar xam o‘qitilgan.

Xar bir madrasaning vaqfnomasida tolibi ilmlar, mudarrislar va boshqa xodimlarni qabul qilish, o‘quv ishlarini yuritish belgilangan<sup>11</sup>.

Ulug‘bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va shular bilan barobar diniy bilimlarning xam ravnaq topishiga katta e‘tibor berildi. Oliy maktab — madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va /ijduvonda qurilgan uch madrasada fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo‘lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar xaligacha ko‘zga yaqqol tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq xar bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir».

Ulug‘bek 1428—1429 yillarda Samarqandda rasadxona qurdiradi. 1437 yilda ana shu rasadxonada «Ko‘ragoniy jadvali»ni, ya‘ni yulduzlar jadvalini tuzadi. U yaratgan kutubxonada esa fanning turli soxalariga oid 1500 jild kitob mavjud edi.

Samarqand shaxrida X asrda 17 ta madrasa bo‘lib, ularda yirik olimlar dars bergan bo‘lsa, XIV— XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san‘at xam rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning raxbarligida kitoblarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ilmiy matn ishlari xam olib borilgan. Firdavsiyning «Shoxnoma» asarining shu davrda to‘liq matni tuzilib, miniatyuralar bilan bezatilgan.

Bular XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg‘onish davri bo‘lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo‘la oladi.

Bu davrda o‘zbek adabiyotida xam ancha siljish ro‘y berib, Atoiy, Sakkokiy, Xaydar Xorazmiy, Durbek va Lutfiylar tomonidan qimmatli asarlar yaratildi. Shuningdek, tarixiy va adabiy asarlarni o‘zbekchaga tarjima qilish ishlari jonlandi.

Ulug‘bek olimlarga xomiylik qilib, fan axlini rag‘batlantirdi, uning o‘zi, ayniqsa, astronomiya va matematika fanlari bo‘yicha muxim ishlarni amalga oshirdi. Samarqandda Ulug‘bek tomonidan rasadxonaning barpo etilishi va uning o‘sha davr ilmiy markaziga aylanishi muxim voqyea xisoblandi. Shu davrda Samarqandda qozizoda Rumi, Jamshid bin Ma‘суди, Mo‘yiddin va uning o‘g‘li Mansur Koshiy, Ali ibn Muxammad Birjondi va boshqalar ijod etdilar. Xirotda esa Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, ulug‘ rassom Bexzod, tarixshunos Xondamir, xattot Sulton Ali Mashxadiy va boshqalar ijodiyot cho‘qqilariga ko‘tarildilar.

Ulug‘bekning shogirdi Aloviddin Ali ibn Muxammad qushchi Samarqandiy (1403—1474) o‘sha davrda Movarounnaxrning madaniy va ilmiy xayotida katta rol o‘ynadi. Astronomiya to‘g‘risida «Risolai dar falakiyot» degan kitob yozgan Ali qushchini o‘z davrining Ptolomeyi deyishardi. Uning mazkur asarida geometrik bilimlarning asoslari bayon qilindi, nuqta, chiziq, yuza, aylana va shu kabi tushunchalar to‘la ta‘riflab berildi, tabiiyot fanlari va shuning singarilar soxasida boshlang‘ich bilimlar bayon qilindi. Bu asar xamma narsa oddiy va murakkab narsalarga bo‘linib ta‘riflanadi.

---

<sup>11</sup> Валихыжаев Ботурхон. Самар=андда олий таълим—мадрасаи олия—Университет тарихидан лавшлар. Абдулла +одирий номидаги хал= мероси нашриёти, Самар=анд, 2001.38—47-бетлар

Sulton Xusayn Boyqaro davrida olimlar va shoirlar Samarqanddan Xirotda ko'chib o'tdilar. Xirotda ilmiy-madaniy markazga aylandi. Alisher Navoiy Xirotda fan, madaniyat, ma'rifat ishlarini yo'lga qo'yishda, u yerni obodonlashtirishda katta xizmatlar qildi.

Zaxiriddin Muxammad Bobur «Boburnoma»da Xirotda to'g'risida yozar ekan butun dunyoda bunday obod shaxarni ko'rmaganligini aytadi.

Alisher Navoiy xam masjidlar, madrasalar, xammomlar, kasalxonalar, xovuz va ko'priklar, rabotlar qurdirgan. U shaxarning eng xushxavo joyida barpo etgan Xalosiya va Ixlosiya binolari guruxi fan, adabiyot, san'atga xizmat qiladigan madaniy markazga aylangan.

Xirotda Alisher Navoiy bilan birga Abduraxmon Jomiy, Kamoliddin Bexzod, xattotlar — Sulton Ali Mashxadiy, kotib Mir Ali, sozanda — qulmuxammad, tarixchilar — Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir va boshqalar yashab ijod etgan.

Xirotda xattotlik san'ati rivojlangan. Xatto Buxoroda «Xirotda yozuvi» mirzalar, xattotlar tomonidan 1920 yilgacha qo'llanilganini tarixchilar manbalarda keltiradilar.

Bu davrda Movarounnaxrda xam san'at, arxitektura, binokorlik texnikasi ancha ravnaq topdi. Musiqa, tasviriy san'at, madaniyat, adabiyot, ta'lim-tarbiyaga oid qator asarlar yaratildi. Xasan Buxoriy Nisoriyning (1556) «Muzakkir al-axbob» tazkirasi, Mutribiyning «Tazkira — tush shuaro» (1604—1605) to'plamlari, tarixiy va adabiy yodgorlik bo'lgan «Boburnoma» o'sha davrda yaratilgan asarlar orasida o'ziga xos axamiyat kasb etdi. Amin Axmad Roziy «Xaft iqlim» («etti iqlim») degan geografik bibliografik lug'at tuzdi.

XVI asrda xattotlik san'ati yuksak darajaga yetdi. Sulton Ali Mashxadiy, Mirali Xalaviy, Maxmud ibn Isxoq ash-Shixaybiy va boshqalar ustoz xattot bo'lib nom qozondilar. Darvesh Muxammad ibn Do'stmuxammad Buxoriy xattotlik san'atining nazariyasi to'g'risida asar yozdi.

Bu davrda bir qator ilm maskanlari bunyod etildi. jumladan: Shayboniyxon madrasasi, Abduraxim sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi Kalon va boshqa inshootlarning qurilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muxim bosqich bo'ldi.

Axolining savodxonligini oshirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasida xam ma'lum darajada imkoniyatlar yaratildi. Xususiy maktablar yuzaga keldi, muallim yollab bolalarni uyda o'qitish tadbirlari odat tusiga kirdi.

Shaxar va qishloqlarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Olti yoshli bolalar maktabga borib, alifbeni o'rganar, uning ayrim xarflarini chizishni mashq qilar edilar. O'quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan keyin madrasaga kirib xam diniy, xam dunyoviy fanlardan bilim olar edilar.

Shulardan kelib chiqqan xolda aytish mumkinki, XIV— XVI asrlarda Movarounnaxrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

## **SOXIBQIRON AMIR TEMUR** (1336—1405)

Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay Kesh (Shaxrisabz)ning Xo'jailg'or (hozirgi paytda bu qishloq Yakkabog' tumaniga qarashli) qishlog'ida 1336 yilning 9 aprelida tavallud topgan. Uning otasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi bo'lgan. Onasi Tegin Begim esa buxorolik taniqli olim Ubaydulloxning qizi bo'lgan.

Temur 7 yoshidan bilim olishni boshlaydi. U yosh bolalik davridan boshlab mard, dovyurak, jasur bo‘lib o‘sadi. Xarbiy san'atni mukammal egallaydi. Qur'oni Karimni yod oladi, xadis ilmini o‘rganadi. Dunyoviy bilimlarga xam ega bo‘ladi. Shuning uchun xam iymon-e'tiqodli, xalol pok, aql-zakovatli, o‘z e'tiqodiga mustaxkam rioya qiladigan, adolatli inson bo‘lib yetishadi.

Amir Temur o‘z davlati qudratini yuqori ko‘tarib dunyoga tanitadi.

Amir Temur joxillik, yovuzlikni, zo‘ravonlikni yoqtirmas. Insonparvar, adolatli xukmdor edi. Masalan, «Temur tuzuklari» xukmdorning xokimiyatni boshqarish qoidalari xamda odob-axloq me'yorini belgilab beruvchi yo‘riqnomadir. Taniqli olim Bo‘riboy Axmedov «Temur tuzuklari» podsholarning turish-turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir, deb ta'riflaydi.

Xaqiqatan xam, mazkur asarni turmush odobi, xulq-odob qoidalari tartib berilgan an'anaviy asarlar qatoriga qo‘ysak bo‘ladi. Zero, tarixan ta'limiy-axloqiy asarlarning barchasida xam dastlab davlatni boshqarishga oid qarashlar, so‘ng axloq me'yorlari bayon etiladi. Shunga ko‘ra bu asardan ta'limiy-axloqiy asar sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Amir Temur bu asarida insonparvarlik, mexnatsevarlik, adolatlilik, vatanga sadoqat, jasorat, to‘g‘rilik, do‘stlik va xamkorlik, mexr va muruvvat ko‘rsatish, sabr-qanoat, yaxshilik kabi xislatlarni ulug‘laydi va xiyonat, bevafolik, sotqinlikni qoralaydi. Xayotda «rosti-rusti» qoidasiga rioya etgan Amir Temurning o‘zi naqshbandiylik tariqatidagi «Dil ba yoru, dast ba kor» tamoyiliga ko‘ra ish tutib, Yusuf Xos Xojib, Abu Nasr Forobiy, Jaloliddin Davoniy va boshqalar tomonidan targ‘ib etilgan va xaqiqiy komil inson, adolatli g‘ukmdor uchun zarur bo‘lgan quyidagi o‘n ikki qoidani o‘ziga yo‘riq qilib olganini ko‘ramiz:

Xar yerda va xar vaqt Islom dinini quvvatlash; davlat va saltanatni boshqarishda o‘n ikki tabaqa, toifadagi kishilarga tayanish; dushman bilan kurashda maslaxat, kengash, tadbirkorlik bilan ish ko‘rish, faollik, xushyorlik, extiyotkorlik ko‘rsatish, saltanat ishini yurg‘izishda murosayu madora, muruvvat xamda sabr-toqat bilan ish ko‘rish; davlat ishlarini yurg‘izishda davlat qonun-qoidalariga qat‘iy rioya qilish; adolat va insof bilan ish yuritish; sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muxandislar, tarixchilarni izzat-xurmat qilish; azmu jazm bilan ish ko‘rish (aytganiga rioya etish), buzuqchilikning oldini olish; fuqaroning axvolidan ogox bo‘lib turish; barchaga xurmat-e'tiborda bo‘lish, yaxshilik, muruvvat, exson, izzatu ikrom, xaqqini ado etish; farzandlar, qarindoshlar, oshnolar va do‘st birodarlarni doimo yodda tutib, ular bilan yaqin aloqada bo‘lish; sipoxiylarni xurmat etish va ularga g‘amxo‘rlik qilish.

Ko‘rinib turibdiki, Amir Temur mazkur talablarga rioya etgani tufayli uning saltanati rivoj topdi, fan va madaniyat taraqqiy etdi, davlatining nufuzi oshib, nafaqat Sharqda, balki /arbda xam mashxur bo‘ldi.

Bu o‘n ikki qoidaga rioya qilishdan tashqari, Amir Temur o‘zining xayoti tamoyillari xaqida shunday degan:

«Men o‘z xayotim mobaynida besh narsaga qat‘iy e'tiqod qo‘ydim va xamishalig‘ ularga amal qildim, ular ushbulardir:

*Ollox* — ul xar narsaga qodir kuch, sidqidildan sig‘insang, istagan murodu maqsadingga yetkazadi;

*tafakkur* — fikrlash va mushoxada qobiliyati;

*qilich* — ul yigitning yo‘ldoshi, el-yurt osoyishtaliginining posboni, xar qanday dushmanning maxv etish quroli, aning qudrati ila dinsizlarni dinga solmoq mumkin;

*imon* — ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turuvchi xususiyatdir. Imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urugʻlari, elu-xalqning or-nomusini ximoya qiladi, xalollik va poklikni fazilat biladi;

*kitob (bitik)* — barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql idrokning, ilmu donishning asosidir, xayotni oʻrgatuvchi murabbiydir».

Demak, Amir Temur xayoti va faoliyatida oʻzi qatʼiy rioya etgan, xaqiqiy yetuklik belgisi sanalgan din, imon, aql bilan ish yuritish va ilmga eʼtiqodni boshqalarga xam tavsiya etgan xamda avlodlarni xam shu ruxda tarbiyalashga eʼtibor bergan.

Amir Temur zamonida musiqa, badiiy adabiyot, rassomlik sanʼati rivoj topib, yoshlarga sheʼr yozish, rasm chizish, musiqa asboblarini chalish, kitobxonlik, lison ilmi, xusnixat oʻrgatilar edi. Bu sanʼat turlari oʻsha davr tarbiyasi tarkibiga kiritilgan edi. Soxibqironning buyuk saltanatida ijod qilgan shoirlar, rassomlar, mashshoqlar va boshqalar buning yaqqol dalilidir. Bu davrda katta shaxar xunarmandlari xam ashula, raqs, suxandonlik bilan shugʻullanganlari xaqida Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida qayd etilgan.

Amir Temur jismoniy tarbiyaga xam katta eʼtibor bergan. Sharqda dilovarlik tarbiyasi, yaʼni yoshlarda mardlik, jasurlikni tarbiyalash asosiy masalalardan sanalgan. Yigitlar bolalikdan merganlik, chavandozlik, suvda suzish, ovchilik, qilichbozlik, shaxmat oʻyini kabilarni moxir murabbiylardan oʻrganib, bu borada mashq qilar edilar. Amir temurning oʻzi kuchli lashkarboshi sifatida xarbiy ilmning «Ming askar» uslubi asoschilaridan biri boʻlgan. Buyuk soxibqiron shunday taʼkidlaydi:

«Cherik tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan, yigitning kuch-quvvatiga, ikkinchidan, uning qilichni oʻynata olishiga, uchinchidan, aql-zakovatiyu kamolotiga eʼtibor qildim. Shu uch fazilat jamul-jam boʻlsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negakim, kuch-quvvatli yigit xar qanday qiyinchiliklarga, azobu uqubatlarga chidamli boʻladi, qilich oʻynata oladigan kishi raqibini magʻlub eta oladi, oqil navkar xar joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni bartaraf etmogʻi mumkin», — deb askarlarning faqat jismoniy emas, balki aqlan xam barkamol boʻlishiga eʼtibor bergan. Oʻgʻillari Amirzoda Muxammad Jaxongir, Umarshayx, Mironshox, Shoxruxlar, nabiralari Amirzoda Muxammad Sulton, Amirzoda Pirmuxammadlar moxir jangchi boʻlib, katta-katta janglarda shaxsan ishtirok etganlar. Amir Temurning oʻzi aqlni charxlash vositasi boʻlgan shaxmat oʻyinida xam moxir boʻlgan. Zero, oʻsha davr tarbiyasi — shatranj oʻyinini xar bir yosh oʻrganishi zarur sanalgan. Xatto Amir Temurning suyukli oʻgʻli Shoxruxga ism qoʻyilishi xam shaxmat oʻyini bilan bogʻlanganligi xaqida rivoyat yuradi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning buyuk davlatchilik siyosati — mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish bilan birga tarix oldida maʼrifiy xizmatlari xam beqiyos. Uning taʼlim-tarbiyaga oid oʻgʻitlari, tutgan siyosati xozir xam oʻz qiymatini yoʻqotmagan.

Amir Temurning taʼlim-tarbiyaga oid ishlari, qarashlari xozirgi barkamol insonni shakllantirishda katta rol oʻynaydi.

### **Muxammad Taragʻay Ulugʻbek**

Ulugʻbek 1394 yilning 22 martida Eronning gʻarbidagi Sultoniya shaxrida bobosi Soxibqiron Amir Temurning xarbiy yurishi paytida tavallud topdi. U Shoxrux Mirzoning toʻngʻich oʻgʻli boʻlib, unga Muxammad Taragʻay ismi berildi. Lekin uni

bobosi aloxida mexr bilan «Ulug'bek» deb atayvergani uchun uning asosiy ismi Ulug'bek bo'lib qoladi va jaxonga ana shu nom bilan shuxrat tarqatadi.

Ulug'bekning otasi Shoxrux Amir Temurning uchinchi o'g'li bo'lib, Xuroson xukmdori, ma'rifatli, ilm-fanga qiziqqon shox edi. Onasi Gavxarshodbegim xam o'z davrining oqila, bilimdon ayollaridan xisoblanardi.

...«Taqdir bu ulug' zotning zimmasiga bexad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo'lishdek mislsiz sinov aynan unga nasib etdi».<sup>12</sup>

Ulug'bekning bolalik yillari bobosi Temurning xarbiy yurishlarida o'tdi. Garchi Ulug'bek tug'ilganda bir oz zaif bo'lgan bo'lsa-da, xarbiy yurishlar davrida chiniqdi.

Amir Temur nabirasi Ulug'bekning o'tkir zexnli, aqlu farosatli bo'lganligi uchun juda sevardi. «Ko'zimning nuri, saltanatimning umidli nixoli», deb erkalatardi. Biroq, Ulug'bek Mirzo nozik bo'lib o'sdi. Buning ustiga ko'p vaqtini kitob mutolaa qilish bilan o'tkazar, davlat ishlariga rag'batli yo'q ko'rinar edi.

Ulug'bekning tarbiyasi bilan buvisi Saroy Mulk xonim shug'ullanib, sevimli nabirasiga o'quv-yozuvni o'rgatgani, tarixiy mavzularda xikoya va ertaklarni so'ylab bergani uning xayotida o'ziga xos maktab bo'ldi.

1405—1411 yillarda, o'sha davrning qonun-qoidalariga binoan amir shox Malik yosh mirzoga otabegi bo'lib tayinlangan. Otabegi Ulug'bekka asosan xarbiy va siyosiy tarbiyadan ilm o'rgatgan.

O'rta asrlardan saqlanib qolgan kitoblarda ma'lum bo'lishicha, saltanatga vorislar davlatni boshqarishda muayyan tartib-qoidalar bayon qilingan qo'llanmalar asosida tayyorlangan. Shulardan biri Shaxzodalar va Xonzodalar bilishi zarur bo'lgan «Suluk ul-muluk» (Podshoxlarga qo'llanma) kitobidir.

Ulug'bek xam an'anaga ko'ra mazkur kitobni mukammal o'rganar va unda ko'rsatilgan davlatni idora qilish san'ati — turli lavozim egalarini tayinlash, soliq to'plash, ruxoniylar, mansabdorlar xamda boshqa yurtlardan kelgan elchilarni qabul qilish, xayru sadaqa berish kabi tartib-qoidalar bo'yicha ko'nikmalarni egallaydi.

Ulug'bek yoshligidan ko'p kitoblarni mutolaa qiladigan bo'lib, u ayniqsa, matematika, astronomiya ilmlariga qiziqdi.

U bobsining xos munajjimi mavlono Badriddin bilan ko'p vaqtini o'tkazar, undan xisob va taqvimdan dars olar, ba'zi kechalari, qor tinib osmon yorishgan paytlarda yulduzlarning o'rni va xarakatini kuzatish bilan mashg'ul bo'lar edi.

Taniqli olim Bo'riboy Axmedovning ma'lumotlariga ko'ra mavlono Badriddin Samarqandda bo'lgan vaqtda Ulug'bekni Ko'ksaroydagi xos kutubxonasi boshlab borib, kutubxonaga yangi kelib tushgan Abulqosim Firdavsiyning «Shoxnoma»sini ko'rsatadi. Shu yerda mavlono Badriddin Ulug'bekka alloma al-Farg'oniy tarafidan bitilgan «Kitob fi javome' ilm an-nujum va usul al xarakat as-samoviya» («Yulduzlar xaqidagi ilm bilan osmon yoritkichlari xarakatining asosini (bir-biriga) qo'shuvchi kitob»)ni ko'rsatadilar.

Shunday qilib, Ulug'bek bolalik yillaridayoq mavlono Badriddin Tusiy, Abu Rayxon Beruniy, Umar Xayyom kitoblari bilan xamda Oqsulot va O'trorda «Ziji Malikshoxi» bilan tanishdi.

Fanga bo'lgan zo'r muxabbati, katta qobiliyati va mexnatsevarligi tufayligina Ulug'bek astronomiya maktabining asoschisi va raxbari sifatida ajoyib

---

<sup>12</sup> И.А.Каримов. Истилол ва маънавият. Тошкент, «Ўзбекистон», 1994й., 96-бет



muvaffaqiyatlarga erisha oldi. Bu maktab butun dunyoda xamma tomonidan e'tirof etildi, shuxratga sazovor bo'ldi.

Zo'r qobiliyat, o'tkir xotira va asta-sekin bilimlarni to'plash shunga olib keldiki, Ulug'bekda fanga qiziqish va intilish rivojlana bordi. Ulug'bek bilimlarini tinmay chuqurlashtirishi va o'z ustida muntazam ravishda ishlashi natijasida o'zining ko'pgina zamondoshlaridan o'zib ketdi. Shunday qilib, oldin o'tgan ajdodlar — Markaziy Osiyodagi qadimgi xalqlarning madaniy merosi Ulug'bek bilimlarining asosiy manbai bo'ldi.

1411 yilda 17 yoshli Ulug'bek Mirzo Movarounnaxr va Turkistonning xokimi etib tayinlanishi Temuriylar xonadonida Ulug'bekning mavqeyi naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ulug'bek xokim bo'lgach, bobosidan farqli o'laroq xarbiy yurishlar bilan qiziqmadi. Aksincha, u o'rta asrlardagi boshqa xokimlardan o'zgacha yo'l tutdi, ko'proq ilm-fanga moyil edi.

Xaqiqatan xam qozizoda 1360 yillarda tug'ilgan bo'lib, 20—25 yoshlarida, ya'ni Ulug'bek tug'ilmasdan Temur saroyiga o'tadi. Natijada Ulug'bek umrining ilk davridanoq Mavlono Axmad va qozizoda Rumi — falakiyotshunos va riyoziyotchilar ta'sirida ulg'ayadi. Shu sababli uning xayotida aniq fanlar muxim axamiyat kasb etadi. Yigirma yoshlarida u o'z davrining yirik olimlaridan biri bo'lib shakllandi. U xokim bo'lgan paytidagi olamshumul o'zgarishlar butun o'rta asr madaniyati tarixida betakror voqeya bo'lib qoldi.

Ulug'bek ixlosmandlaridan /iyosiddin Jamshid Koshiy 1417 yili Samarqanddan Koshondagi o'z otasiga yozgan maktubida Ulug'bekning faoliyati va bilimini quyidagicha ta'riflaydi:

«Alloxga va uning ne'matlariga shukronalar bo'lsinkim, yetti iqlimning farmonbardori, islom podshoxi Ulug'bek donishmand kishidurlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo'q. Xaqiqat shuki, avvalo u kishim qur'oni Karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlarni va mufassirlarning xar bir oyat xaqidagi so'zlarini aqlda saqlaydilar va yoddan biladilar, arabchada g'oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishim fiqxdan xabardorlar: mantiq ma'nolarining bayoni va usullaridan xam xabardorlar».<sup>13</sup>

U kishi riyoziyot (matematika) fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy maxorat ko'rsatganlarki, xar qanday sonni tezlik bilan qo'shish va ko'paytirish iqtidoriga ega bo'lganlar. Inson bino bo'lganidan beri shu kungacha xali xech kimsa u qadar aniq va tez xisoblay olmagan. Ulug'bek, Samarqand, Buxoro va /ijduvonda uchta madrasa barpo etdi.

Samarqanddagi madrasa qurilishi 1417 yili boshlanib, uch yilda qurib bitkaziladi. Tez orada Ulug'bek madrasaga mudarris va olimlarni to'play boshlaydi va shu tariqa uning falakiyotshunoslik maktabi shakllanadi. Bu maktabning asosiy mudarrislari ilmiy ishlarga qulay sharoit va panox izlab Temur davridayoq Samarqandga kelgan Taftazoniy, Mavlono Axmad va qozizoda Rumi kabi olimlar edi. qozizodaning maslaxati bilan Ulug'bek otasining mulki Xurosonning Koshon shaxridan /iyosiddin Jamshid Koshiyni chaqirtirdi. Shunday qilib, Movarounnaxrning turli shaxarlaridan va Xurosondan to'plangan olimlar soni 1417 yilga kelib 100 dan ortib ketdi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, rassomlar, me'morlar bor edi. Lekin yulduzshunoslik va riyoziyot soxasidagi olimlar sharafliroq va obro'liroq edi. Ular orasida qozizoda va Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar.

---

<sup>13</sup> А.Ащмедов, «УлуБек». Т; «Фан», 1991. 50-бет.

1420 yili Samarqand madrasasining tantanali ochilishi bo'ldi. Manbalarda qayd etilishicha, «madrasa binosi bitishiga yaqinlashganda, bu yerga to'plangan adabiyot, san'at va fan namoyandalari Ulug'bekdan madrasaga kimni mudarris etib tayinlamoqchisiz, deb so'rashganda, Ulug'bek, barcha fanlardan xabardor biror odamni qidirib topaman, deb javob bergan. Shu yerda g'ishtlar orasida oddiy kiyimda o'tirgan mavlono Muxammad Ulug'bekning bu gapini eshitib qolgan va shu onda o'rnidan turib, bu vazifaga men loyiqman, degan. Shundan keyin Ulug'bek uni imtixon qilib, uning chinakam bilimdon odam ekanligiga ishonch xosil qilgan va uni xammomda yuvintirib, yaxshi kiyintirish to'g'risida buyruq bergan. Madrasaning ochilish kunida mavlono Muxammad mudarris sifatida ma'ruza o'qigan; mavlono Muxammadning olimlardan 90 kishi ishtirokida qilgan ma'ruzasini Ulug'bek bilan qozizoda Rumiyan boshqa xech kim tushuna olmagan. Chunki bu ma'ruza xaddan tashqari ilmiy jixatdan kuchli va murakkab masalalarni o'z ichiga olgan edi.»

Bu yerda tilga olingan qozizoda Rumiyan (Saloxiddin Musa bin Maxmud) mashhur matematik va astronomdir. U Ulug'bek madrasasining dastlabki mudarrislaridan biri edi. /oyat bilimli bu olimni zamondoshlari «**O'z davrining Aflotuni**» deb ataganlar.

Ulug'bek asarlarining sharxchisi, qozizoda va Ulug'bekning iste'dodli shogirdi, samarqandlik matematik va astronom Alouddin Ali ibn Muxammad qushchidir. U «**O'z davrining Ptolomeyi**» deb nom olgan. Ali qushchi ilmiy ishda Ulug'bekning eng yaqin yordamchilaridan biri edi. Ulug'bek maktabi namoyandasi sifatida Ulug'bek asarining sharxchisi, astronom Chalabiy nomi xam diqqatga sazovordir.

Madrasada boshqa mudarrislar bilan bir qatorda, Ulug'bekning o'zi xam astronomiya bo'yicha ma'ruzalar o'qir edi. Uchinchi darajali algebraik tenglamaga olib kelgan bir gradus yoyning sinusini aniqlash — Ulug'bek va uning maktabi erishgan ajoyib va eng muxim muvaffaqiyatlardan biri bo'ldi.

Ulug'bek atrofida to'plangan Samarqand olimlari katta axamiyat bergan eng muxim ilmiy yo'nalishlardan biri falakiyotshunoslik fani edi. Shuni xam aytish kerakki, musulmon mamlakatlarida va umuman islom madaniyatida aniq fanlar, ayniqsa falakiyotshunoslik va riyoziyot muxim o'rin tutadi. Chunki, musulmon kishi qaerda bo'lishidan qat'iy nazar erta tongdan oqshomgacha qadar uning uchun besh vaqt namoz farzdir. Namoz yuzni qiblaga — Makkadagi Ka'ba yo'nalishiga qarab o'qiladi. Namozning vaqtlari esa xar bir jo'g'rofik kenglikda xam quyoshning yerdan balandligiga qarab belgilanadi. Undan tashqari, islomda qabul qilingan xijriy yil xisobi 354 kunni tashkil qiluvchi 12 qamariy oydan iborat bo'lib, yangi oy — xilolni masjid minorasidan yoki rasadxona tepasidan ko'z bilan ko'rib aniqlangan. Shuning uchun musulmon kishining xayoti falakiyotshunoslik, riyoziyot, jo'g'rofiya, xunarmandchilik va me'morchilikka aloqador quyidagi masalalarni xal qilish bilan bog'liq bo'lgan:

- 1) joyning jo'g'rofik yo'nalishlarini aniqlash;
- 2) maxalliy meridian bilan qibla yo'nalishini ko'rsatuvchi katta doira orasidagi burchakni aniqlash;
- 3) jo'g'rofik yo'nalishlarni xisoblash uchun aniq riyoziy (trigonometrik) xisoblash qoidalarini va usullarini bilish;
- 4) jo'g'rofik yo'nalish asosida quyosh balandligini aniqlash qoidalarini bilish;
- 5) quyosh, Oy, sayyoralar va boshqa yoritgichlarning kecha-kunduzning istalgan vaqtidagi xolatlarini aniqlaydigan sferik astronomiyaning aniq qoidalarini bilish;
- 6) turli shaxarlar orasidagi masofalarni aniqlash uchun geodezik o'lchashlarni bajarish;
- 7) turli vaqt o'lchash asboblarini yasash;

8) yerning ma'mur qismi xaqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun xaritalar tuzish;

9) xaritalar tuzish uchun riyoziyotga taalluqli ko'rinish xolatlarini bilish;

10) falakiyotshunoslik, jo'g'rofiya va geodeziyaga taalluqli xisoblarni bajarish uchun yuksak aniqlikdagi riyoziy xisoblash usullarini bilish;

11) yoritkichlarni kuzatish ob-xavo bilan bog'liq bo'lganligi uchun meteorologiya va geofizikadan ma'lumotga ega bo'lish;

12) masjid, madrasa va rasadxonalar barpo etish uchun me'morchilik san'ati va an'analaridan xabardor bo'lish.

Yuqorida ko'rsatilgan va bu ro'yxatga kirmagan boshqa ko'plab masalalar shunchalik chambarchas bog'lanib ketganki, ularni xal qilish uchun olim va xunarmandlarning katta jamoa va guruxlari kerak edi. Ana shuning uchun Ulug'bek o'z atrofiga turli ilm va xunar namoyandalarini to'plagan.

Keltirilgan masalalar ro'yxatidan ko'rinish turibdiki, ularning ko'pi falakiyotshunoslikka aloqador. Islomdagi eng avvalgi yulduzlar xaqidagi asarlar «Zij» deb atalib, ular asosan jadvallardan iborat bo'lgan.

Ulug'bek boshchilik qilgan astronomlarning muvaffaqiyatli ravishda olib borgan ta'lim va ilmiy ishlari ularni aniqroq asboblardan ta'minlangan namunali rasadxona qurish kerak degan fikrga olib keldi. Tarixiy manbalar ana shundan dalolat beradiki, Mirzo Ulug'bek o'z madrasasini qurdirib bitkazgandan keyin oradan to'rt yil o'tgach, qozizoda Rumi, mavlono /iyosiddin Jamshid va mavlono Muiniddin Koshiy bilan maslaxatlashib, Ko'xak etagida, Obiraxmat soyining bo'yida rasadxona binosini qurdirtdi. Rasadxona kutubxonasi ko'plab ilmiy asarlar, jaxondagi mashhur kishilarning asarlari bilan to'ldirildi va u yerda saqlanayotgan kitoblar soni 150 mingdan ziyod bo'ldi.

Bu xaqda tarixchi olim Valter «Ulug'bek Samarqandda birinchi akademiya asos soldi, yer kurrasini o'lchashni buyurdi va astronomik jadvallar tuzishda ishtirok etdi», deb yozgan edi. O'sha vaqtlarda Samarqandda Ulug'bek tevaragida 100 dan ortiq olimlar uyushgan bo'lib, shunda rasadxona akademiya vazifasini o'tagan edi.

Madrasa bilan rasadxona orasida mustaxkam aloqa bor edi. Rasadxonada ishlab turgan ilmiy xodimlarning bir qismi madrasada mudarrislik qilishgan. Ular orasida /iyosiddin Jamshid Koshoniy va Mirzo Ulug'bekning o'zi xam bo'lgan.

Ulug'bek madrasa toliblari bilan tez-tez baxslashib, imtixon qilib turgan. Bir kuni Ulug'bek madrasa toliblarini riyozat bilan taqvimdan imtixon qilmoqchi bo'libdi. U o'rtaq mana bu savolni tashlabdi: «qani, tolibi ilm, ayting-chi, xijriy 818 yil, rajab oyining o'n ikkinchi birlan o'n beshinchi o'rtasi, 918 yil rajab oyining o'n ikkinchi birlan o'n beshinchi orasi qaysi ayyomga to'g'ri keladur?» Buning uchun juda ko'p raqamlarni yodda tuta bilish zarur ekan. Talabalardan birortasi xam bu masalani yecholmabdi. Shunda Ulug'bek buni uyga vazifa qilib topshiribdi va ustozlarga xos xusnu odob bilan mexribonlik ko'rsatib, o'rtaq qo'yilgan masalani tushuntirgan va yechib bergan. So'ng Abu Rayxon Beruniyning «qonuni Mas'udiy» kitobini ochib, oltinchi maqolasining yettinchi bobidan parcha o'qib bergan.

Ulug'bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma'lum va mashxuri uning «Ziji» bo'lib, bu asar «Ziji Ulug'bek»dir. «Ziji jadidi ko'ragoniy» deb xam ataladi. «Ziji»dan tashqari uning qalamiga mansub riyoziyot asari — «Bir daraja sinusni aniqlash xaqida risola», yulduzlarga bag'ishlangan «Risolai Ulug'bek» (yagona nusxasi Xindistonning Aligarx universitetining kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir «Tarixi arba' ulus» asaridir.

Ulug'bek "Ziji" o'rta asrlardagi eng mukammal asar bo'lib, tezda zamondoshlarining diqqatini o'ziga jalb etdi. Eng avval, bu asar Samarqandda Ulug'bek atrofida to'plangan olimlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi.

1449 yili Ulug'bekning fojiali xalokatidan so'ng Samarqand olimlari asta-sekin Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab tarqalib ketadilar. Ular o'zlari borgan yerlarga Samarqand olimlarining yutuqlarini va "Ziji"ning nusxalarini xam yetkazadilar. Jumladan, Ali qushchi 1473 yili Istambulga borib, u yerda rasadxona quradi. Shu tariqa Ulug'bek "Ziji" Turkiyada tarqaladi va Turkiya orqali Ovro'pa mamlakatlariga xam yetib boradi.

Xozirgi kundagi ma'lumotlarga ko'ra "Zij"ning 120 ga yaqin forsiy va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud. O'rta asrlarda yozilgan xech bir astronomik yoki riyoziy asar bunchalik ommalashmagan. "Zij" musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida o'rganilgan.

Ulug'bek "Ziji", ayniqsa, Xindiston olimlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Samarqand olimlarining ilmiy an'alarini Xindistonga Boburning o'zi yetgazgan degan ma'lumot bor. Boburning vorislari o'tmishdagi shoxlarga o'xshab atrofiga olimlarni to'playdilar va ularning ilmiy izlanishlariga sharoit yaratadilar.

"Zij"ning /arbiy Ovro'pa faniga xam ta'siri katta bo'ldi. Umuman olganda, /arbiy Ovro'pa Temur va uning farzandlarini, ayniqsa, Ulug'bekni XV asrdanoq bilardi. Ali qushchining Istambuldagi faoliyati tufayli Ulug'bekning olimligi xaqidagi xabar xam Ovro'paga tarqaladi.

1638 yili Istambulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford dorifununing professori Jo'n Grivs (1602—1652) keladi.

qaytishida u o'zi bilan Ulug'bek "Ziji"ning bir nusxasini Angliyaga olib ketadi. 1648 yili avval "Zij"dagi 98 yulduz jadvalini chop etadi. O'sha yilning o'zida Grivs "Zij"dagi jo'g'rofiy jadvalni xam nashr etadi. 1650 yili esa u "Zij" birinchi maqolasining lotincha tarjimasini nashr etadi.

Cheksiz aql-idroki, azmu qat'iyati, odilona siyosati bilan Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnaxr diyorining donishmand xukmdori bo'lib, xalqlarning azaliy orzusi — tinchlik, totuvlik, xar tomonlama taraqqiyotni qaror toptirish yo'lida mislsiz shijoat va matonat ko'rsatdi.

Mirzo Ulug'bek, avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod qildi. Minglab yulduzlarni jamlagan mukammal xarita va bugungi eng zamonaviy xisoblardan deyarli farq etmaydigan mukammal astronomik jadvalini yaratdi.

Uning xayoti va ijodi o'zbek xalqi ma'naviyati poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, xalqimizning o'rta asrlarda fundamental fanga nechog'lik buyuk axamiyat berganini ko'rsatadi.

Mirzo Ulug'bek o'z umrini kelajak uchun, bugungi xayot uchun fido etdi. O'sha uzoq zamonlarda bashariyat taraqqiyotini o'ylab yashadi, o'z avlodlari asrlar osha tartib etajak ma'rifatli bir jamiyatni orzu qildi. Xar qanday millat xam Ulug'bekday farzandni tarbiya etgani uchun g'ururlanishi tabiiy xoldir, chunki bunday insonlar faqat o'z xalqiga emas, balki umubashariy gullab-yashnash uchun xizmat qiladi va jaxonning e'tiborini qozonadi.

"...Mirzo Ulug'bekning umumbashariy qadriyatlarga qo'shgan xissasi beqiyos bo'lib, u bugungi kunda xam xayotimizda ulkan axamiyat kasb etmoqda va O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirish yo'lida katta xizmat qilmoqda. Buyuk ajdodimiz Ulug'bek nomi berilgan ma'naviyat maskanlari, maxallalar, ko'chalar va shaxarlar juda ko'p. Yurtimizda dunyoga kelib ko'z ochayotgan xar o'n chaqaloqning

biriga ezgu niyat bilan Ulug‘bekning muborak ismi berilyapti deb aytsak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bularning barchasi — millatimizning buyuk allomaga bo‘lgan cheksiz xurmati va extiromlaridan darak beradi.<sup>14</sup>»

Mirzo Ulug‘bek xizmatlaridan yana biri shundaki, u avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta axamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etdi, xar qanday joxillik va bilimsizlikka qarshi kurashdi. U insonning imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishora qilib, yoshlarni ilm egallashga, insofli va ximmatli bo‘lishga, xalollik va rostgo‘ylikka da'vat etadi.

Ulug‘bekning bilimlarini nafaqat kitoblardan, balki bevosita xayotning o‘zidan xam olishni tavsiya etadi.

Ulug‘bek yangi-yangi ilmiy kashfiyotlar qilishni inson uchun oliy fazilat deb biladi. U Movarounnaxr shaxarlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilmu ma'rifat dargoxiga aylantiradi. Ulug‘bek “Bilimga intilish xar bir muslim va muslima uchun farzdir” degan shiorni ilgari suradi va uni madrasaning peshtoqiga yozdirib qo‘yadi. Madrasada esa ilmning turli soxalarining o‘qitilishiga jiddiy e'tibor beriladi.

Masalan, Samarqand madrasasida iloxiyot ilmlari: qur'on, Xadis, Tafsir, fiqx bilan birga riyoziyot, xandasa ilmi, xay'at (falakiyot), tibbiyot, tarix, geografiya, ilmi aruz, ilmi qofiya, arab tili kabi dunyoviy ilmlar o‘rgatilgan.

Ulug‘bek ilm fani ravnaqi uchun kurashgan, ta'lim-tarbiya rivojiga xissa qo‘shgan fuqarolarni doimo rag‘batlantirib, o‘qituvchi-ustoz, mudarrisga xurmat extirom bilan qarashni targ‘ib etgan. Uning mana shu say'i xarakatlari tufayli ta'lim-tarbiya sifati yaxshilana bordi, madrasalarda o‘qish-o‘qitish ta'limni jonlantirishga katta axamiyat berildi. Madrasadagi o‘quv tizimi islox qilinib, unda falakiyot, matematika, geografiya kabi aniq fanlarni o‘qitishni joriy etdi, ta'lim mazmunining sifatini oshirdi, madrasalarda o‘qish muddatini 15—20 yildan 8 yilga tushirdi.

Ulug‘bek o‘z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog‘lom, xarbiy xunarni puxta egallagan, jasur, mard bo‘lib yetishuviga aloxida axamiyat beradi.

Ulug‘bekning fikricha, ta'lim-tarbiyada matematika, falakiyot fanlari bolaning aqliy qudrati va qobiliyatini o‘stirishda muxim vosita bo‘lsa, tarix va adabiyot fanlari esa bolalarning vatanparvar bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi.

Ulug‘bek ta'lim-tarbiyada mudarrislarining odil va xalol bo‘lishiga, o‘z pedagogik maxoratlarni, bilimlarini oshirib borishga, xar bir mashg‘ulotni yuksak saviyada o‘tkazishga da'vat qiladi, ana shu bilangina o‘quvchilarda bilimga qiziqish orttirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarbiyachi avval o‘zini tarbiyalashi, bilim va malakalarini egallashi lozim.

Ulug‘bek bolalarni tarbiyalashda uy sharoiti va ota-onalarning faoliyatiga yuqori baxo beradi, ularni xayotda chidamli, mexnatsevar qilib tarbiyalash juda zarur deydi. Buning dalili sifatida “Zij” ustida ishlash paytidagi qiyinchiliklar xaqida shunday deydi: “Yulduzlar jadvalini tuzish maqsadida biz kechayu kunduz ishladik, o‘z mo‘ljallagan maqsadimizga yetguncha biz o‘zimizga qadar yaratilgan jadvallarni taqqosladik, qayta tuzdik va shu tariqa yuz qaytalab tuzatishlar kiritgach, o‘n sakkiz yildan so‘nggina o‘z ko‘zlagan niyatimizga yetdik”<sup>15</sup>.

Ulug‘bek axloqiy tarbiya xaqida gapirar ekan, bu masalada insonlar orasidagi o‘zaro munosabat, do‘stlik va birodarlik aloxida axamiyat kasb etish kerakligini

---

<sup>14</sup> И.А.Каримов. Исти-лол ва маънавият. Т., «Ўзбекистон», 1994 й., 97—98-бетлар.

<sup>15</sup> Улугбек. Новые Гураганова астрономические таблицы. Т., изд. «Фан» АН. РУз, 1994й. 31—32-бетлар

ta'kidlaydi. Uning fikricha, xaqiqiy va soxta do'stlarni ajrata bilish lozim, g'arazli kishi xech vaqt do'st bo'lmaydi, kishilarni u to'g'ri yo'ldan ozdiradi. Shu bois g'arazli kishilardan xar qanday yo'l bilan bo'lsa-da, yiroq bo'lish, kasbi va xulq-atvori yaxshi, xamma xurmat qiladigan, xushfe'l kishi bilan do'stlashish lozimligini tavsiya etadi.

Xar bir kishi do'stona xamkorlik bilan xayotiy muammolarni xal etishi mumkin, kishi yolg'iz o'zi, do'stlarsiz xech narsa qila olmaydi. Uning ta'kidlashicha, xar bir insonning axloqiy shakllanishi olimlar o'rtasidagi munosabatlarga xam bog'liqdir, ular o'rtasidagi yaxshi xamkorlik talabalarning axloqiy tarbiyasida g'oyat muximdir. Bunday do'stona va beg'araz xamkorlik moxiyatini biz Ulug'bek faoliyati misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Ali qushchi umrining oxirigacha unga sodiq qoldi. Ulug'bek o'zining ko'p yillik mexnati evaziga yaratilgan "Ziji Ko'ragoniy" asarini unga ishonib topshirdi va u o'z navbatida ustozining ishonchini oqladi.

«Boburnoma» asarini o'rganish va taxlil qilish.

## **5. Abduraxmon Jomiy. Xayoti va faoliyati (1414-1492)**

Abduraxmon Jomiy XV asrda yashagan mutafakkirlar kabi inson va uning yuksak axloqiy xislatlari, go'zal fazilatlarini tarannum etish orqali kishilarning baxt-saodatini ta'minlash yo'llari xususidagi g'oyalarni ifoda etadi.

Abduraxmon Jomiyning xayoti va ijodiy faoliyati, ta'limiy va tarbiyaviy qarashlari borasida mashxur sharqshunos olimlar - ye.E. Bertels, M.Orifiy, Sh. Shomuxamedov, A.qayumov, X.Aliqulov va boshqalar samarali ravishda tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Allomaning to'liq ismi Nuriddin Abduraxmon ibni Axmad bo'lib, u 1414 yilning 7 noyabrida Jom shaxrida tavallud topgan.

Abduraxmon Jomiylarning oilasi keyinchalik Xirot shaxriga ko'chib o'tadi. Bu davrda Xurosonda Shoxrux Mirzo xukmronlik qilar, Xirot shaxri esa eng yirik madaniy markazlardan biri sanalardi.

Yosh Nuriddin Abduraxmon maktabga juda erta qatnay boshlagan. Uning otasi o'z davrining ziyoli kishilaridan biri bo'lganligi uchun o'g'lining bolalikdan bilim olishiga katta e'tibor bergan.

Abduraxmon Jomiy maktabni tamomlagach, «Nizomiya» madarasida taxsilni davom ettirdi. Madrasada taxsil olish davrida u arab tili grammatikasini puxta o'rgandi, shuningdek, arab tilida yaratilgan xamda aruz vazni va uning o'ziga xos jixatlari xamda qofiya ilmidan saboq beruvchi asarlar mazmuni bilan tanishib chiqdi. Ko'plab badiiy asarlarning sharxlari bilan tanishishga musharraf bo'ldi. Ayni vaqtda Sa'diddin qoshg'ariy, Shayx Baxoviddin Umar va Mavlono Muxammad Asad kabi allomalarning qo'lida taxsil oldi. Abduraxmon Jomiy badiiy asarlarni yaratishga oid ilmlarni puxta o'zlashtirganligi xamda nasriy va nazmiy asarlarni birdek muvaffaqiyatli yarata olish qobiliyati bilan ustozlarining taxsiniga sazovor bo'ldi.

Biroq Abduraxmon Jomiyda o'zi egallagan bilimlari darajasidan qoniqmaslik xissi ustun edi. Shu bois bilimlarini yanada oshirish maqsadida Samarqand shaxriga yo'l oladi. Mazkur davrda Samarqand shaxri ulug' mutafakkir Muxammad Tarag'ay Ulug'bekning boshqaruvi ostida bo'lib, u madaniyat va ma'rifat o'chog'iga aylangan edi. Mirzo Ulug'bekning raxbarligi ostida matematika, fizika va astronomiya kabi fanlarning rivoji yo'lida samarali tadqiqotlar olib borilayotgan edi. Samarqand shaxrida bo'lgan vaqtda Abduraxmon Jomiy o'z zamonasining yetuk olimi g'ozizoda

Rumiy tomonidan o'qilgan ma'ruzalarni tinglashga muvaffaq bo'ldi. Xirot shaxriga qaytgach, mashxur olim, Muxammad Tarag'ay Ulug'bekning sevimli shogirdlaridan biri Ali qushchi tomonidan sinovdan o'tkazildi.

Abduraxmon Jomiy tinimsiz izlanish, o'qib-o'rganish evaziga matematika, arab tili va adabiyoti, sintaksis, badiyot ilmi, musiqa, falakiyot, falsafa, fiqx, notiqlik ilmi, qur'onni qiroat bilan o'qish va sharxlash kabi fanlardan chuqur bilimga ega bo'ldi. Chuqur bilim va keng dunyoqarashga ega bo'lganligi bois Abduraxmon Jomiy xalq orasida shoir va olim sifatida shuxrat qozondi, xurmat-e'tiborga sazovor bo'ldi. Allomaning o'ta darajada kamtarligi xam uning xalq orasidagi obro'siga obro' qo'shdi.

Alloma va she'riyat mulkinging sultoni Alisher Navoiy o'rtasida mustaxkam do'stona aloqa mavjud bo'lib, ushbu aloqa xam badiiy ijod, xam maishiy turmush, xam ijtimoiy munosabatlar soxasida yaqqol ko'zga tashlanar edi. 1469 yilda Xirot shaxrida asos solingan mazkur do'stlik alloma xayotining so'nggi daqiqalarigacha davom etdi.

Abduraxmon Jomiy 1472 yilda xaj safari bilan Makka shaxriga o'tlanadi, ushbu safar jarayonida turli shaxarlarda bo'lib, mashxur shoir, olim va mutafakkirlar bilan muloqotda bo'ladi, adabiy jarayon, uning o'ziga xos yo'nalishlari va mazmuni bilan yaqindan tanishadi. Ikki yillik safardan so'ng Xirot shaxriga qaytadi va o'zi orttirgan boy tajribaga tayangan xolda ijod qiladi.

Abduraxmon Jomiy xam o'z asarlarida yuksak insoniy xislatlarni ta'rif etadi. Tadqiqotchi Sh.Shomuxamedov Abduraxmon Jomiyning shaxsi xususida so'z yuritar ekan, quyidagilarni qayd etib o'tadi: «Uning shaxsan o'zi bunga namuna bo'ldi, poklik shamlaridan biri bo'lib porladi».

Alloma uchta lirik devoni, ta'lim-tarbiya masalalariga oid «Baxoriston», shuningdek, yettita dostonni o'z ichiga olgan «Xaft avrang» («etti taxt») nomli asarlari bilan jaxon madaniyati taraqqiyotida munosib o'ringa ega bo'ldi.

### **Abduraxmon Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlarida tarbiya mazmuni, shakl va uslublari**

Abduraxmon Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari «Baxoriston» asari xamda «Xaft avrang» («etti taxt») asarining tarkibidan o'rin olgan «Tuxfatul axror» va «Silsilatuz zaxab» («Oltin tizmalar») dostonlarida aks etadi. Allomaning «Baxoriston» asari Muslixiddin Sa'diy tomonidan yaratilgan «Guliston» asari yaratilgan uslubda yozilgan bo'lib, unda Abduraxmon Jomiy xaqiqiy kamolotga erishgan inson va uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi borasida to'xtalib o'tadi.

Abduraxmon Jomiy xam boshqa allomalar kabi inson kamolotining birinchi mezoni uning bilimlilik darajasi deya ta'kidlaydi.

«Xaft avrang» asarining birinchi dostoni bo'lgan «Tuxfatul-axror»da xam Abduraxmon Jomiy ilmning inson xayotidagi axamiyati ko'rsatib berar ekan, ilm xar qanday muammolarni yechishda insonga yordam berishini ko'rsatib o'tadi.

Alloma o'zining mashxur «Silsilatuz zaxab» («Oltin tizmalar») dostonining «Sevimli aziz farzandga nasixat» nomli bobida, xar bir yoshning bilim olishi zaruriyat ekanligini ta'kidlaydi. Zero, inson umri juda qisqa bo'lib, u umrni bexuda o'tkazmasligi, shuningdek, muayyan darajada bilimlarni egallagandan so'ng unga amal qilish lozim, amaliyotda qo'llanilmaydigan ilm xam bexudadir degan fikrlarni ilgari suradi

Abduraxmon Jomiy insonni shaxs sifatida tarbiyalashda moddiy omillar bilan bir qatorda ma'naviy omillarning roli xam beqiyos ekanligini ta'kidlagan xolda, mazkur omillar sirasida musiqaning aloxida o'rnini va roli borligini ko'rsatib beradi. Alloma «Musiqqa xaqida risola» nomli asarida musiqa ilmining shakllanishi, oxanglarning turlari, maqom kuylarining mazmuni, musiqa asboblari xamda ularning vazifalari borasidagi ma'lumotlarni bayon etar ekan, musiqaning inson ruxiga turlicha ta'sir ko'rsatishini aytib o'tadi. Xususan, ayrim musiqiy asarlar insonning ruxiyatiga ijobiy ta'sir etib, uning kayfiyatini ko'tarsa, ayrim kuy yoki qo'shiqlar kishida tushkun kayfiyatni xosil qilishiga aloxida urg'u beradi.

Abduraxmon Jomiy asarlarida xam boshqa allomalarning asarlarida ifoda etilganidek shaxs tarbiyasini samarali tashkil etish masalalariga katta e'tibor beriladi. yetuk insonga xos bo'lgan axloqiy xislatlar uning barcha asarlarida keng ifoda etiladi. Xususan, komil inson qiyofasida aks etuvchi ma'naviy-axloqiy sifatlar - yaxshilik, saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, rostgo'ylik, do'stlik, mexnatsevarlik kabilarni tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi. Saxovat, kamtarlik xamda oliyjanoblikni esa eng ulug' insoniy fazilatlardan deb biladi. "Baxoriston" asarida alloma "saxovat biror narsaga qarab yoki biror narsa evaziga bo'lsa, xatto talab etilgan narsa maqto'v va minnatdorchilik bo'lgani taqdirda xam u saxovat emas", - deydi.

Abduraxmon Jomiy insoniylik fazilatlaridan sanalgan kamtarlikni targ'ib etar ekan, kibr-xavo, manmanlik, razolat, joxillik kabi illatlarni qoralaydi. Shu o'rinda alloma takabbur, manman shaxslar bosh ko'targan boshhoq kabi o'roq zarbi bilan yerga yiqilib, sarg'ayib, so'lishi muqarrar ekanligiga urg'u bersa, kamtar kishilar xususida so'z yuritganda esa tuproqqa tashlangan donni qushlar avaylab yerdan ko'tarib ketganlaridek, ular xam e'zozda bo'ladilar, deya ta'kidlaydi.

Abduraxmon Jomiy asarlarining mazmunida ulug'langan yana bir insoniy sifat – bu do'stlik va unga nisbatan sadoqatli bo'lish g'oyasidir. Insonlar bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatga kirishar ekanlar, ular o'rtasida yuzaga keluvchi do'stona munosabat yuksak kamolotning yorqin belgisi sifatida namoyon bo'ladi, deya qayd etadi alloma. U xaqiqiy do'stlikning muxim belgilari sirasiga do'stga sodiqlik, qiyin va murakkab vaziyatlarda undan qochmaslik, aksincha, xamdard, mexribon bo'lish, do'stligi evaziga biror narsani ta'ma qilmaslik kabi xislatlarni kiritadi.

Abduraxmon Jomiy tomonidan "Iskandar xiradnomasi" nomli dostonining "Iskandarning pokizalar shaxriga yetishi" bobida ifoda etilgan yetuk insonga xos xislatlar borasidagi qarashlar Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shaxri" asarining tarkibiy tuzilmasidan joy olgan "Fozillar shaxri xokimining fazilatlarini" bandida ilgari surilgan fikrlar bilan o'zaro uyg'undur. Xar ikki asarda xam fozillar shaxri axolisiga xos bo'lgan xislatlar yaxshilikning g'olib kelishi barcha yomon illatlar - urush, nizo, jaxolat, zulm, boylikka xirs qo'yish xamda ta'magirlikning barxam topishi asosida kechishini ochib beradi.

Iskandar jaxon kezib, nixoyat bir shaxarga keladi. Ushbu shaxar axolisining ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ularning turmush tarzi shoxni lol qoldiradi. Mazkur shaxarda odamlar tinch, osoyishta, urush-janjallsiz xayot kechiradilar; barcha birdek mexnat bilan shug'ullanadi. Shaxarda o'g'ri yo'q, shu bois barcha eshiklar qulfsiz. U yerda adolat xukmron bo'lib, fuqurolar o'rtasida o'zaro yordam va xamjixatlilik xissi qaror topgan. Bunday xayot tarzi ushbu shaxar axolisiga ota-bobolaridan meros qolgan bo'lib, ular mavjud an'analarni e'zozlab asraydilar va ularga qat'iy amal qiladilar.



Abduraxmon Jomiyning tasavvurlarida shakllangan “Īokizalar shaxri” allomaning yuksak orzu-umidlari timsoli, xar jixatdan mukammal, ideal ijtimoiy tuzum namunasi.

Mutafakkirning qarashlariga ko‘ra yetuk, komil inson elu yurt manfaati yo‘lida xizmat qilib, yaxshi nom qoldirishi zarur. “Silsilatuz-zaxab” dostonida bayon etilgan quyidagi pandlar Abduraxmon Jomiyning ijtimoiy qarashlari mohiyatini aks ettiruvchi umumiy g‘oya sanaladi:

Mazkur asarda alloma, yana shuningdek, tarbiya masalalari xususida so‘z yuritir ekan, ijtimoiy tarbiyani tashkil etishga jiddiy e‘tibor berishni maqsadga muvofiq deb topadi. Biroq tarbiyani izchil va uzluksiz yo‘lga qo‘yishiga erishishni bu yo‘ldagi muxim vazifa deya xisoblaydi. Zero, xar qanday giyoxni xam parvarishlash asosidagina undan yaxshi xosil olishni ko‘zlash mumkin. Agarda insonga uning bolaligidanoq yaxshi tarbiya berilsa, u komil inson bo‘lib voyaga yetishiga ishonch bildiriladi. Abduraxmon Jomiyning «Silsilatuz zaxab» («Oltin tizmalar») dostonining tarkibiga kiritilgan

Abduraxmon Jomiy asarlarida yaxshilik barkamol insonga xos bo‘lgan muxim axloqiy xislat mohiyatini ifoda etuvchi xatti-xarakat sifatida ulug‘lanilishi bejiz emas. Zero, yer yuzida yaxshilik va yomonlikning mangu barqaror bo‘lishi, ular o‘rtasida boradigan abadiy kurash, shuningdek, yaxshilik va ezgulikning yomonlik va yovuzlik ustidan g‘olib kelishiga bo‘lgan yuksak ishonch tuyg‘usi eng qadimgi ma‘rifiy yodgorliklardan tortib, barcha pandnoma janrida yaratilgan ma‘rifiy asarlarning asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abduraxmon Jomiyning yetti dostonidan iborat “Xaft avrang” (“yetti taxt”) asarining “Tuxfat-ul-axror” (“Erkinlar tuxfasi”), “Sabxat-ul-abror” (“Yaxshilar tasbixi”), “Silsilatuz zaxab” (“Oltin tizmalar”) kabi falsafiy-axloqiy asarlari xamda “Xiradnomai Iskandar” nomli dostonida allomaning barkamol inson tarbiyasiga oid umuminsoniy g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

Abduraxmon Jomiyning “Salomon va Absol” dostonida esa tuban xis-tuyg‘ulardan tozalanib, ma‘naviy kamolotga erishish yo‘li badiiy tarzda ifoda etiladi.

Asarning mazmunida podshoxning o‘g‘li va uning tarbiyachisi o‘rtasida yuzaga kelgan ishqiy kechinmalar ramziy obrazlar vositasida xikoya qilinadi. Shox o‘z o‘g‘li Salomonga go‘zal juvon Absolni tarbiyachi etib tayinlaydi. Salomon xam aqlan, xam jismonan yetuk yigit bo‘lib kamolga yetadi. Absol uni sevib qoladi va Salomonni xam makru xiyla bilan o‘ziga maftun etadi, Salomonda Absolga nisbatan moyillik paydo bo‘ladi. Salomon na otasi (shox)ning, na ustoz (xakim)ning pandlariga quloq solmay, Absol bilan birga orolga qochib ketadi. Ammo shox ularni tutib, asir oladi. Imkonini qilib Salomon Absol bilan saxroga chiqadi. U yerda ular olov yoqib, o‘zlarini gulxanga tashlaydilar. Absol gulxanda kuyib xalok bo‘ladi, Salomon esa omon qoladi. Salomon Absolni unuta olmay qiynaladi. Nixoyat Salomon ustoz (xakim)ning pand- nasixatlariga ko‘ra Absol siymosidagi Zuxraga ko‘ngil qo‘yadi. Shunda shoxning xam ko‘ngli taskin topib, toju taxtni Salomonga topshiradi. Dostonning nixoyasida qissadan xissa bayon etiladi. Filolog olim A.qayumovning fikrlariga ko‘ra, Abduraxmon Jomiyning ushbu dostonni yaratishdan ko‘zda tutgan maqsadi aql-idrok va sog‘lom fikrga asoslangan xolda ish tutish xar doim ijobiy natijalar berganligini ochib berishdan iboratdir. Salomon va Absol o‘rtasida yuzaga kelgan muxabbat ramziy mazmunga ega. Alloma ta‘kidlab o‘tganidek, jism jonsiz yashay olmaydi. Agar jon mavjud bo‘lmasa, jism o‘lik tanga aylanadi. Dostonda Salomon obrazi – ruxning, Absol obrazi jismning timsolidir. Salomon bilan Absolning

orolda yolg'iz qolishlari xamda maishatga berilishlari xam ramziy mazmunga ega. Chunonchi, dostonda tasvir etilgan dengiz xirsni anglatadi. Salomon va Absolning o'zlarini gulxanga tashlashlari misolida ruxning gunoxlardan forig' bo'lishiga urg'u beriladi. O'zini gulxanga tashlash bilan Salomon xirslardan tozalanadi. Jism o'tda kuyib kul bo'ladi, rux omon qoladi. Salomonning Zuxraga ko'ngil qo'yishi misolida ezgulikning buyuk tantanasi ifoda etiladi. Gunoxlardan forig' bo'lgan ruxning yangi xayot boshlashi insonning ma'naviy kamolotga erishish borasidagi g'alabasini namoyon etuvchi xodisadir. Ayni o'rinda Zuxra obrazi ma'naviy kamolotning timsoli sifatida keltiriladi<sup>16</sup>.

Demak, Abduraxmon Jomiy "Salomon va Absol" dostonida ibratli rivoyatlar misolida kishilarga tuban xirslardan tozalanib, ma'naviy kamolotga erishish yo'llarini ko'rsatib beradi. Inson xar qanday xirsu mayldan yuqoriroq bo'lishi, aql-idrok va sog'lom fikr yuritib ish ko'rishi lozim, degan fikrni ilgari suradi va tasavvuf g'oyalarini tarannum etadi.

Alloma o'z asarlarida yuksak insoniy sifatlarni tarannum etar ekan, ularning eng muximlari sifatida quyidagi xislatlarni qayd etadi xam mazkur xislatlarning xar bir inson qiyofasida aks etishi xayotiy zaruriyat deya xisoblaydi: insoniylik, adolatlilik, mexnatsevarlik, saxovat va karam, mexr-muruvvat, chin inchoniyy muxabbat, rostgo'ylik, kamtarlik, jasorat, mardlik va boshqalar. Ayni vaqtda insonning takabburlik, molu dunyoga qirs qo'yish, yolg'onchilik, joxillik, ta'magirlik kabi salbiy xislatlardan xalos bo'lishini maqsadga muvofiq deb topadi. Abduraxmon Jomiy insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy sifatlarni va shaxsda ularni shakllantirish masalalarini o'z asarlarida she'riy misralar orqali yanada ta'sirchan uslubda ochib berishga xarakat qiladi. Yuqorida nomlari qayd etilgan asarlarda bayon etilgan fikrlar xayotiy xususiyatga egaligi bois asrlar davomida o'zining nazariy qimmatini saqlab qolishga muyassar bo'lmoqda.

## **6. Alisher Navoiy. Xayoti va faoliyati (1441-1501)**

O'zbek adabiyotining asoschisi, she'riyat mulkining sultoni, ma'rifatparvar shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Xirot shaxrida tug'ilgan. Yosh Alisher favqulodda iste'dod egasi bo'lib, iste'dodining dastlabki ko'rinishlari u uch-to'rt yoshga to'lgan vaqtlardayoq namoyon bo'la boshlagan. Shu vaqtda u Fariddin Attorning «Mantiq-ut-tayr» asarini yod oladi.

Alisherdagi ilm o'rganishga bo'lgan kuchli qiziqish xamda ishtiyoqni o'z vaqtida anglagan ota-onasi uni 1445 yilda maktabga beradilar. Maktabda taxsil olayotgan chog'larida o'tmish mutafakkirlari va o'z zamonasining zabardast shoirlarining ijodlari bilan yaqindan tanishadi. Mazkur davrda badiiy mavjud asarlar mazmunini o'qib-o'rganish bilan kifoyalaniq qolmay, 10-12 yoshidayoq mustaqil ravishda she'rlar yoza boshlaydi. Yosh Alisher tomonidan yaratilgan she'riy misralar o'zida yuksak badiiy va falsafiy g'oyalarni aks ettirar edi. Chunonchi, uning ustozlari Lutfiyga o'qib bergan quyidagi misralari bugungi kunga qadar she'riyat ixlosmandlarining xayratiga sazovor bo'lib kelmoqda:

Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur xar laxza yosh,  
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nixon bo'lgach quyosh.

---

<sup>16</sup> Жомий Абдурашмон. Лайли ва Мажнун. Саломон ва Абсол (Масъул мушаррир ва сызбоши муаллифи А. Аюмов). – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989, 5-бет.

qomusiy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan Alisher Navoiy xalq orasida xurmat-e'tibor qozonadi. Bolalikda birga ulg'aygan do'sti sulton Xusayn Boyqaro Alisher Navoiyning iste'dodi, bilimi xamda xayotiy qarashlarini yuksak qadrlagan xolda uni o'ziga vazir etib tayinlaydi. Davlat arbobi sifatida faoliyat olib borgan Alisher Navoiy fan va san'atning turli soxalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, xattotlik, tasviriy san'at xamda me'morchilikning rivoji yo'lida amaliy xarakatlarni olib borish bilan birga yoshlarga ta'lim va tarbiya berish masalalariga xam aloxida diqqat-e'tibor qaratdi. Ulug' mutafakkir o'zining «Xamsa», «Maxbub-ul-qulub», «Munojot», «Vaqfiya», «Majolis-un-nafois», «Muxokamat-ul-lug'atayin», shuningdek, Abduraxmon Jomiyning «Arba'in» nomli asarining tarjimasini sifatida yaratilgan «Chixil xadis» («g'irq xadis») kabi asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga oid qarashlarini ifoda etadi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo'luvchi ma'naviy-axloqiy sifatlarni ulug'lagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy muammolarni yorituvchi asarlarida esa komil insonni shakllantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o'ziga xos jixatlari, yo'llari, shakl va usullari borasidagi muloxazalarni bayon etadi.

Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari, shu jumladan, komil insonni shakllantirish konsepsiyasining mazmunini o'rganish muayyan davrlarda dolzarblik kasb etgan. Shu bois bu yo'lda bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, navoiyshunos olimlar O.Sharafiddinov, I.Sultonov, A.Xayitmetov, N.Mallaev, T.Jalolov, V.Zoxidov va S./anieva va boshqalar tomonidan samarali ravishda olib borilgan tadqiqotlar shular jumlasidan sanaladi.

Alloma tomonidan yaratilgan asarlar mazmunidan anglanadiki, ularda ilgari surilgan qarashlarning markazida inson va uning kamolotini ta'minlash g'oyasi turadi. Mazkur o'rinda navoiyshunos olim V. Zoxidov quyidagi fikrni ifoda etadi: «Navoiy ijodi xamda amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo'nalish nuqtasi xar narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalalaridir».

### **Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy qarashlarida yetuk inson tarbiyasi mazmuni, shakl va uslubi**

Allomaning tasavvuridagi komil inson o'z qiyofasida eng yuksak insoniy fazilatlar mujassam eta olishi lozim. Chunonchi, u ijodkor, qobiliyatli, shu bilan birga ilm-fanga nisbatan muxabbatli bo'lmog'i zarur. Alisher Navoiyning qarashlariga ko'ra, ana shunday sifatlarning soxibi bo'la olgan insongina o'z kuchi xamda aqlu zakovatiga ishonadi. O'z kuchi va aqlu zakovatiga qattiq ishona olgan insongina turli qiyinchiliklarga bardosh bera oladi, u o'ta murakkab muammolarni xam yechimini topa olishga qodir. Ilm-fan sirlaridan xabardor bo'lishning inson axamiyatini yoritir ekan, alloma ayni o'rinda ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, xayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning xaqiqiy qiyofasini ko'rsata oluvchi omil sifatida ta'riflaydi. Ushbu fikr mutafakkir tomonidan yaratilgan «Nazmul-javoxir» asarida quyidagicha bayon etiladi:

Kim olim esa nuqtasida barxaq de oni,  
Gar bazm tuzar bixishti mutlaq de oni.  
Xar kimsaki yo'q ilm axmaq de oni,

Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni<sup>17</sup> .

Mazkur to'rtlikning mazmunida ilmi, oqil odam o'z maqsadiga erishish yo'lida uchraydigan xar qanday qiyinchilikni yengib o'tadi, kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u xech qachon qoqilmaydi, zero, ilm insonning baxt-saodatini ta'minlashga xizmat qiladi degan g'oya o'z aksini topgan.

«Xayrat ul-abror» dostonining o'n birinchi maqolatida esa mutafakkir ilmni quyosh, oy xamda kunduz sifatida quyidagicha ta'riflanadi: «Ilm sipexrning baland axtarligidakim, jaxl tunin yoritmoq uchun «ayn»i ( ), quyoshdan va «lom»i ( ) oydin va «mim» ( ) kunduzdin nishona aytur. Va jaxl shomi tiyra manzaralig'dakim, g'aflat choxini zalolat kechasida zoxir qilib, bu kechada shaxovatdin fasona aytur. Va olimning bovujudi ganju mol tufroq aro najandligi» («ilm osmonning yulduzlaridek baland martaba, mavqyega ega, bilimsizlik tunini yoritish uchun arab alifbosidagi «ayn» quyosh, «lom» oy, «mim» esa kunduz belgilarini ifoda etadi; bilimsizlik shomining qorong'i ko'rinishi g'aflat choxini pastlik kechasida zoxir bo'lib, bu kechada olimning butun baxtsiz vujudi quyoshdek yuksak, joxilning esa butun borlig'i boylik, mol bo'lsa xam tuproqdek xordir»). Ushbu o'rinda arab tilida ( ) aynning ma'nosi quyosh, ( ) lomning ma'nosi oy ( shaklan oyga o'xshaydi va abjid xisobida "o'ttiz"ni bildiradi), ( ) mimning ma'nosi esa kunduz ekanligiga aloxida urg'u beriladi<sup>18</sup>

. Alisher Navoiy ilmni quyosh, oy xamda kunduzga o'xshatish orqali, u insonni baxt-saodatga eltuvchi vosita ekanligiga e'tiborni qaratadi.

Alisher Navoiy ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaxolatdan qutqazuvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar yordamida kishilarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga undaydi. Mutafakkir ilm o'rganishni xar bir kishining insoniy burchi deya e'tirof etadi. Zero, ilm o'rganishdan maqsad xam xalqning farovon, baxtli-saodatli xayot kechirishini, mamlakatning obod bo'lishini ta'minlashga xissa qo'shishdir, deya ta'kidlaydi. Bilimli va dono kishilar xamisha o'z xalqining manfaati xamda mamlakatining ravnaqi yo'lida faoliyat olib borishlariga ishonadi. Mazkur o'rinda Mirzo Ulug'bekni ana shunday xislatga ega bo'lgan kishilardan biri bo'lganligiga urg'u beradi xamda uning nomi tarix saxifalarida abadiy saqlanib qoladi, deb xisoblaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmi bo'lish bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni yetuk inson sifatida ta'riflash uchun unda, yana shuningdek, sabr-qanoat, saxiylik, ximmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze, adab, vafo va xokazo sifatlarning xam mavjud bo'lishi taqozo etiladi.

Alisher Navoiy asarlari mazmunida o'z aksini topgan xar bir fikr amaliy axamiyatga ega, zero, mutafakkir ularni o'zining ulkan xayotiy tajribasiga tayangan xolda bayon etadi. Alloma uzoq yillar davomida olib borgan xayotiy kuzatishlari va tajribasi asosida «Maxbub-ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») asarini yaratadi. Ushbu asarda «Xamsa» dostonining tarkibiy tuzilmasidan o'rin olgan «Xayrat-ul-abror», shuningdek, «Nazm-ul-javoxir» kabi ta'limiy-axloqiy asarlarida ilgari surilgan axloqiy qarashlarni mazmun jixatidan yanada boyitadi.

Mutafakkir «Maxbub-ul-qulub» asarini yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini asar muqaddimasida quyidagi tarzda ochib bergan: «Xar ko'cha-ko'yda yuguribman va

<sup>17</sup> Алишер Навоий, Назм-ул жавошир. Арбаъин. Насойим-ул мушаббат. Асарлар. Ён беш томлик. 15-том. - Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 1968, 45-бет.

<sup>18</sup> Алишер Навоий, Хамса (нашрга тайёрловчи П.Шамсиев). - Тошкент, Фан, 1960, 94-бет.)

olam axlidin xar xil kishilarga o'zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe'l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarini tajriba qilibman.

Yaxshilik va yomonlikning aslini xam, zaxrini xam tortib ko'rdim. Xasislar va karamlar yetkazgan yara va bergan malxamni ko'nglim tag-tugi bilan sezgandirman. Zamon axlidan ba'zi xamsuxbatlar va davr kishilaridan ayrim do'stlar bu xollardan xabarsiz va ko'ngillari bu yaxshilik va yomonliklardan asarsizdir...

Bu xildagi xamsuxbat va do'stlarni xabardor qilmoq va bu xollardan ogoxlantirmoq lozim ko'rinadiki, xar toifaning xislatlaridan ma'lumotlari va xar tabaqaning axvolidin bilimlari bo'lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suxbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so'z ochmasinlar. Shayton sifatlar xiyla va aldovlariga o'yinchoq bo'lib qolmasinlar. Kimki xar xil kishilar bilan suxbatlashish va yaqinlashishni xavas qilsa, bu borada kaminaning tajribasi yoshlar uchun yetarlidir"<sup>19</sup>.

Asar uch qismdan iborat. Alisher Navoiyning o'zi ta'kidlaganidek, asarning birinchi qismida turli toifaga mansub odamlarning fe'l-atvorlari; ikkinchi qismida yaxshi xislatlar va yomon fe'llar, ularning o'ziga xos jixatlari; uchinchi qismida esa yaxshi fe'l va xislatlar, insonda ularni shakllantirishga oid qarashlar bayon etiladi.

Alloma mazkur asarda kishilarni munosib va nomunosib kishilar tarzida ikki toifaga ajratadi. Xar bir insonning xayotda uchraydigan nomunosib kishilarni yaxshi xulqli insonlardan ajrata olish layoqatiga ega bo'lishi muxim ekanligi, yomon xislatlarga ega kishilar bilan munosabatda bo'lishdan saqlanish lozimligini uqtirib o'tar ekan, bu borada "Maxbub ul-qulub" asari yordamidan foydalanish foydadan xoli bo'lmasligini ta'kidlaydi. Mazkur xolat Alisher Navoiyning shaxsiy xayotiy tajribalari asosida yoshlarni komil inson bo'lib voyaga yetishishga undashishidan dalolat beradi. Mutafakkir yoshlarning asar mazmunida o'z ifodasini topgan xayot saboqlaridan o'zlari uchun tegishli xulosalarni chiqarib olishlariga umid bildiradi.

Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni, bilimlarni o'rganish asosida xosil bo'lgan aql va idrokning inson xayotidagi axamiyati xamda aqliy tarbiya va uning moxiyatini yoritishga aloxida e'tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlari xususida so'z yuritadi xamda mazkur sifatning xar biriga to'laqonli ta'rif berib o'tadi. qanoat, sabr, tavoze (adab), o'zgalarga nisbatan mexr-muxabbatli bo'lish, ishqda vafodorlik, saxovat, ximmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (xilm) kabi xislatlarni ijobiy fazilatlar sirasiga kiritadi va ularning xar biriga ta'rif berganidan so'ng tanbex va xikoyatlar vositasida shaxsiy qarashlarini dalillar bilan to'ldiradi. Asarda, shuningdek, axloqiy fazilatlarining antonimi xisoblangan salbiy illatlar va ulardan qutulish yo'llari xam bayon etilgan.

Mutafakkir axloqlilikning eng muxim mezoni odob deb xisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqye xamda xurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson xayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: «Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod baxramand bo'ladi. Adab, kichkinalar mexrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muxabbat ko'ngilda abadiy qoladi.

Yoshlarni ko'zga ulug' ko'rsatadi. Ularning yurish-turishini xalq ulug'vor biladi. O'ziga qarshi xalq tomonidan bo'ladigan xurmatsizlik eshigini bog'laydi va

---

<sup>19</sup> Аlisher Navoiy. Mash'ub-ul-ulu'ub. Asarlar. 15 tomlik. 13-tom. — Toshkent, Badiiy adabiyet nashriyati, 1966, 192-193-betlar.

kishini xazil-mazaxdan va kamsitilishidan saqlaydi. Kishi tabiatini insonlik yo‘liga soladi va odam mijoziga odamgarchilik manzilida orom beradi. Kichiklarga undan muncha natija xosil bo‘lgach, kattalarga allaqachon bo‘lishini ko‘rarsan.

Adabdan muxabbatga bezak va pardozi yetadi, adab tarkidan do‘stlikning ravnaq va baxosi ketadi. Adab va tavozu' do‘stlik ko‘zgisini yarqiratadi, ikki tomondan yorug‘lik yetkazadi.

Tavozu'li va adablilarga ta'zim va xurmat yetadi va u urug‘ni ekan bu qimmatbaxo xosilni to‘plab oladi. Xalq muomalasida yaxshi axloqning boshlang‘ichi shu xislatlar va bu xislat qattiq o‘rnashsa, muxabbatga xalal yetishi maxoldir. Agar xar ikki tomonda yaxshi xulq bo‘lsa, adabi va tavozu' evaziga ta'zim paydo bo‘ladi»<sup>20</sup>.

Demak, yaxshi xulqning asosi bo‘lgan odob Alisher Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo‘g‘ini sanaladi. g‘anoat, sabr, tavoz, ishq, vafo, saxovat, ximmat, karam, muruvvat, xilm (yumshoq ko‘ngillik) kabi ijobiy fazilatlarining odobli, axloqli kishilar qiyofasidagina namoyon bo‘lishiga urg‘u berib o‘tadi. Mutafakkir insonga xos bo‘lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xususidagi fikrlarini ularning xar biriga to‘laqonli ta'rif berish asosida davom ettiradi. Chunonchi, «qanoat – buloqdir – suvi olgan bilan qurimaydi. Xazinadir – naqdinasi sochilgani bilan kamaymaydir. Ekinzordir – urug‘i izzat va shavkat mevasi beradir. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va xurmat mevasi yetkazadi.

Kimki, qanoatga odatlansa, shox va gadoy bordi-keldisidan ozod bo‘ladi qanoat qo‘rg‘ondir, u yerga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog‘liklardir – u yerga chiqsang dushman va do‘stga qaramlikdan xalos bo‘larsan; tubanlashishdir – natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir – foydasi extiyotkorlik urug‘ining mevasi farovonlik»<sup>21</sup>.

Alisher Navoiy qanoatni to‘ldiruvchi insoniy fazilatlar sabr, saxiylik, karam, muruvvat, ximmat ekanligi ta'kidlab o‘tadi. Mazkur xislatlarning bir-biriga yaqinligi xamda ularni insonning obro‘-e'tiborini yuksak darajaga ko‘tarishga xizmat qiluvchi xislatlar sanalishini aytib o‘tadi. Ayni o‘rinda sabr deb ataluvchi xislatga shunday ta'rif beradi: «Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

U o‘rtoqdir – suxbati zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; u ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri istakka eltuvchi.

Ulovdir – yurishi taxir, ammo manzilga yetkazuvchi; tuyadir – qadami og‘ir, lekin bekatga tushiruvchi.

Achchiq so‘zli nasixatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad xosil bo‘ladi. Badxo‘r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so‘ngida sog‘liq yuz beradi»<sup>22</sup>.

Asarda saxiylik sifatiga esa insoniylikning xaqiqiy mezoni deya ta'rif beriladi. Alisher Navoiyning talqinicha, saxiylik, saxovat odamlarning mushkulini oson qilish maqsadida ularga beriladigan minnatsiz yordamdir. Alloma insonlarni bir-birlariga nisbatan saxovat ko‘rsatishga da'vat etadi. Ximmatlilik, muruvvat, karam kabi xislatlar esa saxovatning tarkibiy qismlari xisoblanadi. Ushbu fazilatlar ta'rif berar ekan, mutafakkir quyidagi fikrlarni qayd etadi: «Saxiylik (qo‘li ochiqlik) kishilik bog‘ining

---

<sup>1</sup> Аlisher Navoiy, Mashbub-ul-uluub. Asarlar. 15 tomlik. 13-tom. – Toshkent, Adabiёт va san’at nashriёti, 1966, 206-207-betlar.

<sup>1</sup> Ёша асар, 203-бет.

<sup>2</sup> Ёша асар, 204-205-бетлар.

xosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o'lkasining to'liqlik daryosi, balki u to'liqlik daryosining asl gavxaridir. Yaxshilik, karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko'tarmoq va uni o'sha qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Karam birovning mashaqqat tikani og'irligini ko'tarmoq va tikan uchidan guldek ochilmoq va o'sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og'ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik»<sup>23</sup>. «Muruvvat karamning urug'-avlodi, egizak qarindoshi, kimki bu xislatlarga ega bo'lsa izzat va xurmatga sazovor bo'ladi» kabi fikrlar asosida esa muruvvat deb ataluvchi xislatga ta'rif beriladi. Alisher Navoiy karam va muruvvat sifatlarini ota-onaga qiyoslasa, vafo va xayoni esa egizak farzandlardir deya ta'kidlaydi.

Biroq alloma xar qanday ko'rinishdagi exsonni xam saxiylik deb tushunmaydi. Saxovat ko'rsatyapman deb isrofgarchilikka yo'l qo'yishni, ko'rsatgan yordamini ta'kidlab ko'rsatish va minnat qilish xolatini qoralaydi. Alisher Navoiy saxovat va ximmat kabi sifatlariga ta'rif berar ekan, ularning ma'nosini keng doirada ochib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu bois ularni ijtimoiy munosabatlar darajasida yoritadi. Ya'ni, ularni, eng avvalo, axloqiy-didaktik qoidalar xamda jamiyat ravnaqini ta'minlovchi vositalardan biri deb xisoblasa, ikkinchidan, ushbu xislatlarga ta'rif berish orqali yomon fazilatlarga ega odamlarni qoralaydi.

Mutafakkirning fikrlariga ko'ra, qanoat – sharaf va izzatning tantanasidir, molu davlatga ega, biroq ta'magir bo'lgan insonlarni xor va pastkash kishilar deya xisoblaydi.

Asar mazmunida Alisher Navoiy yoshlikning qadriga yetish, eng yaxshi xislatlarni o'zida tarkib toptirish, nafs istagidan o'zini tiyish yo'lida olib borilayotgan xatti-xarakatlarni ulug'laydi. Takabburlik, manmanlik, faqat o'z foydasini ko'zlab ish yuritish, xasad, g'iybat, yolg'onchilik, nodonlik, joxillik, ikkiyuzlamachilik, ta'magirlik, shoshmashosharlik, bachkanalik, pala-partishlik, fisqi-fasod yuritish, yalqovlik, xaromdan xazar qilmaslik kabi illatlarni qoralab, ulardan xalos bo'lish yo'llari borasida xam so'z yuritadi.

Alloma tomonidan yaratilgan quyidagi ruboiy yomon illatlarga ega inson boshiga turli falokatlar yog'ilishi mumkinligi to'g'risida ogox etadi:

Uch fe'l kishiga erur qotil,  
qotillik aro zaxri xaloxil oxir.  
Buxl angla birin, birin xavo bir oxir,  
qil ujbni xam alarga doxil oxir<sup>24</sup>.

Darxaqiqat, Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlari bilan bir qatorda ta'limiy-axloqiy asarlarida xam o'zi orzu etgan yetuk inson qiyofasini yaratadi va komil insonga xos bo'lgan axloqiy fazilatlar sirasiga qanoat, saxovat, ximmat, muruvvat, vafo, to'g'rilik, xilm, tavoze', adab va xokazo xislatlarni kiritadi. Mazkur xislatlar tarkib topgan inson o'zgalarga nisbatan yomonlik va razillik qilmasligi, shuningdek, barkamol insonlarning baot-saodatga erishishlari va ular yashaydigan jamiyatning xar jixatdan ravnaq topishi shubxasiz ekanligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy asarlarida tasvirlangan badiiy qaxramonlar – Farxod, qays va Iskandar obrazlarida jismoniy yetuklik xamda axloqiy kamolot o'z ifodasini topgandir.

<sup>23</sup> Ёша асар, 216-217-бетлар

<sup>24</sup> Ёалошил – Ёлдирувчи.

щаво – орзу, майл, истак, щойу щавасга берилищ, кибр осмонига кЫтарилищ.

бухл – бахиллик, =урумсо=лик, хасислик.

ужб – манманлик, худбинлик, шущратпаращтик, риёкорлик.

Insonning sog'lom, baquvvat va axloqli bo'lib yetishishi xususidagi o'gitlar allomaning didaktik-axloqiy mazmunidagi asarlarida markaziy o'rinni egallagan.

Alloma tomonidan yaratilgan aksariyat asarlarda yigit kishi yoshligidanoq o'zlashtirishi shart bo'lgan xarbiy-jismoniy fazilatlar borasidagi fikrlar ilgari surilar ekan, yoshlarda mazkur fazilatlarni tarbiyalash yo'llari ko'rsatib beriladi. Alisher Navoiy xam boshqa mutafakkirlar singari xar bir yigitning quyidagi fazilatlarni o'rganishi muxim axamiyat kasb etishini aytib o'tadi: kamondan ota olish – merganlik, qilichbozlik, suvda suzish, kurash tusha olish. Mutafakkir asarlarida bosh obraz sifatida talqin etilgan qaxramonlar o'zlarida ana shu xislatlarni tarkib toptirishga muvaffaq bo'la olgandirlar. Xususan, Farxod, Baxrom xamda Iskandarlar chavandoz, yengilmas baxodir va moxir mergan bo'lib yetishgandirlar. Ularning jismoniy kamolotga erishish jarayonlarini yoritishga xizmat qiluvchi lavxalar "Farxod va Shirin", "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy" kabi dostonlarda o'z ifodasini topgan. "Sab'ai sayyor" dostonida asar qaxramoni Baxromning moxir mergan ekanligini ifodalovchi shunday lavxa mavjud: Diloromning istagi bilan shox Baxrom ovga chiqadi. Ov chog'ida u kamondan o'q otib, bir kiyikning avval ikki oyog'ini juftlaydi, keyin esa ikkinchi o'q bilan kiyikni bo'g'ziga o'q otib, bo'g'izlaydi. Lavxa tasvirlangan xolat Baxromning naqadar usta mergan ekanligidan dalolat beradi.

Bizga yaxshi ma'lumki, ajdodlarimiz xar bir yigitning xarbiy-jismoniy maxoratni puxta o'zlashtirishiga aloxida e'tibor berib kelganlar. Merganlik, suvda suzish, qilichbozlik, shuningdek, kurash tusha olish sirlari yosh, o'ktam yigitlarga bu borada chuqur bilim xamda katta xayotiy tajribaga ega bo'lgan murabbiylar tomonidan o'rgatilgan. Yuqorida qayd etilgan fazilatlarni o'zida namoyon eta olgan yigitlarda mardlik, jasurlik va qaxramonlik kabi xislatlar qaror topgan. Mavjud an'anaga muvofiq Alisher Navoiy xam o'zining badiiy xamda ta'limiy-axloqiy asarlarida yoshlarda ushbu xislatlarni tarbiyalash katta ijtimoiy axamiyatga xam ega ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Alisher Navoiy bilim olish jarayonida barcha fanlar asoslarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir deb xisoblaydi. Shu bois alloma turli fanlar yo'nalishlarida yetuk bilimlarga ega va xalq o'rtasida aloxida xurmat-e'tiborga ega bo'lgan olimu fozillarni yig'ib, ularning yordami bilan ilm-fanning rivojini ta'minlashga e'tiborni qaratadi Ana shu maqsad yo'lida Samarqandda o'zining shaxsiy mablag'i evaziga "Ixlosiya" madrasasini barpo etadi xamda uning yonida maktab ochadi. Madrasa va maktab faoliyatini shaxsiy mablag'i xisobiga yo'lga qo'yadi. Madrasada o'ziga xos tartib-qoidalarga muvofiq faoliyat yuritilgan. Talabalardan mavjud tartib-qoidaga qat'iy rioya qilish talab etilgan. Shuningdek, talabaning ilm-fan sirlarini mustaqil ravishda yoki yetuk ilm soxiblarining ta'limi asosida o'zlashtirishlariga ijozat berilgan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida ilm-fan asoslarini puxta o'zlashtirgan kishilarni ulardan amaliy faoliyatda samarali foydalanishga undaydi. Xususan, u "Maxbub ul-qulub" asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi urug' sohib xosilidan baxra olmagan kishiga qiyoslanishini aytib o'tadi.

Alloma tomonidan yaratilgan asarlarda komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishning uslub, vosita va usullari yuzasidan xam so'z yuritiladi. Alisher Navoiy bola tarbiyasi bilan oila xamda maktabda shug'ullanish, shuningdek, bola tarbiyasini olib borish jarayonida namuna uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga aloxida urg'u beradi. Tarbiya va ta'lim ishlari o'qituvchi xamda ota-onalar tomonidan olib borilishi lozim. Mutafakkir bolalar bilan munosabatda bo'lish chog'ida ular tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklarni bartaraf etishda ularga jismoniy jazo berishdan saqlanish, aksincha, xushmuomalalik bilan yo'l qo'yilgan xatolarning moxiyatini



ularga tushuntirish zarurligini, biroq bu o'rinda ma'lum me'yorga amal qilish zarurligini aytadi. Alisher Navoiy o'qituvchining, ayniqsa, talabchan bo'lishi bolalarning puxta bilim olishlari va ularda axloqiy sifatlarning shakllanishiga muxim axamiyatga ega deb xisoblaydi. Alloma ma'lum fan asoslari yoki muayyan kasb-xunar sirlarini o'rganishga layoqatli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga aloxida axamiyat berish jamiyat uchun katta foyda keltiradi, qobiliyatsizni tarbiyalashga urinish befoydadir, degan xulosaga keladi va bu o'rinda quyidagilarni bayon etadi: "g'obiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir, qobiliyatsizga tarbiya xayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, bunga tarbiyatingni nobud qilma"<sup>25</sup>.

Alisher Navoiy asarlarida zamonaviy pedagogika fani asoslari qatorida muxim o'rin tutuvchi omil o'z-o'zini tarbiyalash masalasining moxiyati xam yoritiladi. Bu borada bildirilgan fikr mazmuniga ko'ra, bolaning o'zi yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini o'zi anglab olishi xamda ularni bartaraf etish uchun imkoniyat yaratish zarur. Mutafakkirning e'tirof etishicha, kimki bu borada yaratilgan imkoniyatdan to'g'ri foydalansa, o'z xatosini anglay oladi va uni bartaraf etishga xarakat qiladi, kimki yo'l qo'yilgan xatoni anglash va uni to'g'rilashga xarakat qilish o'rniga turli baxonalarni ro'kach qilaversa, xatolari sonining yana bittaga oshishi uchun shaxsan o'zi sharoit yaratadi. Keltirayotgan baxonasi qancha ko'p bo'lsa, uning yanglishishi, xatosi shunchalik katta ko'rinadi, kamchilikning mavjud ekanligini ko'rsatgan kishi bilan tortishish qancha kuchli bo'lsa, el oldida uning obro'si shunchalik pasayadi. quyida keltiruvchi to'rtlik ana shu mazmuni ifoda etadi:

Xatog'a tadorik nedur bexilof,  
Ayon qilmoq o'z saxviga e'tirof.  
Vagar qilsa saxvig'a ijro dail,  
Ki yaxshidur aylar iki ancha bil<sup>26</sup>.

Mutafakkirning ilm olish yo'llari xususidagi qarashlari xam muxim axamiyatga egadir. Alisher Navoiy bilimlarni tinmay, uzluksiz o'rganish zarur, deydi. Bu yo'lda duch keladigan xar qanday qiyinchilikni yengib o'tish mumkin deb xisoblaydi. Aniq xayotiy maqsadni belgilab olgan xolda ana shu maqsadni ro'yobga chiqishi yo'lida qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan xarakat qilish, izchillik faoliyat olib borish, bu yo'nalishda olib borilayotgan xarakatni oxiriga yetkazishda chidamli, matonatli va sabotli bo'lishni maslaxat beradi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar mazmunidan anglanadiki, alloma o'z davrida ilm olish tamoyillarini to'g'ri ko'rsatib, shuningdek, ta'lim tizimi moxiyatini xam yoritib bera olgan. Alisher Navoiy tomonidan asoslangan ta'lim tizimi o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

- a) maktab yoki madrasada taxsil olish;
- b) olim, xunarmand yoki san'atkorlarga shogird tushish asosida ta'lim olish;
- v) mustaqil ravishda ilm o'rganish.

Yoshlarga chuqur bilim xamda axloqiy tarbiya berishda muallimlarning roli beqiyosdir. Muallimlik faoliyatini olib borish o'ta mas'uliyatli va sharaflil, ayni vaqtda murakkab ish sanaladi. Ushbu faoliyatni samarali yo'lga qo'yish mudarris xamda ustoz-murabbiylarning muayyan talablarga to'laqonli javob bera olishlariga bog'liq. Eng muxim talab - ularning chuqur bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishlaridir. Xqituvchining samarali o'qish (ta'lim berish) yo'llari va ularning

---

<sup>1</sup> Ю=орида номи =айд этилган асар, 17-бет.

<sup>2</sup> Ыша асар, 232-бет.

moxiyatidan xabardor bo'lishi xam nixoyatda muxim. Alisher Navoiy mazkur fikrlarni ilgari surar ekan, nodon, mutaassib xamda joxil muallimlar va ularning xatti-xarakatlarini tanqid qiladi. Xususan, "Maxbub-ul-qulub" asarida maktabdorlar va ularning faoliyatlari mazmuni xususida to'xtalib o'tar ekan, o'qituvchi mexnati, shuningdek, murabbiylik xaqqini xolisona baxolaydi, biroq shu o'rinda ularning qattiqqo'l, joxil va ta'magir bo'lishlarini qoralaydi:

"Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev xam qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan ojizlik qilardi. U esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim, bunga nima yetsin. Shunisi xam borki, u to'dada faxm-farosati ozlar bo'ladi, undan kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Xar qanday bo'lsa xam, yosh bolalarga uning xaqqi ko'pdir, agar shogird podshoxlikka erishsa xam unga (muallimga) qulluk qilsa arziydi."

Xaq yo'lida kim senga bir xarf o'qitmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado oning xaqin yuz ganj ila".

Ayni o'rinda xar bir yoshning aqliy va jismoniy kamolotga yetishida ilm-fan va tarbiyaning axamiyatini ko'rsatib berish bilan birga jamiyat taraqqiyotining ta'minlanishida asosiy rol ni o'ynovchi ilm axli, olimu fozillarga nisbatan xurmat ko'rsatish, ularning turmush darajasini yaxshilash masalalariga xam e'tiborni qaratadi.

Mutafakkir o'qituvchining xurmatini qay darajada yuqori baxolasa, uning shaxsi va faoliyatiga nisbatan talabni shu darajada oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil, dono, kamtar va ma'naviy jixatdan pok bo'lishlarini talab etadi. Bu boradagi qarashlarini quyidagicha ifoda etadi: «Mudarris (dars beruvchi) kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga xavas ko'rgizmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. Yaramasliklardan qo'rqsa va nodonlikdan qochsa, nainki: o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki xalol qilsa: ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir».

## 7. Jaloliddin Davoniy va uning «Axloqi Jaloliy» asari (1427—1502)

XV asrda faqat Eronda emas, balki Xuroson va Movarounnaxrda xam ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy fikr taraqqiyotiga katta xissa qo'shgan olimlardan biri Jaloliddin Davoniydir. Davoniyning ta'limiy-axloqiy qarashlari Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiylarning ijtimoiy fikrlari bilan ko'p jixatdan tutash keladi. Ular dunyoqarashining mag'zini komil inson tarbiyalash uchun yuksak insoniy fazilatlarni tarkib toptirish tashkil etadi.

Jaloliddin Muxammad Ibn Asad as-Sddiqiy al-Davoniy Eronning Kazarun viloyatidagi Davon qishlog'ida 1427 yilda dunyoga kelgan.

Jaloliddin Davoniy boshlang'ich ma'lumotni qishlog'ida olgach, Sherozga keladi va u yerda Dorul ay-tom madrasasida taxsil ko'radi. Madrasada u musulmon qonunshunosligi (fiqx) bilan maxsus shug'ullanadi xamda ilm-fan sirlarini mashxur odamlardan o'rgana boshlaydi.

Uning otasi Sa'diddin xam o'z zamonining fozil kishilaridan bo'lib, o'g'lining xam ilm-fanni chuqur egallashiga yordam beradi.

Madrasani tamomlagach, Davoniyning ilmiy qobiliyatidan xabardor bo'lgan eron xukmdori Sulton Yoqub Oq qo'yinli tomonidan Sheroz shaxriga qozi etib tayinlanadi. U madrasada xam mudarrislik, xam qozilik vazifalari bilan shug'ullana boshlaydi. Davoniy faqat o'z yurtida emas, balki o'zga mamlakatlarda xam shuxrat qozonadi. Turli shaxarlardan talabalar kelib, unda taxsil oladilar va ular orasidan xam yetuk fozilu fuzalolar yetishib chiqadi.

Davoniy keyinchalik Eron, Iroq, Xindistonda, Koshon, /ilon, Tabriz, Xirotda shaxarlarida sayoxatlarda bo'lib, ko'plab olimlar bilan xamsuxbat bo'lib, o'zining bilimi, dunyoqarashini yanada boyitgan.

Davoniy umrining oxirgi yillarini o'z qishlog'ida o'tkazgan. Olim 1502 yilda vafot etgan. U Kazarun yaqinidagi qishlog'i Davonga dafn etilgan.

Davoniy o'z davrining ilm-fan taraqqiyotiga katta xissa qo'shgan qomusiy olim. Uning yirik olim bo'lib yetishishida Samarqand, Xirotda ilmiy muxitining xam katta ta'siri bo'lgan. Chunki, ilm-fan XIV—XV asrlarda xuddi ana shu ikki yirik fan va madaniyat markazida taraqqiy etgan. Davoniy bu ikki shaxar ilm axllari, shuningdek, Vizantiya, Ozarbayjon, qirmon, Xurmuz, Tabariston, Xuroson va Jurjon olimlari bilan uzviy aloqada bo'lgan. Ayniqsa, Xirotda bo'lganda mashxur shoir va mutafakkir Abduraxmon Jomiy bilan uchrashgan va keyinchalik u yerdan ketganidan so'ng xam alloma bilan xat yozishib turgan.

Demak, Davoniyning yetuk olim bo'lib yetishishida Yaqin va O'rta Sharq, Movarounnaxrdagi yetuk olimlar bilan xamkorlik qilishi muxim omil bo'lgan. Davoniyning madrasadagi uzoq vaqt mudarrislik faoliyati uning ta'lim-tarbiya to'g'risida o'z qarashlariga ega ekanligini ko'rsatadi.

X.Aliqulov tadqiqotlarida keltirilishicha, Davoniyning xayoti va faoliyati, ilmiy-pedagogik merosini Sharq va /arb olimlari Xondamirning «Xabib us-siyar» kitobiga tayangan xolda tadqiq etganlar. Samarqandlik olim Abu Toxir Xo'janing «Axloqi Muzaffariy», Shamsiddin Somiyning «qomus ul-allom» asarlarida alloma xaqida ma'lumotlar berilgan. Lekin X.Aliqulov Jaloliddin Davoniy xaqida batafsil ma'lumot Ali Davoniyning «Jaloliddin Davoniy» nomli kitobida, A.M.Shastrining «Islom madaniyati xaqida lavxalar» nomli asarida, ingliz tilida chop etilgan «Islom qomusi»,

M.Duayt va D.D.Donaldsonlarning kitoblarida ancha batafsil aytib o‘tilganini ta’kidlaydi.

X.Aliqulovning tadqiqotlaridan ma’lum bo‘lishicha, Davoniydan quyidagi ilmiy meros qolgan: «Risolai isboti vojib» (Zaruriyatning isboti xaqida risola), «Risolat ul-mufradot» (Moddalar xaqida risola), «Risolat ul-xuruf» (Xarflar xaqida risola), «Risolati fi tavjix ul-tashbix» (Majoz talqini xaqida risola), «tariqati tarbiyat ul-avlod» (Bolalarni tarbiyalash usuli), «Arznoma» (Armiyani boshqarish qoidalari) kabilar shular jumlasidandir.

Shuningdek, Davoniyning she’rlari xam «Foniy» taxallusi bilan chop etilgan. Lekin dunyoga mashxur bo‘lgan, fors tilida yozilgan «Axloqi Jaloliy» asari dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilingan va shuxrat qozongan. Mazkur asar 1470—1478 yillarda yaratilib, /arbiy Eron Xokimi Uzun Xasan Oq qo‘yinliga bag‘ishlangan. Bu asar 1839 yilda V.F.Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. 1911 yilda Kalkuttada nashr qilingan. 1948 yilda Eshonjon Ibn Muxammadxo‘ja tomonidan o‘zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan. Mazkur asarni rus sharqshunosi A.A.Semyonov, Re va Braunlar fikriga tayangan holda uni musulmon Sharqidagi mashxur kitoblar qatoriga qo‘shadi, deydi tadqiqotchi<sup>27</sup>.

Xaqiqatan xam ushbu asar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy va boshqalarning axloq mavzuidagi asarlari qatorida turadi va axloqiy tarbiyada o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan asar sanaladi.

«Axloqi Jaloliy»da xam inson kamoloti uchun eng zarur bo‘lgan axloqiy fazilatlar yo‘llari va usullari bayon etiladi.

«Axloqi Jaloliy» uch qismdan iborat. Birinchi qism — axloq faniga, ikkinchi qism — «Odamning ichki xolati» oilaviy xayotiga, uchinchi qism — «Shaxar (davlat)ni boshqarish va podshoxlar siyosati», deb atalib, unda muxim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko‘tariladi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo‘lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, xalqning farovon xayot kechirishida podsholarning o‘rni, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o‘rni bayon etiladi.

Biz, asosan Davoniyning insonning xaqiqiy kamolotga yetishida aqliy va axloqiy shakllanishi masalalariga to‘xtalamiz. Avvalo, Davoniy va boshqa mutafakkirlarga ergashib o‘zining axloqiy qarashlarini o‘z salafllari kabi talqin etdi. Masalan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Miskaveyx, Nasriddin Tusiy, Ibn Sinolar kabi inson kamolotga erishishda adolat, donolik, shijoat singari yuksak fazilatlariga ega bo‘lishi, xissiy bilim bilan bir qatorda narsa va xodisalarning moxiyatini idrok qilishni to‘g‘ri talqin etdi. Davoniy insonning kamolga erishishi uning boshqalar bilan munosabatiga xam bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi, jamiyatda, ma’lum ijtimoiy muxitda, boshqalar bilan aloqada shallanib tarbiya topgan inson o‘zi yashagan jamiyatda adolat xukmron bo‘lsa, unda baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi. Shuning uchun u «Axloqi Jaloliy» asarida jamiyatni adolatli — fozil shaxarga va joxil shaxarlarga bo‘ladi. Forobiy kabi Davoniy xam fozil shaxar boshqaruvchisida o‘nta eng yaxshi fazilat mujassamlangan bo‘lishi kerak, deydi. Bular: birinchisi — xukmdor odamlarni e’zozlashi; ikkinchisi — davlat ishlarini adolatli ijro etishi; uchinchisi — xirs va shaxvatga berilmasligi; to‘rtinchisi — xukmdorlikda shoshma-shosharlik va g‘azabga yo‘l qo‘ymasligi, balki shafqat va muruvvatga asoslanishi; beshinchisi — xalqning extiyojini qondirish uchun xudoning irodasidan kelib chiqishi; oltinchidan — xalq extiyojini qondirishga oid ishlarni bajarishga xarakat qilishi; yettinchisi — xalqqa nisbatan odil bo‘lishi; sakkizinchi —

---

<sup>1</sup> Али=улов Ш. Жалолиддин Давоний. Тошкент, Ўзбекистон, 1992, 20-бет.

xar bir ishni maslaxatlashib, kengashib xal etishi; to‘qqizinchisi — xar bir kishini uning qobiliyatiga monand lavozimga tayinlashi, qobiliyatsiz kishilarga yuqori lavozim bermaslikni; o‘ninchisi — adolatli farmonlar chiqarishi, qonunni buzishga yo‘l qo‘ymaslik kabilardir. Shuningdek, Davoniy xukmdorning diniy majburiyatlarga xam rioya etishi kerakligini ta'kidlagan. Ko‘rinib turibdiki, adolatli shox timsoli Davoniy istagan axloqiy kamol topgan shaxsdir.

Davoniy «Axloqi Jaloliy»da ijtimoiy-ñiyosiy masalalarga qayta-qayta murojaat etadi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo‘lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, adolatli va adolatsiz podsholar, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o‘rni, aqliy va axloqiy tarbiya, insonda ijobiy xislatlarni tarkib toptirish masalalari va boshqalar shular jumlasidan.

Davoniy o‘z asarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan munosabatda shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. U o‘tmish olimlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlaridagi an'analarni rivojlantirgan xolda o‘z qarashlarini o‘tkir ruxshunos olim sifatida xam talqin etadi, uning fikricha bola yaxshi fazilatlarini ta'lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin. Chunki, bolada xis-tuyg‘u juda erta shakllana boradi, u ulg‘aya borgan sari ayrim juz‘iy narsalarni xam ajrata boshlaydi, tana a'zolari mustaxkamlanadi, narsa va xodisalarni bir-biridan ajrata boshlaydi, yaxshilik va yomonlik to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘la boshlaydi, aqli to‘lishib, ongi o‘sadi, deydi olim. Ana shu paydo bo‘lgan sezgi va aql orqali tashqi dunyoni bilishi mumkin deydi.

Ola o‘ta ta'sirchan va taqlidchan bo‘lishini ta'kidlar ekan, olim yaxshi fazilatni xam, yomon fazilatni xam u tezda qabul qilaverishi mumkinligini aloxida uqtirib o‘tadi. Bola qalbini naqsh solinadigan, suratlarni osonlikcha tushirish mumkin bo‘lgan taxtaga o‘xshatadi.

Davoniyning fikricha bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo‘lishi uning keyingi tarbiyasiga xam bog‘liq. Chunki xayotda xar kuni bola ko‘radigan, muloqotda bo‘ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon ta'sir etadi. Bolada xar kuni kerak bo‘ladigan insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota-ona va boshqa katta yoshlilarni xurmat qilish, to‘g‘rilik va rostgo‘ylikni o‘rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so‘zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o‘rganiladi. Shunga ko‘ra bunday xislatlarni bolalarda xar kuni tarbiyalanib borilishi muxim. Bunday tarbiyada esa ota-ona oldiga katta vazifalar qo‘yiladi. Ota va ona bola tarbiyasida bab-baravar mas'uliyatlidir, deydi Davoniy.

Ota bolaning yaxshi fazilatlarini egallab, kasb-xunar o‘rganib borishi, ilm-fanni chuqur o‘zlashtirib olishi uchun moddiy asos, ya'ni kiyim-kechak, kerakli buyumlar bilan ta'minlaydi.

Ona bola tarbiyasida asosiy qiyinchiliklarni boshidan kechiruvchi sanaladi. U bolaga yashash uchun quvvat beradi, extiyotlab asraydi, mexr-shafqatini ayamaydi.

Bolaga oddiy axloqiy qoidalarni o‘rgatish, yurish-turish, yeyish-ichish qoidalariga rioya etish, o‘z qilmishi oldida javob berish mas'uliyatini xis etishini tarkib toptirishda ota va ona burchlidir.

Bola tarbiyasida ota-ona bilan bir qatorda maktabga chiqqandan so‘ng muallim xam javobgar sanaladi, deydi olim. Buning uchun muallimning o‘zi xam yaxshi tarbiya topgan bo‘lishi shart. Shu o‘rinda Davoniy muallimning xislatlariga, bola va uning o‘rtasidagi munosabatlarga aloxida e'tibor beradi. Davoniy muallimni «Ma'naviy padar» deb ataydi. Chunki ota bolani jisman xayotga keltirib, jismonan tarbiyalasa, muallim uni ma'naviy jixatdan kamolotga yetkazadi, deydi olim. Rux qanchalik

badanga yaqin tursa, muallim xam tarbiya borasida ota-onaga shunchalik yaqin deb ko'rsatadi. U ota-ona tarbiyasi bilan muallim tarbiyasini taqqoslar ekan, muallimning tarbiya usuli, metodlari ota-onanikidan yuqoriroqdir, deb ta'kidlaydi. Chunki, ota-ona tarbiya usullari, metodlari bilan muallimchalik qurollanmagan bo'ladi, muallim esa tarbiya berish bilan birga ilm cho'qqilarini egallashda xam zaxmat chekadi va shogirdning olgan ta'limi va tarbiyasi umrbod uning xayot yo'lini belgilab beradi, deb aytadi.

Shu o'rinda Davoniyning aqliy tarbiya xaqidagi qarashlarini keltirish o'rinlidir. Chunki olimning qarashlarida aqliy tarbiya va bilimlarni egallash masalalari muxim o'rinni egallaydi. Bolalarga bilim berish yoshlikdan boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Mutafakkirlarning fikrini davom ettirgan xolda Davoniy xam inson aqlining qudratiga, uning ijtimoiy xodisalarni bilishiga, aql iloxiy ulug' bir ne'mat, xaqiqat mezoni ekanligiga ishonadi. Chunki inson aql yordamida o'z xatti-xarakatini, faoliyatini boshqaradi.

Davoniyning fikricha, aql ijtimoiy xayotning barcha soxasida, xox davlat ishida, xox ilmni o'rganishda, xox ijobiy xulq-odob qoidalari egallashda bo'lsin, xox shirinsuxanlik, she'riyatda bo'lsin, faol qatnashadi. Uning bu aqidasi, ya'ni aqliy bilishga tayanishi ilm-fan, ma'rifat, ta'lim-tarbiya va axloq masalalarini talqin etishida ko'proq namoyon bo'ladi.

Davoniy shuning uchun xam bolalarga ta'lim-tarbiya berishda aqliy tarbiyaga katta o'rin beradi. Ilm kishilarni yomon odatlardan, razil ishlardan saqlaydi, ilm bilan shug'ullanish xar bir inson uchun xech qachon kech bo'lmaydi, deydi Davoniy. Aflotundan: «qancha vaqtgacha ta'lim olish va ilm o'rganish yaxshi? — deb so'rabdilar. U: nodonlikning va joxillikning ayb ekanligi qay vaqtgacha bo'lsa, ilm o'rganish o'sha vaqtgacha yaxshidir»<sup>28</sup> — deb javob bergan ekan.

Davoniy olimlarning jamiyatda, davlatni boshqarishda tutgan o'rniga katta axamiyat beradi, uning fikriga ko'ra xaqiqiy olim davlat ishlarida faol qatnashishi, jamiyatga foyda keltiradigan murakkab muammolarni yechishda ishtirok etishi kerak. Olimlar tabiat sirlarini o'rganish, ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanishi, omma o'rtasida adolat qoidalari xamda axloq normalarini tarqatish bilan shug'ullanishi, boshqalardan ilgarigi safda turishi kerak. Ularning maslaxatlaridan davlat muassasalarini boshqaruvchilar foydalanishi muxim, deb uqtiradi.

Davoniy xam boshqa mutafakkirlar kabi podshoxlarning ma'rifatli bo'lishini istaydi. Ana shunday podsholar o'z atrofiga bilimdon kishilarni to'playdi va ilm axlining jamiyat taraqqiyotida katta rol o'ynashini tushunadi, deydi.

Davoniy insonning ma'rifatli, yuksak fazilatli bo'lishida tabiiy fanlarning roli katta, deydi. Matematika, astronomiya, tibbiy fanlar jamiyatga ulkan foyda keltiruvchi ilm soxalaridir, deb biladi. Riyoziyot fanini o'rgangan kishining tabiati qat'iy va sabotli bo'ladi, deydi. Tib ilmining esa jamiyatga foydasi xaqida gapirib, tabiblarga zarur bo'lgan kasalga tashxis qo'yish masalalariga to'xtab o'tadi. Tabib bemorga to'g'ri va aniq tashxis qo'ygandan so'nggina bemorni davolash kerakligini uqtiradi.

Davoniy insoniy fazilatlardan donolikni taxlil etar ekan, inson o'zining aqliy qobilyaitini, iste'dodini tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilish:

Birinchisi, zukkolik — zexn o'tkirligi. Bu kishining xar bir masalani tezda xal qila olish, unda o'zi istagan natijani ola bilishida deb ko'rsatadi. Bu malakani xosil qilish uchun kishida tajriba va xarakatchanlik bo'lishi talab etiladi;

---

<sup>1</sup> Али=улов Х., Омонбоева Р. Жомий ва Давоний таълим-тарбия ша=ида. Тошкент, Ё=итувчи, 1981, 36-бет.

ikkinchisi — faxmlilik. Bunda kishining keraksiz va ikkinchi darajali masalalarga ortiqcha to'xtalmasdan, butun diqqatni muxim va zarur masalalarga tez qarata bilishi qobiliyati, ya'ni murakkab va chigal masalalar ichidan eng muximini tanlay bilish malakasini xosil qilish talab qilinadi;

uchinchisi — zexn ravshanligi deb ko'rsatiladi. Bu biror masalani xech qanday qiyinchiliksiz, oson yo'l bilan xal qilish iste'dodi;

to'rtinchisi — bilimni tez egallash qobiliyati. Kishi ma'lum masalaga butun diqqat-e'tiborini qarata olishi va uni xech qanday qarama-qarshiliksiz o'zlashtira olishi;

beshinchisi — qo'yilgan muammoni tezda anglashi;

oltinchisi — yodlash qobiliyati. Insonning ilgari xis etgani va tasavvur qilganlarini esda saqlash qobiliyati;

yettinchisi — xotira. Yod olingan, xis qilingan narsalarni kerak bo'lganda eslash qobiliyatini tezda ishga solishi lozim, deb ko'rsatadi<sup>29</sup>.

Demak, Davoniy kishi yoshlikdan o'z qobiliyatini o'stirishi, rivojlantirishi lozimligi, agar u xaqiqiy baxt-saodatga erishmoqchi bo'lsa, yuqoridagi aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yordam beruvchi fazilatlarni egallashga xarakat qilmog'i lozim, deydi.

Davoniy shu bois insonning aqliy sifatleri rivojlanishiga katta axamiyat beradi.

Davoniy bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish bilan kasb-xunar o'rgatish xaqida xam qimmatli fikrlarni bildirgan. Davoniy muallimning bolalarni qaysi kasbga qiziqishi, qobiliyatini yaxshi bilishi zarurligi xaqida gapirib, bola qiziqib biror xunar yoki ilm bilan shug'ullansa, unga xar qanday sharoitda xam imkoniyat yaratib berish kerak, deb uqtiradi. Albatta, xamma kasblarni egallab bo'lmaydi, ammo xar bir odamning biror kasbga qobiliyati bo'ladi, deydi olim. Biror kasbni egallab olishga intilgan kishi butun iste'dodini sarf etib, ana shu kasbni tezda o'rganib oladi. Bunday fikrni buyuk mutafakkir Forobiy xam o'z vaqitda ta'kidlab o'tgan edi.

Agar u yoki bu shaxsning muayyan kasb-xunarga ishtiyoqi bo'lmasa, uni majbur qilish mumkin emas, aks xolda u o'zini qiynaydi va bu kasb-xunar unga baxt-saodat keltirmaydi deydi. Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-xunarni uchga bo'ladi: buni kishilarning ruxiy quvvatiga bog'lab ko'rsatib, birinchisini inson aqliga tegishli, deb ko'rsatadi va bunga vazirlik kasbini kiritadi. Ikkinchisi ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladi, deb bunga astronomiya, matematika, tib. geometriya fanlari bilan shug'ullanishni kiritadi. Uchinchisiga kishilarning shijoati, jasurligi bilan bog'liq kasblarni, ya'ni dushmanga qarshi kurash, chegarani qo'riqlash va boshqalarni kiritadi. Olim kasbi bo'lmagan, biror kasb bilan shug'ullanmaydigan kishilarni qattiq tanqid qiladi. Otasining mol-mulkiga ishonib kasb-xunar egallamydigan yoshlarni qoralaydi. Mexnat qilish, xunar egallashni targ'ib qilar ekan, mexnat inson kamoloti va baxt-saodati manbai, deb xisoblaydi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Davoniy kasb-xunar egallash insoniy fazilatlarning eng muximi, deb talqin etadi. U kasb-xunar egalarini quyidagi toifalarga bo'lib: chunonchi, birinchi toifaga qalam axllari: olimlar, noiblar, munajjimlar, qozilar, muxandislar, musulmon qonunshunoslari va xokazo; ikkinchi toifaga: xarbiylar; uchinch toifaga esa dexqonlar, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchilarni kiritadi.

Davoniy ayniqsa, dexqonchilik kasbini ulug'laydi. Davoniy xam barcha mutafakkirlar kabi dexqonning mexnatiga yuqori baxo beradi. Zero, dexqon odamlarni oziq-ovqat, moddiy boylik bilan ta'minlaydi. Olim agar dexqon bo'lmasa, inson zoti

---

<sup>1</sup> Али=улов Х., Омонбоева Р. Жомий ва Давоний таълим-тарбия ша=ида. Тошкент, Ё=итувчи, 1981, 41-42 бетлар.

mayda savdogarlardek yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lur edi, chunki boshqa toifadagi kishilar inson xayot kechirishi uchun ulardek moddiy ne‘mat yarata olmaydilar, balki bunyod qilingan narsalarni boshqa kishilarga beradilar, joydan-joyga olib boradilar, shaklini o‘zgartiradilar, deydi. Demak, Davoniy dexqon mexnatini boshqa kishilarning mexnatidan yuqori qo‘yadi. Ko‘rinib turibdiki, uning dexqon mexnati xaqidagi fikrlari boshqa Sharq mutafakkirlarining fikri bilan xamoxangdir. Masalan, Navoiy dexqon mexnatidan xatto qurt-qumursqalar, xasharotlar, xayvon va parrandalar xam baxramand bo‘lishini o‘z vaqtida xaqqoniy baxolagan.

Davoniyning kasb-xunar xaqidagi qarashlari shu bilan axamiyatliki, u oddiy xalq mexnatini, dexqon mexnatini ulug‘laydi, insonning faqat mexnati tufayligina baxt-saodatga erishuvi mumkinligini, mexnat insonning shaxs sifatida kamol topishining bir mezoni ekanligini isbotlaydi.

Davoniy kishi xususiyatlarini ikkiga bo‘ladi: biri tug‘ma, ikkinchisi xayot jarayonida paydo bo‘ladigan xususiyatlar. Tug‘ma xususiyatlarga kishilarning aqliy va xulqiy sifatleri, qobiliyatlari kiradi. Masalan, faraz qilish qobiliyati, bir-birini tezda tushunish iste‘dodi va boshqalar. Lekin, Davoniy kishilarning ba‘zi bir tug‘ma xususiyatlarini, qobiliyati va malakalarini tan olgan xolda xayot jarayonida kasb qilinadigan xususiyatlarni xam inson kamoloti uchun muxim deb xisoblaydi. Inson xususiyatlari yoshlikdan, tarbiya natijasida, kishilar bilan o‘zaro munosabatlarda kasb etiladi, xar bir fazilat vaqt o‘tishi bilan yangilanishi va o‘zgarishi mumkin, rivojlanib takomillashib boradi. «Agar (inson) xulqi, — deb yozadi olim, — o‘zgaruvchi bo‘lmaganida edi, siyosat va tarbiyaning keragi bo‘lmas edi»<sup>30</sup>.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, Davoniy insoniy fazilatlariga ega bo‘lishda ta‘lim-tarbiyaning o‘rniga katta axamiyat berganligining guvoxi bo‘lamiz.

Davoniy insoniy fazilatlarini to‘rtga bo‘ladi: donolik, adolat, shijoat, iffat. Bular orqali qadim-qadimlardan insonning xulq-odobi belgilangan. Inson fazilatlarini dastlab Aflotun va Aristotel belgilaydi. Keyinroq O‘rta Osiyo va Eron mutafakkirlaridan Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Ubayd Zokoniylar xam shunday tasnif etganlar.

Davoniy mardlik va shijoatkorlikni xam insonning eng zarur fazilatlaridan, deb xisobladi. U shijoatga kamtarlik, yumshoq fe‘llik, botirlik, sabr-matonat, chidamlilik kabi sifatlarni kiritadi. Shijoatga kishining xatti-xarakati va boshqalar bilan munosabatini baxolaydigan tushuncha deb qaraydi.

Olim agar inson biror xavf-xatarga duch kelsa, o‘zini maxkam tutib, esankiramasligi, sabotli bo‘lishi zarurligi, ana shu xislatlar shijoatga kirishini aytadi. Shijoatkorlik xam aqlga bo‘ysunishi kerak deydi. Davoniy askarlarni shijoatli, jasur kishilar deydi, chunki, ular davlat chegarasini qo‘riqlaydi, davlatni xar tomonlama qo‘llab-quvvatlashi, moddiy yordam berishi zarur, deb ko‘rsatadi. U ba‘zi kishilar tashqi ko‘rinishidan shijoatli ko‘ringanlari bilan jasurlik va shijoatni o‘zlarining manfaatlari yo‘lida namoyon etadilar. Bunday xatti-xarakatlarni shijoatkorlikka kiritish mumkin emas, deydi.

Davoniy qo‘rqoqlikni shijoatkorlikka qarama-qarshi qo‘yadi. Ba‘zi qiyinchiliklardan qochgan, yengil xayot kechirish yo‘lini o‘ylaydigan kishilarni olim qo‘rqoq va yuraksiz kishilar, deb aytadi.

Demak, Davoniy davlat xamda jamiyatga foyda keltiruvchi kishilarni xaqiqiy shijoatli kishilar deb biladi. Olim sabot-matonatni shijoatning tarkibiy qismiga kiritadi. U ibn Sino fikriga yanada chuqurroq yondoshib, xar qanday extiyoj, xar qanday

---

<sup>1</sup> Али=улов Х., Омонбоева Р. Жомий ва Давоний таълим-тарбия ша=ида. Тошкент, Ё=итувчи, 1981, 41-бет.



faoliyatni shijoatga qo'shmaydi. Davlat manfaatlariga bo'ysunadigan, kishilik jamiyatiga xizmat qiladigan inson faoliyatini shijoat deb ataydi.

Sharq mutafakkirlari adolat tushunchasiga aloxida fazilat sifatida qaraganlaridek, Davoniy qarashlarida xam adolat tushunchasi asosiy o'rinni egallaydi.

Olim adolat fazilatini 42 ga bo'ladi. Bulardan eng muximlari vafo, do'stlik, sadoqat, mexr-shafqat, o'zaro xurmat... kabilardir, deydi. Davoniy sadoqatni sodiq kishilar o'rtasidagi do'stlikni mustaxkamlaydigan xislat sifatida qarab, odam o'ziga nimani istasa, do'stiga xam shuni ravo ko'rishi va shu tarzda xarakat qilishi lozim, deb xisoblaydi. Demak, Davoniy adolatli kishilar o'rtasidagi xaqiqiy do'stlikni insonparvarlik, o'zaro xurmat bilan bog'liq xolda tasavvur etadi.

Vafo tushunchasini Davoniy faqat va'daga vafogina emas, balki o'zaro yordam qoidalariga amal qilish ma'nosida taxlil etdi.

Davoniy adolatni inson aqliy kamoloti bilan birgalikda qaraydi. U xamma ruxiy quvvatlar birlashib aqlga bo'ysungan taqdirdagina xaqiqiy adolat namoyon bo'ladi, deydi. Xaqiqiy odil kishi butun quvvatini, aqlini yaxshi xislatlarni kasb etishga qaratishi kerak, adolat odamlarni baxt-saodatli qilishi lozim deb ta'kidlaydi olim.

Davoniy xam Forobiy kabi shaxarlarni fozil va odil shaxarlarga bo'ladi. Fozil shaxarlarni odil podsho idora qilsa va o'z xukmlarida adolatga rioya qilsa va ta'magirlikni aql bilan daf' etsa, joxil shaxar boshlig'i o'z manfaatini ko'zlab ish yuritadi va boylikka xirs qo'yib, xalq fikri bilan xisoblashmaydi, deydi.

Uning ta'kidlashicha, davlatni idora etuvchi adolatsiz bo'lsa, uning qo'l ostidagilar xam ta'magirlik, yolg'onchilik va boshqa xatti-xarakatlar qiladilar, ya'ni podshox ishini fuqarolar xam takrorlaydi. Xullas, fuqarolarning yaramas xulq-odoblari uchun xam xukmdor aybdor sanaladi, deydi. Agar xukmdor adolatli bo'lsa, boshqalar xam adolatli bo'lishga xarakat qiladi, deydi.

Davoniy odil shoxni moxir tabibga o'xshatadi. Dono tabib odamlar salomatligini doimo kuzatib, uning xolatini mo'tadillashtirib borgani kabi odil shox xam fuqarolarini yo'ldan adashsa, ularni to'g'ri yo'lga solib boradi, deydi.

Davoniyning erkinlik tushunchasi xaqidagi ta'rifi aloxida axamiyatga ega. Erkinlikni Davoniy kasb-xunar orqali moddiy boyluk to'plash va bu boylukni xayrli ishlarga sarflash deb biladi. U inson yomon yo'llar bilan emas, balki aqliga ishonib qilgan ishlari va xalol mexnatini erkinlik deb ta'riflaydi.

qanoat tushunchasini Davoniy kishi ruxining yaxshi mevasi xisoblaydi. U qanoatni zaruriy xatti-xarakatlar bilan bog'lab tushuntirishga intiladi. Kishi faqat zaruriyatga asoslanib ish tutishi lozim, xayotda inson eng zarur narsalarga intilishi kerak, ya'ni yeyish-ichish, xissiyotlarga berilish va boshqa xatti-xarakatlarda me'yorni bilish, mo'tadillikka rioya etish, boylikka xirs qo'yimaslik, qanoatni anglatadi, deydi.

Davoniy inson o'rtasidagi do'stlik tuyg'usini xam ulug'lab, bolalarni do'stlik ruxida tarbiyalashga katta axamiyat beradi. Bola dunyoqarashining tarkib topishida do'stlikning ta'siri katta. Do'stsiz inson muayyan jamiyatda yashay olmaydi. Do'st o'zaro muomalada ayniqsa, inson boshiga kulfat tushganda bilinadi, ammo xaqiqiy do'st bilan soxta do'stni ajrata bilish kerak, deb o'qtiradi olim. Dushman esa kishining o'ziga, kamchiligiga e'tibor bermaydi, balki xammaning oldida uni fosh qilishga intiladi, deydi.

Davoniy kishilar o'rtasidagi adovatni xam qoralaydi. O'zaro nizolarda xurmat yo'qoladi, shubxa va gumonlar ko'payib, janjallar chiqadi, deb ta'kidlaydi.

Davoniy sevgi va muxabbat to'g'risida xam fikr yuritib, uni ijtimoiy muammolar bilan bog'lab talqin etadi.

Davoniy o'z davri mutafakkiri sifatida iloxiy sevgini tan olgani xolda, insonning bu dunyoda faol xayot kechirishi, tabiat va xayotni sevishi, uni yuksaklikka ko'tarishi xaqida xam o'z qarashlarini bayon etadi.

Uning muloxazalariga ko'ra tug'ma va shu bilan birga inson iroda va istagiga asoslangan sevgi mavjud. U sevgi-muxabbatni besh xilga bo'ladi:

1. Iloxiy sevgi.
2. Ota-ona muxabbati
3. Muallimning o'z talabasiga muxabbati.
4. Podshoxning o'z fuqarolariga muxabbati.
5. Ilm-ma'rifatga muxabbat.

Xususan insonning o'zaro munosabatisiz, sevgisiz kamolotga erishishi mumkin emas, deydi.

Adolat, sevgi, do'stlik o'zaro aloqada tarkib topadi, deydi Davoniy. U nafsoniy xirsga asir bo'lib, fisqni ishq deb xisoblamaslik, xavasni muxabbat deb bilmaslikni qattiq turib ximoya qiladi. Davoniy, ayniqsa, shaxvoniy xirsga berilmaslikni, bunda ayniqsa, podshohlar xirsu xavasdan o'zlarini tiyishi zarurligini, ular bo'sh vaqtlarini davlat axamiyatiga ega bo'lgan masalalarga sarf etishlari zarurligini aytadi.

Olim xar bir kishi xaqiqiy sevgiga munosib bo'lishga intilishi, sevgiga vafosizlikdan turli razilliklar paydo bo'lishi, axloqsiz xatti-xarakatlardan yomonliklar avj olishi mumkinligini qayd etadi.

Davoniy iloxiy sevgini tan olsa xam, mavjud dunyodagi sevgini inkor etmadi. U kishilarni noz-ne'matlardan baxramand bo'lish, ilm-fan, tabiatni o'rganishga, ta'lim tarbiya bilan shug'ullanishga chaqirdi.

Davoniyning tarbiya tizimida odamlarda uchraydigan nuqson va yaramas odatlarni bartaraf etish xaqidagi fikrlari xam diqqatga sazovor. Masalan, Davoniy salbiy ruxiy quvvatlar: jaxl, g'azab, xasad, g'amginlik, dangasalik va boshqalar xaqida gapirib, bular ruxiy jarayon bo'lib, ularni davolash yo'llari, usullari xaqida gapiradi. Chunki bu ruxiy kasalliklar xam inson tanasidagi kasalliklarga o'xshab, davoga muxtoj deydi, uning fikriga ko'ra kishi tanidagi kasalliklarni tibbiyot yo'li bilan davolansa, kishilarning yaramas odatlarini ruxiy ta'sir natijasida davolash mumkin. Jismoniy davo ovqat yoki dori-darmon vositasida amalga oshadi, ruxiy kasalliklarni davolash esa, yuqoridagi usullardan birmuncha farq qiladi. Ruxiy kasalga chalingan odam eng avvalo yaxshi xatti-xarakatlar qilishga odatlanishi zarur. Shundagina u yomon odatlardan xalos bo'ladi, deydi.

Davoniy g'azabni eng og'ir ruxiy kasallik deydi. /azab kishining katta nuqsoni, kamchiligi, aqlsizligidir, agar aql g'azab va xissiyotga bo'ysunsa, kishi xayvon darajasiga tushib qolishi mumkin, chunki xayvonning aqli bo'lmaganligi tufayli u g'azab quvvatini o'ziga bo'ysundira olmaydi. Inson aqli bo'la turib g'azabni bo'ysundira olmasa, buni xech qachon kechirish mumkin emas. U xamma vaqt o'z g'azabini aqlga bo'ysundirishga xarakat qilishi kerak, shundagina u xaqiqiy inson bo'lib yetishishi mumkin, deydi. Olim kishilar ruxiyati xaqida gapirar ekan, g'azab quvvatini quyidagilarga bo'ladi: ba'zilar tez g'azabga keladi va tez jaxldan tushadi, ba'zilar esa asta-sekin g'azablanib, tez jaxldan tushadilar, ba'zilar tez g'azablanib, uzoq vaqt jaxllaridan tushmay yuradilar. Davoniy g'azab turlaridan ikkinchisini yaxshisi deb, eng oxirgisini yomoni deb belgilaydi.

Demak, Davoniy kishilarning salbiy ruxiy xolatlarini davolash mumkin, deb ishonadi va ularni yaxshi maslaxat berish, so'z bilan, jazo va mexnat qildirish yo'llari bilan tarbiyalasa bo'ladi, deb xisoblaydi.

Davoniy insoniy xislatlar: mehnatsevarlik, to'g'rilik, insoniylik, yaxshilik, xushmuomalalik, odillik, donolik va boshqa xislatlarni ijobiy baxolaydi. U insondagi barcha xislatlarni aqliy faoliyat bilan bog'laydi.

Demak, Davoniyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya va axloq to'g'risidagi fikrlari ta'lim-tarbiya tarixida muxim ahamiyatga ega. Chunki u yuksak axloqiy fazilatlarini tarannum etadi, kishilarning baxt-saodatli bo'lishi uchun tavsiyalari hozirgi davrda xam o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Davoniyning aqliy tarbiya, insoniy fazilatlarini tarkib toptirish borasidagi tarbiya usullari Sharq pedagogikasining qimmatli xazinasini bo'lib hisoblanadiki, bu tavsiyalardan biz ta'lim-tarbiya jarayonida foydalansak, milliy qadriyatlarimizga murojaat etgan bo'lamiz va u ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda eng munosib yo'l bo'ladi.

## **XVII-XIX asrlarda maktab, ta'lim, tarbiya va pedagogik nazariya rivoji**

### **Reja:**

1. XVII-XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarida ilm-fanning taraqqiy etishi
2. Xonliklar xududlarida masjid-madrasalar tizimining barpo etilishi
3. Jahon Otin Uvaysiyning qizlar maktabidagi faoliyati
4. Komil Xorazmiy va Ahmad Donish hayoti, ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati
5. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat hayoti va ma'rifatparvarlik faoliyati

**Tayanch tushunchalar:** Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklari, Turkiston xalqining milliy tarixi, Xonliklar xududlarida masjid-madrasalar tizimi, Komil Xorazmiy va Ahmad Donish.

XVII-XVIII asrlarda Turkistonda hukmronlik qilgan xonlar o'rtasida o'zaro nizo kuchaydi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotda tushkunlik davom etdi. Bu holat XIV-XV asrlarda rivoj topgan ma'naviyat, madaniyat, ma'rifatga xam o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

XIX asrda Buxoro, Xorazm, Qo'qon xonlari iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalarda musgahil faoliyat ko'rsatib, tashki mamlakatlar bilan aloqa qila boshladilar, adabiyot va san'at rivojiga e'tibor berdilar. Ammo, XIX asrning ikkinchi yarmida chor hukumati Turkistonni egalladi, mustamlakachilik siyosatini kuchaytirdi, madaniyat, ilm-fan, san'at, ta'lim-tarbiya sohasida ham o'z hukmronlik siyosatini amalga oshirdi: asosiy e'tiborni Turkiston xalqining milliy tarixi, madaniyati, urf-odati va an'analaridan mahrum etishga qaratdi; chor mustamlakachilari shu siyosat asosida o'lkada o'z mavqelarini mustahkamlashga harakat qildilar.

O'lkada yuz bergan bu ko'ngilsiz voqealar Said Nasafiy, Turdiy, Komil Xorazmiy, Munis Xorazmiy, Ogaxiy, Gulxaniy, Maxmur, Zavqiy, Axmad Donish, Furqat, Muhimiy, Avaz O'tar kabi ma'rifatparvarlarning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ular chor amaldorlarining zulmi, qarshiligiga qaramay, madaniyatimizni saqlab qolishga harakat qildilar, o'zlaridan oldin yashagan buyuk mutafakkirlarning ta'lim, tarbiya, insonparvarlik g'oyalarini davom ettirishni o'z oldilariga asosiy maqsad qilib qo'ydilar. VII asrda Arabistonda shakllangan islom dini VIII asrda Markaziy Osiyoda keng yoyildi, arab davlati o'rnatildi. Bu davrdan boshlab arab tilining davlat va ilm-fan tili bo'lishi - bu til bo'yicha mutaxassislar yetishtirishni taqozo etdi. Shunga ko'ra, qishloq va shaharlarda qurilgan masjidlarda musulmon bolalari uchun maktablar tashkil qilindi, maktablar oilalarda - uylarda ham ochildi. O'g'irlar bolalarni

masjidda erkak domlalar, qizlarni uyda ayollar - otiiyilar o'qitdilar. har bir domla, otinoyi o'z istagicha dars o'tdi. Shu tufayli maktablarda o'qitish shakli, mazmuni va usullari xam turlicha bo'ldi. Ta'lim va tarbiya islom ta'limoti asosida amalga oshirildi, maktablar tizimi boshlang'ich maktab va qorixonadan iborat bo'ldi.

Maktabda bolalarga arab harflari (alifbo) yod oldirildi, "Haftiyak" kitobi hijo (bo'g'inlab) usulida o'qitildi, kitobdan parchalar ko'chirtirildi. Shu yo'l bilan bolalar ifodali o'qishga, chiroyli yozishga o'rgatildi. qorixonalarda esa bolalar, asosan, "Qur'on"ni o'qib, uni to'liq yod oldilar. Natijada ularda arabcha so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, ifodali va adabiy o'qish malakasi shakllandi, rivojlandi. qorixonani bitirgan bolalar qori bo'lib yetishdilar. Arab xalifati shoirlar, tibbiy mutaxassislar, geograf, astroiomlar, matematiklar tayyorlashga e'tibor berdi. Dastlabki vaqtlarda ularni tayyorlash uchun katta masjidlardan foydalanildi, kugubxonalar tashkil etildi. Ammo, hayot savodxon, bilimdon mutaxassislar yetishtirish uchun bu tadbirlar yetarli shasligini ko'rsatdi. Shunga ko'ra, yangi shakldagi ilmiy muassasalar - fan uylari tashkil etildi. X asrda tashkil etilgan bu tur o'quv dargohi, ya'ni madrasa birinchi bor Markaziy Osiyoda -Buxoro, Nishopur, Marvda, XI asrda Sharqning boshqa yirik shaharlarida ochildi. Madrasalar ikki bosqichdan - o'rta va oliy madrasadan iborat bo'lib, ularda o'tkazilgan mashgulotlarni yuqori diniy tashkilotlar nazorat qilib bordi.

Ma'lumki, musulmon axlining dunyoqaratsi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, huquqining asosi bo'lgan Qur'oni Karimda iloqiyot, diniy e'tiqod masalalari bilan birga, insonparvarlik, insonlarni qovushtirish, ularntsng o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyat-nizolarning oldini olish^ ular orasida adolat o'rnatish kabi axlokydy muammolar ham ifodalangan.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhis salomning „hadislarida" ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, o'zaro ahil bo'lish, mehr-oqibat, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafosadoqat, poklik kabi insoniy sifatlar haqidagi nasihatlar va yaxshi fazilatli bo'lish yo'llari bayon etilgan.

Sadoqat barcha yaxshiliklarning boshlanishi, odamlarda bir-birlariga ishonch hosil qiluvchidir. Shu tufayli ham Qur'onda: Ey, imon keltirganlar, Allohga tahvo qilinglar va sadoqatlilar bilan bo'linglar" musulmon axli sadoqatli bo'lishga chorlanadi.

Islom ta'limotida vafodorlik sadoqat turlaridan hisoblanadi. Vafo - eng oliy insoniy fazilat. Bu fazilatga ega bo'lganlar Qur'onda: „Ular shunday kishilarki, omonatlariga va axdlariga rioya qiladilar" ,-deb ta'riflanadi.

Vafo hayotda obro'-e'tibor va muvaffaqiyatga sabab bo'luvchi fazilatdir. Payg'ambarimiz Muxammad alayhis salom mehnat haqida aytgan hadislarida dexqonchilikni ulug'laydilar. „Dehqonchilik bilan shug'ullaninglar. Dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qo'riqchilarni ko'paytiringlar", "Kimki halol rizq istab mehnat qilib, charchab uxlasa, shu kechani ma'rifat qilingan holda o'tkazibdi"- deb musulmon axlini ekin ekishga, mevali daraxtlarni o'tqazishga-da'vat etadilar, musulmonlarni sidqidildan mehnat qilishga chorlaydilar.

Islom dinida mehnat qilish ibodat qilish bilan barobarligi, mehnat qilishdan uyalmaslik kerakligi aytiladi. Zero, mehnat - inson hayotining ko'rki, bezagi. Mehnat insonga baxt-saodat, farovonlik baxsh etadi. halol mexnat ma'naviy hayotning mezonidir. Mexnat insonni uch balodan saqlaydi: yurak siqilishidan, axloqiy buzilishdan, muxtojlikdan.

Islom ta'limotida sabr axloqiy fazilat, musulmon kishining ruhiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Sabr musulmonlar halbiga sukunat va xotirjamlik baxsh etadi, alam

berayotgan dardiga malham bo'ladi. Sabrsizlik insonni qayg'udan qutqaza olmaydi: uning o'zi kuydiruvchi bir qayg'udir.

Qur'onda ilmga katta e'tibor berilgan. Bunga unda „ilm" so'zining 765 marta takrorlanshi yorqin dalildir. Ilmlarni o'rganish har bir inson uchun farzdir. Ilm o'rganishdan murod mansab emas, avvalo, o'qigan ilmiga o'zi amal qilib, so'ng xalq va Vatan oldidagi burchni ado etishdir.

Islom dini ilm talab qilinishini ibodat darajasiga ko'taradi, ilm talab qilishni ixtiyoriy ibodatdan yuqori qo'yadi. Islom ta'limotiga ko'ra, ilm olishda erkak ham, ayol xam teng xuquqlidir.

Qur'onda va Payg'ambarimiz Muhammad alayxis salom hadislarida ilm inson kamolotining negizi, ezgulik va poklik, insonlarni turli ofatlardan saqlovchi vosita sifatida izoxdanadi.

Ilm - ulug' hikmat, ilm - iymon, e'tiqod, Din asosini, Qur'onning mazmuni va mohiyatini bilish, anglash uchun ham ilmi bo'lish, uni mukammal egallash kerak. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis salom aytadilarki: „Bir soat ilm o'rganish kechasi bilan namoz o'qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o'rganish uch oy ro'za tutgandan yaxshiroqdir"1, „Ilmu hunarni Xitoydan bo'lsa ham borib o'rganinglar", - deydilar.

Keng halbli har bir ilm aqli odamlar hurmatiga sazovordir. U qilgan savobli ishlardan insonlar, barcha mavjudot bahramamd bo'ladi.

Vafodorlik -insoniylikdir. Fazilat esa, farzand kabidir. Uni avaylab saqlash va yanada barkamol etish lozim. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis salom odamlarga manfaatliroq odamlarni yaxshi odam hisoblaganlar,

qilingan gunoh, xatoni afv etish ham maqtovg'a sazovor bo'lgan fazilatdir.

Kamtarlik eng go'zal insoniy fazilatdir. Kamtarlik insonning madaniyati, odamiyligi, mardligi kabi insoniy fazilatlar bilan belgilanadi. Inson kamtarligi, avvalo, uning mehnatida namoyon bo'ladi. Kamtar kishida havo gurur, manmanlik bo'lmaydi, u odob-axloqli, mehr-shafqatli bo'ladi, ishida, so'zida qat'iy turadi.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhis salom: „So'zida turish, axliga vafo qilish iymondandir" „Kiyim kiyishda, yurish-turishda o'zini kamtarroq olish iymondandir - deydilar.

Islom dinida insonga baxsh etilgan sifatlardan yaxshisi, xush xulqdir. Xushfe'llik inson aql-idroki, madaniyati, bilimliligidan dalolatdir. Xushfe'l inson samimiy, mulohazali, povidil, irodali, sabr-toqatli bo'ladi. Bunday fazilatli inson boshqalarda o'ziga nisbatan xurmat, samimiylik, izzat-xurmat hissini uyg'otadi.

Islomda ota-onalar bolani dunyoga keltirili-shiga sabab bo'lganliklari uchun emas, balki uni odobli, hayoli, axloqli qilib voyaga yetkazganliklari uchun olqishga sazovor ekanliklari aytiladi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis salom: „Kishi o'z bolasiga odobdan ko'ra afzalroq narsa ato etolmaydi" - deydilar.

Islom dinida onalar mo'tabar zot sifatida ulug'lanadi va sharaflanadi. Payg'ambarimizdan bir sahoba: „Kimga yaxshilik qilay?" - deb so'raganda, u ulug' zot: uch marta „Onangga", - deb, to'rtinchisida „Otangga" deb va yana „Jannat onalarning oyoqlari ostidadir", - deya qo'shib qo'ygan ekanlar.

Qur'oni Karimda ta'kidlanishicha, ota-ona bilan muloqotda bo'lg'uvchi farzand besh narsani bilishi kerak;

- ota-onalari qattiq-qurum gapirib yuborganlarida ham, malol kelib, ularga „uff" demasliklari;
- ota-onani xafa qiladigan so'z so'zlamasliklari;
- ota-onalariga doimo ehtirom bilan yaxshi so'zlarni so'zlashlari;

- ota-onalariga doimo rahm-shafqat ko'rsatib, o'zlarini ularning oldida kamtar tutishlari;
- Allohdan ota-onalariga rahmoat tilab, duo qilishlari lozim.

Ona bo'lish - ulug' bir ne'mat va nazirsiz bir sharafdir. Onalik vazifasini to'la ado etgan, o'ziga iffat, nomus libosini kiygan, sabr degan ulug' fazilat bilan ziynatlangan, qanoatli, odobli ona - baxt-saodatning mujassam timsolidir.

Payg'ambarimiz alayhids salom: „Ota-onaning vafotidan keyin ularning do'stlariga yaxshilik qilish - ota-onaga yaxshilik qilishning afzalidan hisoblanadi", - deb ham uqtirganlar.

Qur'onda „ehson" so'zi „yaxshilik" ma'nosida kelgan. Ya'ni Alloh senga yaxshilik qilib, seni inson qilib yaratdi, hamma a'zolaringni o'z vazifasini bajaradigan qildi. Senga aql berdi, endi sen ham shu ehsonlar evaziga unga iymon keltarishing, ungagina ibodat qilishing, uning aytganini qo'lingdan kelganicha bajarib, qaytarganlaridan qaytishing lozim.

Demak, ehson qilish insonning tabiiy vazifasidir, ehson qiluvchiga Alloh ie'matlar ato qiladi, „Alloh senga ehson qilganidek, sen ham ehson qil", - deyiladi Qur'onda va ehsonning foydasi ehson qiluvchining o'ziga bo'lishi o'qgiriladi. „Ikkovlariga rahmat qanotlaringni yoz. Ey, parvardigor, bular meni kichkinaligimda tarbiya qilganlaridek, sen ham bularga rahmatingni ko'rsatgin, deb ayt", - deyiladi Qur'onda.

Ma'lumki, sahiylik qo'li ochiq, oliy qimmatlik demakdir. Sahiylik go'zal xulkdarning eng a'losidir. qo'li ochiq, sahiy odam har kimning qoshida xurmatli va qadrlidir. Sahiy bo'lish uchun boy bo'lish shart emas, oz narsa bilan xam sahiylik qilish mumkin. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis salom o'z ummatlarini ogoxdantirib: „englar, ichinglar, kiyinglar, sadaha qilinglar, ammo isrrf qilmanglar, mag'rurlanmanglar, - deydilar va chanqagan kishiga suv berish ham sadaha bo'lishini aytadilar.

Islom ta'limotida mol-dunyoqa erishgan har bir inson o'z boyligini to'g'ri yo'lda sarflashi kerakligi ta'kidlanadi. Boylik bir mato (narsa). U tezda tugaydi. haqiqat va yaxshilik esa abadiydir. Insonning ulug'ligi o'z nafsini idora va tarbiya qilish kuchiga ega bo'lishida bilinadi.

Islom dinida birovning haqiga hiyonat qilish, xalol mehnat bilan topgan molini, mablag'ini zo'rlik va aldov bilan olish, o'g'rilik qilish Og'ir gunoh, qabih odat hisoblanadi.

Qur'onda bunday illatli kishilar xarom yo'ldan qaytashga, Alloh nasib etgan pokiza rizqni iste'mol qilishga da'vat etiladi.

Islomda baxillik kishilar o'rtasidagi o'zaro ahillik, xurmat-ehtirom va muhabbatni yo'qqa chiqaruvchi illat hisoblanadi. Baxil odam o'zaro yordamni yoqtirmaydi. Natijada uning qalbini hasad egallaydi.

Islom ta'limotida aytilishicha, baxil kishi oqibatda xor bo'ladi, ko'pchilikning nafratiga uchraydi. har bir odam, agarda ko'ngli tinch, hayoti saodatli bo'lishini istasa, u baxil bo'lmasligi, ko'ngilsiz holatlarga uchramaslikka harakat qilishi kerak. Payg'ambarimiz aytadilarki, „Diling yumshab, hojating ravon bo'lishini xoxlaysanmi? Yetimga rahm qil, boshini sila, ovqatangdan yedir, shunda diling yumshaydi va hojating chiqadi".

Islom ta'limotida havoi-nafsga berilish, manmanlik, ichkilikxo'rlik va himorbozlik, yolg'onchilik, o'zgalarni kamsitish, badgumonlik, g'iybat, zino, g'azab, hasad, ochko'zlik, munofiqlik qoralanadi.

Manmanlik xususiyati bo'lgan kishida go'zallik bo'lmaydi. Mol-dunyosi bilan faxrlansa, o'lganda ulardan asar ham qolmaydi.

Islomda tavba - qaytish degan ma'noni anglatadi. Inson tavba qilar ekan, demak, u xato va gunoxdarga yo'l qo'yganidan afsuslanadi. Islomda g'azab tajovuzkorlikning boshi hisoblanadi va qoralanadi. halimlik kuchli va yuqori didlashnig alomati sifatida ulug'lanadi.

Umuman, islom dunyoviy din sifatida vujudga kelishi va boshqa dinlar o'rnini egallashi tarixan ijobiy ahamiyat kasb etdi. Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Xajjoj, Abu Iso Muhammad ibn at-Termiziy, imom Abu Dovud Sulaymon, imom Ahmad ibn Shu'ayb an-Nasoniy to'plagan xddislar ham ta'lim-tarbiyada muham ahamiyatga ega bo'ldi.

### **Komil Xorazmiy hayoti, ilmiy-ma'rifiy faoliyati**

XIX asr ijtimoiy, madaniy hayotining yirik vakillaridan biri Komil Xorazmiy 1825 yilda Xiva shaharida tugildi. U dastlab mahalladagi eski usuldagi maktabda o'qidi, ksyin madrasada bilim oldi, arab va fors tillarini mukammal o'rgandi. Firdavsiy, Rudakiy, Jomiy, Navoiy asarlarini kunt bilan o'qidi.

Xorazmiy 1856-1865 yillarda Said Muhammadxon saroyida kotiblik vazifasini bajardi, so'ngra Muhammad Rahimxon Feruz saroyida mirzaboshi lavozimida ham ishladi. Bu yillarda Sankt-Peterburg shaxarida bo'ldi, u yerdagi madaniy hayot, maktab, bilim yurti va institutlarda bo'lib, ta'lim-tarbiya ishlari bilan tanishdi. 1891 yilda uning tashabbusi bilan Xivada yangi usul maktabi tashkil qilindi. Maktabda rus tili va dunyoviy ilmlar ham o'qitildi.

Komil Xorazmiy o'z ijtimoiy faoliyatida adabiy-ma'rifiy, tarjimonlik ishlari bilan shug'ullandi. Uning o'zbek va fors tillarida yozgan „Kamol“ „Shualo“ „Fuzalo“, „Dar bayoni ta'rifi va tavsif Toshkan“ asarlari chop etildi. Faxriddin Sayfning „Latif-attaiaif“ ("Turli toifalarning latifalari") asarini forschadan o'zbek tiliga tarjima qildi. Komil Xorazmiy 1899 yilda 74 yoshida vafot pdi.

### **Xorazmiy pedagogik qarashlarining nazariy asosi**

Komil Xorazmiy o'z asarlarida ilm-fanning mamlakat ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida rivojlanishi, inson axloqiy kamolotida asosiy vosita, muhim omil ekanligi, axloqiy va nafosat tarbiyasining uzviy bo'lishi kerakligi haqidagi g'oyalarini ifodaladi. U kamolotlilik belgisi insonning ma'naviy, madaniy fazilatlarida, xazti-harakatlarida namoyon bo'lishini aytadi.

Xorazmiy talim-tarbiya haqida

Xorazmiy o'z pedagogik qarashlarida axloq tarbiyasiga alohida e'tibor beradi. U axloqiy kamolot insoniy fazilatlarining barqarorligiga asos ekanligini ta'kidladi.

Xorazmiy ona tili va ilg'or xorijiy davlat tillarni puxta bilish mjodiy fikr rivojiga asos ekanligi, vatan va xalqning farovonligi uchui muhim omil bo'lishi xakida fikr bildiradi. Bu haqda u shunday deydi:

*Nihon et o'zni vatan kofi ichra anqodek,  
Senga yo'q bo'lsa murod ishtihor g'urbat aro.  
Vatanda sokin o'lub sayr et olami bolo,  
Safarni aylamagil ixtiyor g'urbat aro*

Xorazmiy vatan va xalq uchun, uning farovonligi uchun xizmat qilishni komil insoniylik hisobladi, yoshlarni komil inson bo'lishga chorladi.

### **Ahmad Donish hayoti, ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati**

Ahmad Donish 1827 yilda Buxoro shahrida dehqon oilasida tug'ildi, boshlang'ich bilimni uyida onasidan oladi, 9 yoshida maktabga kirib, arab tilini o'rganadi, tabiiy fanlarni mustaqil ravishda egallab, o'z davrining bilimli kishisi bo'lib yetishadi.

Ahmad Donish o'zining ta'lim-tarbiya, axloq va nafosatga doir fikr-mulohazalarini, insonning xulq-atvori, mehnatga bo'lgan munosabati to'g'risida „Navodirul voqoe" asarida fikrlar bayon qildi.

Ahmad Donish 1897 yilda 70 yoshida vafot etadi.

### **Ahmad Donish pedagogik qarashlarining nazariy asosi**

Ahmad Donish XIX asrda yashab; ijod etgan buyuk mutafakkirlarning pedagogik nazariyalarini, ta'lim-tarbiya haqida bildirgan fikr-talimotlarini davom ettirgan holda, „Navodirul voqoe" asarida bu masalalar bo'yicha o'z nazariyalarini ifodaladi.

Ahmad Donish asarda faqat o'zi yashayotgan davr uchun emas, balki kelajak uchun mehnat qilish, mehnat samarasidan kelajak avlodni bahramand qilish, mehnat qilishdan asosiy maqsad - xalq uchun foyda keltirishdan iborat bo'lishi kerakligi g'oyasini ilgari surdi.

Ahmad Donishning fikricha, dunyoda mehnatsiz rohat, tashvishsiz ne'mat topish mumkin emas. Mehnat ijtimoiy xususiyatga ega bo'lishi kerak.

U deydi: „Har bir hunarmand o'z hunarini qilsa-yu, lekin bundan maqsadi xalqga foyda yetkazish bo'lmasa, unday hunardan baraka topa olmasdi".

Ahmad Donishning ta'kidlashicha, jismoniy mehnat bilan aqliy mehnat o'zaro uzviylikdadir. Bu ikki mehnat bir xil mohiyatga ega. Ammo, ular dunyoning gullab-yashnashini ta'minlasagina maqtovg'a sazovordir.

Ahmad Donishning nazaricha, ilmni egallash hunarni egallash bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak, chunki tajribada qo'llanmaydigan bilim bo'lmaydi. har bir odamni ma'lum bir mashg'ulot yoki kasbga tayyorlash kerak.

Ahmad Donish o'z pedagogik nazariyasida axloq tarbiyasi oldiga boshqalarga foyda keltirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Yosh avlodda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqsevarlik tuyg'usini, odamlarda ozodlikka va mustaqillikka havas, muhabbat tuyg'usini tarbiyalash kerak.

### **Ahmad Donish ta'lim-tarbiya haqida**

Ahmad Donishning pedagogik qarashlarida do'stlik va o'rtoqlik masalasi ham alohida o'rinni egallaydi. Bu masalani hal qilishda u insonparvarlik g'oyalaridan kelib chiqadi. Do'stlikni, u, yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil deb hisobladi.

Ahmad Donish farzandlariga nasihat qilib: „Agar birov bilan suhbat qurmoqchi bo'lsanglar, o'z sifati bilan xalqqa yaqin bo'lgan, aqlli, xushyor kishilar bilan do'stlik aloqasini bog'langlar. Chunki oqil odamlar hech kimga yomonlikni hoqlamaydilar. Aqlli odamlarning alomati ulardagi yaxshilikning yomonlikdan ko'proq bo'lishida yoki barobar bo'lishidadir. Bunday odamlar olimlar, qalam axdlari ichidan topiladi"- deydi u.

### **Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat hayoti va ma'rifatparvarlik faoliyati**

Furqat 1858 yilda Qo'qon shaharida savdogar oilasida dunyoga keladi. 6 yoshidan boshlab eski usul maktabda o'qidi, 12 yoshida mudarris Poshsha Xo'jadan ta'lim, 14 yoshidan boshlab madrasada tahsil oldi.



Furqat Marg'ilonda toqasi bilan savdo ishlarida ham ishtirok etib, 1882 yilda Qo'qonga kelib xattotlik bilan shuqullanadi. „Chordarvesh“, „Nuh manzar“ kitoblarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qiladi.

## **XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida tarbiya, va pedagogik fikrlar**

### **Reja:**

1. 1901-1940 yillarda maktab, ta'lim, tarbiya, pedagogik nazariya rivoji
2. Abduqodir Shakuriy, Is'hoqxon To'ra – Ibrat hayoti va ma'rifatparvarlik faoliyati
3. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov hayoti va ma'rifatparvarlik faoliyati
4. Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, hayoti, ma'rifiy faoliyati
5. Cho'lpon, Abdulla Qodiriy hayoti va adabiy-ma'rifiy faoliyati

### **Tayanch tushunchalar:**

1901-1940 yillarda maktab, ta'lim, tarbiya, pedagogik nazariya rivoji, Abduqodir Shakuriy, Is'hoqxon To'ra – Ibrat hayoti va ma'rifatparvarlik faoliyati, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov hayoti va ma'rifatparvarlik faoliyati, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, hayoti, ma'rifiy faoliyati, . Cho'lpon, Abdulla Qodiriy hayoti va adabiy-ma'rifiy faoliyati

XX asr boshlarida (1901-1919 yillarda) ham Turkistonda eski usuldagi maktab davom etdi. 1917 yil inqilobidan keyin (20-yillarda) tashkil etilgan maktablarda ta'lim tizimi ikki bosqichli 9 yillik maktab, 7 yillik ishchi-yoshlar maktabi, o'rta xunar bilim yurtidan iborat bo'ldi.

O'quv va tarbiyaviy ishlar hamrovli (kompleks), tavsiyali, jamlovli ishlardan iborat bo'ldi. Bu ishlar belgilangan dastur „O'quv predmetlari tizimi emas, bilim tizimi“ prinsipida tuzildi.

Dasturda:

1. Ta'lim bilan xayot o'rtasida uzviylik bo'lishiga;
2. Odamlarning mehnat faoliyatini o'rganishga;
3. Odamlar mehnati hisobga olingan holda, tabiatni ob'ekt sifatida o'rganishga;
4. Ijtimoiy hodisalarni o'rganishda odamlarning mehnat faoliyati va iqtisod sohasida ularning o'zaro aloqada bo'lishlariga e'tibor berish talab etildi.

Birinchi bosqich (1-4 s.) maktab vazifasi:

1. O'quvchilarda atrof muhitga, unda sodir bo'ladigan hodisalarni o'rganishga qiziqish hissini shakllantirish, o'stirish;
2. O'quvchilarda kitoblarda aks ettirilgan voqea va obrazlarni o'rganishga qiziqish, insoniyatni o'ylantirgan masalalarni kitobdan bilib olish mumkinligiga ishonch hosil qilish;
3. O'quvchilarda yashash, o'qish va jamoa bo'lib ishlash, bu - maktab hayoti xususiyatini bilish, o'z-o'zini boshqarish, bir-biriga ko'maklashish ekanligini anglab olishga intilish hissini tarbiyalashdan iborat bo'ldi.

Dasturda o'qituvchi asosiy faoliyat ko'rsatuvchi shaxs ekanligi ta'kidlandi, ammo o'quvchining faoliyati, mustaqil fikr bildirishi kerakligi hisobga olinmadi.

Ta'lim metodlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

1. Mehnat - ish metodi. Bu metodda o'quvchilarni hayot bilan tanishtirish, ishlab chiqarish ishlarigajalb qilish nazarda tutildi.
2. Ekskursiya - tadqiqot metodi. Bu metodni qo'llashda o'quvchilar o'zlarini o'rab olgan tashqi muhit va unda sodir bo'lgan hodisalar bilan tanishtirildi, o'quvchilar hodisalarni tadqiq etdilar.
3. Laboratoriya-tadqiqot metodi. Bu metodda belgilangan mavzuni ekskursiya vositasida o'rganish jarayonida paydo bo'lgan masalalarni tadqiq qilish ishlari olib borildi.
4. Ko'rgazma metodi. Bu metodda o'quvchilar, tayyor ko'rgazmali qurollardan tashqari, hayotda ko'rgan va bilgan narsa va voqea-hodisalarning rasmini chizish, diagramma va modellar ishlash bilan shuqullandilar.
5. Tasvir metodi. Bu metodda o'quvchilar o'zlari to'plagan materiallar asosida rasmlar ishlab, egallagan bilimlarini shu rasmlari orqali namoyon qildilar.
6. Og'zaki so'z metodi. Bu metod, asosan, suhbat va munozara asosida amalga oshirildi.

1921-1925 yillarda Turkiston maorif komissarligi tuzgan dastur va metodik qo'llanmalarda asosiy e'tibor har bir o'quv fani kursini nazariy jihatdan asoslashga qaratildi.

Respublikada ta'lim-tarbiya bo'yicha o'tkazilgan barcha tadbirlarda o'rta maktab turlari bo'yicha tuzilgan dastur va rejalarda ta'limda o'quvchilarni kommunistik ruhida tarbiyalash talab etildi.

XX asr boshlarida jiddiy tus olgan jadidchilik harakatining namoyandalari milliy mustaqillik, ozodlik uchun kurashlarini ma'rifat uchun kurash bilan bog'liq holda olib bordilar. Ular bu kurashni ma'lum dastur asosida ikki yo'nalishda - madaniy taraqqiyotni rivojlantirish, buning uchun ma'rifatparvarlikka asoslanish va bu boradagi faoliyatni amaliyot bilan bog'liq holda olib borish orqali amalga oshirdilar. Ular milliy uyg'onishning asosiy ta'limni o'quv dasturlarini isloh qilishda ko'rdilar, ta'limning yangi tizimini amalga oshira boshladilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning birinchi yarmida yashagan Abduqodir Shakuriy, Is'hoqxon Ibrat kabi ma'rifatparvarlar o'zlaridan oldin yashab, ijod etgan ma'rifat namoyandalarning ma'rifiy g'oyalarini davom ettirib, yangi usul maktablarini tashkil qilib, ta'lim mazmuniga o'zgartirish kiritdilar.

**Abduqodir Shakuriy** 1875 yilda Samarqandning Rajabamin qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. U Samarqandda birinchi bor yangi usuldagi „Usuli savtiya" maktabini tashkil etdi. Maktab ta'limida qulay va yengil usullarni qo'lladi va bu sohada katta muvaffaqiyatlarga erishdi. U ta'limda, asosan, bolalarning savodli bo'lishlari, ularda nutq madaniyatini o'stirishga e'tibor berdi, tovush-harf usulini qo'llash orqali savod chiqarishni yengillashtirdi.

Shakuriy maktabda bolalarga o'zbek tili bilan birga, fors-tojik va rus tillarini ham o'qitish g'oyasini ilgari surdi.

Shakuriy yangi usul maktab o'quvchilari uchun tushunarli uslubda „Rahnomai savod" („Savod chiqarishga yo'llanma") va Ismatilla Rahmatullaev bilan hamkorlikda „Alifbe ta'limi" qo'llanmalarini yaratdi, tuzgan bu kitoblariga xalqlar o'rtasidagi o'zaro milliy, madaniy-ma'rifiy alohalarni hisobga olgan holda tojik adabiyoti namoyandalari asarlaridan ham namunalar kiritdi.

Shakuriy o'quvchilarda kasb-hunarlarini egallashga, mehnatga qiziqishni tarbiyalashga e'tibor qaratdi. Shu maqsadda maktab o'quv rejasiga mehnat darsini ham

kiritti, o'quvchilarni dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilikning ilg'or usullari bilan tanishtirdi.

Shakuriy 1943 yilda vafot etdi.

**Is'hoqxon To'ra - Ibrat** 1862 yilda Namangan viloyati To'raqo'rg'on qishlog'ida bog'bon oilasida tug'ildi. Boshlang'ich ta'limni qishloqdagi maktabda oldi, 1878-1886 yillarda Qo'qonda madrasada o'qidi, arab va fors tillarini mukammal o'rgandi. U Hindiston, Arabiston, Afg'oniston, Turkiya, Bolgariya, Italiyada bo'lib, xalq madaniyati, san'ati bilan tanishdi, hindu, urdu, ingliz tillarini egalladi.

Ibrat tarix va madaniyatga doir yozgan „Tarixi Farg'ona" Tarixi madaniyat", „Mezonul zamon" asarlarida o'zining pedagogik-ma'rifatparvarlik g'oyalari bayon etdi. U o'z pedagogik qarashlarida xalqlar do'stligiga, o'quvchilarda nutq madaniyatini, savodxonlikni o'stirishga, tarixiy bilimni egallashga, axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berdi. Shu maqsadda, u, „Qadami Mirrajab Bandiy", „Ilmi ibrat" risolalarini e'lon qildi.

Ibrat ta'limda o'quvchilarda kitobxonlik va mustaqil o'qish ko'nikmasini tarbiyalash va rivoj toptirish kerakligini aytadi. O'z talablarini amalga oshirish maqsadida uyida „Kutubxonai Is'hoqiya" nomida kutubxona tashkil qildi, qishloqda maorif, madaniyat, ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash sohasida olib borilgan tadbirlarda faol ishtirok etdi.

Is'hoqxon To'ra - Ibrat 1937 yil qatag'on davr qurboni bo'ldi. Turkistonda jadidchilik harakatining atoqpi namoyandalari Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho'lpon, A.Qodiriy, Ayniy, Elbek,

H.H.Niyoziy, Avloniy tuzgan dasturlarini, har qanday qarshiliklarga bardosh bergan holda, amalga oshirib, pedagogik nazariyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

### **Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ma'rifatparvarlik faoliyati**

Jadidchilik harakatining asoschilaridan Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 yil 19 yanvarda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida dunyoga keldi.

Mahmudxoja toqasi Muhammad Sidiq tarbiyasi va qaramohida o'sib voyaga yetadi, eski usul maktab, madrasalarda o'qidi. 18 yoshida Qozixonada mirzolik qiladi, Qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi.

Behbudiy 1903-1904 yillarda Moskva, Peterburgda, 1907 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod shaharlarida, Arabiston, Misr va Turkiya mamlakatlarida bo'lib, u shaharlardagi ijtimoiy, madaniy hayot, maktab, maorif ishlari bilan tanishadi, ta'lim-tarbiya sohasida erishilgan yutuqlarni Turkiston vaqtli matbuoti orqali tashviq etadi. Behbudiy 1913 yilda „Samarqand" gazetasini, „Oyna" jurnalini nashr etadi. U 1904-1908 yillarda o'lkada tashkil qilingan maktablar uchun „Risolai asbobi savod" (1904), „Risolai jug'rofiya umroniy" (1905), „Risolai jug'rofiyai Rusiy" (1905), „Kitobatul atfol" (1908), „Amaliyoti islom" (1908), „Tarixi islom" (1909) darsliklarini yaratadi.

Behbudiy 1919 yil mart oyining 25 kuni Shahrisabz tumanida ozodlik dushmanlari o'ldiradilar.

Behbudiy ma'rifiy-pedagogik g'oyalari

Behbudiy o'zining ijtimoiy, ma'rifiy faoliyatida, yaratgan asarlari va e'lon qilgan maqolalarida milliy istiqloлга erishish, bu yo'lda amalga oshirish zarur bo'lgan masalalar haqida o'z nazariy qarashlarini bildirdi.

Behbudiy maktab, maorifni inson ongini shakllantirish va rivojlantirish, odamlararo do'stlikni mustahkamlash vositasi hisobladi, ochilgan yangi usul maktablarida o'quvchilarni shaxs sifatida komil toptirishga, ularda insoniy fazilatlarni shakllantirishga e'tibor berdi.

Behbudiy Samarqand „Sho'roi Islomiya" jamiyati majlisida so'zlagan nutqida: „Biz turkistonliklarga ona tilida ham, rus tilida ham erkin so'zlay oladigan va tahrir qiladigan, shariatni biladigan va jahon siyosiy sharoitini tushunadigan kishilar darhol kerakligini aytdi. Behbudiyning fikricha, zamonlar o'tsa ham, ilg'or urf-odat va an'analar o'zgarmaydi, yomon urf-odatlar (bid'atlar)ni yo'qotib, yaxshi urf-odat, an'analarni takomillashtirish kerak. Dindan diniy-etnik adovatni kuchaytirish maqsadlarida emas, balki milliy ozodlik, ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda, Turkistondagi yetakchi kuchlar va ijtimoiy qatlamlarni birlashtirish yo'lida foydalanish lozim.

"Biz, - deydi Behbudiy, - o'z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz. Mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq baxt-saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga haykal bo'ladi". Bu Behbudiy pedagogik nazariyasining asosidir.

Behbudiy ta'lim-tarbiya haqida Behbudiy ta'lim-tarbiyada muvaffaqiyatlarga fishshining birdan bir yo'li o'lkada ilm-fanni rivojlangirish ekanini aytadi. Behbudiy ta'lim-tarbiya ishini ijtimoiy hayot. jahon miqyosida sodir bo'layotgan voqealar bilan bogliq holda olib borishni tavsiya etadi. U yoshlar tarbiyasida oila, ota-onalar alohida mavqega ega ekanini ta'kidlaydi. U „Padarkush" asarida: „Bizlarni xonavayron... bewatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir, bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir..." deb yozdi.

### **Abdurauf Fitrat hayoti, ilmiy, ma'rifiy - pedagogik faoliyati**

Abdurauf Fitrat 1886 yilda Buxoroda savdogar oilasida tavallud topadi. Otasi AbduRahimboy o'qimishli, dunyoviy voqealardan xabardor kishi bo'lgan.

Fitrat boshlangich bilimni Buxoroda eski maktabda oldi, keyin Mirarab madrasasida o'qidi. So'ngra Buxoro „Xayriya jamiyati" yo'llanmasi bilan 1909-1913 yillarda Istanbul dorilfununida tahsil oldi.

Fitrat 1914 yilda o'kishii chuchatib, Buxoroga qaytgach, Buxoro xalq jumxuriyati muassasalarida ishladi, 1918 yilda Toshkentga keldi.

Bu yerda Turkiston xalq dorilfununida, Toshkent davlat pedagogika institutida, O'zbekiston fanlar qo'mitasi qoshida tuzilgan ilmiy tadqiqot institutida Sharq mumtoz adabiyoti tarixi va ona tilmdan dars berdi.

Fitrat 1922 yilda Buxoro xalq respublikasining maorif noziri vazifasida ishlab, o'zbek va tojik, turkman, mahalliy yaxudiy bolalari uchun maktablar ochdi, muallimlar uchun qo'llanmalar yaratdi, 1923-1924 yillarda Moskvadagi Sharq tillari institutida ii!lab, ilmiy tadqiqot bilan shuqullandi.

Fitrat 1911-1926 yillar davomida o'zbek tili va adabiyotining nazariy, metodologik masalalariga oid asar, masalan, „O'qish" kitobi, „Onatili" darsligini yozdi (Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy bilan xamkorlikda), „Munozara", „Sayha", „Rahbari

najot", „Begijon, „Mavludi sharif", „Abo Muslim", „Sayyoh hindi" ommaviy, tarixiy asarlari, „Abulfayzxon", „Shaytonning tangriga isyoni",- „Arslon" dramalari chop etildi; Bedil, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Firdavsiy, Axmad Yassaviy, Mashrab, Muhammad Solix,. Turdi va boshqalar ijodi bo'yicha tadqiqotlar olib bordi.

Fitrat o'z ijodiy va pedagogik faoliyatida yaratgan ilmiy va badiiy asarlarida Vatan, xalq, millat erkinligi, farovonligi haqidagi orzularini, ta'lim va tarbiya haqidagi nazariy qarashlarini ifodaladi. U Turkistonda va boshqa Sharq o'lkalarida atoqli olim, maorifchi va ustoz muallim sifatida shuhrat qozondi.

Abdurauf AbduRahimboy o'gli Fitrat millatchilikda ayblanib, 1938 yil 5 oktyabrda qatl etildi.

### **Fitrat pedagogik karashlarmiig nazariy asosi**

Fitrat o'zining ilmiy va pedagogik asarlarida Turkistonda ochgan yangi usul maktablarida o'quvchilarga zamonaviy, dunyoviy bilim berish kerakligi, xalqning ijtimoiy, ma'rifiy ongini oshirish, ma'rifat, milliy taraqqiyot, milliy istiqloq haqida nazariy qarashlarini ifodaladi. Fitrat vatanni sevdi, vatanni valine'mat deb bildi. U o'z vatandoshlarini aziz diyori Turkistonni sevishga, uni asrashga chorladi. U yoshlarga xitob qilib, ularni shu Vatan va millat saodati, baxti, ravnaqi uchun fidoyilik ko'rsatishga, jasoratli bo'lishga chorladi:

*Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda,  
Bu millatning saodatin, baxtin o'qidim.  
O'ylashingda, turmushingda hamda o'zingda,  
Bu yurt uchun kugulishing borligin ko'rdim.  
Turma - yugur, tinma - tirish, bukilma - kjsal,  
Hurkma - kurash, qo'rqma - yopish, yo'rilma - qo'zg'al.*

Fitrat „Hurriyat" gazetasida e'lon qilgan bir maqolasida shunday yozadi:

«... har bir kishi o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonishi lozim. Kimki o'z kuchiga ishonmay, orzu qilgan maqsadlariga intilsa, u, albatta, yarim yo'lda yiqilib qoladi. Kimki ishonsa, u, albatta, boshlagan ishini oxiriga 'olib boradi. Insonga xos bu xis-tuyqularni biz millatda ham ko'ramiz. Uzining milliy kuchlariga ishonmaydigan millatlar, albatta, parokanda bo'ladi. O'z intilishlarini amalga oshirish uchun tashqaridan yordam kutayotgan xalq sekin-asta jarlik qa'riga aqanaydi...»

Fitrat 1917 yil fevral va oktyabr inqilobi oralig'ida milliy kuchlarning birlikka intilishi haqida fikr bildirib, ularga xitob qilib dedi: „Turkiston musulmonlari, keling, Alloh nomi bilan, Payg'ambar, din, millat nomi bilan birlashaylik: bizdagi mavjud da'volar va sinfiy bo'linishlarga ko'zimizni yumaylik. Islomning bosh amri nomi bilan, birodarlik va birlik nomi bilan, Alloh uchun, din, vatan va millat uchun biz barchamiz - jadidlar, qadimiylar, mulla va boylar birlashaylik, bir joyga yig'ilib, bir-birimizga yordam beraylik".

Fitrat o'zining „O'quv" kitobidan o'rin olgan „Imom G'azzoliy" nomidagi hikoyasida qaroqchilar boshlig'i bilan Imom G'azzoliy o'rtasida bo'lib o'tgan savol-javob orqali o'qish, bilimni egallash kitob yig'ish, to'plash emas, balki kitoblardan olgan bilimni miyaga, yurakka joylash kerakligini ta'kidladi. U ma'naviy boylik va go'zallik negizi, insoniyat yaratgan tafakkur durdonalarini onga singdirish, joylashdan iborat, degan g'oyani ilgari suradi.

### **Fitrat ta'lim va tarbiya haqida**

Fitrat ilm-ma'rifat va tarbiyaning jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti, madaniyat rivojida. muhim ahamiya.tga molikligini yuqori baholadi.

Fitrat inson kamolotida oila, jamoa muhim o'rin lallashi va aqlning komil bo'lishi, axloqiy poklik, donishmandlik, shijoatlilik, adolatlilik kabi insoniy fazilatlarni ulug'ladi, inson aqliy quvvatining natijasisiz, aqlning rahbarligisiz saodatga erisha olmasliklarini ta'kidladi. Bu sohada o'qituvchilar rahnamolik. qilishlari kerakligini aytib, o'qituvchilarga murojaat qildi, ularni turk eliga to'g'ri yo'llarni ko'rsatishga chorladi:

*Orqadoshlar, to'planaylik joxilning uyin yiqqali,  
El ko'zin olgan qorongu pardalarni yirtgali.  
Biz erurmiz ma'rifat arslonlari, ilm erlari,  
To'planaylik turk eliga to'g'ri yo'llar ochgali.*

Fitrat uchun millat tinchligi va ravnaqi har qanday qadriyatlardan ulug'dir. Uning ta'kidlashicha, odamlar qanday din, mazhab, qavm va millatga mansub bo'linmasinlar, bir otaning farzanddaridirlar, bir jinsdirlar.

Demak, ular o'zaro ahil bo'lmoqlari kerak.

### **Munavvarqori Abdurashidxonov hayoti, ijtimoiy-pedagogik faoliyati**

Munavvarqori Abdurashidxonov 1878 yilda Toshkent shahrida Shayxontoxur dahasi Darxon maxallasida ziyoli oilada tug'ildi.

Munavvarqori boshlang'ich ta'limni uyda onasi Hosiyatxon otindan oldi, so'ngra Toshkent va Buxorodagi madraealarda, keyin bir muncha vaqt Turkiyada o'qidi. Mehnat faoliyatini Toshkentda boshlab, 1919 yillarga qadarli davrda „Taraqqiy“, „Xurshid“, „Sur'at“, „Osiyo“, „Haqiqat“, „Najot“, „Kengash“ ro'znomalarini nashr etdi, „Najot“ va „Kengash“ ro'znomalarining muharriri bo'lib xizmat qildi.

Munavvarqori Toshkentda o'z uyida „Usuli jadid“ nomida yangi usul maktabini ochib, ona tili bilan birga dunyoviy fanlardan dars berdi, darslarning ko'rgazmali bo'lishiga, bilimni amaliyotga tatbiq etishga e'tibor berdi.

1908 yilda uning „Adibi avval“ ("Birinchi adibi), „Adibi soniy“ ("Ikkinchi adib") o'qish kitoblari, „Sabzavor“ (badiiy asarlar to'plami), „Yor yuzi“ (geografiyaga oid), „Tajvid“ (Qur'oni Karimni o'qish usuli yoritilgan) asarlari nashr etildi. Munavvarqori xalqning ozod va erkin yashashi, uni istiqbolga olib chiqish orzusida yashadi, kurashdi. U ulug' mutafakkir olim, ustoz sifatida xalq o'rgasida shuxrat qozondi.

Munavvarqori Abdurashidxonov 1937 qatag'on yillariking qurboni bo'ldi.

### **Munavvarqori ma'rifiy qarashlarining iazariy asosi**

Munavvarqori o'z pedagogik qarashlarida ta'lim-tarbiya va maorifni isloh qilish jamiyatda milliy rivojlanish va Vatanni bosqinchilardan ozod qilishning asosiy omili bo'lishi g'oyasini ilgari surdi.

Munavvarqori o'z pedagogik qarashlari va amaliy faoliyatida ta'limning demokratik asosda bo'lishini, o'quvchilarni aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan kamol toptirishni nazarda tutdi.

Munavvarqorining fikricha, yosh avlodni tarbiyalash bilangina millatni uyg'otish, Vatanni ozod qilish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish, turmushini farovonlashtirish mumkin.

Munavvarqori bolalar halbiga Vatan tuyg'usini singdirishni ularni fuqarolik burchlarini samimiy e'tiqod bilan ado etuvchilar qilib kamol toptirish omili hisobladi.

### **Munavvarqori ta'lim-tarbiya haqida**

Munavvarqorining fikricha, Vatanni sevish, uning gullab yashnashi uchun mehnat qilish va bilimlarni egallash shart. Bilimsizlik nodonlik, yalqovlik demakdir.

Adib yoshligidan bolalarda mehnatga qiziqish, Hayrat, jasorat fazilatlarini tarbiyalashni tavsiya etadi. U yoshlarni bu fazilatlarini egallashga chorlab dedi:

*Siz ham turing, ey o'rtoqlar,  
Yurt obro'sini yoshlar saqlar.  
Tirik bo'lsang, qo'zg'ol, o'roq,  
Qo'lga ishni tez ol, o'rtoq .*

Munavvarqori bolalar tarbiyasida faqat ota-onalar emas, balki muallim va keng jamoa javobgar ekanligini aytib, ulardan bolalarni axloqli qilib tarbiyalashni talab etdi. U yoshlarni bilimlarni puxta egallashga, mehnat qilishga umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo'lishga chorladi, ota-onalarni farzandlarida ma'naviyat, nafosat, go'zallik tuyg'usini rivojlantirishga da'vat qildi.

### **Abdulla Avloniy hayoti, ma'rifiy faoliyati**

Abdulla Avloniy 1879 yil 12 iyulda Toshkentda hunarmand oilasida tug'ildi, 7 yoshidan eski usul maktabda, 1890 yilda Shayxontoxurdagi madrasada o'qidi.

Avloniy 1907 yilda „Shuhrat“ gazetasining muharriri bo'lib ishladi. U 1904 yilda Mirobod, 1909 yilda Degrez mahallasida yangi usul maktabi ochib, dars beradi, 1921 yilda Toshkent o'lka bilim yurtida, 1923 yilda Toshkent xotin-qizlar bilim yurtida mudir, 1924 yilda harbiy maktabda, 1925-1930 yillarda O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi maktabida o'qituvchi bo'lib xiyumat qiladi.

1900-1917 yillarda uning „Birinchi muallim“, „Ikkinchi muallim“, „Turkiy Guliston yoxud axloq“, „Maktab gulistoni“ asarlari, „Adabiyot yoxud milliy she'rlar“ to'plami, 1933 yilda o'rta maktab 7-sinfi uchun „Adabiyot xrestomatiyasi“ nashr etiladi.

Avloniyga 1931 yilda professorlik unvoni beriladi. U 1925 yilda „Mehnat qahramoni“, 1930 yilda „O'zbekiston xalq maorifi zarbdori“ unvonlariga sazovor bo'ladi.

Avloniy 1934 yil 25 avgustda vafot etadi.

### **Avloniy pedagogik qarashlarining nazariy asosi**

Avloniy yaratgan asarlarda vatan, axloq, ona tili, mehnat haqidagi pedagogik g'oyalari ifodalangan.

Avloniyning ta'kidlashicha, vatan tuyg'usi eng insoniy, eng mo'tabar tuyg'udir. Vatan dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan Onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, ham-hasratini baham ko'rish -farzandning muqaddas burchidir.

Axloq tarbiyasi ijtimoiy ishdir. har bir xalqning taraqqiy qilishy, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jixdtdan bog'liqdir.

Tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining xalqiga bo'lgan muhabbatidir. har bir millatning dunyoda borliqin ko'rsatadurg'on oyinai hayoti, til va adabiyotidir.

Mexnat o'z nomi bilan mehnat, binobarin, mehnat kishidan kuch va iroda talab etadigan faoliyatdir.

### **Avloniy tarbiya, ta'lim haqida**

Avloniy axloq tarbiyasida Onaga, Vatanga muhabbat alohida o'rinda turishini uqtiradi.

Uning ta'kidlashicha, oilada o'sayotgan farzandlar o'rtasida onaning baxtiga sherik bo'lib, baxtsizligida yolg'iz tashlab ketadigan farzandlar ham topiladi. Shunga ko'ra, farzandlarni, Onaning baxti uchun, Vatanning fusunkor tabiatini, bog'larini xush

ko'radigan, tashvish va hamlarini bartaraf etish uchun kurashadigan qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berish kerak.

Avloniyning fikricha, til va so'z inson qadr-qimmatini belgilashda asosiy omildir. Uning uqtirishicha, so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadigan tarozisidir. Aql soxiblari kishining fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar.

Avloniyning uqtirishicha, odamlar umr bo'yi bir-birlari bilan aloqada, o'zaro munosabatda bo'ladilar. Rostgo'ylik, to'g'riso'zlik insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ham Avloniy rostgo'ylik va to'g'ri so'zlikni eng go'zal insoniy fazilat deb biladi.

### **Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti, ijodiy va pedagogik faoliyati**

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889 yilda Qo'qon shahrida tabib oilasida tug'ildi. U yoshlikdan o'qishga berilib, 12 yoshida xat savodli bo'ladi. 1906 yilda madrasaga kirib o'qidi, keyin mustaqil ravishda Lutfiy, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Muhimiy, Furqat asarlarini o'qib o'rgandi.

Hamza Hakimzoda 1911 yilda Qo'qonda Hojibek guzarida yangi usulda maktab ochib, o'qituvchi bo'lib ishladi. 1913-1914 yillarda Afg'oniston, Hindiston mamlakatlarida, Makka va Madina, Shom, Bayrut, Istanbul, Odessa shaharlarida safarda bo'ldi. Safardan qaytgach, 1915 yilda Shohimardonda maktab ochib, o'qituvchilikni davom ettirdi.

Hamza Hakimzoda pedagogik ish bilan birga, ijodiy ish bilan ham shuqullanib, 1915-1916 yillar davomida „Oq gul“, „qizil gul“, „Pushti gul“, „Sariq gul“ she'riy to'plamlarini, „Milliy roman yoxud yangi saodat“, „Zaharli hayot“ dramatik asarlarini yaratadi va ularda pedagogik g'oyalarini bayon etadi.

Hamza Hakimzoda Shohimardonda ma'rifat dushmanlari tomonidan 1929 yil 18 mart kuni o'ldiriladi.

### **Hamza Hakimzoda ma'rifiy-pedagogik qarashlarining nazariy asosi**

Hamza Hakimzoda o'z pedagogik qarashlarida xalq maorifini demokratik asosda qayta qurish, maorifning yangi tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. U o'z tajribasiga suyanan holda, bolalarni ilmi, odobli qilib tarbiyalash va xunarga o'rgatish, maktabda dunyoviy fanlar o'qitilish lozimligini aytdi. Uning fikricha, maktabda aqliy tarbiyada bolalar tabiat hodisalarini, ularning o'zaro bog'liqligini bilishi kerak. Axloqiy tarbiyada bolalarda insonparvarlik tuyg'usini rivoj toptirish lozim. Shundagina bolalar jamiyat va xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan bo'lib yetishadilar.

### **Hamza Hakimzoda ta'lim va tarbiya haqida**

Hamza Hakimzoda pedagogik qarashlarida oila muhitida bolani tarbiyalash masalasi alohida o'rinda turadi. Uning uqtirishicha, bola barkamol inson, go'zal axloqli bo'lib yetishishi uchun oilada sog'lom muxit, tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak. Shundagina oilada bola axloqli, go'zal xulqli, jamiyatga, xalqqa munosib farzand bo'lib yetishadi.

Hamza Hakimzoda bolalarni Onani xurmat qilishga da'vat qiladi. Zero, Ona ularning mehriboni, g'amxo'ridir.

### **Sadriddin Ayniy hayoti, ijtimoiy, ma'rifiy faoliyati**

Sadriddin Ayniy 1878 yilda Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi Sokarte qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. Shu qishloqdagi eski usul maktabda bilim oldi. Keyin 1890-1900 yillarda Buxoroda Mir Arab, Badalbek, Hoji Zohid madrasalarida



tahsil oladi. U 1909 yilda Buxoroda yangi usul maktabini ochadi, „Yoshlar tarbiyasi" nomida darslik yozadi. Ayniy 1917 yil inqilobidan keyin Samarqandga keladi, umrining oxirigacha shu shaharda yashadi.

Ayniyning 1924 yilda qizlar maktabi uchun „Qiz bola yoki Holida" darsligi, 1926-1954 yillarida „Tojik adabiyotidan namunalar", „Qul bola yoki ikki ozod" kabi qissa, hikoyalari, „Doxunda", „qullar", „Yetim, „Esdaliklar" asarlari nashr etiladi.

Sadriddin Ayniy 1943 yilda O'zbekiston fanlar akademiyasining faxriy a'zosi, Tojikiston fanlar akademiyasining akademigi etib saylanadi.

Ayniy 1946-1950 yillarda Samarqand davlat universitetida o'zbek adabiyoti kafedrasini mudiri bo'lib xizmat qiladi, o'zbek mumtoz adabiyotidan dars beradi. U o'zbek va tojik adabiyoti, ta'lim-tarbiya sohasidagi samarali xizmatlari uchun davlatning yuksak ordenlariga sazovor bo'ladi.

Ayniy 1954 yilda vafot etadi.

### **Ayniy ma'rifatparvarlik qarashlarining nazariy asosi**

Sadriddin Ayniy o'z ma'rifatparvarlik qarashlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. Uning fikricha, tarbiyaning asosiy maqsadi bolani vatanga, xalqqa sadoqatli qilib kamol toptirishdir. U ijodiy va ma'rifiy faoliyatlarida, o'qish kitoblarida bu g'oyani bolalar ongiga singdirishga harakat qildi. Ayniy xalqning aql-zakovatini, kuch-qudratini o'zaro do'stlikda, mehr-oqibatda ko'rdi, bolalarda xalqqa xos bu fazilatlarni tarkib toptirishga da'vat etdi.

### **Ayniy ta'lim, tarbiya haqida**

Ayniy axloqiy tarbiyalangan bola hech vaqt yolg'on gapirmasligini, hamma vaqt chin so'zli, sof vijdonli bo'lishini aytadi va saxiylik, xayrixohlik, kamtarlikni axloqiy fazilat hisoblaydi va tarbiyada bolalarda bu sifatlarni rivojlantirishni ukdiradi.

Ayniy axloq haqidagi qarashlarida kamtarlikni eng yuksak insoniy fazilat ekanligini alohida ta'kidlaydi. Uning uqtirishicha, bolalarni kamtarlik ruhida tarbiyalashda shaxsiy namuna, o'rnak bo'lish muham omildir. Ayniy mehnatni ulug'ladi, mehnat insonga hurmat, obro', baxt baxsh etishini ta'kidlab, oilada bolani yoshlik vaqtdan mehnatga ko'niktirish kerakligini aytadi. U mehnat haqidagi o'z fikrini „qiz bola yoki Holida" darsligida ifodalab, mehnatda qiz va o'qil bolalar o'rtasida hamkorlik, o'zaro ko'mak bo'lishini tavsiya etadi.

### **Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon hayoti va ma'rifatparvarlik faoliyati**

Abdulhamid Cho'lpon 1897 yilda Andijonda Qatorterak mahallasida hunarmand oilasida tug'ildi. U Andijonda eski maktabda o'qidi, tuzem maktabida o'qib, rus tilini to'liq o'rganadi, Andijon va Toshkentdagi madrasalarda tahsil ko'radi, arab va fors, turk tillarini mukammal egalladi. Cho'lpon butun umri davomida Firdavsiy, hofiz, Sa'diy, Umar Xayyom, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy kabi so'z san'atkorlarining asarlarini mutaola qiladi.

U 1914 yildan chiqqan boshlagan „Sadoi Turkiston", „Sadoi Farg'ona" gazetalarida o'z maqolalari bilan qatnashadi. 1920 yilga qadar „Ishtirokiyun", „qizil bayroq", „Turkiston", „Buxoro axboroti" gazetalarida mas'ul lavozimlarda xizmat qiladi.

Cho'lpon 20-yillarda „Uyg'onish", „Buloqlar", „Tong sirlari", „Soz" to'plamlarini e'lon qiladi, „Go'zal yozg'ichlar", „Adabiy parchalar" kitoblari nashr etiladi, 1926 yilda „Yorqinoy" dramasi alohida kitob tarzida chop etiladi.

Cho'lpon 1931-1935 yillarda Gorkiyning „Ona“, „Yegor Bulichev“, Pushkinning „Boris Godunov“, „Dubrovskiy“, Ejen Potening „Baynalminal“, Robindranat Tagorning „Hoy, yo'lovchi qiz“, Leonid Andreevning „Yetti osilgan hissasi“, Shekspirning „hamlet“ asarlarini o'zbek tiliga tarjima qiladi, 1936 yilda uning „Kecha va kunduz“ romani nashr etiladi.

Abdulhamid Cho'lpon millatchi, aksilinqilobchi deb ayblanib, 1938 yil 5 oktyabrda otishga xukm qilindi.

### **Cho'lpon ma'rifatparvarlik g'oyalari qarashlarining nazariy asosi**

Abdulhamid Cho'lpon jadidchilik g'oyalarining faol targ'ibotchisi sifatida o'z asarlarida ma'rifatparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini ifodaladi.

Cho'lpon o'zining ma'rifiy qarashlarida millatni har bir ijgimoiy hayotda yuz berayotgan voqealar mohiyatini aniq anglab olishga da'vat etadi, shunday qilgandagina chinakam ozodlik uchun kurashishda xatolik bo'lmasligini aytadi.

Cho'lpon ozodlik kurashi davom etishiga, xalqning erk uchun kurashib mustamlakachilarning yo'qotilishiga ishonadi. Uning fikricha, zulmkor kuchayib, insonlarga ega bo'lishi mumkin, ammo vijdonga ega bo'lolmaydi.

Faqat erkin vijdonlarga «ega bo'lmoq - mumkin emas deb uqtiradi shoir. U elni ko'ngil mulkidagi erkinlik uchun kurashgaundadi.

Cho'lponning ta'kidlashicha, ko'ngil erkinligini ta'minlashning o'zigina tugal maqsad bo'lolmaydi. Ko'ngil tashqi olam bilan bog'liq. Ko'ngilning yashnashi uchun yonib yashash, tashqi olamdan andoza olgan holda, ko'ngilni o'zgartirishga intilish kerak.

Cho'lpon zamondoshlariga xitob qilib deydi:

*Tiriksan, o'lmagansan,  
Sen-da odam, sen-da insonsan.  
Kishan kiyma, bo'yin egma,  
Ki sen ham xur tug'ilg'onsan.*

Cho'lpon xalqni dengiz, to'lqin, kuch deb his etadi. Xalq qo'zg'alsa, uni to'xtatuvchi kuch yo'qligiga ishonadi. Uning uqtirishicha, xalqning istagi o'z o'lkasining ozod bo'lishidir, xalq yurtini har bir narsa bilan to'ldirishga, o'zni to'q etishga qodirdir. Modomiki shunday ekan:

*Butun kuchni xalq ichidan olaylik,  
Quchog' ochib xalq ichiga boraylik! –*

deb o'z zamondoshlarini xalq bilan birga bo'lishga, maqsadlariga erishishiga ko'makdosh bo'lishga chorladi.

### **Abdulla Qodiriy hayoti va adabiy-ma'rifiy faoliyati**

O'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi Abdulla Qodiriy 1894 yilda dehqon oilasida tavallud topdi. Musulmon va rus-tuzem maktabida o'qidi, 1918-1924 yillarda Toshkent eski shahar ozuqa qo'mitasida sarkotib, „Oziq ishlari“ gazetasining muharriri, kasabalar uyushmasida sarkotib, „Inqilob“ majmuasida xodim, „Mushtum“ jurnalining tahrir hay'ati a'zosi bo'lib ishladi. 1925-1926 yillarda Moskvada Valeriy Bryusov nomli adabiyot institutida ta'lim oldi.

Abdulla Qodiriy 12 yoshidan ijodiy ish bilan shuquullandi. „Juvonboz kuyov“, „Baxtsiz kuyov“ dramalari, „Uloqda“ hikoyasi nashr etildi, „Kalvak mahzumning xotira daftaridan“, „Toshpo'lat tajang nima deydi“ turkumida satirik hikoyalari bosildi. 1926 yilda „O'tgan kunlar“, 1929 yilda „Mehrobdan chayon“ romanlari, 1934 yilda „Obid ketmon“ ocherki nashr etildi.

Abdulla Qodiriy N.V.Gogolning „Uylanish“, A.P.Chexovning „Xameleon“ asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. „To‘la ruscha-o‘zbekcha so‘zlik“ni tuzishda ishtirok etdi.

Atoqli adib Abdulla Qodiriy 1937-1938 qatag‘on yillarining kurboni bo‘ldi.

### **Qodiriy ma'rifatparvarlik qarashlarining nazariy asosi**

Abdulla Qodiriy o‘z ma'rifatparvarlik qarashlarida millatparvarlikni ulug‘ladi, har bir odam o‘z xalqi va vataniga xizmat qilishi, xalq va millat manfaatini o‘z manfaatidan yuqori qo‘yishi kerakligi g‘oyasini ilgari surdi. Adibning fikricha, har bir inson millatning bir qismidir. U o‘tganlar va kelgusi avlod oldida mas'uldir. U o‘zining kimligini, yashayotgan zaminiga, vatani

tuproqiga takror va takror yangi avlodlar kelishini unutmasligi kerak. Xalqqa musibat keltiruvchi fosiqlarga shafqatsiz bo‘lish lozim.

Abdulla Qodiriy bu g‘oyalarini „O‘tgan kunlar“ romanida Yusufbek hoji timsolida ifodaladi. Yusufbek hoji Azizbekka deydi: „Yurt yetmish kun hamal kechirdi. Onadan tug‘ma azoblar, ochliklar o‘tkirdi va o‘tkazmoqda. Menga qolsa bu kunlarda o‘ttiz ikki tanga emas, o‘ttiz ikki qora pul solish ham Og‘irdir. Yurt besh-o‘n kun orqa o‘ngini olsin“.

Abdulla Qodiriy xalq tinchligi, erkinligi uchun kurashgan odamlarni vijdonli, diyonatli, Hayratli inson ramzi sifatida ulug‘ladi. El-yurtda Yusufbek xrijdek insonlar bo‘lishiga ishonadi.

Hoji saroydak chiqib, ot ustida borar ekan, boishga tushishi mumkin bo‘lgan o‘limni ko‘z oldiga keltirgan holda, o‘zicha so‘zlab boradi «...Men qonho‘rlik uchun xudoning farz qilgan hajini ado qilmadim; oldimda o‘g‘lim bor, menda boshqalarning o‘g‘lini darraga yotqizish chog‘ida ko‘ndalang keladigan vijdon bor, din bor, diyonat bor».

Yusufbek hojining vijdoni pok, diyonatli ekanini yaxshi bilgan xalq, uning da'vati bilan kurashga otlanadi, adolatsiz Azizbekni oradan ko‘tarishga fотиha o‘qiydi, uni o‘limga mahkum etadi.

Abdulla Qodiriy insonparvarlikni oliy fazilat deb biladi. Yusufbek hoji Rajabbeknikida bo‘lib o‘tgan gaplar haqida so‘zlab, Otabekka deydi: „O‘z naslini o‘z quli bilan kofir qo‘liga tutqin qilib topshirquvchi -biz ko‘r va aqlsiz otalarga xudoning la'nati albatta, tushar o‘g‘lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun (dafn qilingan) Turkistonimizni... Temur Ko‘ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug‘bek va Abu Ali ibn Sino kabi olimlarning o‘sib-ungan va nash'unamo qilqanlari bir o‘lkani halokat chuquriga qarab sudraluvchi albatta, tangrining qahriga sazovordir, o‘g‘lim! Gunohsiz bechoralarni bo‘qizlab, bolalarni yetim, xonalarini vayron qilg‘uvchi zolimlar qurtlar va qushlar, yerdan o‘sib chiqqan giyoxlar qarg‘ishiga nishonadir, o‘g‘lim“

Abdulla Qodiriyning fikricha, adolat faqat davlat siyosatida emas, balki oila muhitida ham barqaror bo‘lishi kerak. Shundagina yurtda ham, oilada ham tinchlik, osoyishtalik, ahillik mustahkamlanadi, barqarorlashadi. Adib adolatni axloqiy boylik hisoblaydi.

## **1924-1991 yillarda va Istiqlol yillarida O`zbekistonda ta`lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji**

### **Reja:**

1. 1917 yildan milly mustaqillik e`lon qilungunga qadar pedagogika fani rivojining o`ziga xosligi
2. O`zbek ma`rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik merosining o`rganilishi
3. Mustaqillik yillarida ta`lim tizimidagi islohotlar
4. O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risidagi Qonuni" va "Kadrlar tayyorlash milli dasturi"
5. Prezident I. A. Karimovning ta`limiy islohotlarining ahamiyati

1917-1990 yillarda xukmronlik qilgan Sho`ro siyosatining fojiaiy mohiyatini chuqur his etgan Qori-Niyoziy, S.Rajabov, Sh.Zunnun, G'.G'ulom, Oybek, M.Shayxzoda, H.Olimjon, Zulfiya, P.Mo`min, E.Vohidov, A.Oripov va boshqa olim hamda adiblar mustabid tuzumning qabih siyosatiga bardosh bergan holda, o`z asarlarida erk, ozodlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini bayon etdilar. Ular jadidchilik harakati atoqli namoyandalarining zamondoshlari, izdoshlari sifatida ularning ma'rifatparvarlik, pedagogik g'oyalarini, nazariyalarini davom ettirdilar.

### **Qori-Niyoziy hayoti va ijtimoiy, marifiy faoliyati**

ToshMuhammad Niyoz o`g`li - Qori-Niyoziy 1897 yilda Xo`jand shahrida hunarmand oilasida tug`ildi. Boshlang`ich bilimni Xo`jandda eski usul maktabida oldi. Keyin Farg`onada rus-tuzem maktabida o`qidi. Sirdan Peterburgdagi „Krug samoobrazovaniya" nashriyotining tabiatshunoslik bo`limida o`qib, uni tugatgach, Farg`ona rus-tuzem maktab binosida o`zbek maktabini tashkil qildi. Farg`ona ta'lim-tarbiya texnikumida direktor bo`lib ishladi. 1926 yilda Toshkentda O`rta Osiyo davlat universitetining fizika-matematika fakultetiga o`qishga kirib, uni 1929 yilda tugatdi. 1931 yilga qadar shu universitetda o`qituvchi, professor, 1931-1933 yillarda rektor bo`lib xizmat qildi; 1934-1936 yillarda Toshkent davlat pedagogika instituti va boshqa oliy o`quv yurtlarida matematika kafedralarini boshqardi, 1937-1938 yillarda O`zbekiston Xalq Maorifi Komissari va Fanlar qo`mitasida prezidium raisi vazifalarini bajardi; 1939-1943 yillarda O`zbekiston xalq komissari soveti raisining o`rinbosari va Butunittifoq fanlar akademiyasining O`zbekiston filiali prezidiumining raisi (1940-43) bo`lib ishladi, 1943-1947 yillarda O`zbekiston Fanlar akademiyasida prezidentlik vazifasini bajardi. So`ngra 1960 yilga qadar Fanlar akademiyasi prezidiumining a'zosi, fizika-matematika bo`limi raisi bo`lib xizmat qildi.

Qori-Niyoziy 1917 yil inqilobidan keyin yangi turdagi maktablar ochishda faol ishtirok etdi, maktablar uchun qo`llanma, metodik tavsiyalar yozdi. U oliy matematikaga doir „Matematika analizining asosiy kursi" nomida darslik yaratdi. Uning „Ulug`bek va uning ilmiy merosi", „Sovet O`zbekistoni tarixidan ocherklar", „Bosib o`tilgan yo`l haqida mulohazalar", „hayot maktabi" kitoblari nashr etildi.

Qori-Niyoziyning ijtimoiy hayotda, maorif va ilm-fan sohasida qilgan xizmatlari davlatning yuqori ordenlari, Beruniy nomidagi O`zbekiston Respublikasi davlat mukofoti laureati unvoni bilan takdirlandi.

Qori-Niyoziy 1970 yilda vafot etdi.

### **Qori-Niyoziy ma'rifatparvarlik qarashlarining nazariy asosi**

Qori-Niyoziy o`z pedagogik qarashlarida ilm-fanni yuksak darajada ulug`lab, qadrladi. U deydi: „Fan - minglab yillar mobaynida zarrama-zarra, tomchilab

vujudga kelgan, asli tabiati musaffo va muazzam muhitdan iborat. Bu esa haqiqiy, chindan ham „obi hayot“ mux<sup>^</sup>idir, chunki hammamiz, katta-yu kichik, yoshu hari bu muhitdan kundalik hayotimizda bahramand bo'lib kelmoqdamiz. Shuning uchun fan, ayniqsa, xalq xizmatiga qaratilgan ilg'or fan cheksiz xurmatga sazovordir".

Qori-Niyoziyning fikricha, „haqiqiy fanning o'zi, uning asrlar mobaynida vujudga kelgan yakuni, poklikning, demak, axloqning yorqin namunasidir"1.

Qori-Niyoziyning uqtirishicha, axloq tushunchasi fan bilan o'zaro bog'liqdir. Shuning uchun ham fan axdlarining xalq oldida javobgarligi ham g'oyat darajada kattadir.

Qori-Niyoziyning ma'rifiy qarashlarida samimiyat va mantiq tushunchalarining fanniy asosda, ob'ektiv bo'lishi masalasi ham alohida o'rinda turadi. Olimning fikricha, haqiqiy fanning qonuniyatlari ob'ektiv bo'lib, ma'lum mantiqqa suyanadi. Shuning uchun fikr fanniy asosda ob'ektiv bo'lishi kerak.

### **Qori-Niyoziy ta'lim-tarbiya haqida**

Samimiylik insonning olijanob fazilatlaridan biridir. Samimiylik rostgo'ylik bilan uzviy bog'langan. Bu ikki tushuncha o'zaro uzviyligi bilan jamiyat ravnaqida, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Qori-Niyoziy joylarda ta'lim jarayonini kuzatishlarida o'qitishning muvaffaqiyati, asosan o'qitilayotgan fanga o'quvchilarni qiziqtirish ekanligiga ishonch hosil qilgan. „Men aminmanki, - deydi u, - har bir normal qobiliyat egasi bo'lgan kishi ham bu kabi natijaga ega bo'lishi mumkin. Buning asosiy sharti vaqtdan to'g'ri foydalanish yoki boshqacha qilib aytganda, kundalik sistemali ijodiy mexnatdan iborat.

Qori-Niyoziy ilm-fan aqlini har bir muammoni chidam, kuzatish, izlanish, mehnat bilan hal qilishga da'vat etadi, har bir muvaffaqiyat insonga quvonch baxsh etishini, kishining hayoti vaqt bilan bog'liq ekanligini, vaqt -sog'lik-salomatlikdan keyingi bebaho ne'mat ekanligini aytadi.

Demak, muvaffaqiyatlarga erishish uchun vaqt imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish kerak. Mavjud imkoniyatlar esa halol mexnat natijasida ro'yobga chiqadi.

Qori-Niyoziyning pedagogik qarashlarida baxt tushunchasi ham alohida o'rinda turadi. Qori-Niyoziy xalqning orzusi - baxt ekanligini ta'kidlar ekan, haqiqiy baxtning moxdyatini anglash - inson ongi, vijdoni va ma'naviy saviyasiga bog'liqligini aytadi. Olimning ta'kidlashicha, aql-idrokka suyangan holda, jon-dil bilan mehnat qilib, mustaqillikka, ozod-erkin hayotga muyassar bo'lish, bu - haqiqiy baxtdir.

### **Siddiq Rajabov Ijtimoiy, ilmiy-pedagogik faoliyati**

Siddiq Rajabov 1910 yilda Jambul shahrida hunarmand oilasida tug'ildi. Boshlang'ich maktabni tugatib, Farg'ona pedagogika bilim yurtida o'qidi, uni bitirgach, 1930 yilda Farg'ona pedagogika institutiga kirib, o'qishni davom ettirdi, 1933 yilda institutning adabiyot fakultetini tugalladi. Siddiq Rajabov 1935-1937 yillarda O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti xuzuridagi aspiranturada tahsil oldi, 1958 yilda „O'zbekistonda sovet maktabi tarixi“ mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Siddiq Rajabov mehnat faoliyatini 30-yillardan boshlab, u Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida Avg'onbog' mahallasida boshlang'ich maktab ochadi, maktabda o'qituvchi va mudir bo'lib xizmat qiladi. U O'zbekiston pedagogika

fanlari ilmiy tekshirish institutida ilmiy xodim va Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlada.

Siddiq Rajabov 1941-1943 yillarda „Sovet O'zbekistoni" gazetasi bosh redaktor o'rinbosari, bosh redaktori bo'lib xizmat qildi.

1947 yilda u Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti kafedrasining mudiri etib tayinlandi, 1961 yildan boshlab O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tekshirish instituti direktori, 1962 yilda pedagogika bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi birlashgan kengash raisi bo'lib xizmat qildi. 1966 yildan boshlab Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasini mudiri etib belgilanadi va umrining oxirigacha kafedrani boshqardi.

Siddiq Rajabov 1959 yilda RSFSR pedagogika fanlari akademiyasining muxbir a'zosi, 1968 yilda SSSR pedagogika fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi.

Siddiq Rajabovning xalq maorifi, pedagogika fani rivoji sohasida qilgan xizmatlari davlatning ordenlari, yuksak unvon va nishonlari bilan taqdirlandi.

Siddiq Rajabov 1993 yilda vafot etdi.

### **Siddiq Rajabov ilmiy-pedagogik qarashlarining nazariy asosi**

Siddiq Rajabov o'z ilmiy faoliyatida, asosan, O'zbekistonda xalq maorifining rivojiga, didaktik masalalarga, pedagogik kadrlar tayyorlashga, chet el ilg'or pedagogik fikrlarni targ'ib etishga, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berdi.

Bu haqdagi g'oyalarini „Pedagogika fani taraqqiyotining ba'zi masalalari", „O'zbekistonda sovet maktabi tarixiga doir" monografiya va risolalarida, „Oliy maktab didaktikasining masalalari", „Zamon va tarbiya", „O'zbekistonda pedagogika fanlarining taraqqiyoti istiqbollari" kabi tadqiqotlarida aks ettirdi.

„Oliy maktab didaktikasining ba'zi masalalari" ilmiy maqolasida u, yillar davomidagi izlanishlari, kuzatishlariga suyangan holda, ta'lim jarayonida: ilmiylik, uzviylik, nazariyaning amaliyot bilan birligi, o'qitishda ongliklik, shaxs va jamoa birligi, aniqlik va faraz birligi, bilimni puxta o'zlashtirish prinsiplariga amal qilish g'oyalarini ilgari surdi.

Siddiq Rajabov o'z ilmiy faoliyatida xorijiy mamlakat buyuk pedagoglaridan Komenskiy, Ushinskiy, L.Tolstoyning pedagogik qarashlarini tadqiq qilib, ilg'or fikrlaridan respublikada ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishni tavsiya etdi. 1991

yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqil deb e'lon qilingan kundan boshlab mustaqillikni, mamlakat farovonligini, xalqning tinchligini, osoyishtaligini saqlash asosiy maqsad, o'sib kelayotgan avlodga e'tibor ustuvor vazifa qilib qo'yildi.

1992 yilda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida"gi qonun asosida ishlab chiqilgan ta'lim tizimiga ko'ra:

- ta'limning uzluksiz bo'lishi o'zaro mutanosiblikda tashkil etilishi;
- ta'lim va tarbiyani kompleks ravishda uyushtirish;
- ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish;
- ta'lim sistemasini fan hamda ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashtirish;
- umumiy o'rta ta'lim negizida yoshlarni maxsus ta'lim muassasalarida o'qishga, mutaxassislikka, kasb-hunarga tayyorlash, deb belgilandi.

Respublikada amalga oshirilgan uzluksiz ta'lim barcha ta'lim bosqichlari: maktabgacha tarbiya, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim hamda oliy ta'lim turidan keyingi ta'lim turlari o'rtasida uzviylik o'zaro mutanosiblik bo'lishida,

ta'limni ilm-fan, ishlab chiqarish yutug'lari bilan bog'liq holda tashkil etishda muhim omil bo'ldi.

Tarbiyaga qamrovli yondashilganligi natijasida aqliy mehnat, axloqiy, nafosat va jismoniy tarbiya o'rtasida uzviilik mustahkamlana boshladi, o'quvchilar faoliyatining mazmunli bo'lishini, ta'limiy vazifalarning ham hamrovli tarzda amalga oshirilishini ta'minladi. Tarbiyaga hamrovli yondashish oila, maktab, jamoatchilik o'rtasida aloqani kuchaytirishda, bu aloqaning pedagogik xususiyat kasb etishida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Respublikada yaratilgan davlat standartlarida ularning ijtimoiy maqsadni ifoda etuvchi bo'lishiga e'tibor berildi, ularda mustaqillik davri talab etayotgan ta'lim mazmuni, usul va shakllari belgilandi.

Ta'limda qo'llangan test usuli iqtidorli bolalarni aniqlashga, ularning ilm-fan asoslarini egallashlarida muhim usul sifatida xizmat qildi.

### **1997-2005 yillarda maktab, ta'lim, tarbiya, pedagogik nazariya rivoji**

1997 yil 29-30 avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi chaqiriq IX sessiyasida Prezident Islom Karimov 1997 yilga qadar bo'lgan davrda ta'lim tizimida erishilgan yutug'larni qayd qilgan holda ta'lim sohasida qilinadigan ishlarni, kadrlar tayyorlash tizimida tub islohotlar qilish zarurligini aytdi va islohotlarni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatdi.

„Ta'lim to'g'risida“ qonun va „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ asosida respublikada amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyada tubdan, keskin o'zgarish bo'la boshladi. Bu qonun ba dastur yosh avlodni Vatanga sadoqatli, uning mustaqilligini asrab-avaylashga tayyor, keng tafakkurli, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, jismonan sog'lom, ma'naviy va madaniy, ma'rifiy jihatdan barkamol qilib yetishtirishda muhim omil bo'ldi.

Qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari aniq ko'rsatildi, ta'lim O'zbekiston Respubli-kasi ijtimoiy. taraqqiyoti sohasida ustivor ekanligi qayd qilingan holda, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iboratligi aytili:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-xunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabahalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda:

- o'quvchilarning bilim va qobiliyatlarini o'stirishga, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish ruhida tarbiyalashga, shaxs va jamiyat, jamoa o'rtalaridagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga, o'qituvchi bilan o'quvchi- ning o'zaro munosabatini „Ustoz va shogird“ asosida bo'lishiga;
- o'quvchilarda yuksak estetik his-tuyg'uni, bilim olish madaniyatini shakllantirishga, shaxsiy va ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishga, tarbiyalashning ustivor yo'nalishlarini o'z ichiga olgan ta'lim-tarbiya dasturlarini takomillashtirishga;

- uzluksiz ta'lim tizimiga ta'limni differentsiatsiyalash prinsip va mexanizmlarini joriy etishga;
- o'quvchilar, umuman, yoshlarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishga, buning milliy va umuminsoniy qadriyatlar aks ettirilgan o'quv qo'llanmalar, badiiy asar yaratishga;
- ta'lim-tarbiyada san'at asarlari - adabiyot va tasvi-riy, amaliy san'at namunalaridan foydalanishga ahamiyat berildi.

Uzluksiz ta'lim:

- ta'limning ustuvorligi - rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzligi;
- demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarish davlat jamiyat tizimiga o'tkazilganligi;
- insonparvarlashuvi - inson qobiliyatlarini ochish va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman
- ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muxltning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirish;
- ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- milliy yo'naltirilishi - ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatni saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muxim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;
- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirish;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish asosida tashkil etildi va rivojlantirildi.

Milliy dasturda qo'yilgan maqsadni - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish uchun respublikada quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- „Ta'lim to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta'lim tizimi isloh qilindi, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirila boshlandi;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlan-gan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirildi;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomi ko'tarildi;
- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmuni mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutug'lari asosida rivojlantirilmoqda;
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda usullari ishlab chiqildi;



- ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyalash-tirilmoqda, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatining davlat talablari darajasida bo'lishi shakllarining mexanizmi ishlab chiqildi;
- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlik rivojlantirilmoqda.

„Ta'lim to'g'risidaigi qonunda ta'lim turlari: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy, oliy o'quv yurtidan keyingi, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limdan iborat qilib belgalandi.

Maktabgacha ta'limda bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olibborildi.

Umumiy o'rta ta'lim: boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar); umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar)dan iborat bo'ldi;

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratildi. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilindi. Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmi berildi, mus-tahil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy taj-riba ko'nikmalari rivojlantirildi, kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam berdi.

O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash xuko'qiga ega bo'ldi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga egallagan kasb-xunari bo'yicha ishlash xo'qo'qi berildi, ular o'z bilimlarini navbatdagi bosqichda davom etgarish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini ham egallamoqdalar.

Akademik litseyda o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirib, ular uch yil davomida chuqurlashtirilgan bilim olmoqdalar.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblari bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurti bo'ldi.

O'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim turini tamomlagan bitiruvchilarga o'rta maxsus ma'lumoti haqida diplom topshirilishi belgilandi.

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar: bakalavr va magistrlar tayyorlashni ta'minlamoqda.

Umuman, ta'limning yangi tizimini tashkil qilgan barcha o'quv maskanlarida asosiy e'tibor o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini hosil qilishga, egallagan ko'nikmalarini tajribada namoyon etishlariga, o'z Vatanining fidoiysi sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda ishtirok etishga, mamlakat taqdiri uchun o'z zimmasiga mas'uliyat olishga qaratildi, shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoit yaratildi.

Respublikada tarbiya mazmuni, shakli tubdan o'zgardi, tarbiyaviy ishlar aniq maqsad tomon yo'naltirildi, bu jarayonda sub'ektlarning o'zaro samarali hamkorlikda bo'lishlari uchun uzviylikda bo'lgan tarbiya shakli, vosita va usullari ishlab chiqildi, amaliyotga tatbiq etildi. O'Quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs

qilib yetishtirishda milliy madaniyat, ma'naviyat, ilg'or milliy an'ana, urf-odat va milliy va umumbashariy qadriyatlar asos bo'ldi.

Respublikamiz mustaqilligi davrida ta'lim, tarbiya sohasida, pedagogik nazariya rivojida Prezident Islom Karimovning barcha anjumanlarda qilgan ma'ruzalarida ilgari surgan, bayon qilgan ma'rifiy g'oyalari asosiy omil bo'ldi, milliy urf-odat, an'analarni, qadriyatlarni tadqiq etish, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan benazir ta'limotlarni chuqur egallashni, qatag'on yillari qurboni bo'lganlar ruhini shod etishni ta'minladi.

Islom Karimov Oliy Majlis birinchi sessiyasi ikkinchi yiqilishida «... bu dunyoda hamma narsa o'tkinchidir. Amal ham, mol-dunyo ham, shon-shuhrat ham o'tib ketadi, faqat xalq, xalqning xotirasi doimo yashaydi. Shunday ekan, har bir inson ana shu xalq xotirasida o'zidan yaxshi nom, ezgu va savobli ishlar qoldirishi haqida o'ylashi kerak.

Bizning zahmatkash va olijanob xalqimiz bugun sizni bizdan - o'zi ishonch bildirgan insonlardan shunday amaliy harakatlarni kutmoqda", ekanligini ta'kidladi.

Islom Karimov ma'naviy barkamollik, yaratuvchilikni ulug' fazilat hisoblaydi, ana shunday fazilatga ega bo'lmaslikni xiyonat deb biladi. „Inson axloqi, - deydi Islom Karimov, - shunchaki salom-alik, xushmuomalilikdan iborat emas. Axloq - bu avvalo, insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani. Manfaatparastlik yo'lida qilingan har bir ish u qanchalik balandparvoz ta'rif tavsiflarga o'ralmasin, Fatvolar to'qib chiqarmasin, baribir Vatanga hiyonatdir".

Islom Karimov odamlarni benazir zot Alisher Navoiydan ibrat olib, yetim-yesir, beva-bechora, nogiron va muhtojlarga muruvvat ko'rsatishga, el-yurt maktablar, shifoxona, bog'-roqlar bunyod etishga, ilm-fan va madaniyat axlining chinakam homiysi bo'l ishga da'vat etdi.

Islom Karimov: „Nogironlarni to'laqonli faol hayotga qaytarish uchun ularning jismoniy imkoniyatlarini xisobga olib, o'qitish, qayta o'qitish va ishga joylashtirishni tashkil etish lozimligini ta'kiddadi.

Islom Karimov diyorimizda yetishgan buyuk allomalarning islom nazariyasi, falsafasi, madaniyati rivojiga qo'shgan benazir hissalarini, qoldirgan meroslarini chuqur o'rganish, uni mujassamlashtirib, xalqimizga eng avvalo, yosh avlodga yetkazish Islom universiteti talabalari uchun ham qarz, ham farz ekanini aytib, ularni ana shu vazifani ado etadigan komil inson bo'lib yetishishga da'vat etdi.

Islom Karimov „Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqida «... ozod va erkin Vatan uchun jon bergan shahidlar ruhi oldida bosh egib, ularga o'z hurmat-ehtiromimizni bajo etamyz. Mana shu joydagi minglab insonlarning shu kungacha chirqirab yotgan ruhi poklari bugun barchamizdan, ezgu ishlarimizdan rozi bo'lib, shoyad orom topgan bo'lsa ajab emas», - deb, odamlarni Vatan va xalq baxt-saodati uchun jon fido qilganlar ruhini doimo shod etishga chorladi.

Islom Karimovning ta'kiddashicha, respublikada, hayotimizdagi barcha sohalarda amalga oshiriladigan vazifalar kadrlarga bog'liqdir, shu sababli ham farzandlarimiz, nabiralarimiz oldidagi asosiy burchimiz ularni ertangi murakkab, suronli hayotga tayyorlashdan iboratdir. Prezidentning uqtirishicha, farzandlarimizni bizdan ko'ra bilimli, kuchli, dono va, albatta, baxtli qilishdek ezgu maqsad har birimizning hayotimiz mazmuniga aylanishi darkor.

Islom Karimov yana shuni aytadiki, haqiqatdan ham o'z farzandlarimiz va nabiralarimiz bilan faxrlanishni istasak, ular zamonaviy bilim va tajribaga ega,

iymonli, e'tiqodli bo'lishlariga, Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizning ishlarini davom ettirishlariga ishonishimiz lozim.

Ashar Zunnunov, Malla Ochilov, Shavkat qurbonov, Muhammad Quronov, Rustam Aqliddinov, Safo Ochil, Sanobar Nishonova, Oynisa Musurmonova, Ulfat Mahkamov, Edem Seytxalilov kabi pedagog olimlar bu masalalarni jiddiy tadqiq etib, XXI asrga qadarli pedagogik nazariyaning rivojii o'z tadqiqotlarida yoritmoqdalar.

## **XIX asrning 2-yarmi- XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji.**

### **K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi**

#### **REJA:**

1. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya mazmuni
2. Qadimgi Xitoyda ta'lim-tarbiya
3. Aristotel va Konfutsining hayoti, pedagogik faoliyati
4. G'arbiy Yevropa mamalakatlarida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya mazmuni
5. Ya. A. Komenskiy, K. D. Ushinskiylarning pedagogik merosi, pedagogik merosi

#### **Tayanch tushunchalar:**

Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlari, Xitoyda ta'lim-tarbiya, Aristotel hayoti, pedagogik faoliyati, G'arbiy Yevropa mamalatlari, Ya. A. Komenskiy, K. D. Ushinskiylarning pedagogik merosi, Sparta va Afina davlati.

Yunonistonda miloddan oldingi V asrlarda bolalar guruh-guruh qilib o'qitila boshlandi, shu zaylda maktab tarkib topdi. Ta'limda bolani munosib fuqaro qilib tayyorlash, axloqli qilib yetishtirish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Yunonistonda Sparta va Afina davlatida ta'lim va tarbiya o'ziga xos tartibda amalga oshirildi.

Spartada davlat tarbiya tizimi tarkib topishi bilan tarbiyaning maqsadi o'qil bolalarni baquvvat va chiniqqan jangchi qilib yetishtirishdan iborat bo'ldi. Davlat bola tug'ilgan kunidan boshlab, ularning oilada tarbiyalanishini nazorat qilib bordi, kichik bolalarni enaga-kanizaklar yordamida onalari tarbiyaladilar.

O'gil bolalar 7 yoshdan 18 yoshgacha maxsus tarbiya muassasalari –agellarda o'qidilar. Agellarda ta'lim bolalarni yozish va hisobga o'rgatishdan iborat bo'ldi. Bolalarda savollarga aniq va qisqa javob berish malakasini rivojlantirishga e'tibor berildi. Tarbiya butun jamoaning ishi hisoblanadi, lashkarboshilar, davlat arboblari bolalar bilan axloqiy va siyosiy mavzularda suhbatlar o'tkazib turdilar.

18 dan 20 yoshgacha bo'lgan yigitlar efebiyada maxsus harbiy tayyorgarlikdan o'tdilar, so'ngra qo'shin safiga o'tdilar va to'la huquqli fuqaro hisoblandilar.

Qizlar uyda tarbiyalandilar, tarbiyada ularning ham jismonan sog'lom bo'lishlariga, harbiy tayyorgarlikka ega bo'lib yetishuvlariga e'tibor berildi.

Afinada miloddan oldingi U asrlarda falsafa, san'at, adabiyot, pedagogika rivojlandi.

Afinada aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya hamrovli ravishda – uzviy birlikda amalga oshiriladi, asosiy e'tibor bolani ma'naviy va axloqiy jihatdan kamol topgan inson qilib yetishtirishga qaratiladi.

Bolalarni 7 yoshgacha oilada enaga tarbiyaladi, enaga bolalarga badiiy asarlarni o'qib beradi, ular bilan turli o'yinlar o'tkazadi, musiqa eshittiradi.

Bolalar 7 yoshdan boshlab turli xil maktablarda o'qiydilar, 13 yoshdan 14 yoshgacha grammatist yoki kifarist maktabida ta'lim oladilar, grammatist maktabda o'qish, yozish va sanashni o'rganadilar.

Kifarist maktabida o'qil bolalarga adabiy ma'lumot, estetik tarbiya beriladi, ular ashula aytishga, notiqlik san'atini, musiqa asboblarni chalishni o'rganadilar.

Palestda deb atalagan o'quv yurtida o'qigan bolalar, asosan, jismoniy mashq bilan shuqullandilar, ular bilan siyosiy, axloqiy mavzularda suhbatlar o'tkazildi.

Afinada qul egalari o'z bolalarini gimnaziyalarda o'qitdilar. Bolalarga falsafa, adabiyotdan ta'lim berildi, ular davlatni boshqarishga o'rgatildi. 18 yoshga yetganlarida harbiy-jismoniy tayyorgarlikni davom ettirdilar.

Umuman, Afinada tarbiya tizimi jismoniy mehnatdan iborat bo'ldi. Qadimgi Yunonistonda pedagogik nazariya pedagogik falsafaning uzviy qismi sifatida rivojlandi, Suqrot, Platon, Demokrit, Aristotel va boshqa mutafakkirlar ta'limotida muhim o'rinni egalladi.

Bu mutafakkirlar ta'lim-tarbiya nazariyasini ishlab chiqdilar. Yunonistondagi pedagogik ta'limot rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

### **Aristotel hayoti, pedagogik faoliyati**

Aristotel – Arastu qadimgi yunon falsafasi va fani taraqqiyotida yangi davr yaratgan buyuk mutafakkir. Arastu miloddan avval 384 yilda Stagar shahrida tabib oilasida tug'ildi.

Aristotel 20 yil davomida Afina shahridagi Platon akademiyasida ta'lim oladi, 343 yilda Makedoniya taxtining vorisi Aleksandr Makedonskiyning tarbiyachisi bo'lib xizmat qiladi, 335 yilda Afinada Likey nomida shaxsiy maktabini tashkil etadi. U mantiq ilmiga oid „Kategoriyalar“, „Talqin haqida“, „Birinchi va ikkinchi analitika“, „Tonika“, biologiyaga doir „Jon to'g'risida“, „hayvonlar tarixi“, „Hayvonlarning kelib chiqishi“, falsafaga doir „Matematika“, axloqqa oid „Nikomax etikasi“, „Endem etikasi“, ijtimoiy-siyosiy va tarixiy masalalarga oid „Politika“, „Politiya“, san'at, poetika va ritorikaga doir „Ritorika“, „Poetika“ asarlarini yozadi. U yaratgan bu ilmiy asarlar antik dunyoning eng ulug' yutug'i sifatida ma'naviy madaniyat rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Aristotel 322 yilda vafot etadi.

### **Aristotel pedagogik qarashlarining nazariy asosi**

Aristotel o'zining axloqqa oid asarlarida tarbiyaning maqsadi tabiat bilan bog'liq bo'lgan insonni tadrijiy rivojlantirishdan iborat, deb biladi, aql va irodani rivojlantirish muhim ekanligini aytadi. Uning ta'limotiga ko'ra, bolalarning yosh xususiyati hisobga olingan holda, jismoniy, axloqiy va aqliy, tarbiya uzviy birlikda amalga oshirilishi kerak.

Aristotel tarbiya muddatini 21 yil: bola tug'ilgandan 7 yoshgacha, 7 yoshdan 14 yoshgacha, 14 yoshdan 21 yoshgacha deb belgiladi. U bolaning har bir davrdagi o'ziga xos xususiyatini ko'rsatdi, har bir davrda amalga oshiriladigan tarbiyaning maqsadi, mazmuni va usullarini bayon etdi.

Aristotel bolalarni maktabgacha yoshda tarbiyalashga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, bolani o'rgatish mumkin bo'lgan barcha narsaga go'dakligidan o'rgatish kerak. Bola 7 yoshgacha oilada tarbiyalanishi lozim. 7 yoshgacha bo'lgan davr o'sish davri hisoblanadi. Shunga ko'ra, birinchi navbatda, ularni jismonan rivojlantirishga e'tibor beriladi. Bu yoshdagi bolalarni o'z vaqtida ovqatlantirish, harakatda bo'lishlariga e'tibor berish, chiniqtirish zarur. Bolalar yoshlariga mos o'yinlar bilan shuqullanishi kerak. Ularga ertak va xdaoyalar aytib berish orqali nutkdarini o'stirish, 5 yoshdan boshlab ularga oilada maktabga tayyorlanishi lozim. Bola 7 yoshdan boshlab davlat xuzuridagi maktablarda o'qishii kerak.

Aristotel bola tarbiyasi davlat ixtiyorida va barcha fuqarolar uchun bir xilda bo'lishini himoya qiladi. Chunki davlat tarbiyada o'z oldiga aniq bir maqsadni qo'yadi. Shuning uchun ham tarbiyaga, o'z hohishiga ko'ra o'qitish va tarbiyalashni istagan ota-onalar emas, davlat Rahbarlik qilishi kerak. Har bir fuqaro o'z-o'zicha yashamaydi, u barcha fuqaro kabi shu davlatga mansubdir, davlatning uzviy bo'lagidir. Davlat unga g'amxo'rlik qiladi.

Fuqaro faqat o'z shaxsiy ishi bilan shuqullanmay, fuqarolarning tinchlikda yashashi, farovonligi yo'lida faoliyat ko'rsatishi kerak.

Aristotelning ta'kidlashicha, „bola 5 yoshdan boshlab 7 yoshgacha kelgusida o'rganishi zarur bo'lgan fanlar bo'yicha darslarga qatnashishi kerak“. Bu o'quv predmetlari ona tili (qoidalar – grammatikaning asosi), gimnastika, musiqa va rasmdir. Tarbiya gimnastikaga bog'liq holda boshlanadi. Ammo bunda, jismoniy tarbiyaga haddan tashqari berilib ketmaslik kerak. Tarbiyaning maqsadi bolani o'z bo'sh vaqtini ongli ravishda o'tkazishga o'rgatishdir.

Musiqa bu maqsadga erishtiruvchi muhim vositadir. Musiqa faqat ongli ko'ngil ochishga emas, insonning axloqiy sifatiga ham ta'sir etadi. Chunki musiqada inson xulqi, orzu-umidlari mavjuddir.

Aristotel do'st orttirish, do'stlarga nisbatan shafqatli va marhamatli bo'lishga da'vat etadi. Uning ta'kidlashicha, kishi iloji boricha o'ziga dushman orttirmasligi kerak. Dushmanlik ko'rsatganga marhamat nazari bilan qarashi, dilozor bo'lmasligi kerak. Shundagina u do'stlari qatoridan joy oladi. Do'stlarni shafqat va marhamat bilan sarofroz qilish lozim, shunda ular samimiy do'st bo'lib qoladilar. Yolg'onchi kishidan vafo kutmaslik kerak. Kishining asli pok bo'lsa, u odam elga manfaat yetkazadi.

## **Qadimgi Xitoyda ta'lim-tarbiya**

Xitoyda falsafa miloddan avval VI-V asrlarda paydo bo'lib, falsafiy tafakkur konfuksiylilik, legizm, maoizm taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu ta'limotlar, asosan, axloqiy-siyosiy xususiyatga ega bo'lgan. Mamlakatda davlat qurilishini qayta qurish, idora tizimini yaxshilashga bo'lgan xdrakat tufayli falsafa ham siyosiy tus oldi. Mana shu harakat jarayonida Konfutsi o'z ta'limotlari bilan siyosat maydoniga chiqdi. Uning ta'limotlari „Lun oy“ („Suhbat va muhokamalar“) asarida bayon qilindi, rivojlantirildi, keyinchalik rasmiy ideologiyaga aylandi.

Asosiy negizi „Dao de szin“ va „Chjuan-tszi“ asar-larida aks ettirilgan dosizm ta'limotida inson faoliyatini cheklab qo'yadigan har qanday qonun'va qoidalar qoralanadi, sivilizatsiya yutug'paridan voz kechish targ'ib etiladi, tabiat va olam sharaflanadi, kishilar tabiiylikka chaqiriladi.

Konfutsilik – qadimgi Xitoyda yuzaga kelgan axloqiy-siyosiy ta’limot. Uning asoschisi Konfutsidir.

Konfutsi va uning ta’limotini himoya qilganlar insonparvarlikka erishish uchun har bir kishi xulq-odob me’yoriga amal qilgan holda, o’z-o’zini tarbiyalash, shu asosda ma’naviy kamolotga erishish g’oyasini targ’ib qilganlar. Konfutsi ta’limotiga ko’ra, insonparvarlikka faqat jamiyatning yuqori tabaqa vakillari, mumtoz kishilargina erishishi mumkin.

### **Konfutsining hayot, pedagogik faoliyati**

Konfutsi (Kuntszi) – Xitoyning taniqli mutafakkiri. U eramizdan oldin 551 yilda kambahal oilada tug’ildi. Yoshligidan yetimlikda o’sadi, Lu podsholigida kichik bir mansabda ishlaydi, qobiliyatli xizmatchi sifatida taniladi.

Konfutsi siyosiy hayotda ham ishtirok etadi. Mamlakat bo’ylab safarlarda bo’ladi, xalq hayoti bilan yaqindan tanishadi, turli toifa odamlar bilan uchrashadi, suhbatda bo’ladi. Oradan 14 yil o’tgach, safardan qaytib, qolgan umrini siyosiy hayotdan chetda, o’z shogirdlari, izdoshlari bilan birlikda o’tkazadi. U davlat idoralarida ishlamagan holda, xalq orasida katta shuhrat qozonadi.

Konfutsi Xitoyda maktab tuzdi. Miloddan avval 136 yilda U Di xukmronlik qilgan davrda Konfutsi qarashlari rasmiy ravishda ta’limot-tizim deb e’lon qilindi. Shundan keyin Konfutsi ta’limoti ikki ming yildan ortiq vaqt mobaynida xukmron ideologiya sifatida davom etdi.

Konfutsi eramizdan oldin 479 yilda vafot etadi. Uning ta’limotini shogirdlari davom ettiradilar.

### **Konfutsi pedagogik qarashlarining nazariy asosi**

O’rta asrda Xitoy bilan chegaradosh bo’lgan Yaponiya, Koreya, Vetnam davlati xalqi Konfutsi ta’limoti ta’sirida bo’ladi. Konfutsining davlatni axloq qoidalari asosida boshqarish haqidagi ta’limoti uning siyosiy g’oyalarining asosiy negizidir. Konfutsining ta’kidlashicha, axloq qoidalariga asoslangan davlatni boshqaruvini qo’llash va himoya qilish kerak. Buning uchun nomlar o’zgartirilishi lozim. Davlatni shafqat, sahovat bilan boshqarish yaxshi usuldir.

Konfutsining uqtirishicha, davlatni boshqaruvchi sahovatli, ezgu niyatli bo’lishi kerak, axloqiy jihatdan qayta tarbiyalangan boshqaruvchigina yoruh yulduz bo’la oladi. Yulduzlar yoruh yulduzni o’rab olgani kabi xalq uning atrofida” bo’ladi. O’zini tuta bilish, axloq qoidalariga rioya qilish –Konfutsining „insoniy sevgi”, „o’zini tuta bilish” haqidagi ta’limotining asosiy mazmunidir. Konfutsining fikricha, har bir inson o’zidan boshqa odamlarni sevmasa, u axloq qoidalariga rioya qila olmaydi, axloq qoidalariga to’g’ri munosabatda bo’la olmaydi.

Konfutsi ta’limoticha, kichiklarning ota-ona va akalarga doimo xurmatda bo’lishi insonni sevishning asosidir. Insonparvarlik odamlarga muhabbat demakdir. Faqat insonparvargina odamlarny seva oladi, sevish va nafratlanish xislataga ega bo’ladi.

Demak, Konfutsining fikricha, barcha odamlarni sevish, ularga bir xil munosabatda bo’lish ham mumkin emas. Konfutsi „hurmatli”, „muruvvatli”, „to’g’ri so’zli”, „o’tkir zehnlilik” va „Rahimdillik” fazilatlariga ega bo’lganlarni insonparvar hisoblaydi. Konfutsi davlatni shunday odamlar boshqarishini talab etadi. Uning ta’kidlashicha, muruvvatli Rahbargina xalq hurmatiga sazovor bo’ladi, xalqning xurmati uning zafarlarga erishuvini ta’minlaydi.

Konfutsining axloqiy-g’oyaviy qarashlarida davlatni boshqarishda xalqni qadrlash muhim o’rinda turadi. Uning fikricha, xalqqa muruvvat bilan Rahbarlik

qilish, oldin uni boyitish, so'ngra uni insonparvarlikka o'rgatish kerak. Shunda insonparvarlikda xalqni qadrlash namoyon bo'ladi.

### **Konfutsi ta'lim-tarbiya haqida**

Konfutsi umri davomida, asosan, o'qituvchilik bilan shuqullandi. U o'qituvchilik faoliyatida o'qish, o'rganish bilan bilimlarni egallashga e'tibor berdi. Uning ta'kidlashicha, bola jiddiy va sabot bilan mehnat qilish orqali bilimlarni egallashi, ko'p tinglashi, eshitganlaridan eng muhmini bilib olishi va unga rioya qilishi kerak.

Bola ko'p narsani ko'rishi va ko'rganini xotirasida saqlashi lozim.

Konfutsining uqtirishicha, insonda qobiliyat, donolik va aql o'qish, o'rganish, ko'rish, mehnat orqali rivoj topadi. Konfutsi faqat yaxshi odamdan emas, balki yomondan ham o'rganishni tavsiya etadi.

U ta'limdagina o'qish va fikrlash, o'ylash muhim o'rinda turishini aytadi. Uningcha, o'qimaslik va fikr yuritmaslik, bu –halokatdir. O'qilgan kitob haqida fikr qilinmasa, bunday kishning foydasi bo'lmaydi, bunday o'qish kishini toliqtiradi. Konfutsi o'z tajribasini umumlashtirar ekan, butun kun bo'yi ovqatlanmay, tun bo'yi uxlamay, o'qigani haqida o'ylaganini, lekin bundan foyda bo'lmaganini aytadi. Shunga ko'ra, Konfutsi o'qishni o'ylash, fikrlash bilan uzviy birlikda, o'z vaqtida amalga oshirishni tavsiya etadi.

Konfutsi ta'limotiga ko'ra, o'qishda amalda qo'llash zarur bo'lganni aniqlab olish g'oyat muhamdir. Konfutsi kitobni o'qish va o'qilganni vaqti-vaqti bilan takrorlash kerakligini ukdiradi.

Uning ta'kidlashicha, kishining odamlarga munosabati uning maqtovgga sazovor bo'lgan ishlarida yorqin ko'rinadi. Kimdir maqtalsa, u xayotda amalda sinab ko'riladi, yaxshi g'lunosabati bilan boshqalar uchun namuna bo'ladi. Bu fikrlar ham Konfutsining bilimni amalda sinab ko'rish g'oyalarining ifodasidir.

Konfutsi, o'zining pedagogik faoliyatida tajribaga alohida e'tibor berdi. Uning fikricha, kishi nimanidir biladi va bilganini hisoblaydi. Bilmasa hisoblay olmaydi. Bu – bilimga to'g'ri munosabatdir. O'qituvchi to'rt narsadan –quruq foydasiz fikrlashdan, o'z mulohazasida qat'iy turib olishdan, qaysarlik qilishdan, faqat o'zi haqida o'ylashdan saqlanishi kerak. Buning ma'nosi sof ko'ngil bilan munosabatda bo'lish, shaxsiyatga berilmaslik va qaysarlik qilmaslikdir.

Konfutsining uqtirishicha, sof ko'ngilli odam odamlarning so'ziga qarab emas, harakatiga qaraydi, lekin yaxshi so'zlarini ma'qullaydi. Bu bilan Konfutsi odamni va uning so'zlarini taxlil qilish mohiyatini bilib olishi kerakligini ta'kiddaydi.

Konfutsi ikki yuzlamachilikni sahovatlikning dushmani deb biladi. Uning fikricha, ikki yuzlamachi odamlar orasida go'yo to'g'ri yo'lda borayotgandek bo'ladi, haqiqatda esa, axloqiy qoidani buzadi. Shuning uchun ikki yuzlamachilar „past odam“lardir. Konfutsi do'st tanlashdan oldin uni sinab ko'rishni tavsiya etadi.

Umuman, Konfutsining g'oyaviy-axloqiy, ma'rifiy va anglash, bilish haqidagi g'oyalari pedagogik nazariya rivojiga qo'shilgan muhim hissadir.

Buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy 1592 yilda Chex diniy jamoasida tegirmonchi oilasida tug'ildi, jamoadagi maktabda o'qidi.

Komenskiy ota-onasidan erta judo bo'ladi, jamoa a'zolarining yordami bilan universitetga kirib, o'qishni tamomlagandan keyin, Fulkenns shahridagi hardoshlik maktabida o'qituvchi bo'lib xizmat qiladi. So'ngra mahalliy jamoada Rahbarlik vazifasida ishladi, ilmiy ishlar bilan shuqullanib, chex tilining xususiyatlarini, xalq

og'zaki ijodini o'rganadi, hardoshlik maktablaridagi o'qitish mazmuni va usullarini takomillashtirish ustida ish olib boradi. 1628 yilda chex xalqi bilan birga Polshaning Leshno shahriga ko'chib keladi, bu shaharda ham hardoshlik maktabini ochib, o'qituvchi bo'lib ishladi, o'ziga olamshumul shuhrat keltirgan „Buyuk didaktika” va „Onalar maktabi” asarlarini nashr qildiradi. Bu davrda u tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar entsiklopediyasi – „Pansofiya”ni yaratish ustida ish olib boradi.

Komenskiy 1641 yilda ingliz olimlarining taklifiga binoan Londonga boradi, katta tantana bilan kutib olinadi. U Shvetsiya va Vengriyada bo'lganda ham maktablarni isloh qilish bilan shuquullanadi, „Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlarini” darsligini, „Insoniy ishlarni tuzatish haqida umumiy maslaqatlar” asarlarini yozadi.

Komenskiy 1670 yilda vafot etadi.

### **Y.A.Komenskiy pedagogik qarashlarining nazariy asosi**

Y.A.Komenskiy o'zining „Buyuk didaktika”, „Umumjamiyat donoligi haqida bashorat”, „Insoniy ishlarni tuzatish haqida umumiy maslahat”, „Tabiiy ne'matlarning madaniyligi haqida” va boshqa asarlarida o'z pedagogik nazariyasining asosini tashkil etuvchi atrof-muhit, inson, tabiat, insoniy fazilat va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini ifodaladi.

Komenskiyning uqtirishicha, insonning bilishga intilishi tug'ma hususiyatdir. Halb insoniy ruhning bir qismi sifatida olamni bilish qobiliyatiga- egadir. Olimning fikricha, insonda bilish jarayoni his qilishdan boshlanadi. His qilish natijasida qabul qilib olgan narsalarini ongida qayta ishlab, taqlil qiladi, umumlashtiradi va mavhumlashtiradi. So'ngra ularni o'zining shaxsiy va boshqalar sinovidan o'tkazadi. Bilganlari amaliyotda tasdiqlansa, u haqiqiy va foydali bo'ladi.

Komenskiy olamni bir butunlikda bilish kerakligini ta'kidlaydi: inson, avvalo, mavjud narsalarni bilishi (tushinishi), keyin ularning o'ziga xosligini va bu xoslik sabablarini aniqlashi, bilganlarini amaliyotga tatbiq etishi lozim.

Komenskiy tabiatni anglashni pedagogikaning asosi hisobladi. Uning fikricha, tabiat yagona borliq, unda barcha narsa maqsadga muvofiq tarzda amalga oshadi, uvda tuyg'unlik va o'zaro uzviylik mavjud, barcha narsa asta-sekin yuzaga keladi, tabiatdagi hamma narsa foydali.

Inson tarbiyasi ham xuddi shunday tabiiy tarzda amalga oshirilmohi lozim. Inson aslida tabiatning uzviy bir qismidir. U tabiatning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi va shu tabiiy qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Har bir bolaning hayot bosqichlari ham, shunday tabiiy qonuniyatlarga ega. Bolani tarbiyalashda uning tabiati hisobga olinishi kerak.

Komenskiy – demokrat olim. Uning nazdida, inson boy yoki kambahal bo'lishidan qat'i nazar, tabiiy qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi, shaxs darajasiga ko'tarilmohi lozim.

Komenskiyning ta'kidlashicha, xalqning extiyoji ta'lim va tarbiyaga doir ishlarni belgilaydi. Demokratizm, insonparvarlik, xalqchilik – Komenskiy pedagogik nazariyasining eng asosiy qirrasidir.

### **Komenskiy ta'lim, tarbiya haqida**

Komenskiy o'zining „Buyuk didaktika” asarida ta'lim bir butun pedagogika ekanini, ta'lim va tarbiyadan tashkil topganini aytib, pedagogik bilim ota-onalarga ham, o'qituvchilarga ham, o'quvchilarga ham, maktab, davlat, cherkov uchun kerakligini ta'kidlaydi.

Komenskiy asarda ta'lim oldiga quyidagi 4 ta talabni



qo'yadi:

1. O'qitishning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, o'quvchilarni so'zdan oldin buyumni bilishga o'rgatish; o'qitishda oddiydan murakkabga o'tish; muayyan yoshdagi o'quvchilar mo'ljallangan darslik asosida bilim berish kerak.
2. O'qitish yengil (oson) bo'lishi uchun bola yoshligidan o'qitilishi; o'qitishda yengildan murakkabga o'tish; umumiydan xususiyya o'tish; o'quvchini bilim bilan haddsan tashqari band qilib qo'ymaslik, shoshmasdan asta-sekin ilgari borish; maktabda o'rganilganni hayot bilan bog'lash kerak.
3. O'qitish asosli bo'lishi uchun o'quvchi foydali narsa bilan shuqullanishi, keyingi mashqulot oldingi mashqulotga asoslanishi; o'rganilgan barcha materiallar o'zaro uzviy, o'zaro bog'langan bo'lishi, mashqdar bilan mustahkamlanishi lozim.
4. O'qitish tezlikda bo'lishi uchun o'qitilganlar asosli, qisqa va aniq bo'lishi; mashqulotlar uzluksizlikda, bugun berilgan bilim kelgusi mashqulotda mustahkamlanishi, o'qituvchi sinf mashqulotini barcha o'qituvchilar bilan o'tkazishi kerak.

Komenskiyning uqtirishicha, bilim o'quvchilarga tushunarli bo'lgandagina mashqlar foydali bo'ladi. Xotirada mustahkamlangan va puxta tushunilgan narsalargina ongta kuchli ta'sir etadi. Bilimni tushunish uchun, avvalo, uni his qilish kerak. Hissiyot aqlni ilm tomon yo'lga boshlaydi. His qilish o'zlashtirish mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Demak, bilimni mustahkam o'zlashtirilishiga erishish uchun, avvalo. O'quvchilarning hissiy idrok etishini ta'minlash kerak.

Komenskiy bilimni o'zlashtirishning mustahkam bo'lishi uchun mustaqillik va faollik asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi.

Komenskiyning ta'kidlashicha, o'qitish, bu – o'quvchilar ongiga bilimlarni tiqishtirish emas, balki ularda bilimlarni tushunish layoqatini shakllantirishdir. O'qitish –matnlarni o'qitib, ularni yodlatish emas, balki sinov-tajribalar orqali, fan qonun-qoidalari , asosida chiqarilgan xulosalarni o'quvchilar ongiga singdirishdir.

Har bir o'quvchi o'z hissiyotiga suyangan holda bilishni o'zi o'rganishi, mustaqil fikrlab o'zlashtirgan bilimlarini hayotga tatbiq etishi kerak. O'qituvchi nimani o'rgatsa, o'quvchi uni o'zi uchun kerakligini his etsin. Ta'limda o'quvchi mustaqil bo'lgandagina, unda o'quv fanlarini o'rganishga mehr, qiziqish rivojlanadi.

Y.A.Komenskiy pedagogik ta'limotning ahamiyati buyuk slavyan pedagogi o'z faoliyatida maktabda umumiy ta'lim berish g'oyasini ilgari suradi va bu ishning mohiyatini asoslab beradi. Komenskiy o'z davriga xos ilg'or ta'lim va tarbiya tajribalarni umumlashtirib, birinchi marta xalq maorifining yagona tizimini ilmiy ravishda ishlab chiqadi. Bu tizim demokratizm ruhi bilan suqorilgan bo'lib, ommaning bilimga intilishini aks ettiradi.

A.Y.Komenskiy ta'lim tarbiya haqida bildirgan nazariy fikrlari bilan pedagogik nazariyaning rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

### **Jan Jak Russo hayoti, pedagogik faoliyati**

Jan Jak Russo 1712 yilda Jenevada hunarmand-soatsoz oilasida tug'ildi. U yoshlik va o'smirlik yillarida izchillikda bilim olmadi, ko'p vaqtini Fransiya va Shveysariyada o'tkazdi, turli hunarlarni o'rganishga urindi. 30 yoshga to'lgan paytida Parijga kelib, o'sha davr adib va faylasuflari, tabiatshunoslari bilan tanishdi, muloqotda bo'ldi. 1754 yilda u „Odamlar orasida tengsizlikning kelib chiqishi“, 1762

yilda „Ijtimoiy shartnoma” asarlarini yozdi. Russo bu asarlarida inson huquqini himoya qiladi, davlat xalqga xizmat qilishi kerakligi g’oyasini ilgari surdi.

Russo 1762 yilda yaratgan „Emil yoki tarbiya to’grisida” nomli romanida ozod yangi odamni tarbiyalash yo’llarini ko’rsatdi.

Russo 1778 yilda Parijda vafot etdi.

### **Russo pedagogik qarashlarining nazariy asosi**

Russoning pedagogik nazariyasi quyidagi fikrlarida aniq ifodalatadi:

- Inson tug’ilishdan yaxshilikka moyil va baxtli bo’lishga tayyordir, u tabiiy xususiyatlari bilan yaratilgan va tarbiyaning vazifasi – boladagi tabiiy xususiyatlarni saqlash hamda rivojlantirishdan iborat.
- Tabiiy (haqiqiy) tarbiya tabiat tomonidan amalga oshiriladi, tabiat – eng buyuk ustoz, bolani o’rab turgan borliq uning uchun darslik vazifasini bajaradi. Tabiat dars beradi, odamlar emas. Bolaning sezuvchanlik tajribasi odamni anglash asosida yuzaga keladi, uning asosida tarbiyalanuvchining o’zi fanni yaratadi.
- Erkinlik – tabiiy tarbiyaning asosiy vositasidir, bola belgilab berilgan, buyurilgan ishni emas, o’zi xoxdagan ishni qilishi lozim.
- Lekin u tarbiyachi undan nimani xoxdaganini bilishni istaydi.
- Tarbiyachi bolaga sezdirmay unda mashqulotlarga qiziqishni, o’qishga ishtiyoqni uyg’otadi.
- Bolani hech narsani: fanni ham, axloqiy tartib qoidalarni ham bilishga zo’rلامaslik kerak. Uning o’zi qiziqish bilan xulosalarni shakllantirgan tajribani egallaydi. 4
- Hissiy bilish va tajriba ilmiy bilimlarning manbai bo’lib qoladi va tafakkurning rivojlanishiga olib keladi.
- Tayyor bilimlarni zo’r berib tiqishtirish emas, balki bola ongini va bilimini mustaqil egallash layoqatini rivojlantirish – o’qitishda yetakchi vazifa bo’lmohi lozim.
- Tarbiya o’ta nozik ish, kuch ishlatish emas, balki tarbiya-lanuvchini erkin faoliyatga yo’llash, undagi tabiiy xususiyat va imkoniyatlarni rivojlantirishdir.
- Russoning pedagogik nazariyasi muallifning o’zi tasavvur qilgan darajada keng yoyiladi, ta’lim-tarbiya amaliyotida qo’llandi.

### **Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlarida xalq ta’limi va pedagogika fani**

#### **Reja:**

1. Rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimi
2. Pedagogika fanining jahon mamlakatlari ijtimoiy fanlar tizimidagi o’rni
3. AQSh ta’lim tizimining yetakchi an`analari
4. Yaponiya ta’lim tizimining o`ziga xos jihatlari
5. Angliya ta’lim tizimining ustuvor yo`nalishlari

#### **Tayanch tushunchalar:**

Rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimi, Xorijiy mamlakatlar, AQSh ta’lim tizimi, Yaponiya ta’lim tizimi, Angliya ta’lim tizimi

Xorijiy mamlakatlarda XX asr boshlarida maktablarning rivojlanishiga pedagogik nazariyaning ma'lum darajada ta'siri bo'ldi. Maktablarda avvallari bolalarda mustaqil fikrlashni o'stirishga emas, asosiy e'tibor ularning tayyor bilimni o'zlashtirishlariga qaratilgan edi. Maktablarda amalga oshirilayotgan bu ta'lim usuli jamiyat talablariga javob bermadi. Shunga ko'ra, ilg'or fikrli pedagoglar ta'lim jarayonida bolalarni doimiy suratda faol ishtirok ettirish, ularda bilimga qiziqish xossini rivojlantirish, ularni tayyor bilim bilan ta'minlash emas, ularda bilimni mustaqil ravishda egallash hissini tarbiyalash nazariyasi ilgari surdsh&r. Bu g'oya ilg'or o'qituvchilar tajriba- sida sinab ko'rildi, ta'limda bu g'oyaning ma'qulligi ma'lum bo'ldi. XX asr boshlarida Angliyada bu nazariya asosida turli xil maktablarda mdshqulotlar tashkil qilindi, nazariya-ning ma'qulligi yana bir bor tasdikdandi, ta'limda test usuli asosiy o'rinni egalladi. Test yordamida bolaning aqliy rivojlanish darajasi aniqlandi. Test asosida o'tkazilgan sinovlar natijasiga ko'ra, boshlang'ich maktablarda bolalar guruxdarga bo'lindi, turli xil dastur bo'yicha dars o'tkazildi, guruxdar o'rtasida sezilarli farq borligi bilindi, 11-12 yoshdagi bolalar guruxdarga bo'linishlaridan qat'iy nazar, yuqori sinflarda, turli o'quv yurtlarda o'qishi mumkinligiga ishonch hosil qilindi.

Amerikada ta'lim-tarbiya jarayoni -5 yoshlilardan boshlanadi. 5 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash ota-onalar va bolalar bog'chalarining vazifasi hisoblanadi.

Boshlang'ich maktablarning asosiy vazifasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga to'laqonli bilim, ta'lim berish, ularning umuminsoniy, axloqiy hislatlarga ega bo'lib shakllanishini ta'minlashdan iborat bo'ldi.

Amerika maktablarida o'qish har bir o'quvchi uchun faxr-iftixor bo'lishiga, o'quvchida o'z bilimi imkoniyatiga ishonch hissini tarbiyalashga katta e'tibor beriladi. O'quvchilarni maktabdan bezdirish, ularni darslarga ishtiyocsiz va loqayd bo'lib qolishlari favqulodda salbiy holat hisoblanadi.

Amerikada to'la o'rta maktab sirasiga 10, 11, 12-sinflar kiradi. 7, 8, 9-sinflarni aksariyat holda, quyi o'rta maktab deb ham yuritiladi. quyi o'rta maktab kursini muvaffaqiyatli o'taganlar yuqori bosqichga - to'laqonli o'rta maktabga qabul qilinadilar.

O'quvchilar ma'lum bir sinfni, kurs yoki maktabni bitirishda test sinovlari totpshiradilar.

O'rta maktablarda o'quvchilarga o'zlari tanlagan yo'nalishlariga mos holda fanlarni tanlashda ma'lum erkinlik beriladi.

O'rta maktab o'quvchilari kundalik faoliyatlarida ma'lum vaqtda kutubxonada, laboratoriya, tajriba uchastkalari, amaliyot uchun mo'ljallangan joylarda bo'ladilar. 10, 11, 12-sinflarda maktabning oila bilan hamkorligi, ayniqsa, kuchayadi. Chunki ayni shu bosqichda o'quvchilarning kasbkorlarga moyilligi to'la qaror topadi.

Amerikada har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari yakunlangan attestat beriladi. Maktablar ta'limida elektron yozuv apparatlari, ta'lim televideniyesi, qo'lda ko'tarib yuradigan elektron til laboratoriyasi, slaydlar, videoapparatlar, kompyuterdan asosiy vosita sifatida foydalaniladi.

Yaponiyada ta'lim tizimlarining tarkibi: bolalar bog'chalari, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'limdan iborat.

Bolalar bog'chalariga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar.

Majburiy ta'limga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinib, ular 6 yillik boshlang'ich maktab va 3 yillik kichik o'rta,maktab kursini o'taydilar. 9 yillik bu

ta'lim majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladilar. Ota-onalar o'z bolalarini xususiy maktablarga berish xuquqiga ham egadirlar.

Yuqori bosqich o'rta maktabida kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlari mavjud. Kunduzgi yuqori bosqich maktablarida o'qish muddati 3 yil. Bu turdagi maktablarda o'qish ixtiyoriydir. Bu yuqori bosqich o'rta maktablarga kirish sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar qabul qilinadi. Unda umumiy ta'lim (akademik) fanlari, texnik bilimlar, tijorat, mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik, kemasozlik va boshqa sohalarga oid bilimlar o'rgatiladi.

Dorilfununlar, kichik kollejlari, texnik kollejlari, maxsus ixtisoslashtirilgan kollejlari Yaponiyada oliy ta'lim tizimini tashkil etadi.

Yaponiyada boshlang'ich, o'rta va oliy o'quv yurtlaridan tashqari, «Ixtisos maktablari» hamda «turli» maktablar mavjud. Ularning ko'pchiligi xususiy bo'lib, turli firma, kontsern va sindikatlar uchun qisqa muddatli kurslarda tikuvchi, oshpaz, hisobchi, mashinkada yozuvchi, avtotexnik, elektron hisoblash mashinalari uchun dastur tuzuvchilar va boshqa zaruriy kasb o'rgatiladi. Yaponiyada ham turli xorijiy tillarni o'rgatishga ixtisoslashgan maktablar mavjud.

Yaponiya maktablarida asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyatiga va darslikka qaratilgan, o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasida jonli muloqot muhim ahamiyatga ega.

Yaponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolalarning sara maktablarda puxta bilim olishlariga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Bolalar tarbiyasida onalarning mavqei va mas'uliyati, ayniqsa, kattadir. Ular farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini mas'ul deb xisoblaydilar.

Yaponlar to'g'ri va halol turmush tarzini qadrlaydilar. 1-sinf dan to 9-sinf gacha axloq tarbiyasi maktab faoliyatida zaruriy shartdir.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka va omilkorlikka o'rgatish, munosib kasbkorga ega qilishdan iboratdir.

Maktablar davlat, xususiy, oraliq maktablariga (bo'linadi. O'qitiladigan predmetlar ichida Fransuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo'lib, ularga ajratilgan vaqt umumiy vaqtning 30 foizini tashkil etadi. O'quv rejasidagi 45 foiz darslar gumanitar yzshalishd^i, qolganlari tabiiy fanlardir.

Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqich «Onalar maktabi» deb ham yuritiladi, ta'limda bolalarning maktabda o'qitishga tayyorlash muhim masala hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktablarda o'qish majburiy va bepuldir.

Boshlang'ich maktab bosqichiga qo'yilgan asosiy talab o'quvchilarga ifodali o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflarda o'qish muddati 5 yil bo'lib, shu muddat ichida o'qish, asosan, 3 bosqichga bo'linadi:

- Tayyorlov bosqichi - 1 yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'yinga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashqul bo'lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqa va mehnatga o'rgatiladi;

- Navbatdagi bosqich - elementar kurs bo'lib, bu bosqichda o'qish 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklidagi predmetlar bo'yicha olgan bilimlari yanada takomillashtiriladi;

- Boshlang'ich maktabning 3 bosqichi - chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi.

Fransiyada maktablarning boshlang'ich bosqichida «Grajdanlik ta'limi», «Nafosat ta'limi» ham o'qitiladi. Nafosat ta'limiga musiqa, tasviriy san'at, sport kiritilgan.

O'quvchilar bilan individual ishlash, ularni rag'batlantirish, shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ta'limda uzluksizlik hamda vorislikni ta'minlab borish boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yilgan bosh talabdir. O'qituvchi faoliyatiga keng erkinliklar ham beriladi, uning pedagogik mas'uliyatini oshiradi.

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belagilaydi. O'qituvchi bolalar bilimiga to'la mas'ul bo'lib, uning uslub tanlashiga, mustaqil harakat qilishiga ham to'la erkinliklar beriladi.

O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab, o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim kollejlari va litseylarda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim 2 bosqichda beriladi. Birinchi bosqich (11 yoshdan 15 yoshgacha) 4 yil bo'lib, kichik, katta sinf hisoblanadi.

O'quvchilar bosqichni tugatgach, kasbiy yo'nalishlar bo'yicha guvoynoma oladilar. Shundan keyin o'quvchilar 15 yoshdan 18 yoshgacha ta'lim oladilar. O'qish 3 yil davom etadi: 2-sinf kichik, 1-sinf o'rta va yakunlovchi sinf hisoblanadi.

O'quvchilar umumiy ta'lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so'ng bakalavr unvoni va diplom uchun imtixon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo'lganlarga oliy o'quv yurtlariga kirish huquqiga ega bo'ladilar.

Germaniya ta'lim tizimida maktabgacha tarbiya tizimi muhim bosqich hisoblanadi. Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lib, 12 yil davom etadi. Germaniyada boshlang'ich maktabda o'qish 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi.

O'quvchilar boshlang'ich maktabda to'la to'rt yil o'qigandan keyin turli yo'nalishdagi maktabga o'tadilar, bu maktablar asosiy maxsus maktab, real bilim yurti, gimnaziya va umum -ta'lim maktablardir.

Bolalar maktabda 9 yoki 10 yillik o'qishni tugatganlaridan keyin kasbiy tayyorgarlikka o'tadilar, maktabni muvaffaqiyatli tugatganlar xunarmandchilik va sanoat korxonalarida turli kasbni egallashlari mumkin. Asosiy maktabda hamma xorijiy til (asosan, ingliz tili)ni o'rganadilar, ta'limning samarali bo'lishiga ahamiyat beriladi.

Germaniyada real bilim yurti asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o'rtasidagi o'quv yurti hisoblanadi. qoidaga ko'ra, bu bilim yurtida o'qish 6 yil davom etadi (5-sinfdan 10-sinfgacha), o'quvchilar to'la o'rta ma'lumotga ega bo'ladilar.

Bilim yurtini tugatganlar maxsus o'rta o'quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o'qish huquqiga ega bo'ladilar. Ikkisodiyot yoki davlat xizmatida o'rtacha mansabni egallaydilar.

To'qqiz yillik gimnaziya (o'qish 5-13 yillik) Germaniyadagi yuqori bosqich, an'anaviy maktab hisoblanadi. Germaniyada maxsus tipdagi, masalan, iqtisodiy, politexnik va boshqa gimnaziyalar ham mavjud. Gimnaziyaning bitirganligi haqidagi yetuklik attestati oliy o'quv yurtida o'qish imkoniyatini beradi.

Umuman, Amerika, Yaponiya, Fransiya va Germaniya mamlakatlarida ta'lim-tarbiyadagi tajribalarda mustaqil O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan va erishilgan yutug'larga o'xshash jihatlar borligi yorqin ko'rinadi. Bu - respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida jahon andozalariga mos tarzda amalga oshirilayotganligiga yorqin dalildir.

# FOYDALANISH TAVSIYAs ETILADIGAN O'QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

## I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
3. Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston", 2018. – 80 b.

## II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni

## III. Maxsus adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. "Casestudy" uslubi: nazariya, amaliyot, tajriba. – T.: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2012.
2. Abdullaeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish. – Farg'ona: FarDU, 2008.
3. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. – T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. 2006.
5. Zunnunov A. va boshqalar. Pedagogika tarixi / –T.: SHarq, 2000.
6. Ibragimov X.I., Abdullaeva SH.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2004.
7. Ibragimov X.I., Abdullaeva SH.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2004.

8. Ishmuhamedov R., Abduqarodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2009.
9. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar.– T.: “Moliyaiqtisod” nashriyoti, 2009.
10. Yo'ldoshev J.G'. Xorijda ta'lim. –T.: SHarq, 1995.
11. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A. B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari .- T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
12. Muxina S.A., Solovyova A.A. Sovremennye innovatsionnye texnologii obucheniya. – M.: “GEOTAR-Mediya”, 2008.
13. Muxamedov O'. X., Usmonboeva M. H., Rustamov S. S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar.o'quvslubiy tavsiyalar.- – T.: 2012.
14. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009.
15. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari . - T.: 2008.
16. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
17. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat . –T.: TDPU, 2005.
18. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi.– T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.
19. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: “Tafakkur-bo'stoni” nashriyoti. 2011.
20. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi . -T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
21. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma.– Toshkent: “Fan”, 2006.

#### **IV. Elektron ta'lim resurslari**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
3. Xalq ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi:[www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
5. Ijtimoiy axborot ta'lim portali: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



